


**G.R.RAHMONBERDIYEV,  
M.T.PRIMQULOV,  
Y.U.T.TOSHIPO'LATOV**

**QOG'OZ  
TEXNOLOGIYASINING  
ASOSLARI**





C 76

R - 57

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

G'.R.RAHMONBERDIYEV, M.T.PRIMQULOV  
YU.T.TOSHPO'LATOV

**QOG'OZ  
TEXNOLOGIYASINING  
ASOSLARI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT-2009



**G·R.Rahmonberdiyev, M.T.Primqulov, Yu.T.Toshpo'latov.**  
**Qog'oz texnologiyasining asoslari. — T., «Aloqachi», 2009,**  
**404 bet.**

Ushbu darslikda qog'oz olish texnologiyasining asoslari yoritilgan: xomashyo, qog'oz massasini tayyorlash, qog'oz polotnosini shakllash, uni quritish, ishlov berish, olingan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari hamda qog'oz olishda qo'llaniladigan suvning turlarini tayyorlash, suv sarfini kamaytirish usullari, oqova suvlarni tozalash yo'llari keltirilgan.

Kimyo texnologiya mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga va selluloza-qog'oz olish korxonalarida xizmat qila-yotgan muhandis-texnik xodimlariga mo'ljallangan. Shu bilan birga «Kimiyoiv texnologiya» va «Sanoat ekologiyasi» fanlaridan pedagogika institutlari talabalari va o'qituvchilari uchun ham foydali hisoblanadi.

**Taqrizchilar:** **A.S.TO'RAYEV** — kimyo fanlari doktori, professor;  
**R.S. SAYFUTDINOV** — texnika fanlari doktori, professor.

**ISBN 978-9943-326-44-6**

©«Aloqachi» nashriyoti, 2009.

## SO'Z BOSHI

Qog'oz qadim zamonlardan buyon insoniyatni o'ziga maftun qilib kelgan. Qog'oz (bumaga) — ital. Bambagia, grekcha babakion — paxta demakdir.

Birinchi bo'lib qog'oz ishlab chiqarish Xitoyda, eramizdan biroz oldin o'zlashtirilgan. Xomashyo sifatida avval ipak tolalari, keyinchalik tut daraxtidan olingan lub, kanop tolalari, bambuk va boshqa tabiiy tolalar ishlatilgan. Tabiat va inson qo'li bilan yaratilgan bu qog'oz o'zining ajoyib xususiyatlari bilan bizning zamonamizda ham bebaho material sifatida insoniyatga xizmat qilib kelmoqda.

Bizning hududimizda esa birinchi bo'lib qog'oz ishlab chiqarish Samarqand shahrida, 751-yildan boshlangan.

Mazkur hunarmandchilik sohasining rivojlanishiga mamlakatimiz hududida yetishib chiqqan qog'ozgir (qog'ozchi, qog'ozrez) ustalar katta hissa qo'shganlar. Bionabarin, bu sohani atroflicha o'rganish tariximiz va madaniyatimizning ko'pgina muammolarini hal etishda asqotadi. Darvoqe, qog'ozgirlikning yuzaga kelishi uchun muayyan shart-sharoitlar, amaliy bilim hamda tajriba bo'lishi lozim. Eng avval o'sha makkonda qog'oz ishlash uchun zaruriy xomashyo, maxsus qozonlar bo'lmos'i kerak. Bunday imkoniyatlar hamma joyda ham muhayyo bo'lgan emas, albattra. Shuning uchun qog'oz ishlab chiqarish turli mamlakatlarda, turli davrlarda va ko'lamlarda yuzaga keldi.

Mashxur ajdodlarimiz Moti Chandr, Mustafo Ali Chalabiy, Sodiqbek Afshorlarning yozishicha, ko'hna Samarqandda VIII asr o'rtilariga kelib, qog'oz tayyorlash keng rivoj topgan edi. Bu davrda Samarqandda qog'oz kitob tayyorlangan. Shaharning

qog'ozchilik ustaxonasida ishlangan qog'oz sifati xususida Sulton Ali Mashhadiy, Ibn al-Faqiq, al-Hamadoniy, Abu Mansur Saolibiylarning yozma manbalarida ham munosabat bildirilgan. Jumladan, Abu Mansur Saolibiy hazratlari: «Samarqandga xos narsalardan biri uning qog'izi bo'lib, bu qog'oz Misr qog'ozidan ustun turadi. Bu qog'oz juda chiroyli, nozik, nafis va yozish uchun juda qulaydir», deb yozadilar.

Qog'ozning kashf etilishi kitob va kitobatchilik san'ati tarixida, savodxonlik borasida yangi davrni ochdi. Arablarning O'rta Osiyodagi istilosiga qadar ko'p nodir kitoblar saqlangan kutubxonalar bo'lган. Qog'ozning sharofati bilan tarixchi, kotib, qog'ozchi, muqovasoz (sahhof), kitob varaqlariga jilo beruvchi (lavoh va shu kabi) kasb sohiblari yetishdi. Ayniqsa, nafis kitob yaratish o'ta murakkab, u qog'ozrez (qog'oz tayyorlovchi, qog'ozgir)ning mehnati, mahorati va malakasi bilan chambarchas bog'liq edi.

Mashhur Samarqand qog'ozlari silsilasida Ali Afandi «Manoqibi hunarvoron» asarida «xatma», «sultoniy» va «nuhaar» degan nomlarni keltiradi. Bu nomlar qog'oz tayyorlash texnologiyasi bilan bog'liq. Moziyda qo'li gul qog'ozchi ustalar mos paxta tołasi va paxta momig'idan xomashyo tariqasida foydalanib, xatma qog'oz tolasidan esa haririy qog'oz ishlagan. Kitobchilarga yana suvbelgili sultoniy va nuhayar qog'ozlar ham maxsus tayyorlab berilgan. Har bir kitob qog'ozidan muqovasiga, siyohidan to bo'yoqlari-yu zarhalligicha ma'lum me'yorda modda, reja, tartibot asosida tayyorlangan, hatto, kitobning qog'oz varaqlaridan hidi kelib turish uchun ba'zan siyohga gulob yoki anbar qo'shilar edi. Shunday qilib, qog'ozgirlik o'ziga xos san'at darajasiga yetkazilgan.

Xomashyo begona aralashmalardan tozalangach, maxsus ishlangan parraklarda maydalangach, objuvoz bilan harakatga keltirilib bo'tqa hosil etilgan. Suyuq bo'tqa maromiga yetkazilgach, boshqa idishga quyib olinib, sariq tusdag'i bo'yoq bilan aralashtirilgan. So'ngra kunni tunga ulab kamida 5000 marta

tepkilab, chiya o'simligi va ot qilidan yasalgan to'rda suzilib olingach, yapasqi og'ir yuk ostiga bostirib qo'yilgan. Nihoyat, qog'oz ashyosi (selluloza) qog'oz shakliga keltirilgach, nam holda yoyib tekis sathda quritilgan. Bir qog'ozgir usta o'z ustaxonasida tunu kun ishlab atigi 300 varaq qog'oz tayyorlagan. Yil davomida ular 7 oy mehnat qilib, shu vaqt mobaynida buyurtmachilarga jami 25000 varaq atrofida qog'oz tayyorlab berishgan.

Temuriylar hukmronligi davrida, shunday usulda qog'oz ishlab chiqarish alohida o'rin tutgan. Shahar yaqinidagi Qorasuv arig'i sohilida qog'oz ishlab chiqariladigan maxsus objuvoz va korxona bo'lganligi ma'lum. Bu yerda eskirgan bo'z kiyim, latta va paxtalardan qog'ozbop bo'tqa xomashyosi tayyorlab, varaqlar qo'yilgan, so'ngra ularga qo'lda mohirona sayqal berilgan. 1460-yillarda bu ustaxonalar hazrat Xo'ja Ahror vali mulkiga aylangan (jadvalga qarang).

Yillar	Qog'oz ishlab chiqaruvchi ustaxonalar
751	Samarqand shahrida birinchi qog'oz ishlash ustaxonasi ishga tushgan.
1420– 1470	Kashmir hukmdori Zaynul Obiddin Samarqand ustaxonalarida qog'oz olish bilan shug'ullanuvchi ustalardan bir guruhini Kashmirliga olib borib qog'oz ishlashni yo'lga qo'ygan.
1450	Samarqanddagi qog'oz ustaxonalari Xo'ja Ahror vali mulkiga aylangan.
1520	Samarqand qog'oz ustaxonasi Qorasuv arig'i sohilida joylashgan bo'lib, quvvati 7–8 tegirmonga yetkazilgan, qog'oz sifati dunyoga mashur bo'lgan.
1715– 1720	Qo'qon, Buxoro va Toshkent shaharlarida qog'oz ustaxonalari ishga tushgan.
1715– 1724	Qo'qondan 2,5–3 kilometr narida Cherku qishlog'i yonida tashkil etilgan qog'oz ustaxonasi

	chamasi 200 yilcha faoliyat yuritgan. Ustaxonani tashkil qilgan ustanning so'nggi avlodlari – usta Ubaydulloh Oripov va usta Marazaq eshon Mayaqubovlar 50 yilga yaqin ishlab, 1924-yilgacha qog'oz ishlab chiqarishgan. Ular yashagan mahalla «Qog'ozgir» deb yuritilgan.
XIX asr oxirlari	Toshkentda Ahmad savdogarning 20 nafar ishchilik qog'oz olish manifakturasi ishlab turgan.
1915	Toshkentda dudsiz porox olish uchun selluloza zavodini qurish boshlandi. 1921–1922-yillarda zavodda 158 ishchi ishlagan.
1918	Buxoroning Gurbun dahasida 40 nafar ishchiga ega bo'lган pul qog'ozni oladigan ustaxona 1922-yilgacha ishlab turgan.
1932	Toshkentdagagi qog'oz fabrikasi (dudsiz porox olish uchun selluloza zavodi asosida) ishga tushdi (hozirgi nomi «O'zbek qog'ozsi» AJ).
1988	Angren karton ishlab chiqaruvchi fabrika foydalanishga topshirildi.
1995	Toshkent qog'oz fabrikasi qurildi.
1997	«Nambum» qo'shma korxonasi (Namangan qog'oz fabrikasi).
2000	Yangiyo'l shahrida paxta sellulozasi va qog'ozni olish fabrikasi ishga tushdi.
2002	Farg'ona shahrida paxta sellulozasini olish korxonasi ishga tushdi.

Shundan so'ng qog'oz ishlab chiqarish birmuncha rivojlandi. Xoja Ahror vali ustaxonalarga yaqin yerlarda bir necha do'kon qurdirib, qog'oz savdosini ham kengaytirgan. Afsuski, yong'in tufayli bu ustaxonalar va do'konlar katta talafot ko'rgan.

Samarqand qog'ozni o'rta asr Sharq xattotlari orasida g'oyx qadrli bo'lib, muayyan qismi o'lkalarga ham chiqarilgan. Qog'ozning ko'payishi ilm, ma'naviyat va ma'rifat nurlarining

taralishiga katta imkoniyat ochdi. Biz bayon etgan texnologiya, asosan, 1200 yil davom etdi.

Qo'lingizdagi kitob «Kimyoviy texnologiya», «Selluloza ishlab chiqarish» va «Qog'oz ishlab chiqarish» fanlarini o'rganayotgan institut kimyogar texnologlari — bakalavr va magistrлari uchun o'quv qo'llanma hisoblanadi. Shu bilan birga bu kitob selluloza-qog'oz ishlab chiqarish korxonalarida xizmat qilayotgan muhandis-texnik xodimlari uchun ham foydali adabiyot deb hisoblaymiz.

O'quvchilar tomonidan aniqlangan darslikdagi kamchilik va nusasonlarni mualliflar minnatdorchilik bilan qabul qiladilar.

MUIA LIEJAR

## KIRISH

O'zbekistonning asosiy boyliklaridan biri bu paxta. Paxta tolasi to'qimachilik, chigiti — yog'-moy sanoatlari uchun xomashyoligi ma'lum. Paxtani chigitidan ajratish jarayonlarida kalta tolalar (7–8 mm, A tip, 6–7 mm, B tip) hosil bo'ladi. Bular paxta momig'i deb nomlanadi, bir vaqtlar chiqindi hisoblanar edi. Hozirgi vaqtda kimyo va selluloza — qog'oz sanoatlari uchun juda yaxshi xomashyo hisoblanadi. Paxta momig'idan selluloza, qog'oz va karton olish texnologiyasi texnik adabiyotlarda kam yoritilgan. Ayniqsa, o'zbek tilida bunday adabiyotlar yo'q hisoblanadi. Shuning uchun, selluloza va qog'oz olish texnologiyasini, davlat tilida o'zlashtirish qulay bo'lsin uchun ushbu darslik yaratildi. Qo'llanma kimyo texnologiya mutaxassisligi bo'yicha bakalavr va magistrlar uchun mo'ljallangan.

Darslikni o'qishda vaqtlarini ayamasdan o'qib, foydali maslahatlar va kamchiliklarini ko'rsatgan professorlar A.S.To'raevga va Sh. Arslonovlarga minnatdorchilikimizni bildiramiz.

## I bob. QOG'oz VA KARTON ISHLAB CHIQARISHDA YARIMMAHSULOTLAR

Qog'oz va karton ishlab chiqarish uchun yarimmahsulotlar, bulardan asosiysi, texnik selluloza, yarimselluloza, mexanik massa va makulaturalar qo'llaniladi. Yarim selluloza va texnik sellulozani olishning quyidagi usullari mavjud: 1) kislotali; 2) ishqorli va neytral; 3) oksidlovchi; 4) bosqichli; 5) kombinirlashgan. Texnik selluloza, yarimsellulozalar klassifikatsiyasi va ularning ishlatalishi 1-jadvalda keltirilgan.

### Selluloza va yarimsellulozalarning asosiy turlari klassifikatsiyasi va ularning qo'llanishi

1-jadval

Termin	Aniqlanishi	Ishlatilishi
Selluloza – qog'oz ishlab chiqarishdagi tolali yarimmahsulot	Qog'oz, karton yoki kimyoviy qayta ishlashga mo'ljallangan, o'simaliklar turkumiga kiruvchi toiali materiallar	Har xil turdag'i qog'oz, karton va kimyoviy tolalar
Texnik selluloza	Tolali yarimmahsulot, xomashyo sifatida ishlataladigan tolalik o'simliklarni kimyoviy eritmalar bilan pishirish natijasida hosil bo'lganligini, gemit-selluloza, ekstrakt moddalar pishirish natijasida sel-	Har xil turdag'i qog'oz, karton va kimyoviy tolalar

*jadvalning davomi*

	luloza bo'lmagan komponentlarning ko'p qismi ajratib olinadi	
Sulfat selluloza:  xvoy daraxtini qattiq (жесткая) sellulozasi;  o'rtacha qattiqlikdagi xvoy daraxt sellulozasi  yumshoq xvoy daraxtidan olingan	<p>Sulfat usulida olingan selluloza</p> <p>Oqartirilmagan sulfat selluloza (kappa ko'r-satkichi bo'yicha qattiqligi 38 dan ko'p bo'lgan).</p> <p>Oqartirilmagan sulfat selluloza. (kappa ko'r-satkichi bo'yicha qattiqligi 29 dan 38 gacha)</p> <p>Oqartirilmagan sulfat selluloza (kappa ko'r-satkichi bo'yicha qattiqligi 29 gacha)</p>	<p>O'ta mustahkam, qoplash uchun ishlataladigan qog'oz</p> <p>O'rash va qoplash uchun ishlataladigan qog'oz; har xil qog'ozlarning asosi (parafinlash, yelimli tasma, qiruvchi); har xil karton (korobka, suvga chidamlilik, poyabzal, proklatka), elektr-karton, elektr izolatsiya qog'oz (kondensator, telefon, kabel).</p> <p>Namga chidamlilik, tekstirlangan, qatlamlili plastiklar uchun asos, filtrlovchi elementlar.</p>

*jadvalning davomi*


Sulfit selluloza: xvoy daraxtini qattiq (жесткая) selluloza;	Sulfid usuli bilan pishirilgan selluloza. Oqartirilmagan sulfid selluloza (kappa ko'rsatkichi bo'yicha qattiqligi 27 dan ko'p- roq).	Xatlar va bosma uchun qog'oz (ga- zeta, bosmaxona) o'rash, joylashti- rish, yog' o'tkaz- maydigan, sigaret qogozlari.
o'rtacha qattiqlikdagi xvoy daraxtini sellulozasi: xvoysi bargli yumshoq xvoy daraxtidan olingen selluloza	Oqartirilmagan sulfid selluloza (kappa ko'rsatkichi bo'yicha qattiqligi 17 dan 27 gacha) Oqartirilmagan sulfid selluloza (kappa ko'rsatkichi bo'yicha qattiqligi 17 dan kam)	Suradigan qog'oz turlari. Xatlar va bosma uchun qog'oz (mu- qova, shpulyarnik, gugurt, o'rash, af- set, bilet qog'ozlari). Sun'iy tolalar va gigiena qog'ozlari uchun
Xvoy va bargli daraxtlardan bisulfid usulida olingen selluloza	Bisulfid usulida pishirilgan selluloza	Gazeta, jurnal, o'rashli, oboy qo- g'ozlari, perga- ment tagi, pryaja uchun mustahkam qog'oz. Aralashma (70 %) xat, (50 %) bos- ma, (65 %) chiz- machilik, perga- ment tagi, sanitar- gigiena qog'ozlar uchun
Bargli daraxtdan natron usulida olingen selluloza	Natron usulida pishirilgan selluloza.	Taxlash, xat, bo- sish va so'riluvchi qog'ozlar

Yarimselluloza (poluselluloza):	Pishirilga va mayda- langan tolali yarim mahsulot, tarkibida 65–75 % selluloza.	
sulfatli	Sulfat usulida pishi- rilgan yarimselluloza.	Gafplash uchun va korobkalar yasash uchun karton qog'oz
sulfidli bisulfidli	Sulfid usulida pishirilgan yarimselluloza.	Gazeta, moy o't- kazmaydigan, pergament uchun. Oboy, afisha, ko- robkalar yasash, gazeta, gofplash, tekis qatlamlili gofr katonlar uchun.
netyralsulfid	Bisulfid usulida pishi- rilgan yarimselluloza.	Tekis qatlamlili gofr katonlar, gazeta, perga- ment tagi (80– 100 %), sanitargigienalar uchun.
natron	Neytral-sulfid usulida pishirilgan yarimselluloza.	Gofplash, korob- kalar yasash uchun kartonni ichki qismiga yopishtirish
oqartirilgan	Natron usulida pishirilgan yarimselluloza. Oqartirilgan yarimselluloza	

## 1.1. Texnik sellulozalarning asosiy xossalari

Yarimmahsulotga tegishli qog'oz yoki karton ishlab chiqarishga yaroqliligini, ularning xossalari baholaydi.

Tolalarning morfologik xossalari. Bularga hujayra qobiqlarining uzunligi, eni, bo'shliqlarining o'lchami, fibrillar tuzilishlari kiradi. Bu xossalari daraxtlarning turiga bog'liq. Tolaning devor kataklarining modeli 1-rasmda ko'rsatilgan.



1-rasm. Tola strukturasining sxemasi: a—tola; b—uch qavatlari ikkinchi qobiq; d—markaziy qatlam (oq rang bilan mikrofibrillar belgilangan); e—markaziy qobiq fragmenti mikrofibrillari bilan; f—glukoza qoldiqlari; g—selluloza molekulasining bitta zvenosi sxemasi;

1—dastlabki qobiq; 2—uch qavatlari ikkinchi qatlam; 3—makrofibrilllar; 4—mikrofibrilllar; 5—selluloza molekulalari; 6—mitsellalar; 7—ikkita glukoza qoldiqlari.

Mikrofibrillar keyin makrofibrillar bilan birlashib, diametri 0,4 mkm va tarkibida  $5 \cdot 10^5$  gacha molekula hosil qiladi. Ikkinci qatlamdagi selluloza tolalarida esa  $2 \cdot 10^9$  gacha selluloza moleklalari bo'ladi.

**Texnik selluloza tolalarining asosiy xossalari.** Hozirgi vaqtida texnik sellulozalarning oltita asosiy xossalari belgilangan:

- 1) tolalarning o'rtacha uzunligi;
- 2) tolalarning nam holida zichlanish qobiliyati;
- 3) tola mustahkamligi;
- 4) kogeziyalanish qibiliyati;
- 5) tola dag'alligi;
- 6) maydalananish qibiliyati.

**Tolalarning o'rtacha uzunligi.** Tolali yarimmahsulot pishirilgandan keyin tarkibida har xil o'lchamdag'i tolali va uzunligi 0,1 dan 5,0 mm gacha bo'lgan notolali elementlarning aralashmalari mavjud. Va o'lchamlari 0,1 mm gacha bo'lgan mayda notolali elementlar va tola bo'lakchalaridan iborat. Texnik sellulozani yuvish jarayonida mayda qo'shimchalarning bir qismi oqava suvgaga o'tib ketadi. Oqova suvgaga o'tib ketish miqdori quyidagi sabablarga bog'liq: elementlarning o'lchamiga, filtrlashdagi setka raqamiga va yuvish intensivligiga.

O'rtacha uzunlik ikki usulda belgilanadi: o'rtacha arifmetik va o'rtacha og'irlilik. Tolalarning o'rtacha uzunligi har bir olingan namunalar uzunligining summasini ularning soniga bo'lib aniqlanadi. Tolalarning uzunligini o'rtacha og'irlilik bilan aniqlaganda, uzunligi har xil bo'lgan fraksiyalar massa ulushi hisobga olinadi. O'rtacha arifmetik uzunlik o'rtacha og'irlilik uzunlikdan past bo'ladi. Amaliyotda asosan o'rtacha og'irlilik uzunligi qo'llaniladi.

Yarimmahsulot tolalar uzunligi quydag'i asoslarga bog'liq: daraxt turi, yoshi, pishirish usuli va lignindan tozalash darajasi.

Izlanishlarning ko'rsatishiga qaraganda, tolalarning o'rtacha uzunligi bilan selluloza-qog'oz materiallarining fizik-mexanik ko'rsatkichlariga har doim ham mos kelavermaydi. Bu yarimmahsulotning fraksiya tarkibini har xilligidir.

**Tolalarning nam holida zichlanish qobiliyati.** Tolalarning bu xossalari qog'ozning optik va fizik ko'rsatkichlarini aniqlab beradi. Bundan, tolalarning bog'langan yuzasi, ular orasidagi

havo bo'shlig'i, ya'ni taxminiy zichligi hamda qog'oz polotnining suvsizlanish qobiliyati, aniqlanadi. Tolalarning zichlanishi quyidagi asoslarga bog'liq: egilishga qarshilik, tolalarning suvda bo'kishi, maydalash jarayonida fibrillanishi. Tolalarning egilishga qarshiligi, tarkibidagi lignin miqdori, qog'oz qiluvchi mashina (QQM)da quritishdagi temperaturaga va tola diametriga bog'liq. Tolalarning egilishga qarshiligi, selluloza tolalarining ishlov berishdan oldin va keyingi holatiga bog'liq. Bu holatlar texnik sellulozani pishirish va maydalash jarayonlari parametrlarini aniqlashni asosiy qismi hisoblanadi.

Tolalarning zichlanishini xarakterlaydigan eng yaxshi ko'rsatkich bu g'ovoqligi (пyxюст), ya'ni taxminiy zichlikning teskari qiymati (1/d).

Tolaning mustahkamligi. Qog'ozning mustahkamligi va deformatsiyaga chidamliligi, shu bilan birga adgeziyalik qobiliyati tolalarni uzilishgacha bo'lgan mustahkamligi hisoblanadi. Qog'ozning fizik-mekanik xossasini shakllantirishda tola mustahkamligi bilan molekulalararo bog'lovchi kuch asosiy rol o'ynaydi. Bu masala nazariy tomondangina emas, amaliy ahamiyati katta. O'simlik tolalari mustahkam hisoblanadi (2-jadval).

**Texnik selluloza elementar tolalarining mexanik mustahkamligi**  
*2-jadval*

Selluloza turlari	Uzilishga qarshilik kuch, mN	Ko'ndalang kesim yuzasi, $\text{mkm}^2$	Yemirilish kuchlanishi, MPa
Paxta	118	148	794
Viskoza uchun sulfat	72	305	235
Oqlanmagan, terakdan olingan	280	240	1166

Tolaning mustahkamligiga quyidagi faktorlar ta'sir etadi:

- 1) morfologik xususiyati (devr qalinligi);
- 2) pishirish usuli;
- 3) maydalash jarayonining xarakteri (yarimmahsulotning maydalanish darajasi).

Oxirgi vaqtarda selluloza tolalarining mustahkamligini, uning o'rtacha polimerlanish darajasini va fraksiyalarining polimerlanish darajasini aniqlash usuli bilan xarakterlash keng tarqagan. Ma'lumki, sellulozada yuqori molekular fraksiysi ko'p bo'lsa, mexanik mustahkamligi katta bo'ladi va uni maydalash qiyin kechadi.

**Kogeziyalanish qobiliyati.** Qog'oz mustahkamligiga tolalar mustahkamligi bilan birga ko'proq molekulalararo bog'lar ko'proq ta'sir etadi. Bunga Van-den-Akkera va xodimlarining ishlarini misol qilib keltirish mumkin. Tolalarning kogeziyalanish qobiliyatini (yulishga qarshilik (вышивание) professor S. N. Ivanovning usuli bilan ham hisoblash mumkin.

#### **Qog'ozdagи molekulalararo bog'liq kuchlarining tolalar tabiatiga va ularning maydalanish darajasi bog'liqligi**

*3-jadval*

Maydalanish darjası, °S HR	Paxta yarimmahsulot			Oqlangan sulfat selluloza			Oqlanmagan sulfat selluloza		
	δ, mkm	V, sm <sup>3</sup> /g	F <sub>sv</sub> , MPa	δ, mkm	V, sm <sup>3</sup> /g	F <sub>sv</sub> , MPa	δ, mkm	V, sm <sup>3</sup> /g	F <sub>sv</sub> , MPa
13	—	—	—	216	2,17	0,21	174	1,72	0,20
25	137	1,34	0,99	166	1,67	1,40	147	1,47	1,38
35	132	1,32	1,21	149	1,49	1,42	141	1,41	1,50
45	128	1,28	1,38	152	1,51	1,61	137	1,37	1,57
60	125	1,25	1,58	143	1,78	1,78	134	1,33	2,02
75	122	1,22	1,70	133	1,33	2,30	129	1,28	2,24

**Tolalar dag'alligi.** Tolalarning dag'alligi yuz metr tolaning og'irligi (mg) bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich detsigreks (dg) bilan belgilanadi. Odatda, uzun tolalar dag'al bo'ladi.

**Maydalanish qobiliyati.** Texnik sellulozaning xossalariini baholashda uni standart sharoitda maydalaydi va laboratoriya sharoitida qog'oz kuyadi va standart sharoitda sifat ko'rsatkichlari tekshiriladi. Yarimmahsulot xossalariini baholashda quydagi xarakteristikalari aniqlanadi: maydalanish darajasi, tegishli darajada maydalash uchun ketgan vaqt, tolaling solishtirma yuzasi. Yarimmahsulotning yaxshi maydalanganligini solishtirma yuzasi ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich yarimmahsulotning qaysi usulda olinganini va fizik-mexanik xossalari bilan yaxshi moslashtiriladi. Solishtirma yuzani maydalashga bog'liqligi 4-jadvalda keltirilgan.

### Maydalash jarayonida tolalarning solishtirma yuzasining o'zgarishi

*4-jadval*

Daraxt	Yarimmahsulot nomi	Maydalanish darajasi, °ShR	I°ShR oshganda tashqi yuzasining o'zgarishi,	Tolalarning solishtirma yuzi (tashqi yuzi), sm <sup>2</sup> /r*
Sosna	Sulfat selluloza	13	1300	17000
		27	1300	35000
		50	1200	60000
		75	1080	80000
Beryoza	Sulfat selluloza	18	1200	15000
		22	950	32000
		52	950	50000
		65	970	65000
Osina	Sulfat selluloza	18	800	12500
		23	700	18000
		29	700	20000
		39	770	30000

*jadvalning davomi*

Archa	Sulfat selluloza	12 30 54 80	1000 1200 1400 1050	12000 37000 55000 84000
Archa	Oqartiril gan daraxt massasi	14 27 45 71	710 750 700 650	10000 20000 30000 46000

\* solishtirma yuza nam o'tkazish metodi bilan aniqlangan

## 1.2. Tolali yarimmahsulotning qog'oz hosil qiluvchi asosiy xossalari

**Ishqoriy sellulozalar.** Sulfat sellulozasi yaxshi mexanik xossalarga ega, shuning uchun yuqori deformatsiyaga chidamlik qog'oz va karton olishda muhim rol o'ynaydi. Lekin ishqoriy sellulozaning rangi xira, bosma qog'ozlar olishga yaramaydi. Xira bo'lishiga sabab, tarkibida lignin borligidir. Texnik sellulozaning mexanik xossalari, asosan, uning pishirish parametrlari aniqlaydi. Texnik selluloza tarkibida lignin miqdori ko'paysa, sellulozaning mustahkamligi pasayadi. Xvoy daraxtidan olingan sulfat selluloza tarkibida lignin miqdori 9 % bo'lganda mustahkamligi maksimal darajada bo'ladi.

Selluloza tolalarini ishqoriy sharoitda pishirilganda, kislotali muhitdagiga qaraganda, tolalar kam shikastlanadi. Shuning uchun, ishqoriy selluloza mustahkamligi ko'p vaqt saqlanib turadi, maydlash vaqtida esa ko'p energiya talab qiladi. Sulfat selluloza tolalari namlaganda va quritganda kam deformatsiyalanadi. Shu tolalardan tayyorlangan qog'ozlarning boshlang'ich nam holidagi mustahkamligi, deformatsiyasi yuqori, buralishi kam bo'ladi.

Qog'oz olish uchun, sulfat sellulozaga xomashyo sifatida bir yillik o'simlik moyalarini ishlatish mumkin: bug'doy, sholi, qamish va g'o'za moyalar. Bularidan olingan sellulozalarning kul va

va gemitselluloza miqdori yuqori, tolalarining fratsion tarkibi bir xil emas, tolalari kalta va yug'on, tola bo'lmanan qismlari ko'p bo'ladi. Qog'oz olishda, qog'oz massasiga ularni qo'shilganda qog'ozning mustahkamligi pasayadi, silliqligi va xiraligi ortadi, qog'ozni changlanishi kamayadi, qo'shimchalarni yaxshi ushlab qoladi. Odatda, bu turdag'i sellulozalar 15 dan 60 %gacha qo'shiladi. Quyidagi jadvalda bir yillik o'simliklardan olingan oqartirilmagan sulfat sellulozalarning xarakteristikalari keltirilgan.

### Bir yillik o'simliklar-bug'doy va sholi poyasidan olingan sellulozalarning xarakteristikasi

*5-jadval*

Ko'rsatkich	Poya	
	bug'doy	sholi
Olingen selluloza miqdori, %	55,5	52,8
60°ShR gacha maydalashga ketgan vaqt, min	40	5
Og'irlilik ko'rsatkichi, dg	18	21
Uzilish uzunligi, m	9800	7630
Bosimga qarshilik, kPa	570	410
Egilishga qarshilik, ch.d.p.	1050	525
Tekis siqilish, kPa	96	89

**Sulfid selluloza.** Sulfat sellulozaga qaraganda mustahkamligi pastroq bo'lsada, ko'p tur qog'ozlarni olishda keng qo'llaniladi. Gazeta va boshqa tur bosma qog'ozlar, yupqa turdag'i qog'ozlar, pergamin, moy o'tkazmaydigan va boshqa qog'ozlar olishda xomashyo hisoblanadi. Sulfid sellulozaning optik xossalari juda qimmatli hisoblanadi. Shuning uchun oqartirilmagan sulfid selluloza bosma uchun ishlatiladigan ko'pgina turdag'i qog'ozlar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Ba'zi bir qog'ozlarni olishda tarkibida 10–15 %gacha lignin qoldig'i bo'lgan sulfid selluloza ishlatiladi.

Sulfid sellulozaning fizik-mexanik xossalari pishirish sharoiti aniqlaydi. Mustahkamroq selluloza olishda ishqoriy muhit (pH yuqori) qo'llaniladi (natriyli, ammoniyli). Bu usulda olingan sellulozaning oqlik darajasi yuqori va gemitsellulozasining ko'pligi sababli yaxshi maydalaniladi. Bu usulda olingan sellulozaning mustahkamligi va ko'pga chidamligi, sulfat sellulozaga qaraganda pastroq.

**Bisulfid selluloza.** Bisulfid sellulozani olishda chiqindi kam chiqadi, mustahkamligi, xiraligi, oqligi sulfid sellulozasiga qaraganda yuqori. Ular yaxshi maydalanadi va suvsizlanadi. Bu sellulozaning boshqa alohida xususiyatlaridan biri – yuqori maydalanish xususiyatidir. Bisulfid sellulozaning xossalari pishirishda ishlatiladigan ishqoriy eritmaning turiga bog'liq. Bisulfid sellulozani olishda yuqorida keltirilgan poyalarni ishlatish mumkin. Bunday selluloza tara va karton qog'ozlar olishda ishlatiladi.

**Yarimselluloza.** Yarimselluloza deb yarimmahsulotga aytildi, tarkibida 65–85 %, ya'ni texnik selluloza bilan mexanik massa oraliq holatidagi selluloza. Quyidagi turdag'i yarimsellulozalar ishlab chiqariladi: sulfat, sulfid, bisulfid va neytral-sulfid. Ko'p tarqalgani bisulfid va neytral-sulfid yarimsellulozalar. Yarimsellulozalarning kimyoviy tarkibi 6-jadvalda keltirilgan.

### Har xil tipdag'i yarimsellulozalarning kimyoviy tarkibi

*6-jadval*

Yarimselluloza tipi	Yarimselluloza tarkibi, a.q. massa hisobida, %				Olingan yarimsellulozaning umumiy miqdori, a.q. %
	sel-lu-loza	gemi-sel-luloza	lignin	Ekstaksiyanuv-chi modda	
Neytral-sulfid	42	15	13,0	1,0	71
Sulfat	44	12	13,5	0,3	74
Natron	42	14	19,0	1,0	74
Kislotali sulfid	44	17	13,0	2,0	76

*jadvalning davomi*

Dastlabki daraxt tarkibi, % a.q. modda	49	23	23	5	100
--	----	----	----	---	-----

**Neytral-sulfid selluloza.** Bu yarimmahsulot asosan bargli da-raxtlardan ishlab chiqariladi. Boshqa yarimsellulozalarga qaragan-da, neytral-sulfid selluloza rangi tiniq va mustahkamroq. Bundan tashqari, natriy asosli moddalarini ishlatganda olingan yarimmahsu-lotning oqlik darajasi yuqoriroq bo'ladi. Olingan neytral-sulfid sellulozaning umumiy miqdori 75 %dan yuqori bo'lsa, uni bu yarimmahsulot gofrilangan qog'ozga asos qilib ishlatiladi.

Neytral-sulfid sellulozani sholi, bug'doy va g'oza poya kanop hamda boshqa bir yillik o'simlik poyasidan olish mumkin.

### 1.3. Tolali materiallarni kaltalashtirish

#### 1.3.1. Kaltalashtirish jarayoni nazariyasi haqida umumiy ma'lumot

Kaltalashtirish jarayonining vazifasi – tolalarga ma'lum struktura berish va tolalarning uzunligini va diametrini tegishli o'lchamga keltirish, tolalarni egiluvchan va plastik holga keltirish, qog'oz varog'ida tolalarni bir-biri bilan bog'lash, yaxshi shakllash (tekis nur o'tkazuvchanlik) va qog'oz xossalalarini berish uchun, ularga ma'lum darajada gidrotatsiya xususiyatini berish.

Massani maydalashda mexanik jarayonlar tolalarni mayday-lashga olib keladi va qog'oz strukturasini shakllantirishga sharoit yaratadi, suv bilan selluloza aralashib kolloid – fizika hodisalari natijasida, tolalar qog'ozga bog'lanadi. Tola holidagi sellulozani kaltalashtirishni shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lish mumkin.

*Birinchi bosqich* – hujayra ichidagi devorlar molekulalararo bog'larni yemirish, tola struktura elementlarini siljитib zona hosil

qilish va suv kirish uchun mikroyoriqlar paydo qilish, so‘ngra sellulozaning bo‘sh gidroksil gruppalari bilan birlashtirish. Suv, selluloza tolachalarini kaltalashtirish jarayonida, hujayra devorlarini maydalaydi, natijada, tolalarning egiluvchanligi va plastik xossalari oshadi.

*Ikkinch bosqich* — tashqi devorlarini qisman, ikkilamchi devorini va uni birlamchi devori bilan ajratish.

*Uchinchi bosqich* — siljish zonasida devorlarning bo‘kishi. Bu jarayon faqat tashqi qobiq parchalanganda boshlanadi.

*To‘rtinchi bosqich* — fibrillar orsidagi vodorod bog‘larining qisman uzilishi, tashqi solishtirma yuzasini tez o‘sishi va tolalarning mo‘l suvlanishi.

Maydalanish jarayonida tola ichki va tashqi devorlari fibrillanadi. Tashqi fibrillanish — toladan fibrillar butunlay yoki qisman ajraladi, bu tolalarning tashqi yuzasini oshishiga hamda selluloza molekulasing bo‘sh gidroksil gruppalarining ko‘payishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda tashqi fibrillash tolanning mustahkamligini pasaytirishga olib keladi. Ichki fibrillash — tola ichki devori struktura elementlarining gruppalarini qayta fibrillab, mustahkamligini pasaytirmadan, bo‘lmaydigan holga keltirib qo‘yadi. Ichki va tashqi fibrillash jarayonini farqlash qiyin, chunki ular o‘zaro bog‘langan. Tashqi fibrillanish darajasini amalda tolanning tashqi yuzasini o‘zgarishi orqali baholash mumkin, ichki fibrillanishni — ularning egiluvchanligi orqali, bo‘kish darajasini oshirish, shu jumladan, egiluchanligini oshirish, mexanik yo‘llardan boshqa usullar bilan ham bajarish mumkin (ultratovush, radiatsion yoki magnit maydoni, har xil eritmalar ta’sir ettirish).

Maydalash jarayonida tolalarning uzunligi kaltalashadi, bu — murakkab jarayon, buni mexanizmni taxminan tolalarni qaychi bilan qirqishga tenglash mumkin.

Maydalash jarayonida hosil bo‘lgan tola fragmentlarini mayda deb atash qabul qilingan. Taxmin qilishlaricha, uzun tolalar qog‘oz varog‘ida karkas vazifasini, maydalari esa karkas

orasini to'ldirib, uning mustahkamligini oshirib beruvchidir. Lekin mayda fragment qismlarning ko'payishi, maydalangan sellulozani suvsizlantirish qobiliyatini kamaytirib yuboradi. Tolalarning egiluvchanligini baholashni bir nechta usullari bor, maysalan, tola devor qalinligini uning eniga nisbati.

Tolali selluloza materiallariga ishlov berish uchun pichoqli va pichoqsiz maydalovchi mashina va apparatlar ishlataladi. Asosan birinchisi qo'llaniladi. U diskali yoki uning modifikatsiyasi – konus shaklidagi tegirmonlar qo'llaniladi.

### **1.3.2. Maydalash jarayoni faktorlari**

Maydalash jarayonidagi faktorlarni S. Xitanen va K Ebeling uch guruhlarga bo'ladi:

1) kuzatiladigan o'zgaruvchan faktorlar jarayoni – oqim hajmi, konsentratsiyasi, pH va massa temperaturasi, tegirmon korpusidagi bosim, elektrolit konsentratsiyasi;

2) faol o'zgaruvchan faktorlar jarayoni – disklar orasidagi masofa va ba'zan, rotorming aylanish chastotasi;

3) passiv o'zgaruvchan faktorlar jarayoni – garnitura geometriyasi (pichoqlarning egilgan burchagi, pichoqlar soni, materiali va boshq.).

Maydalash jarayoniga ta'sir etuvchi kuzatiladigan faktorlar 7-jadvalda keltirilgan.

Maydalangan tofali massanining sifati ko'pincha rotor va stator pichoqlari orasidagi masofaga bog'liq bo'ladi. Odatta, bu masofa, konsentratsiyasi past bo'lgan massalarda, 0,1–0,2 mm bo'ladi.

**Maydalash jarayoniga ta'sir etuvchi ba'zi kuzatiladigan faktorlar**  
*7-jadval*

Faktorlar	Maydalash jarayoniga ta'sir etadi
Maydalash zonasida massaning	Konsentratsiyasi oshishi bilan maydalananish gomogenlanganda oshib boradi, qirqish

konsentratsiyasi	kamayadi, fibrillanish, tolalarning egiluvchanligi va tolalarning mayda fraksiyalaring eruvchanligi oshadi
Massa temperaturasi	Temperatura oshishi bilan, tarkibida sellulozasi kam bo'lgan tolalarining bo'kishi kamayadi, tarkibida sellulozasi ko'p bo'lganda bo'kishi – oshadi. Tolalar tarkibida gemitselluloza kamayadi, struktura o'zgarish sodir bo'ladi, natijada, selluloza I selluloza II sellulozaga aylanadi
Massaning pH ahamiyati	Kislotali muhit tolalarni maydalanishini osonlashtiradi va maydalarining ko'payishiga olib keladi; ishqoriy muhit mustahkamligini oshiradi
Elektrolitlar konsentratsiyasi	Oqartirilmagan tolalar uchun, tarkibida 50–55 % elektrolit bo'lganda ko'p effekt beradi, bo'kishi quyidagi tartibda kamayadi: Na, Li, Ca, Mg, Al; pH va elektrolit konsentratsiya orasida bog'lanish bor

Tolalarga ishlov berishda pichoqlar orasidagi masofa asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu yerda tolalarga intensiv ishlov beriladi. Massa pichoqlar orasida harakatlanganda, pichoqlar orasidagi zonaga tushadi, bu yerda har xil kuchlar (tangensal, buraluvchi va hokazo) ta'sirida siqiladi.

Rotor pichoqlarini stator pichoqlari ustida harakati natijasida tolalar qatlami uziladi va plastik holatda pichoqlar ustidan o'tadi, shuningdek, siqilish va siljish kuchlanishi kamayadi. Hisoblar natijasi shuni ko'rsatdiki, maydon uzunligidagi intensiv siqilish  $10 = 2,5 \cdot 10 - 3 \dots 3,5 \cdot 10 - 3$  m.

Pichoqlar orasidagi zonada tolalar qavatini siqb mekanik ishlov berish davom etadi va uzilib plastik oqish vaqtida davom etadi:

$$t_0 = \frac{a - l_0}{\omega r_m}, \text{c}$$

bunda,  $a$  — pichoq eni,  $m$ ;  $\omega$  — rotor aylanish tezligining markaziy aylanishdan  $r_m$  masofadagi aylanish tezligi,  $m/s$ .

Bu vaqtida tangensial kuchlanish quyidagi formula asosida o'zgaradi:

$$\tau(t) = \frac{\tau(a - \omega r_m t - t_0)}{a - l_0}, \text{H/m}^2$$

bunda,  $t$  — ta'sir vaqtি ( $0 \leq t \leq t_0$ ),  $s$ ;  $\tau$  — pichoq chetidagi maksimal tangensial kuchlanish,  $H/m^2$ .

Diskali tegirmonlarning foydali ishi effektiv quvvati  $N_n$  bilan aniqlanadi, ya'ni umumiy sarflangan quvvatdan ishlab chiqarishda ishtirok etmagandagi sarflangan quvvatning,  $N_{n.z.}$ , ayirmasiga teng:

$$N_{n.z.} = An^3 \frac{b}{a+b} (d_n^4 + d_v^4) + Bn^3 (d_n^5 - d_v^5), \text{kVt},$$

bunda,  $n$  — rotoring aylanish chastotasi,  $s^{-1}$ ;  $a, b$  — pichoq eni va chuqurligi,  $m$ ;  $h$  — chuqurlik o'lchami,  $m$ ;  $d_n - d_v$  — pichoqlar zonasidagi diskarning ichki va tashqi diametrлari,  $m$ ;  $A = 49,1$ ;  $B = 2 \cdot 10^{-2}$ .

Maydalagichning foydali quvvati:

$$N_n = \pi L_p \frac{al_0}{2} \frac{\psi}{[\sin(\psi + \varphi_0) - \sin \varphi_0]}, \text{kVt}$$

bunda,  $L_p$  — garnituraning sekundda kesish uzunligi,  $m/s$ ;  $\psi$  — diskadagi pichoqlar sektoridagi rasmni takrorlanish burchagi, rad;  $\varphi_0$  — birinchi sektordagi pichoqni radiusga egilish burchagi, rad.

Diskali tegirmonning garniturasini sekundda kesish uzunligi:

$$L_p = \frac{\pi^2}{6\psi} \times \frac{d_n^3 - d_s^3}{(a-b)^2} n [\sin(\psi + \varphi_0) - \sin \varphi_0]^2,$$

### Boshqa turdag'i maydalovchi mashinalar

$$L_p = n \cdot Z_p \cdot Z_c \cdot l,$$

bunda,  $Z_p$ ,  $Z_c$  – rotor va statorlarning pichoqlar soni;  $l$  – pichoqning qirqadigan qismi uzunligi, m.

Maydalash jarayoning borishidagi dastlabki dinamik – energetik faktorlari, bu foydali energiyaning solishtirma sarfi hisoblanadi:

$$W = \frac{N_n}{Q_c}, \text{kJ/kg}$$

bunda,  $Q_c$  – massani hajm sarfi,  $\text{m}^3/\text{s}$ ;  $s$  – massa konsentratsiyasi,  $\text{kg/m}^3$ .

Massa sifatiga katta ta'sir ko'rsatuvchi ikkinchi faktor, tolali materialga intensiv ta'sir ko'rsatgichdir, bu maydalashga tangensal kuchlanish bilan aniqlanadi:

$$\tau = \frac{2N_n[\sin(\psi + \varphi_0) - \sin \varphi_0]}{al_0 L_p \psi} = \frac{2B_c[\sin(\psi + \varphi_0) - \sin \varphi_0]}{al_0 \psi}, \text{H/m}^2$$

bunda,  $B_c$  – pichoqni qirqadigan qismiga beriladigan yuk, H.

Hozirga qadar ko'p ishlarda  $B_c$  jarayonni aniqlovchi faktor deb hisoblanadi.

Lekin ba'zi avtorlar, amaliy tajribaga asoslanib, tangensal kuchlanish  $\tau$  tolaga ta'sir etuvchi pichoqlarning barcha qismi deb hisoblaydi.

8-jadvalda tangensal kuchlanishning optimal qiymatlari, yuqorida formula bilan, har xil tipdag'i tolali materiallar uchun hisoblab topilgan qiymatlari keltirilgan.

## Tangensal kuchlanishning optimal qiymati

8-jadval

Tolali materiallar tiplari	Tangensal kuchlanishning optimal qiymati, MPa
Oqlanmagan, xvoy daraxtidan olin-gan sulfat selluloza	0,33–0,38
Oqlanmagan, bargli daraxtidan olingan sulfat selluloza	0,11–0,20
Oqlangan, xvoy daraxtidan olingan sulfat selluloza	0,40
Oqlangan, bargli daraxtidan olin-gan sulfat selluloza	0,24–0,30
Oqlanmagan, xvoy daraxtidan olin-gan sulfid selluloza	0,33
Oqlangan, xvoy daraxtidan olingan sulfid selluloza	0,18–0,22
Xvoy daraxtidan olingan bisulfid yarimselluloza	0,29–0,31
Bargli daraxtidan olingan bisulfid yarimselluloza	0,25–0,26

Maydalash jarayoniga ta'sir etuvchi faktorlardan yana biri, ishlov berish zonasida, tolalarga ta'sir etish soni

$$m = \frac{h_0 d l_v L_p}{Q}$$

bunda,  $h_0 = (1,0-1,5) l_v$ ,  $m$ ;  $l_v$  – tolalarning o'ttacha uzunligi, m.

Maydalash rejimini tanlashda, soddaroq usul bilan hisoblash mumkin. Buning uchun garnitur pichog'ini qirqish qismini 3 mm qilib olib, quyidagi formula bilan hisoblash mumkin:

$$B_c = \frac{\tau_{on} 10^{-5}}{(2,0 - 2,2)}, H.$$

## **II bob. MAYDALASH TIZIMLARI VA ASBOB-USKUNALAR**

Qog'oz massasini tayyorlashtining, umumiy ko'rinishi, quyidagi texnologik tizimlarni o'z ichiga oladi:

- yarimmahsulot kiplarni gidorazbivatellarga uzatuvchi konveyerlar;
- keltirilgan yarimmahsulot larni tituvchi gidorazbivatellar;
- yuqori konsentratsiyali massalarni tozalagichlar;
- pulsatsiyalanuvchi tegirm'onlar;
- konsentratsiyasi past massalarni diskali tegirmonlar (yoki konusli) maydalagichlar;
- yuqori konsentratsiyali massalarni maydalaydigan tegirmonlar (faqat mahsulotlarning ko'rinishini aniqlash uchun);
- massalarni tozalovchi va gazsizlantiruvchi asbob-uskunalar;
- nozik saralovchi bosimli saralagichlar;
- past va o'rta konsentratsiyali massalarni aralashtiruvchi va saqlovchi basseynlar;
- past va o'rta konsentratsiyali massalarni uzatuvchi nasoslar;
- quvurlar va armaturalar;
- texnologiyani boshqaruvchi tizim sxemalari.

### **2.1. Yarimmahsulotlarning tituvchi qurilmalar**

9-jadvalda, konsentratsiyasi 5 %lik massalar tayyorlovchi, AO «петрозаводскмаш» gidorazbivatellarining texnik xarakteristikalari keltirilgan.


## Vertikal GRVm tipidagi gidrorazbivatellarning texnik xarakteristikalari

9-jadval

Parametr	Tip o'lcham			
	ГРВМ -12	ГРВМ-16	ГРВМ-24	ГРВМ-32
Ishlab chiqarishi, t/sut	30–120	45–160	75–240	120–320
Vanna sig'imi, m <sup>3</sup>	12	16	24	32
To'r teshiklari diametri, mm	6; 2; 20; 24;	6; 12; 20; 24	6; 12; 20; 24	6; 12; 20; 24
Elektrodvigatel quvvati, kVt	90	160	315	315

Ba'zi chet el firmalari ishlab chiqaradigan gidrorazbivatellari vannada konentratsiyasi yuqoriq bo'lgan massada ham ishlaydi. Masalan, uzlukli (period) harakatlanadigan Tridayn «Митсубиши Белоет» firmasi (Yaponiya-AQSH), massa konentratsiyasi 15 %gacha bo'lganda ham ishlaydi.

Gidrorazbivatellarda qiyin titiladigan selluloza tolalarini, maydalashdan oldin chala titiladi. Bu ishlarni pulsatsion tegirmonlar (2-rasm) bajaradi.



**2-rasm. MP turidagi pulsatsion tegirmon:**

- 1—dvigatel vali; 2—himoyalagich; 3—tishli musta; 4—rotor;
- 5—qurulma oraliq mexanizmi; 6—stanina; 7—plita;
- 8—rotorni fiksatsiyalovchi mexanizm; 9—stator.

МП tipidagi pulsatsion tegirmonning texnik ko'rsatkichlari  
10-jadvalda keltirilgan.

**AJ «Перозаводскмаш» chiqarayotgan МП tipidagi pulsatsion  
tegirmonlarning texnik ko'rsatkichlari**

*10-jadval*

Parametr	Tip o'lcham	
	МП-375	МП-400
Ishlab chiqarishi, a.q. tola, t/sut	85–110	60–90
Suspenziyaning massa konsentrasiysi, g/l	20–50	20–50
Titish darajasi, %	65–96	65–96
Rotorini eng katta diametri, mm	375	400
Massa bosimi, MPa:		
kirishda, kamida	0,05	0,05
chiqishda, ko'pi bilan	0,4	0,4
Rotorni harakatlantiruvchi elektro-dvigatel:		
quvvati, kVt	75	110
aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	1500	1500
Gabarit o'lchamlari, harakatlantiruvchi qismi bilan, mm:		
uzunligi	2252	2530
eni	608	865
balandligi	825	858
Og'irligi, kg, ko'pi bilan:		
tegirmonlar	1770	2085
tegirmon, elektr qurulmalari va ehtiyyot qismlari bilan	1930	2290

Shu maqsadlar uchun gidrorazbivatellar boshqa ko'p firmalar ham ishlab chiqaradi, bular: «Voit» (Avstriya), «Fampa-Beloit» (Polsha), «Papcel» (Chexiya), «Escher-Wyss» (Germaniya) va boshqalar.

## 2.2. Diskli tegirmonlar

Qisqa konusli Coflo tipidagi maydalagich tegirmon bilan bir qatorda, diskali tegirmonlar, hozirgi vaqtda asosiy maydalagich asbob-uskunalar hisoblanadi. Diskali tegirmonlarning traditsion ishlatib kelingan va u konusli tegirmondan asosiy ustunligi quyidagilar:

- keng qo'llanilishi (masalan, daraxt payraxalaridan daraxt massasini ishlab chiqarish, selluloza va daraxt massa chiqindilarni maydalash, selluloza va yarimsellulozalarni maydalash, sellulozani issiq holda maydalash va h.);
- tolali yarimmahsulotlarning o'ta yuqori konsentranganini («quruq») maydalash;
- yuqori fizik-mexanik ko'rsatkichli qog'oz va karton olishda;
- ustki quvvatlarini to'la ishlatishi;
- massalarni maydalashda (15–25 %gacha) gidrodinamik sarsini kamayishi hisobiga, solishtirma elektrenergiyasini pastligi;
- ekspluatatsiya qilishni va texnik tekshirishlarda qulayliklari (garnituralarini tezda almashinuvi).


Diskali tegirmonlar maydalash zonalarining soni va aylanayotgan maydalovchi yuzalariga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

- 1) bir diskali tegirmonlar (maydalovchi yuzasining bittasi aylanadi, boshqasi aylanmaydi);
- 2) ikki diskali tegirmonlar (ikkala maydalovchi yuzalar bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda aylanadi);
- 3) ikkita bir-biri bilan birlashtirilgan tegirmon (ikkita qimirlamaydigan disklar orasiga ikkita maydalovchi yuzalik aylanadi-gan disk o'matilgan);
- 4) ko'pdiskali tegirmonlar.

Bir diskali tegirmonlarga (keng tarqalgan variantlar) yarimmahsulot, nasos yoki vintlar (shnek) bilan, maydalovchi zonani o'rtasiga beriladi. Diskalarning joylanishi ikki variantda


bo'lishi mumkin: 1) konsol (osilgan) holda; 2) ikki tayanch orasida. Birinchi variantning kamchiligi – yuqori va pastki maydalagich zonalari orasidagi masofaning notekisligi (valning egilishi, konsol qismining og'irligi hisobiga). 2-chi variantda bu kamchilik yo'q. Lekin konstruksiyasi murakkab, tegirmonni ishlatishda va ta'mirlashda biroz qiyinchiliklar tug'iladi. Texnik imkoniyatiga ko'ra bir diskali tegirmonlar universal hisoblanadi va texnologiya oqimining har xil uchastkalarida qo'llaniladi.

Ikki diskali tegirmonlar asosan payraxalardan daraxt massa olishda qo'llaniladi.



*3-rasm. МД tipidagi bir diskali tegirmon:*

1—prisadka mexanizmi; 2—kamera qopqog'i; 3—stator; 4—rotor disk; 5—maydalovchi kamera; 6—rotor; 7—tayanch; 8—mufta; 9—maydalovchi garnitura; 10—just vintlar; 11—silindirli uzatkich.



**4-rasm. МДС tipidagi ikkilangan diskali tegirmon:**  
 1—justli vint; 2—kamera qopqog'i; 3—stator; 4—rotor diskı;  
 5—maydalovchi garnitura; 6—tayanch; 7—rotor; 8—mufta.

Bir va ikki diskalik tegirmonlarning asosiy kamchiliklari juda katta tayanch podshipniklarida (20 t dan ortiq). Bu hol tegirmonni ekspluatatsiya va ta'mirlashda ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Bu tegirmonlarning ko'rnishi 3, 4-rasmlarda keltirilgan.

Bir va ikki diskalik tegirmonlarning texnik ko'rsatkichlari 11-jadvalda keltirilgan.

#### **Rossiyada ishlab chiqariladigan bir va ikki diskalik diskali tegirmonlarning texnik ko'rsatkichlari**

*11-jadval*

Tip	Disklar diameri, mm	Rotorni aylanish tezligi, min <sup>-1</sup>	Elektrdvi-gatel quvvati, kVt	A.q. tola hisobida ishlab chiqrishi, t/sut
МД-00	315	25,0	23	5-8
МД-02	500	12,5	26	10-35

*jadvalning davomi*

МД-14	630	10	20	20–80
МД-1SH5	630	16,6	33	8–25
МД-1SH7	630	25,0	49	12–60
МД-25	800	12,5	31	35–120

Jadvalda keltirilgan tegirmonlar asosan sulfat, sulfid sellulozalarini maydalashda, neytral-sulfid yarimselluloza olishda, МД-25 esa saralangan daraxt massa olishda qo'llaniladi.

11-jadvalda keltirilgan tegirmonlar ichidan disklar diametri 315, 500, 630 mm larini «Гадчиниш» qog'oz qurulma zavodi ishlab chiqaradi, boshqalarini – АЖ «Пентрозаводскмаш» ishlab chiqaradi.

Yuqori konsentratsiyali massalarni maydalashda (10–35 % a.q. tolalar) «Андритиз Ахлstrom» (Finlandiya) Sing-Disk ffirmasi tayyorlagan rafinyorlar ishlatiladi. Bu turdagи rafinyorlarning texnik ko'rsatkichlari 12-jadvalda keltirilgan.

**Andritz Ahlstrom firmasining bir diskali rafinyorlar texnik  
ko'rsatkichlari**

*12-jadval*

Parametr	Model			
	22-1C	36-1B	42-1B	50-1
Disklar diametri, mm	550	910	1070	1270
Elektr dvigatel quvvati, kVt	185	700	1500	4000
Rotor aylanma tezligi, m/s	86	71	84	100
Rafinyor massasi, t	1,4	12,0	13,0	14,0

### 2.3. Diskali tegirmonlar uchun maydalovchi garnituralar

Garnitura – bu maydalash jarayonining yuragi hisoblanadi.

Garniturani noto'g'ri tanlash massaning sifatini pasaytirishga olib keladi va saralashda chiqindini ko'payishi, maydalashda energiya sarfini oshishiga, garnitura segmentini almashtirish uchun tez-tez to'xtatishga olib keladi. Garnituralarni yasash uchun asosiy material sifatida quyidagi metallar qo'llaniladi: maxsus markali po'lat, cho'yan va boshqalar. Garnituralar agrisiv muhitda ishlaydi. pH 2 dan 12 gacha va abraziv ishqalanish sharoitida. Maydalanadigan massa konsentratsiyasi oshganda maydalovchi disklar orasidagi masofani (zazor) oshirish kerak, shu tufayli garnituralarning xizmat vaqtini oshadi.

Yangi garniturani o'rnatgandan keyin, tolalarning kesilish va massa sifati pasayadi. Xizmat vaqtini tugashda ham, pichoq o'tmaslanishi sababli tolalarni kaltaytirish intensivligi oshadi.

Kaltaytirish koefitsiyenti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$k = \frac{\ln l_{dast} (\text{°ШР} - \text{°ШР}_0)^{-1}}{\text{°ШР}_K - \text{°ШР}_0},$$

bunda,  $l_{dast}$ ,  $l$  – maydalash oldidan va maydalashdan keyingi tolalarning o'rtacha uzunligi;  $\text{°ШР}_K$ ,  $\text{°ШР}_0$  massalarning maydalashdan oldin va maydalashdan keyingi maydalik darajasi,  $\text{°ШР}$ .

Maydalashni yumshoq rejimda, tolalarning uzunligini saqlagan holda, koefitsiyent qiymati  $k \leq 0,0092$ , bu holda diskali tegirmон fibrillovchi turdagи garnitura bilan almashtirilishi kerak (pichoq eni 3 mm, oralig'i 4 mm, eng kichik tur o'lcham – 3 mm, oraliq chuqurligi 5–6 mm).

Kaltaytirish koefitsiyentini  $k \geq 0,0015$  ( $\text{°ШР}$ ) – 1, ga yetkazish uchun tegirmonga kaltaytiruvchi tipdagи garnituranı o'rnatish lozim (pichoq eni 3 mm, kanavka eni 7 mm, chuqurligi 5–6 mm).

Hozirgi vaqtida Ukrainianada (UkrNIIB) yangi metall yuzasiga mikroolmos biriktirilgan garnitura yaratilgan. Bu garnitura keng tajribadan muvaffaqiyatlı o'tmoqda.

## 2.4. Konus shaklidagi tegirmonlar

Hozirgi vaqtarda Rossiyada keng qo'llanilayotgan konusli tegirmonlarning parametrlari 13-jadvalda keltirilgan.

### Rossiyada ishlab chiqarilayotgan konusli tegimonlarning asosiy parametrlari

13-jadval

Tegir-mon markasi	Maydalay-digan garnitura turi	Konus yon ma-dan yuzi, m <sup>2</sup>	Rotor-ni ay-lanish chasto-tasi, s <sup>-1</sup>	O'rnatil-gan quvvat, kVt	Ishlab chiqarish quvvati, t/sut, a.q tola hiso-bida
МКЛ-01	Quyma metall	0,40	25,0	110	4-15
МКЛ-01М	Quyma metall	0,40	16,6	75	4-16
МКЛ-02	Quyma metall	0,70	25,0	200	20-30
МКЛ-03	Quyma metall	1,10	12,5	200	30-50
МКЛ-03М	Quyma metall	1,10	10,0	200	30-50
МКЛ-04	Quyma metall	1,80	8,2	250	40-80
MKH-01	Yig'ma metall	0,45	12,5	30	3-10
MKH-02	Yig'ma metall	0,77	12,5	75	6-10
MKH-03	Yig'ma metall	1,03	12,5	130	8-30
МКБ-01	Bazaltli	0,40	12,5	30	2-5
МКБ-02	Bazaltli	0,63	12,5	55	3,0-7,5

Bu tegirmonlarni asosan Rossiyadagi «Gatchinsk» zavodi ishlab chiqaradi. Rossiya qog'oz-selluloza ishlab chiqarish korxonalarida o'rnatilgan. Tegirmon konstruksiyasi oddiy, chidamlilik, ta'mirlash oson va ekspluatatsiya xarakatlari kam.

Massa tegirmon yon o'rta qismidan beriladi. Tegirmon Conflo deb nomlanadi. Maydalovchi yuzaning kattaligi, tegir-


mon pichoqlarining sekundli qirqish uzunligi, maydalangan to'lalarning bir tekis fibrillanishini ta'minlaydi, bu yuqori fizik-mekanik xossalarga ega bo'lgan qog'oz olish imkonini beradi. Conflo tegirmoni texnik ko'rsatkichlari 14-jadvalda keltirilgan.

### **Conflo tegirmon texnik xarakteristikalari**

*14-jadval*

Parametr	Model			
	1C-00	1C-01	1C-02	1C-03
Ishlab chiqarish quvvati, t/sut	5-10	5-250	25-350	50-500
Elektrodvigatel quvvati, kVt	37-110	75-315	160-500	250-900
Rotorming aylanish chastotasi, s <sup>-1</sup>	10,0-25,0	8,8-20,0	7,8-16,7	7,0-12,5
Kameradagi ishchi bosim, kPa	600	600	600	600
Massa konsentratsiyasi, %	2-6	2-6	2-6	2-6
Gabarit o'lchamlari, mm:	1510	1765	2175	2350
uzunligi	810	850	960	1100
eni	720	900	1070	1350
balandligi				
Massasi, (el.dvigatelsiz), kg	780	1300	2600	3700

Conflo tegirmonini har xil yarimmahsulotlarni maydalash uchun ishlatalish mumkin. Bu turdagil tegirmonlardan 1C-01 modeli keng tarqalgan (5-rasm).



**5-rasm. Konus shaklidagi 1C-01 modelli Conflo tegirmoni:**

1—massa kirish joyi; 2—maydalovchi garnitura; 3—massa chiqadigan joyi; 4—zichlovchi val; 5—valni yig‘ma qismi; 6—mexanizm prisatka; 7—tishli musta; 8—zichlovchi suv miqdorini o‘chagich; 9—chiqindi chiqadigan qism.

## 2.5. Yuqori konsentratsiyalarni maydalovchi asboblar

Qog‘oz qoplar va taxlovchi qog‘ozlarni olishda maydalashning kombinatsiya texnologiyasi keng qo‘llaniladi. I-bosqich 30–32 % a.q. tolalarni, keyingi bosqich esa – 4–5 % a.q. tolalarni maydalanadi. Bu texnologiya uchun yuqori texnologiyada ishlaydigan, massani 28–35 %gacha suvsizlantiruvchi mashina va shnekli diskali tegirmon bo‘lishi kerak. Suvsizlantiruvchi mashina diskali tegirmonga shnekli transpartyor orqali ulanadi. Navbatdagi maydalash uchun, pressdan keyingi aylanma suv bilan, massa 3–4 %gacha suyultiriladi.

Yuqori konsentratsiyali massani maydalashdan oldin, suvsizlantiriladi. Buning uchun ikki barabanli «Sinds» firmasining suvsizlantiruvchi pressi yoki C2Б tipdagi АЖ «Петрозаводскмаш» zavodi ishlab chiqradigan massa quyuqlantiruvchi press qo‘llaniladi.

Yuqori konsentratsiyali maydalanishda tola uzunligi

saqlanib qoladi, bunda tolalar bir-biri bilan intensiv ravishda ishqalanadi va natijada, ularni fibrillashga olib keladi. Bu mas-sadan tayyorlangan qog'ozning uzilish uzunligi va yirtilishga qarshiliqi, g'ovakligi yuqori bo'ladi (15-jadval).

### **Yuqori konsentratsiya usulida olingan qog'oz qoplar uchun olin-gan qog'ozlarning fizik-mexanik ko'rsatkichlari**

*15-jadval*

Ko'rsatkich	Miqdori
1 m <sup>2</sup> qog'oz og'irligi, g	70,5
Yirtilishga qarshi kuchlar, N	49,4
Nisbiy uzunlik, %	
ko'ndalang yo'nashda	6,5
mashina yo'nalishida	2,4
Teshishga qarshi (mashina yo'nalishida) kuchlar, mN	1140
Havo o'tkazuvchanligi, sm <sup>3</sup> /min	310
Bir tamonida suv yutilishi (Kobb <sub>60</sub> ), g/m <sup>2</sup>	24
Namligi, %	8,8

### **2.6. Maydalovchi pichoqsiz apparatlar**


Diskali tegrimonlar bilan bir qatorda pichoqsiz apparatlar ham qo'llaniladi. Bular Frotapulptr va Bi-Vis. Ularning asosiy qismi 6 va 7-rasmarda keltirilgan.

Bu apparatda ta'sir etuvchi normal kuchlar tolalarni vintlar oralig'ida biroz siljitadi. Natijada, tolali yarimmahsulotni, tolalarni unchalik kaltaytirmsandan, ya'ni tolalarning birlamchi devolini olib tashlaydi, buraydi va parchalaydi. Ishlov berilgan material halqasimon zazor orqali chiqariladi. Bunga o'xshash apparatlar Rossianing АЖ «Петрозаводскмаш» zavodi AT-197, AT-302 markalari bilan chiqaradi.

Bi-Vis apparati Fransiyada dastlab plastmassani qayta ish-


lash uchun 1950-yillarda ishlab chiqargan, keyinchalik selluloza — qog'oz sanoatida tolalarga ishlov berishga moslashtirilgan (Bi-Vis markali apparatlar Yangiyo'l selluloza ishlab chiqarish fabrikasida o'rnatilgan).

Apparat sellulozani oqartirish va yuvish jarayonlarida ham qo'llaniladi. Bi-Vis texnologiyasida bir yillik o'simliklardan: poya, kenaf, paxta, kanop hamda makulaturadan massa tayyorlashda qo'llaniladi. Bu apparat yordamida, ayniqsa, paxta tolalarini qirqishda qo'l keladi. 16-jadvalda Bi-Vis apparati ishtirokida tayyorlangan massani traditsion usulda tayyorlangan massaga qaraganda samaradorligi keltirilgan.



*6-rasm. Frotapultr apparatining tuzilishi:*

- 1—korpus, 2—massani chiqarishdagi zazorni boshqarish me-xanizmi; 3—chiqaruvchi zazor; 4—val; 5—old qopqoq;
- 6—maydalovchi shnek; 7—tепа qopqoq; 8—beruvchi shnek.



**7-rasm. Ikki shnekli Bi-Vis apparatining tuzilishi:**

1—ishlatilgan suyuqlikning chiqadigan joyi; 2—maydalangan materialning chiqadigan joyi; 3—podshipniklar; 4—shneklar;  
5—korpus qopqog'i; 6—ximikatlarni beradigan joy;  
7—maydalanadigan materialning kirish joyi; 8—reduktor;  
9—elektrodvigatel.

### Paxta sellulozasidan, Bi-Vis apparati ishtirokida massa tayyorlashda traditsion usulga qaraganda samaradorligi

*16-jadval*


Samaradorlik ko'rsatkichlar	Texnologiya	
	Traditsion usul oliban qog'oz	Bi-Vis usulida olingan qog'oz
Maydalashga ketgan energiya, kVt.ch/t	1800	1100
Kaustik soda sarfi, kg/t, a.q. tolaga	40	10
Vodorod peroksiidi sarfi, kg/t, a.q. tolaga	50	40
Maydalanish darajasi, °ShR	81	80
1 m <sup>2</sup> qog'oz massasi, g	62	63
Ikki tomonga bukilish, ch.d.p	154	284
Oqligi, % Elrefo	86	84
Silliqligi, Vekk, s	22,4	20,5

## *jadvalning davomi*

Uzulish uzunligi, m:		
mashina yo'nalishida	7371	8635
ko'ndalang yo'nalishda	3686	4317

### **2.7. Inersion tebratuvchi tegirmon**

Inersion tebranuvchi tegirmon (ВИМ) С. Peterburgdag'i «Mexanobr» instituti tomonidan yaratilgan. Ular laboratoriya sharoitida tekshiruvdan o'tgan bo'lib, quyidagi markalari yasalgan: ВИМ-240, ВИМ-300 va ВИМ-600 (raqamlari rotorming katta diametrini mm, ko'rsatadi). 8-rasmda apparatlarining to'xtab turgan va ishlab turgan holatlarining sxemasi keltirilgan.



**8-rasm. Vibratsion tebranish maydalagich apparati rotoring har xir variantda ko'rinish sxemasi:**

a) dastlabki; b, d) ishlab turgan holatlar;

1—elektrosvigatel; 2—kompensatsiyalovchi musta; 3—podshipnik korpusi; 4—mahsulotni kirish joyi; 5—ichi bo'sh val; 6—harakat-lantiruvchi val; 7—tegirmon korpusi; 8—rotor; 9—debalans; 10—ishlanuvchi material; 11—massani chiqish joyi.

Bu apparatning ishlab chiqarish quvvati past bo'lganligi sababli, keng qo'llanishga joriy etilmagan.

---

### **III bob. QOG'oz VA KARTONLARNI MASSADA YELIMLASH**

#### **3.1. Massada yelimlash jarayoni haqida hozirgi zamon dunyoqarashlari**

Qog'oz va kartonlarning yelimanish qobiliyati – namlanishga qarshilik qilish (suv, siyoh, kislota, ishqor, yog' va boshqa suyuqliklarning yutilishi va adsorbsiyalanishi). Qog'ozlarni yelimlashning ikki usuli mavjud: massada va yuzasini yelimlash.

Massada yelimlash – yelimlovchi materialni, qog'oz shakllantirish jarayoni oldidan massaga qo'shiladi. Bunda yelimlovchi material massada bir tekisda aralashadi va natijada, qog'ozda ham tekis tarqalgan bo'ladi. Yuzasida yelimlash – yelimlovchi modda qog'ozni shakllantirish jarayonida yelimlovchi press yordamida, hali qurimagan polotno yuzasiga surtiladi. Ko'p hollarda ikkala usul ketma-ket tartibda qo'llaniladi.

Yelimlash – kimyoviy, fizik-kimyoviy va kolloid-kimyoviy jarayonlar deb alohida qaraladi. Yelimlash natijasida qog'ozga suyuqliklarni yutulishiga qarshilik ko'rsatishi oshadi.

Qog'ozga suyuqliknin tekizganda, suyuqlik qog'ozni namlab, qog'oz yuzasiga yoyiladi hamda kapillar yutilish natijasida tolalar orasidagi bo'shliqlar orasidan o'tib qog'oz strukturasiga o'tadi. Suyuqlik qog'oz yuzasiga yoyilganligi va ichiga shimgani uchun, ularni tolalar ichi va tolalar oralig'i deb farqlanadi. Qog'oz yuzi suyuqlik ta'sirida namlanadimi yo'qmi, uch fazo (qog'oz, – suyuqlik – havo) oralig'idagi sirt taranglik kuchiga bog'liq. Bu kuchlar suyuqliknin qog'ozga namlanish burchagi orqali aniqlanadi.

Namlanish burchagini qiymati  $\cos \theta$  bilan belgilanib,

quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\cos\theta = \sigma_{t-v} - \sigma_{t-j} / \sigma_{j-v}$$

bunda,  $\theta$  — qirra namlanish burchagi;  $\sigma_{t-v}$  — fazolar oralig'idagi (qattiq jism — havo) sirt taranglik kuch;  $\sigma_{t-j}$  — fazolar oralig'idagi (qattiq jism — suyuqlik) sirt taranglik kuch;  $\sigma_{j-v}$  — fazolar oralig'idagi (suyuqlik — havo) sirt taranglik kuch.

Agar  $\theta > 90^\circ$  bo'lsa, namlanmaydi,  $\theta < 90^\circ$  bu holda yuza gidrofil hisoblanadi.

Tola yuzasining namlanishini har xil kimyoviy qo'shimchalar qo'shish bilan o'zgartirish mumkin. Yelimlovchi modda effektiv bo'lishi uchun, u quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1) suv yuqtirmaslik xususiyatiga ega bo'lishi, suv yuqtirmaslik xususiyatini berish uchun qirra namlanish burchagi  $90^\circ$  dan ko'p bo'lishi;

2) tolalar orasidagi devorlari orasidagi kapillarlar suvni yuqtirmasligi uchun, yaxshi disperlangan va tolalar yuzasida tekis tarqalgan bo'lishi;


3) qog'oz massasini tayyorlash jarayonida flokulatsiyalansmaslik uchun, tolalar yuzasida fizik, fizikaviy-kimyo yoki kimyoviy bog'lar bilan bog'langan bo'lishi;

4) namlagich modda bilan kimyoviy reaksiyaga kirishmasligi; aks holda gidrofoblanish xususiyati yo'qoladi;

5) qog'oz ishlab chiqarishga va uning xossalariiga salbiy ta'sir qilmasligi kerak.

Asosiy yelimlovchi modda kanifol bo'lgani uchun, qisqacha uning qog'ozga gidrofob xususiyatini berish mexanizmini ko'rib chiqamiz. Kanifol, smolyan kislotalarining aralashmasi hisoblanadi, suvda erimaydi, kanifolli kley tayyorlash uchun, avval uni eriydigan holga keltirish kerak. Buning uchun uni ishqor bilan ishlov beriladi. Kanifolni ( $C_{19}H_{29}COOH$ ) ishqor ( $NaOH$ ) yoki natriy karbonat ( $Na_2CO_3$ ) bilan ishlov berishda, suvda eriydigan kanifol — eriydigan kley — pastaga o'tadi. Bu reaksiyani

quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin:



Bunda rezinat natriy va suv hosil bo'ladı.




Bu reaksiyalar tipik kislotani ishqor bilan neytrallash reaksiyasiga kiradi. Kanifolni butunlay neytrallash uchun, kanifol massasiga nisbatan, 13 % NaOH yoki 17–18 % Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> qo'shish talab etiladi.

Kley – pastani suyultirgach, ishchi eritma – yelim hosil bo'ladı, uning tarkibida: mayda zarrachalar holida erkin smola (C<sub>19</sub>H<sub>29</sub>COOH), rezinat natriy yoki sovunlangan C<sub>19</sub>H<sub>29</sub> COONa, rezinat natriyni gidrolizi natijasida ajralib chiqqan kolloid smola:




Kolloid smola va erkin smola zarrachalari, selluloza tolaligiga o'xshab suvda manfiy elektr potensialiga ega. Shuning uchun smolani tolaga yopishtrish bu komponentlarning birini qayta zaryadlash kerak. Bu rolni aluminiy sulfati bajaradi. Aluminiy sulfati natriy rezinat bilan, kimyoviy va qattiq suv tuzlari, tolalar bilan kolloid-kimyoviy reaksiyaga kiradi. Reksiyaning yo'nalishi pH muhit ko'rsatkichiga bog'liq. Aluminiyning qaysi shaklda turganiga bog'liq: aluminiy sulfati gidrolizlanib, muhitni holatiga qarab, dissotsiyalangan holatda – ion shaklida yoki dissotsilanmagan holatda – aluminiy gidrooksidi shaklida. Gidroliz quyidagi sxemada boradi:



Muhit kislotaligi ko'tarilsa, aluminiy inoni miqdori orta bo'radi, ishqoriy muhit ko'tarilganda esa dissotsiyalanmagan aluminiy gidroksidi miqdori oshadi. Aluminiyning har bir komponenti ma'lum darajada tolalar va dispers yelim bilan birikadi. Shunday qilib, aluminiy sulfati qog'oz massasiga qo'shganda, u avval sulfat ioniga keyin aluminiy ioniga dissotsiyalanadi. Aluminiy ioni suv bilan reaksiyaga kirishib aluminiy gidroksidini va vodorod ionlarini hosil qiladi. Vodorod ionlari, sulfat aluminiyini qo'shganda pH kamayishiga olib keladi. Sistemada oxirgi muvozanat ionlar aralashmasidan tashkil topadi:



Aluminiy ionlari kanifol dispersining rezinat gruppasi bilan reaksiyaga kirishadi va aluminiy rezinatlar aralashmasini hosil qiladi. Bu reaksiya tezligi juda yuqori bo'ladi va uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:



Amalda yelimli cho'kma: mono-, di- va uchrezinat aluminiy, bo'sh smola qoldiqlari, sovunlanmaydigan mahsulotlar aralashmasidir. Bularning nisbati ko'p hollarda pHga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, smolyan yelim yelimlovchi mitsellardan iborat.

Yelimlashdagи muhim bosqichlardan biri, qog'oz polotnoni qurituvchi silindrлardan o'tganda bo'ladi. Bunda cho'kmadagi yelim suyuqlanib, tolalar yuzasiga yoyiladi. Cho'kma tarkibidagi smolyan kislota va neytral moddalar cho'kmaning suyuqlanish nuqtasini pasaytiradi. Bu jarayondagi muhim faktor — cho'kmaning tashqi yuzasi shunday tartiblanadiki, endi unda gidrofobli rezinat gruppalaridan tashkil topgan bo'ladi.

Gidroliz natijasida hosil bo'lgan aluminiy gidroksidi musbat

zaryadlangan bo'ladi, bu ham qog'ozga gidrofob xossa berishda qatnashadi.

### 3.2. Yelimlash sifatiga ta'sir etuvchi asosiy faktorlar

Qog'ozni yelimlash — ko'p faktorli jarayon, yelimlash sifati quyidagilarga bog'liq: ximikatlarni qog'oz massasiga qo'shish tartibi, muhitni kislotaligi, kanifolli yelim va sulfat aluminiyini sarflanish nisbati, ishlatilayotgan suvni sifati, massa temperaturasi, qog'oz quyush rejimi, presslashga, qog'ozni quritish va kalandrashga.

**Yelim sifati.** Yelimlash effektivligi ko'p hollarda yelim eritmasini sifatli tayyorlashga bog'liq. Yelim tayyorlashga kerakli xomashyolarning sifatiga, yelim-pasta pishirish sharoitiga, disperglash va yelim-pastani suyultirib ishchi eritma tayyorlash faktorlariga bog'liq bo'ladi. Hozirgi vaqtida qog'oz ishlab chiqaruvchi korxonalar kanifoldan tayyorlash ishlarini kamdan-kam korxonalar bajarishadi, asosan tayyor yelim-pasta yoki tayyor holdagi yelim ishlatiladi.

Kanifolni pishirishda sovunlovchi agentni to'g'ri tanlash kerak. Texnologiyada kanifol — ishqor — suv nisbatlarini tanlashga alohida e'tibor berish kerak. Aks holda ko'piklanaib, reaksiyon massa pishiruvchi qozondan toshib ketadi. Olingan yelim-pastani sifati haddan tashqari pasayib ketadi. Kanifolni pishirishda keng tarqalgan kanifol bilan suv nisbati 50:50 bo'ladi. Ko'p hollarda sovunlovchi agent sifatida natriy ishqorini ( $\text{NaOH}$ ) ishlatadi. «Jivichi» kanifolni pishirishda esa sovunlovchi agent sifatida natiriy karbonati ( $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) — kalsiyangan soda ishlatiladi. Bunda temperatura rejimiga katta e'tibor berish kerak. Ko'piklanishni kamaytirish uchun 5–10 % (kanifolga nisbatan) parafin qo'shish taklif etiladi. Kanifolni pishirishning barcha hollarida, texnologiyada tanlangan temperatura va aralashtirish intensivligini ushlab turish kerak. Tanlangan qurilmaga qarab, pishirish vaqtı 1,5–3,0 soat. Pish-

magan yelim-pastani suyultirganda jigarrang yoki sariq rangli dag' al disperslangan emulsiya olinadi.

Kanifolni pishirishda kanifolni eritish jarayonini ko'p vaqtga cho'zish kerak emas. Aks holda kanifoldagi smolyan kislotasida qaytarilmas fizik-kimyoviy o'zgarishlar yuzaga keladi va olingan mahsulot sifati pasayadi (ayniqsa, «jivich» kanifolni ishlat-ganda). Kanifolni qisqa vaqt ichida yuqori qizdiruvchi yuzali apparatni qattiq qizdirib eritish lozim.

Kanifol yelim-pastasini sovunlagach, qog'oz massasiga beradigan shaklga yoki qog'oz yuzasiga surtadigan darajaga keltirish kerak. Buning uchun pishirilgan yelim-pastani suvda eritish yoki dispersiyalash lozim. Buning uchun maxsus apparat (injektor) qo'llaniladi. Injektorlash jarayoni yelim sifatiga ancha ta'sir qiladi. Yelimni injektorlashda yelim, suv va par nisbatlarini to'g'ri tanlash kerak; parni bosimi 250 kPa bo'lishi kerak. Bu ko'rsatkichlar tegishli nisbatlarda ushlab turilmasa, dag' al emulsiya hosil bo'ladi. Emulsiya sifati uning rangi yoki temperaturasiga qarab emas, tayyor yelimni yig'uvchi bakka boradigan quvurda temperaturasini o'chab aniqlanadi. Temperaturasi 70 dan kam va 50°C dan ortiq bo'lishi kerak. Injektorga suv 60–70 °C qizdirilgan holda berilishi kerak. Olingan yelim dispersiya konsentratsiyasi 100–200 g/l bo'lishi lozim. U tezda, tayyor mahsulot baklarida, sovuq suv bilan 25–30 g/l gacha suyultiriladi, suyultirilgan emulsiya temperaturasi 20–25°C dan ortmasligi kerak.

Hozirgi vaqtida yelimlashning yangi texnologiyasi qo'llaniladi. Buning uchun tayyor yelim ishlataladi: yuqori dispersli kanifol yoki sintetik yelimlovchi materiallar ishlataladi.

**Massa pH ning ta'siri.** Qog'ozni yelimlanishiga jiddiy ta'sir etuvchi faktorlardan biri har bir jarayondagi massani pH ko'rsatkichi. pH ko'rakchi, yelimlovchi cho'kmani kimyoviy tarkibiga, uning gidrosoblanish darajasiga va selluloza yuzida saqlanib qolishiga ta'sir etadi. Yelimlash effektivi pH 5,5 da kamayadi, chunki cho'kma kuchsiz musbat zaryadlanadi. pH

4,2–4,7 bo'lganda juda yaxshi yelimlanish xususiyatiga ega bo'ladi, chunki u maksimal darajada musbat zaryadlangan bo'ladi. pH ko'rsatkichi 4 past bo'lganda yelimlash darajasi tezda pasayadi.

Amaliyotda yelimlanishning yaxshi yomonligini, qog'oz qiluvchi mashinadagi ko'piklanish darajasidan ham ma'lum darajada aniqlash mumkin. Ma'lumki ko'piklanishning maksimal ko'rinishi  $4 \geq \text{pH} \geq 6$  da bo'ladi. pH bu miqdordagi cho'kmada smolyan kislotasi ko'p bo'ladi, bu holat ko'pikning effektiv stabilizatori hisolanadi. pH 4,0–4,5 da eng kam ko'pik hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan cho'kmada asosan har xil shakldagi rezinat aluminiy bo'ladi. Ozod smolyan kislotaga qaraganda, bu ko'pikni kam darajada stabillaydi. Bunga alohida e'tibor berish kerak, chunki hozirgi vaqtida korxonalar neytral yoki butunlay sovunlangan turdag'i yelimga o'tmoqda.

Ma'lumki, ximikatlardan aluminiy sulfati, massaning pH ni o'zgartirib turuvchi hisoblanadi. Bunda u selluloza, yelim va suvtuzlari bilan har xil reaksiyaga kiradi. Shuning uchun yelimlovchi bilan aluminiy sulfatining proporsiyasini to'g'ri tanlash qog'ozni yelimlashda katta rol o'ynaydi.

Yelimlashning standart usuli yelimlovchi eritmani, massani neytral yoki sal kam neytral holida berish lozim.

Bunga teskari jarayon – aluminiy sulfatni qisman yoki butunlay yelim eritmasini dozirovka qilgandan keyin qo'shish taklif etiladi.

Yelimlashning noto'g'ri jarayoni – yelimni qog'oz masasiga pH 5,3–6,5 keyin aluminiy sulfat eritmasini berish taklif etiladi. pH bu ko'rsatkichida qo'shilgan yelim eritmasi ozod smolyan kislotasini hosil etishga, bunda koagulatsiyalanishga va ko'piklanishga olib keladi. Bunga, ayniqsa, pek, modifikatsiyalangan va tindirilgan kanifolni ishlatganda alohida e'tibor berish kerak.

**Kanifol va aluminiy sulfatini sarf nisbatlari.** Ishlab chiqarishda kanifol va aluminiy sarfi hisoblab topiladi. Odatda, yelim

bilan aluminiy sulfati nisbati, yelim sarfi miqdoridan qat'i nazar 1:2 yoki 1:1,5 atrofida bo'ladi.

### **3.3. Yelimni, modifikatsiyalangan kanifol mahsuloti asosida konsentratsiyasini oshirish**

Kanifolni modifikatsiyalash yelim sifatini oshiradi va qog'ozni yelimlashga kanifol sarfini kamaytiradi. Yelimlovchi tarkibini tayyorlashning ikkita usuli mavjud: 1) markazlashgan tartibda yelim-pastani o'rmonkimyo zavodlarida tayyorlash; 2) bevosita selluloza-qog'oz olish korxonalarida tayyorlash. Yelimni, modifikatsiyalangan kanifol mahsuloti asosida konsentrangan (mustahkamlovchi) tarkibini markazlashgan tartibda, o'rmonkimyo zavodlarida, yelim-pasta shaklida tayyorlanadi. Yelim-pasta shaklida tayyorlashni keng tarqalishiga quyidagi faktorlar sababchi: yelim sifatining ancha stabilligi; yelimlovchi material sarfini kamayishi; tayyor mahsulotni yelimlanishining o'zgarib turish darajasini kamayishi; shu sababli nuqsonli mahsulotlarning keskin kamayishi.

Oshirilgan konsentratsiyani tayyorlash — terpeninga (tozalangan jivitsani 40 %gacha skipidar bilan suyultirilgani) malein angidridi bilan 80–95°C temperaturada, olingen mahsulotni ishqor bilan sovunlab (омыление) so'ngra skipidarni par haydash yo'li bilan ishlov beriladi.

Tayyorlangan yelimning xarakteristikasi:

Tashqi ko'rinishi .....pasta shaklidagi oq-kulrang massa  
Asosiy modda miqdori, % .....68–72

Reaksiyaga kirishmagan smolyan kislotaning miqdori, % .5–12

Maleopimarli kislotasini miqdori, %, kamida .....10

Uchuvchi moddalar miqdori, % ko'pi bilan .....2,0

Konsentrangan yelimni suvda erishi ....qoldiqsiz, butunlay.

Bu texnologiya dastlab Borisov o'rmonkimyo zavodida (Belarusiya) o'zlashtirilgan, keyinchalik Tixvin o'rmonkimyo zavodida (Leningrad oblasti, Rossiya). Hozirgi vaqtida bir

qancha selluloza-qog'oz sanoati shu yelimni keng ishlatib kelmoqda.

### 3.4. Yordamchi materiallar

Koagullash uchun va yelim qismini tolalarga mahkamlash uchun aluminiy sulfati, ammiakli aluminiy yoki alumin kaliyli kvass va natriy aluminatlar qo'llaniladi.

Aluminiy sulfati ( $\text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 \cdot 18\text{H}_2\text{O}$ ) hozirgi vaqtida smolyan zarrachali yelimni koagullab tolalarni jipslashtirishda keng qo'llaniladi. Aluminiy sulfatni ko'p hollarda «kvasslar» bilan almashtirishadi, buning farqini ajratish lozim. Kvasslar bu bir valentli va uch valentli metallarning sulfat tuzlari, masalan, alumokaliyli kvasslar  $\text{KAl}(\text{SO}_4)_2$ , aluminnatriyli kvasslar  $\text{NaAl}(\text{SO}_4)_2$ , aluminiy sulfat esa aluminiyning uch valentli sulfat tuzi. Koagullovchi sifatida kvasslar qimmat bo'lgani uchun kam qo'llaniladi. Sulfat aluminiy kaolini yoki boksidlarni sulfat kislota bilan ishlov berib olinadi. Tayyor mahsulotda  $\text{Al}_2\text{O}_3$  va  $\text{SO}_3$  nisbatlari 1:2,35 bo'lishi kerak. Nazariy hisoblaganda  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ning miqdori sulfat aluminiy tarkibida 15,33 % bo'lishi kerak. Buning tarkibida temirning bo'limgani ma'qul, chunki u qog'ozni rangini sarg'aytiradi. Temirning midori 0,01 %dan ko'p bo'imasligi kerak.

$\text{Al}_2\text{O}_3$  olish texnologiyasiga qarab, uning miqdori tayyor mahsulotda 14dan 18 %ni tashkil etadi. Mahsulot tarkibida  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ning ko'p bo'lganda rangi oq-havorangligi yaxshi hisoblanadi.

Korxonalarga aluminiy sulfati bo'laklar, granullar yoki kunkun holida kelishi mumkin. Aluminiy sulfati suvda yaxshi eriydi. Gidroliz natijasida aluminiy sulfatining eritmasi kislotali bo'ladi. Bu aluminiy sulfatini sarfiga va yelimlash sifatiga katta ta'sir etadi.

Polioksialuminiy xlorid xloridli aluminoksid aligomer va polimerlardir. Yelimlash texnologiyasida qog'oz massasida yuqori effektivli funksional kimyoviy komponent hisoblanadi.

Natriy aluminati  $\text{NaAlO}_2$  yelimlash jarayonini neytral muhitda o'tkazish imkonini beradi. Olingan qog'ozni ishqalanishga qarshiliqi oshadi, qo'shimchalarini va mayda tolalarni ushlab qolishi oshadi hamda texnologik qurilmalarning karroziyaga uchrashi kamayadi.

Natriy aluminat boksidlarni natiriy ishqori bilan ishlov berib olinadi. Natriy aluminat granul, kukun yoki yuqori konsentrangan eritma ko'rinishida ishlab chiqariladi. Qattiq natriy aluminat suvda yaxshi eriydi va ishqoriy reaksiyali kolloid eritma hosil qiladi. Bunda  $\text{Al}_2\text{O}_3$ ning miqdori aluminiy sulfatdagiga qaraganda yuqori (17–18 %). Natiriy aluminatining eng katta kamchiligi eritmasining beqarorligi. Eritmaning stabilligini oshirish uchun ishqordan ko'proq qo'shish kerak (5 % atrofida). Eritishni va suyultirishni yumshoq va iliq suvda ikki bosqichda o'tkazish lozim: dastlab 30 %-li, so'nga bundan konsentratsiyasi 2,5 %lik eritmani har kuni tayyorlash lozim. Natriy aluminat va aluminiy sulfatlarni bir vaqtida ishlatish mumkin emas.

Kanifolli yelimni pishirishda texnik natriy gidroksidi ( $\text{NaOH}$ ) yoki texnik natiriy karbonatini ( $\text{Na}_2\text{CO}_3$ ) ishlatish tavsiya etiladi.

*Natriy gidoksidi* (texnik) korxonalarga qattiq (qattiq kaustik soda) yoki konsentrangan eritma (suyuq kaustik soda) ko'rinishda keltiriladi. Qattiq natriy gidroksid tarkibida 92–95 %  $\text{NaOH}$ , karbonat natriy 3...4 % va natriy xlorid 2 %dan ko'p bo'lmasligi kerak. Suyuq kaustik soda tarkibida  $\text{NaOH}$  miqdori 60 %,  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  miqdori – 2–4 %,  $\text{NaCl}$  – ko'pi bilan 3 % bo'lishi kerak.

*Natriy karbonat* (kalsiyangan soda) korxonaga quruq kukun ko'rinishida keltiriladi.  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  miqdori 98 %,  $\text{NaCl}$  – ko'pi bilan 1 % va  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  – ko'pi bilan 0,1 %. Eriganda cho'kmada biroz qolishiga ruxsat etiladi.

*Ishlab chiqarish suvi* texnologiyaning barcha jarayonlarida ishtirok etib, jarayonning ketishiga katta ta'sir etadi. Selluloza-qog'oz ishlab chiqarishda suv ko'p miqdorda ishlataladi. Suv

barcha manbaalardan olib ishlatiladi. Suvning sifat ko'rsatkichlari – undagi erigan va muallaq holdagi mineral va organik moddalar, bular suvni pH, oksidlanishi, rangi va boshqa xossalari ni ifodalaydi.

Eng muhim ko'rsatkichlaridan biri suvning qattiqligi, asosan suvdagi kalsiy va magniy tuzlarini xarakterlaydi. Vaqtinchalik – Ca(HCO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>, Mg(HCO<sub>3</sub>)<sub>2</sub> va turg'un qattiqlik – kalsiy va magniyning boshqa tuzlari – sulfat, xlorid va silikat tuzlari. Ikkala guruh qattiqlikning yig'indisini umumiy qattiqlik deb yuritiladi va CaO hisobida 1 Idagi miqdori mg-ekvivalent (mg-ev/l) bilan o'lchanadi. Ba'zan, suvni qattiqlik birligini nemischa gradusda (H°) o'lchaydi ham. 1 mg-ekv/l = 2,8 (H°), yoki (H°) = 10 mg CaO/l 1 suv. Suv tarkibidagi temir, marganets va kremlniy tuzlari suv sifatini pasaytiradi. Chunki suvga rang beradi yoki cho'kma hosil qiladi. Ishlatish uchun olingan suvning joyiga qarab, uning qattiqligi har xil bo'ladi. Quyida suvlarning qattiqligiga qarab xarakteristikasi keltirilgan, mg-ekv/l CaO:

Juda yumshoq.....	1,5 gacha
Yumshoq.....	1,5–3,0
O'rtacha qattiqlik ....	3,0–6,0
Qattiq .....	6,0–9,0
Juda qattiq .....	9,0 dan ortiq.

Qattiq va juda qattiq suvlar bu dengiz suvlarini hisoblanadi. Ishlab chiqarishda qo'llaniladigan suvlar, ularning qattiqligiga qarab uch guruhg'a bo'linadi: yumshoq – 0,7–1,2 mg-ekv/l CaO (H° 5 gacha); o'rtacha – 1,2–2,4 mg-ekv/l CaO (H° 10 gacha); qattiq – 2,4dan yuqori mg-ekv/l (H° 10 dan yuqori). Tabiiy suvning pH 4,5dan 7,5 atrofida bo'ladi. Ko'p hollarda ishlab chiqarishda suvni unumiy qattiqligi hisobga olinadi. Bu quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$P \cdot 100 = V \cdot 0,1,$$

bunda,  $V$  – titrlashga ketgan 0,1 n natriy ishqorining hajmi.

$P$  ga nisbatan tenglamani yechsak, unda:

$$P = V \cdot 0,1/100 \text{ yoki } P = V \cdot 10^{-3}$$

Odatda, umumiy qattiqlikni  $\text{CaCO}_3$  ni 1 l suvgaga nisbatli olinadi. Bunda 1 mg-ekv/ $\text{CaCO}_3$  50 mg ga teng bo'ladi, unda formula quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$P = 50 \cdot V, \text{ mg CaCO}_3/l$$

### 3.5. Koagulant ishlatalishini optimallash va qog'ozni yelimlanish sifati

Qog'ozni yelimlanish sifatiga ko'p faktorlar ta'sir etadi, bularidan biri qog'oz massani muhiti. Qog'oz massani kislotaligini stabillash yelimlash sifatini bir tekisda o'tkazishga va yelimlovchi mahsulotni va koagulantlarni sarfini kamaytirishga olib keladi.

Yelimlangan qog'oz massa murakkab kompozitsiya, tolali, to'ldiruvchi, yelimlovchi va koagullovchilar buferlanish xossasiga kuchli ta'sir etib, qog'ozni yelimlanishini pH orqali tekshirishni qiyinlashtiradi. Qog'ozni yelimlanish sifatini ta'minlash uchun pH ko'rsatkichini har gal bir tekisda 4,5 ko'rsatkichida ushab turish kerak.

O'tkazilgan tajribalarga qaraganda pH, massadagi aluminiy sulfat konsentratsiyasi bilan moslashtiriladi. Bu hol massadagi aluminiy sulfatini pH orqali tekshirilganda yaxshi natija bermaydi. Tekshirishning eng qulay yo'li massanining umumiy kislotaligini ( $R$ ) aniqlash yo'li hisoblanadi. Bu yo'l bilan qog'oz ishlab chiqarishda aluminiy sulfatini sarfini aniq kuzatib borish mumkin. Taklif etilgan  $R$  ko'rsatkich koagulantni uzluksiz sarf miqdorini tekshirib turishni avtomatlashtirishga imkon beradi. Qog'oz massasini umumiy kislotaligini tekshirib turish, ish samaradorligini va qog'oz qilish mashinasida ishlovchilarning madaniyatini oshiradi.

Qog'oz, karton ishlab chiqarishda, zamonaviy yelimlash texnologiyasini kimyoviy, fizik-kimyoviy, gidrodinamik jarayonlardan ajralgan holda, qarash mumkin emas. Shuning uchun, mahsulot sifatini boshqarishda, eng ishonchli parametr sifatida kation-anion balansi sistemasi - «suv – tolalar – kimyoviy yo'l (средства)» yaxshi usul hisoblanadi. Ishlab chiqaruv-chilarga qulay bo'lgani bilan, tegishli priborlarning topilishini qiyinligi – usulning asosiy kamchiligi hisoblanadi.

### 3.6. Yelim sifatini texnologik kuzatish usullari

Kanifol yelimni, smolyan kislotasini ishqor bilan, atmosfera bosimida, yuqori temperaturada, neytrallab (pishirib) olinadi. Natijada, suvda yaxshi eriydigan smolyan kislotasining natriyli tuzi hosil bo'ladi.

Ma'lumki, kanifolni butunlay neytrallash, abietin kislotasini qo'shib hisoblaganda, nazariy jihatdan 13,3 % natriy gidroksidi yoki 17,4 % natriy karbonati (kanifolga nisbatan) qo'shilishi kerak. Bunda butunlay sovunlangan yoki neytrallangan kanifol yelimi olinadi. Kanifol tarkibidagi smolan kislotasini butunlay neytrallaganda oq (tarkibida 35 % ozod smolan kislota bo'lgan), yoki yuqori smolyanli yelim (tarkibida 70–90 % ozod smolan kislotasi bo'lgan) olinadi.

Yelimni pishirishga sarflanadigan ishqor miqdorini (%), quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$A = 0,1 K_{ch} M_2 (100 - C) / M_1 P,$$

bunda,  $K_{ch}$  – kanifoldagi kislota soni, mg KOH/g;  $M_1$  – KOHni ekvivalent molekular massasi,  $M_1 = 56,1$ ;  $M_2$  – pishirishga ishlatilayotgan ishqorni ekvivalent molekular massasi;  $P$  – pishirishga ishlatilayotgan texnik mahsulotdagi ishqorning porsial qismi;  $C$  – yelim tarkibida bo'lishi kerak bo'lgan ozod smola miqdori, %.

*Misol.* 25 % ozod smolasi bo'lgan kanifolni pishirish uchun sarflanadigan natriy ishqorining miqdorini aniqlash kerak. Kanifolni kislota soni 170, texnik ishqor tarkibidagi ishqor miqdori 98 %.

$$A = 0,1 \cdot 170 \cdot 40 (100 - 25) / 56,1 \cdot 98 = 9,30 \%$$

- Formuladan ko'rinish turibdiki, ishqor sarfni hisoblashda kanifolni kislota soniga qaraladi. Amaliyat shuni ko'rsatdiki, bu yo'l bilan hisoblashda, ishqor sarfi bilan yelim tarkibidagi ozod smola orasida biroz to'g'ri kelmasligi aniqlandi. Yuqoridagi formula bilan hisoblab topilgan ishqor miqdori, to'lasovunlangan yelimni pishirish uchun sarflanganda kutilgan natijani olish qiyin. Kanifolni bir qismi sovunlanmay qoladi, rangi oppoq bo'lib, tarkibida ozod smolaning bir qismi qoladi. Buning sababi formulada kislota sonini hisobga olinganligi.

Kislota soni – bu 1 g kanifolning spirtli eritmasini, xona haroratida, KOH bilan titrlashda, millilitr hisobidagi sarfi. Lekin kanifol pishirish temperaturasi suvni qaynash temperaturasiga yaqin. Bu sharoitda ishqor bilan reaksiyaga kiruvchi boshqa moddalar – kanifol tarkibida har doim bo'ladigan oz miqdordagi qo'shimchalarning borligi: spirtlar, smolan esirlari va boshqalar. Shuning uchun ishqorni sarfni hisoblashda kislota soni emas, kanifolni qizdirishda neytrallovchi ishqor miqdori – sovunlash sonini, ya'ni kanifolni pishirish jarayonidagi sharoitni hisobga olish lozim. Ko'p hollarda kanifolni kislota soni 149–179, sovunlash soni esa 166–196 mg KOH bo'ladi.

Kanifol yelimini sifatini quyidagi ko'rsatkichlar orqali olib boriladi: yelim konsentratsiyasi, ozod smola miqdori, yelimni dispers darajasi va yelim tarkibidagi ishqor miqdori.

**Yelim konsentratsiyasini aniqlash.** Yelimlovchi material qog'oz massasini tayyorlashda qimmatli komponentlardan hisoblanadi. Shuning uchun uni ehtiyyotkorlik bilan sarflash, hisob-kitoblarni to'g'ri olib borish lozim. Yelim konsentratsiyasini

quyidagi usul bilan aniqlash mumkin: quruq qoldiq, smolani sulfat kislotada cho'ktirish, smolan kislotalarni suvsiz muhitda titrlash va fotometr usuli. Zavod laboratoriyalarda qo'llash mumkin bo'lgan oson usullar bu quruq qoldiq va smolani cho'ktirish.

Quruq qoldiq usuli bilan aniqlashda pipetka bilan 20 ml kanifol yelimidan olib, quritilib tortilgan farfor tigelga quyuladi, sekinlik bilan suv hammomida suvni parlatishadi, quritish shkafida 105°C da massani og'irligi o'zgarmaguncha quritiladi. Yelim konsentratsiyasi  $C_k$  quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$C_k = a \cdot 1000/20 = 50 \cdot a, \text{ g/l},$$

bunda,  $a$  — qoldiqni a.q. massasi, g.

Yuqori smolali yelimni konsentratsiyasini aniqlashda, quritilib tortilgan 50 ml li farfor tigelga taxminan 5 g yelimdan solinadi. So'ngra 120°C da, og'irgigi o'zgarmay qolguncha, quritiladi. yelim konsentratsiyasini quyidagi formula bilan hisoblaydi:

$$C_k = a \cdot 100/g, \%,$$

bunda,  $a$  — qoldiq a.q. massasi, g;  $g$  — tajriba uchun olingan namuna og'irligi, g.

Smolani cho'ktirish yo'li bilan aniqlash usulida, pipetka bilan konus shaklidagi kolbaga 29 ml kanifol yelimidan quyuib, ustiga 30 ml 0,1 n sulfat kislotasi eritmasidan quyuladi. Aralashmani elektrplita ustida qizdirish jarayonida suyuqlikni aralashtirib turiladi, pag'a-pag'a bo'lib cho'kkani smolani bitta qilib to'planadi. Kolba biroz sovugach, plastik holdagi qolgan smolali bo'lakchalar yig'ib olinadi, distillangan suv bilan yuviladi, filtr qog'oz ustida quritilib, tortiladi va yuqorida keltirilgan formula bilan yelimni konsentratsiyasi aniqlanadi. Bu usulda aniqlangan yelim konsentratsiyasini xatosi, yelimga

bog'langan suv hisobiga, 10–20 %ni tashkil etishini e'tiborga olish lozim. Bu xatolik kanifolni sarfini qog'oz olishda 2–5 kg/t ortiqcha sarflashga olib keladi. Shuning uchun quruq qoldiq usulidan foydalanish aniqroq natija beradi.

Yelim tarkibidagi ozod smola miqdorini aniqlash. Kanifolli yelim tarkibidagi ozod smola uning muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi. U yelimlovchi emulsiya sifati va yelimlovchi emulsianing yelimlash qobiliyatiga ta'sir etadi. Yelim tarkibidagi ozod smolani aniqlashning ikkita usuli mavjud: titrlash va efir bilan ekstraksiyalash.

Titrlash usulida 1 g atrofida kanifolli yelimni, hajmi 100 ml bo'lgan farfor likobchaga tortib olib, suv hammomida 60–70°C da yelimni 50 ml 96 % etil spirtida eritadi. Iliq eritmaga 2–3 tomchi fenolftalein tomiziladi va 1 n natiriy ishqori bilan xiyol qizil ranggacha titrlanadi.

Ozod smola miqdorini quyidagi formula bilan aniqlaydi:

$$m_c = m \cdot V \cdot 100/g,$$

bunda,  $m_c$  – ozod smolani massa ulushi, %;  $m$  – 1 ml 1 n natiriy ishqori bilan neytrallangan kanifol massasi, g;  $V$  – 1 n ishqorni titrlash uchun sarflangan hajmi, ml;  $g$  – analiz uchun olingan yelim massasi, g.

$m$  ko'rsatkichi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$m = 100 \cdot 0,04 \cdot 56/K_{ch} \cdot 40 = 56 / 10 K_{ch},$$

topilgan  $m$  ni o'rniqa qo'ysak  $m_c$  hisoblashni oxirgi formulasi kelib chiqadi:

$$m_c = 560 \cdot V/g \cdot K_{ch},$$

Efir ekstraksiya usuli yelim tarkibidagi ozod va bog'langan smolalarni alohida-alohida aniqlash imkonini beradi.

3 g yelim-pastasini (kanifol yelimdan tayyorlangan) 50 ml iliq suv bilan suyultiriladi va uni ajratuvchi voronkaga quyuladi, ustiga 35 ml efir (petroleyn, oltingugurtli) va yaxshilab aralashtiriladi (встряхивают). Bunda ozod smolan kislotani asosiy qismi efirda eriydi. Ajratish voronkasidan pastki — suv qismini boshqa ajratuvchi voronkaga oqiziladi, yuqoridan efirli qismini, tortilgan kolbaga quyuladi. Ikkinci voronkadagi suvli eritma, tarkibida efirda erimaydigan, asosan smolan kislotasini natriyli tuzi, efirda erigan qismini besh marta qaytarib, ozod smoladan butunlay ozod qiladi. Efir qismini hammasi qo'shiladi va efir haydaladi, smolani quritib tortiladi. Ajratish voronkasidagi suvli qismiga suyultirilgan sulfat kislotasidan kislotali muhit hosil bo'lguncha tomiziladi. Shu usulda ishlov berilgan smolan kislatasini natriyli tuzini ozod smolaga o'tkaziladi, uni ham efir bilan yuqriddagi usul bilan ajratib olinadi va efiri haydaladi, birinchi qismidagi usul bilan aniqlanadi:

Ozod smola miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$m_c = (m_1 / g) 100, \%$$

bunda,  $m_1$  — quritilgan ozod smola massasi, g;  $g$  — yelim namuna massasi, g.

Yelim tarkibidagi ozod va bog'langan smolalar miqdorini yuqoridagi formulaga qo'yib topiladi.

Kanifol yelimi tarkibidagi ozod smola miqdorini aniqlash uchun titrlash usuli aniqroq natija beradi. Modifikatsiyalangan kanifoldan tayyorlangan yelim tarkibidagini — efir usuli bilan aniqlangani yaxshiroq.

**Kanifol yelimi disperslik darajasini aniqlash.** Disperslik darjasini mikroskop orqali yoki lanametrda 600–800 kattalashtirish orqali aniqlanadi. Buning uchun, predmet oynasi ustiga, o'ta suyultirilgan yelimdan tayyorlangan preparat tomiziladi. Ustini ikkinchi predmet oynasi bilan yopiladi. Buning uchun biologik mikroskoplarning o'lchovchi lineykasi bo'lgan barcha

turlaridan foydalanish mumkin.

*Misol.* Obyektivdagи lineykaning bir bo'lagi 0,01 mm, yoki 10 mkm, bunda 75 okular – mikroskop bo'lagi 15 obyekt – mikrometriga teng. Okular – mikrometr bo'lagining qiymati ( $15 \cdot 0,01 / 75 = 0,002$  mm = 2 mkm ga teng).

So'ngra obyektiv mikrolineykasini olib qo'yib, predmet stoliga yelimli preparat oyna o'rnatiladi. Yelimdagi har xil diametrndagi, masalan, 1 mkm gacha, 1 dan 2 mkm va 2 mkm dan katta zar-rachalar hisoblanadi. Har bir fraksiyalarni %da ifodalanadi.

Yelim tarkibidagi ishqorni aniqlash. Smola konsentratsiyasini aniqlagandan so'ng qolgan suyuqlik 0,1 n natriy ishqori bilan, fenolftalein ishtirokida, och qizil rangacha titrlanadi.

Yelim tarkibidagi ishqor  $S_i$  quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$S_i = (30 - V) 1000 \cdot 0,004 / 20 = 0,2(30 - V), \text{ g/l},$$

bunda,  $V$  – titrlashga sarflangan 0,1 n ishqorning hajmi, ml.

**Aluminiy sulfati konsentratsiyasini titirlash metodi bilan aniqlash.** Kanifol yelimini koagulatsiyalash va uni tolalarga mahkamlash uchun, qog'oz massasiga aluminiy sulfati qo'shiladi. Aluminiy sulfati eritmasini tayyorlash uchun, 10 g atrosifa undan olib 90–100 ml iliq distillangan suvda eritiladi. So'ngra tayyorlangan eritmani konsentratsiyasi (titrlash yoki zichligi orqali) va erimagan qoldiq aniqlanadi. Tayyorlangan aluminiy sulfat eritmasidan 2 ml olib, 25 ml 0,05 M trilon B eritmasi qo'shiladi va 10 ml atsetat bufer eritmasi (pH 5,7–5,8) qo'shiladi. Kolbadagi aralashma elektrplitkada qizdiriladi, 2–3 min qaynagach, havoda sovitiladi, 30 ml atseton qo'shiladi, ditioazon indikatoridan 1 ml solinib, 0,05 M ZnSO<sub>4</sub> bilan qizg'ish-binafsha ranga o'tgancha titrlanadi; 1 ml 0,05 M 1,349 mg/ml Al<sup>+3</sup> to'g'ri keladi. Aluminiy ionlarini x miqdorini quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$x = (25 \cdot K_1 - aK_2) \cdot 1,349 / 2, \text{ g/l}$$

bunda,  $K_1$ ,  $K_2 = 0,05$  M trilon B va  $ZnSO_4$  eritmalariga tuzatuvchi koefitsiyentlar.

Aluminiy sulfat konsentratsiyasini  $Al_2(SO_4)_3 \cdot 18H_2O$  hisobida quyidagi formula bilan hisolash mumkin:

$$C = (x666)/54, g/l$$

Aluminiy sulfat eritmasi konsentratsiyasini uning zichligi orqali aniqlash mumkin (17-jadval).

**Aluminiy sulfat konsentratsiyasining eritma zichligiga bog'liqligi  
17-jadval**

Eritmaning 15 °C dagi zichligi, g/sm <sup>3</sup>	Aluminiy sulfatining konsentratsiyasi, g/l, tarkibidagi $Al_2O_3$ , %		
	13	14	15
1,005	11	10	9
1,016	32	30	28
1,020	54	50	47
1,036	75	70	65
1,045	97	90	84
1,055	118	110	100
1,064	140	130	121
1,075	162	150	140
1,082	189	170	159
1,092	205	190	177
1,101	225	210	196
1,110	248	230	215
1,119	250	250	233
1,128	291	270	252
1,137	312	290	271
1,145	334	310	289
1,154	355	330	308

**Suvda erimagan qoldiq miqdorini aniqlash.** O'rtacha namunadan 10 g olib 70–80 ml issiq suvda eritiladi. Kulsiz filtr orqali filtrlanadi,  $\text{SO}_4^{2-}$  ioni tugaguncha sovuq suvda yuviladi. Filtratni 250 ml o'lchamli kolbada yig'iladi va uni aluminiy sulfatini titrlash usuli bilan aniqlaguncha qoldiriladi, qoldiq bilan filtr quritiladi, so'ngra kuydirilib, tigildagi massa sovitiladi. So'ngra analitik torozida tortiladi.

Erimagan qoldiq x quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$x = a \cdot 100/g, \%$$

bunda, a – kuydirilgan qoldiq massasi, g; g – aluminiy sulfat namunasi, g.

### 3.7. Tayyor mahsulotni yelimlanish darajasini aniqlash

Qog'oz va kartonning yelimlanish sisatini yelimlanish darjasи bilan aniqlanadi. Shu bilan birga, kanifol yelimni ushlab qolinish ko'rsatkichi ham aniqlanadi. Bu ko'rsatkich orqali, ma'lum darajada kanifol yelimini ushlab qolinish darajasini ham aniqlash mumkin.

**Kanifol yelimini qog'ozda ushlab qolinish ko'rsatkichini aniqlash.** 5 g tayyor yelimlangan qog'oz massasidan olib, 3x3 mm o'lchamda kesiladi, smolasizlangan filtrga o'raladi va 3-8 ekstrakt apparatini (9-rasm) yig'uvchi 4 qismiga joylashtiriladi. Ekstraktor 1 kolbasiga uning 2/3 hajmiga 4 ml konsentrangan xlorid kislota va 500 ml etil spirit aralashmasi quyuladi. Qaytarma sovitgichga 3 sovuq suv ulanadi va suv hammomi yordamida 5 soat mobaynida ekstraksiya qilinadi.

Isitish darjasи shunday tashkil etiladiki, 1 soat ichida 8–10 marta spirit ekstrakt yig'uvchi qismidan toshib tushadigan bo'lishi kerak. Ekstaksiya tugagach, spiritni suv hammomida 5–10 ml suyuqlik qolgancha haydaladi. So'ngra kolbani termo-statga o'rnatiladi va 105°C da suyuqlik butunlay uchirib yubori-

ladi. Kolbadagi quruq qoldiq sovitilgach, 20 ml dietil efirda erililadi.



9-rasm. Qog'ozdag'i kanifol yelimini ushlab qolish uchun

**Ø - 8 apparati:**

1—kolba; 2—ekstraktor; 3—qaytaruvchi xolodilnik;

4—ekstrakt yig'uvchisi; 5—suv hammomi.

Efirli eritma kulsiz filtr orqali filtrlanadi, cho'kma 20 ml efir bilan yuviladi va olingan ikkala filtratlar, quritib tortilgan byuksga quyuladi. Efirni suv hammomiga haydaladi, byuksni esa og'irligi bir xil bo'lгancha  $105^{\circ}\text{C}$  da quritish shkafida quritiladi. Olingan natijani, kanifol yelimini qog'oz massasi suspenziyasiga (1 t qog'oz yoki karton) qo'shilgan massasiga nisbatan %da ifodalaydi.

Bu aniqlash uchta parallel qaytariladi. Uchalasining farqi 5 %dan oshmasligi kerak. Ushlab qolningan kanifol yelim U quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$U = g_1 10^6 \cdot 100/g \cdot G \cdot 10^3 = 10^5 g_1/gG, \%$$

bunda,  $g_1$  — olingan qog'oz namunasidagi yelim massasi, g;  $g$  — namuna qog'oz massasi, g;  $G$  — kanifol yelimini sarfi, kg/t.

*Misol.* Qog'oz olishda kanifol yelimni sarfi 18 kg/t. Analiz uchun olingan qog'oz namunasi 5,3 g, namunadagi yelim massasi 0,081 g ekan. Bunda:


$$U = 10^5 g_i/gG = 105 \cdot 0,081/5,3 \cdot 18 = 85 \%$$

**Qog'ozning yelimlanish darajasini aniqlash.** Qog'oz va kartonlarning sifat ko'rsatkichlaridan biri yelimlanish darjasи. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun 50 dan ortiq usullar ishlab chiqilgan. Rossiyada qog'ozni standart tekshirish uchun siyoh-shtrixli usul va quruq indikator usuli qo'llaniladi. Shu bilan birga qog'ozni bir tomonidan namlanish (Kobb) usuli ham qo'llaniladi.

Siyoh-shtrixli usul – bu usul oddiy va keng qo'llaniladigan metod hisoblanadi. Usulning mazmuni – qog'oz yuzasiga siyoh solingen resfeder bilan har xil qalinlikda shtrixlar chizish, bunda siyoh yoyilmasligi va varog'ni ikkinchi betiga o'tmasligi (24 soatda) lozim.

Yozuv qog'ozini yelimlanish darajasini aniqlash uchun 2-raqamli standartlashtirilgan binafsha rang siyoh qo'llaniladi. 1-raqamli siyoh bilan boshqa barcha qog'ozlarning yelimlanish darjasи aniqlanadi.

Qog'ozni yelimlanish darajasini aniqlash uchun, bir varoq qog'oz namunasini tekis yuzaga qo'yib, resfeyderlarni 10 mm balandlikkacha tegishli siyohdan solib, qalinligiga qarab ketma-ket o'rnatilgan resfeder bilan kamida 140 mm chiziqlar chiziladi. Birinchi shtrix kengligi 0,25 mm, qolganlari 0,25 mm dan oshib borgan qalinlikda bo'lishi kerak. Oxirgi shtrixning kengligi 2 mm. Bu metod orqali, qog'ozni yelimlanish darjasи, namunaga olingan qog'oz yuzasidagi siyoh quritilgandan keyin, shtrixni siyoh yoyilmagan va varoqni ikkinchi betiga o'tmagandagi yuqori eni millimetrda o'lchanadi. Masalan, to'rtta shtrixlardan yoyilmagan va ikkinchi betiga o'tmaganlari shtrixlar 0,25 va 0,50 mm, bunda yelimlanish darjasи 0,50 tashkil etadi. Bu metod bilan qog'ozning yelimlanish darjasini aniqlashda ШПБ pribori qo'llaniladi (10-rasm).



**10-rasm. Qog'ozning yelimlash darajasini aniqlashda qo'llaniladigan ІІПБ pribori:**

1—pribor ramkasi; 2—resfederlar; 3—mustacha; 4—fiksator;  
5—ruchka; 6— valik; 7—siljuvchi tyagi; 8—priborni asosi;  
9—to'xtatkich halqa.

Tekshirish uchun tayyor mahsulotdan 5 varoq olinadi va tekshiriladi. Resfederlarni siljitish tezligi taxminan 80—100 mm/sek.

Quruq indikator usuli bilan yelimlanish darajasini aniqlashda svjni qog'oz qalinligining ikkinchi tomoni namlanganda indikatorning rangi o'zgargandagi vaqtini aniqlashga asoslangan.

Indikator ikki qismdan iborat— 9 qism shakar uni, bir qism kraxmal va 0,2 qism K markali binafsha rangli bo'yoq. Shakar uni va kraxmalni aralashtirishdan oldin alohida-alohida yanchilib, 40-raqamli elakda elanadi va 100°C da 15 soat quritiladi. So'ngra komponentlardan aralashma tayyorlanadi, 30 min quritiladi va yana o'sha elakda elanadi. Tayyor indikator shisha sklyankada, ishqalangan probka bilan yopilgan holda saqlanadi.

Quruq indikator usuli bilan qog'ozning yelimlanish darajasini aniqlash uchun, tekshiriladigan qog'oz varoqlardan 50x50 mm o'lchamda 5 dona qirqib olinadi, qalinligi aniqlanadi, chetlarini 5 mm balandga qayrib qo'yiladi. Tayyorlangan namuna

ichiga 24-raqamli setka orqali yupqa qilib quruq indiqator sepi-ladi. Indikator sepilgan namuna, suv solingan vannaga tushiri-ladi va vaqt sekundomerda o'chanadi. Bu amallar  $20+1^{\circ}\text{C}$  da bajariladi. Indikatorni dastlabki o'zgarishi bilan sekundomer to'xtatiladi va vaqt yoziб olinadi. Qog'ozni har ikkala tomoni shu tariqa alohida-alohida tekshiriladi.

Yelimlanish darajasi D quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$D = t/h, \text{s/mm},$$

bunda,  $t$  — vaqt, sekund;  $h$  — qog'oz qalinligi, mm.

Besh marta tekshirilgan natijalarning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

Kobb usuli qog'ozning suvni so'rish natijasida og'irligini oshishiga asoslangan. Qo'llaniladigan asbob — tagi tekis, ichki diametri 112,7 mm lik silindr shaklidagi idish.

Tekshirish quyidagicha bajariladi. Shablon bilan o'lchami  $120 \times 130$  mm bo'lgan namuna tayyorlangan qog'ozdan kesib olinadi. Namuna silindrni pastki qismiga o'rnatiladi va u silindr korpusi bilan siqib qo'yilgach, silindrga 100 ml suv quyuladi, xona temperaturasi  $20+1^{\circ}\text{C}$  da tegishli vaqt ushlab turilgach, suvi to'kib tashlanadi va 45 sekund  $180^{\circ}$  holatida ushlab turiladi. So'ngra elektron torozida 10–15 sekund mobaynida tortiladi. Sinash uchun 4 ta namuna olib ikkala tomoni tekshiriladi.

$1 \text{ m}^2$  qog'ozga yutilishi har qaysi tomonini alohida quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$G = 100(b - a), \text{g/m}^2$$

bunda,  $b$  — namunani sinashdan keyingi massasi, g;  $a$  — namunani sinashdan oldingi massasi, g.

Natijasi uchun 5 ta sinovni o'rtacha arifmetik qiymati 0,1 aniqlikkacha olinadi.

### 3.8. Qog'ozlarni neytral va ishqoriy sharoitlarda yelimlash

Qog'oz va kartonlarni neytral muhitda quyush butun dunyoda keng tarqalgan. Buning sabablari har xil.

Rossiyada neytral-ishqoriy muhitda quyush texnologiyasiga quyidagilar sababchi:

- 1) katta ohak qazilmalarini topilishi va ishlab chiqarilishi;
- 2) yaratilgan yangi qog'oz va kartonga talabning ko'pligi;
- 3) ekologik muammolarining keskinlashuvi;
- 4) ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirish zarurligi;
- 5) qog'oz sifatiga bo'lgan talablarning oshishi.

Shuni ta'kidlash kerakki, «ishqoriy yelimlash» va «neytral yelimlash» prinsipial farq qilmaydi. Hozirda ikkala termin ham pH 6,8–9,0 da massa quyushda qo'llaniladi. Shuning uchun «neytral yelimlash» hamda «qog'oz va kartonni neytral texnologiyasi» deganda bir xil narsa tushuniladi.

Neytral yelimlash texnologiyasi bilan barcha qog'oz va kartonlarni o'tkazish mumkin. Lekin bu texnologiya bilan asosan uch guruh mahsulotlar ishlab chiqariladi:

- 1) yuqori navli qog'oz (daraxt massasiz);
- 2) suyuq mahsulotlarni o'rabi qo'yish uchun karton;
- 3) makulaturadan test-layner, gipskarton, gofrikartonnei o'rta qavati.

Yuqori navli qog'oz kompozitsiyasiga ko'p hollarda  $\text{CaCO}_3$  qo'shiladi. Shuning uchun kislotali muhitda, aluminiy sulfatini ishlatgan holda, bunday sifatli qog'ozni olib bo'lmaydi.

Suyuq mahsulotlarni o'rabi qo'yish uchun ishlatiladigan kartonlar ishqoriy muhitda olinadi, chunki kislotali muhitda yelimlanganda u talablarga javob bermaydi.

Test-layner va gofrikartonnei o'rta qavati uchun qo'llaniladiganlari, kislotali muhitda olinadi. Lekin  $\text{CaCO}_3$  miqdori ko'p bo'lgan makulaturani ishlatganda birmuncha muammolar tug'iladi, shu sababli neytral texnologiyaga o'tishga to'g'ri keladi.

**Karton va qog'ozlarni neytral muhitda yelimlashga kerakli ximikatlar.** Ximikatlar xilma-xil. Ularni Rossiya bozoriga har xil firmalar har xil savdo nomlari bilan keltiriladi. Asosiy firmalar: «Raisio» (Finlandiya), «Akzo Nobel» (Shvetsiya), «Basf» (Germaniya), «Herofinn» (Finlandiya). Rossiyada ishlab chiqariladigan ximikatlar: kanifol dispersiya (Sakotsell), Novodvinsk sh., AOZT «Novokreme», kationli PAA (Praestol), Krasnokams sh., Volgogradda AKD ishlab chiqariladi.

Kanifol dispersiyasi (dispergirlangan ozod smolan kislota) pH ko'rsatkichi yuqori qiymatlarida bo'lsa ham, kanifol sovun yoki pastaga qaraganda, kanifol yelimi bilan yelimlash imkonini beradi. Agar kanifol pasta uchun muhit chegarasi pH 5,0 bo'lsa, dispersli kanifolda pH 7,5 yuqori bo'lganda ham ishlatalish mumkin. Rossiyada Sakotsell-309 yelimlovchi keng qo'llanilgani sababli, uning TU-2454-001-44408713-99 texnik shartlari bo'yicha, texnik ko'rsatkichlarini keltiramiz:

Sakotsell-309 texnik ko'rsatkichlari:

Tashqi ko'rinishi.....Oq dispers

Quruq modda miqdori, % .....30+1

Zarrachalar o'lchami, mkm.....1,0

Qovushqoqligi, 20°C, mPa/s.....5

Zichligi, 20°C, kg/m<sup>3</sup>.....1030

Eritma pH.....6,1...6,7


Sakotsell-309 kanifol yelimining maxsus turi hisoblanadi, u kislotali va neytral muhitda ham (pH 4,5–7,5) qo'llaniladi. U qog'oz va kartonni, har xil to'ldiruvchilar ishtirokida (ohak, kaolin yoki talk) ham yelimlash imkonini beradi. Sakotsell-309 oz miqdori ham yelimlashda yaxshi natija beradi. Agar yuqori yelimlangan qog'oz olishda ohak ( $\text{CaCO}_3$ ) to'ldiruvchisidan foydalanganda uning sarfi 0,5–1,0 % (quruq moddaga nisbatan) kamayadi; talk yoki kaolini ishlatganda esa 0,2–0,5% yelim kam sarflanadi.

Saotsell-309 ni massaga tovar holida va suvda eritib qo'shish mumkin. Yaxshi aralashish uchun mashina hovuzi

(машинный бассейн) yaqinida dozirovka qilish lozim. Har holda kaolinni solishdan oldin qo'shish kerak, chunki bu vaqtga qadar Sakotsell-309 massada yaxshi aralashgan bo'ladi.

Alkilketendimer (AKD) sintetik yelimlovchi agent, qog'oz va karton ishlab chiqarishda, pH ko'rsatkichi 6,5–9,0 oralig'iда ishlatiladi. AKD selluloza bilan kimyoviy reksiyaga kiradi, bunda kovolent bog' hosil qiladi, bu bilan selluloza yuzasini kislota, ishqor va suvlarga nisbatan turg'unligini ta'minlaydi.

Alkilketendimer asosiy yelimlovchi material vazifasini bajaradi. U moy kislotasidan (жир) olinadi. Kimyoviy formulasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Bundagi R alkil gruppasi, ishlatilgan moy kislotasini tabiatiga bog'liq. Odatda, stearin ( $\text{C}_{18}\text{H}_{33}$ ) va palmetin ( $\text{C}_{16}\text{H}_{33}$ ) kislotalari aralashmasi hisoblanadi. Alkil gruppasi  $\text{C}_{16}\text{H}_{33}$  yoki  $\text{C}_{14}\text{H}_{26}$  formulalari bilan ifodalanadi.


Ketendimer selluloza bilan reaksiyaga kirishib,  $\beta$  – ketoefir nosil qiladi, odatda uni AKD – bog' deb belgilashadi, bunga asosan ko'p bog'lovchi birikmalar shakllanadi. So'ngra suv reaksiyaga kirishadi, natijada, uglerod diokside va keton hosil bo'ladi.

Yevropada neytral usuli bilan yelimalash usuliga 1970-yillardan boshlab o'taboshlagan.

Neytral usulga o'tishning asosiy sabablaridan biri, kalsiy karbonatdan to'ldiruvchi sifatida foydalanish hamda bu yuqori darajali oqartirish imkonini beradi. Bundan tashqari, yelimalashning neytral usullari gidrofoblik va mustahkamlik;


- qurilmalarning karroziyaga uchrashini kamytirish;
- to'ldiruvchilarni qog'ozda ushlanib qolishini oshishi;
- oqartiruvchi agentlarning effektini oshirishi.

## Neytral yelimlash uchun ximikatlar sistemasi



Odatdagи kanifol materiallarga qaraganda AKDni yelim sisfatida ishlatganda qog'ozni har xil suyuqliklarni yutilishini kamaytiradi. Quyidagi sxemada kanifol sovuni va kanifol dispersi bilan massada yelimlash mexanizmi keltirilgan.

## Qog'oz massasi oqimiga yelimni krigizish



Ishqoriy muhitda qog'oz tayyorlashda optik oqartirish effekti traditsion usulga qaraganda 25–40 % yuqori, bu sezilarli darajada luminoforlarni kamaytirish imkonini beradi.

### **3.9. Qog'ozni neytral muhitda yelimlaganda unga ta'sir etuvchi faktorlar**

AKD bilan barcha turdag'i tolali massani yelimlash mumkin, kanifol esa bundan mustasno. Oksidlovchi moddalar – ozod xlор (xlор qoldig'i), gipoxlorit qoldig'i, perekislar AKD bilan yelimlashda salbiy ta'sir etadi, chunki kimyoviy birikishi mumkin. Oqsidlovchi moddalar, AKDga kiruvchi kraxmalni, disper holatgacha parchalaydi va AKDni gidrolizlanishiga sabab bo'ladi. Sellulozadagi qoldiq xlorni natriy sulfatdan 2–4 kg/t miqdorda, quruq selluloza hisobidan, qo'shib neytrallash mumkin.

**pH va ishqoriy muhitni ta'siri.** Selluloza massasiga pH ko'rsatkichini ta'siri juda katta. pH oshishi ketendimerni selluloza bilan reaksiyaga kirishishini kuchaytiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, pH 9,0 dan oshganda dimerni suv bilan birikishi intensivlashadi, natijada, keton hosil bo'ladi, u yelimlash jarayoniga to'sqinlik qiladi. pH juda yuqori bo'lganda esa oqartirilgan sellulozani destruksiyaga olib keladi, bu hol o'z navbatida sellulozaning oqlik darajasini va pishiqligini pasaytiradi.

Neytral sharoitda qog'oz olishda pH standart ko'rsatkichi 7,5–8,5 hisoblanadi.

**Aluminiy sulsatning ta'siri.** Kanifolli yelimlashdan o'laroq, aluminiy ionlari, AKD bilan yelimlashda salbiy ta'sir qiladi. Chunki u AKD selluloza bilan reaksiyaga kirishish jarayonini pasaytiradi.

**AKDni ushlab qolish.** AKDni kolloid eritmasi tarkibida kationli kraxmal borligi sababli, yelim zarrachalari biroz musbat zaryadlangan bo'ladi. Shunga qaramasdan AKD qo'shish bilan birga, ketendimerni yaxshi ushlanib qolinishi uchun, himoya vositasidan foydalaniladi. Buning uchun kationli PAA, kationli kraxmal va smolalardan foydalaniladi. Yevropada bu maqsad uchun Kopozil va Gidrokollar ishlataladi.

**To'ldiruvchilar.** To'ldiruvchilar, qog'oz va karton ishlab chiqarishda kanifol va AKD bilan yelimlashda salbiy ta'sir etadi. To'ldiruvchi kalsiy karbonat, kaolinga nisbatan, yelimlash jarayoni unchalik qiyinlashtirmaydi. Qayta cho'ktirilgan kalsiy karbonatning salbiy ta'siri, cho'ktirilmagan kalsiy karbonatga nisbatan, yuza maydoni katta. Yelimlash darajasiga to'ldiruvchilari ta'sirini quyidagi tartibda joylashtirish mumkin:  $\text{CaCO}_3$ , talk, kaolin, cho'ktirilgan  $\text{CaCO}_3$ ,  $\text{Al(OH)}_3$ ,  $\text{TiO}_2$ .

AKDni qo'shish joyi. AKDni ishlatishdan oldin uni 2–5 % gacha suyultirish kerak. Bu hol, selluloza massasi bilan yaxshi aralashishiga olib keladi. Agar bakdag'i temperatura 35°C dan oshiq bo'lsa, qog'oz qiluvchi mashinani bosim yashigi yonidan bergani yaxshi, agar temperatura 35°C dan past bo'lsa, suyultirilmagan massaga berish kerak. Kationli kraxmalni qog'oz massasiga qo'shsa, yelimni ushlab qolinishi oshadi. Odatda, uning sarfi 5–8 kg/t tashkil etadi.

**Katalizatorlik smolani ta'siri.** AKD bilan yelimlash jara-yonida quyidagi tarkibiy qismalarni ajratish mumkin:

- 1) qog'oz massasida agentlarni ushlab qolish;
- 2) qo'shimchalarni qog'oz massasining barcha hajmida bir tekis tarqalish;
- 3) selluloza gidroksil gruppalariga AKD molekulalarining orientatsiyalanishi;
- 4) qog'oz quritish mashinasini quritish qismida qo'shimchalarning selluloza bilan birikishi.

Katalizatorlik smoladan, ayniqsa, massa yomon yelimlana-yotganda foydalanish taklif etiladi. Lekin katalizatorlik smolani ishlatganda qog'ozni oqlik darjasini pasayadi va optik oqartiruv-chiga salbiy ta'sir etadi.

**Qog'ozni quritish.** Qog'oz qilish mashinasida, AKD bilan yelimlash jarayoni tugamasligi sababli, AKD bilan sellulozani birikish reksiyasini tezlashtirish maqsadida, qog'ozni quritish temperaturasini imkon qadar yuqori ko'tarish kerak bo'ladi.

**Yordamchi kimyoiy moddalarning ta'siri.** Qog'ozga quruq

hamda nam hollarida mustahkamligini oshirish uchun havosizlantiruvchi himoya vositalari va smolalar qo'shiladi.

Boshqa qo'shimchalar, aksincha, yelimlash jarayoniga salbiy ta'sir etadi. Ko'pchilik qo'shimchalar gidrofob bo'lgani sababli namlovchi modda kabi ta'sir etadi.

Har xil qo'shimchalarni, qog'oz ishlab chiqarishda ko'p qo'llanishi sababli, quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- 1) Yelimlashni yaxshilovchi qo'shimchalar:
  - suvsizlantiruvchi qo'shimchalar;
  - kationli kraxmal;
  - ushlab qoluvchi qo'shimchalar;
  - nam holidagi mustahkamligini oshiruvchi smolalar;
  - quruq holda mustahkamligini oshiruvchi smolalar.
- 2) Yelimlashga salbiy ta'sir etuvchi qo'shimchalar:
  - ko'pikso'ndiruvchilar;
  - sirt faol moddalar (disperslovchi agentlar, namlovchi moddalar);
    - to'ldiruvchilar (ayniqsa, yuqori dispersli);
    - har xil turdag'i yog' va moylovchi materiallar;
    - sukno va setkalarni tozalovchilar;
    - oksidlovchilar.

## *IV bob. QOG'oz MASSALARINI TO'LDIRISH*

Yozuv va bosma qog'ozlarini ishlab chiqarishda, qog'oz massasiga to'ldiruvchilar qo'shish keng tarqalgan. Buning sababi ikkita:

- mahsulot tannarxini pasaytirish uchun, qimmatbaho oqartirilgan tabiiy o'simlik tolalarini, qisman arzon mineral moddalar bilan almashtirish;
- qog'oz ya kartonlarni kompleks xarakteristikalarini yaxshilash, ayniqla, bosma xossalari, optik ko'rsatkichlarini va makrostrukturasini tekislash.

To'ldiruvchilarning niqdori massada ko'paysa, olingan mahsulotning sifatini pasaytiradi va yelimlash jarayoniga salbiy ta'sir etadi.

### **4.1. To'ldiruvchilar turi va ularning xarakteristikalari**

Mineral xomashyo sifatida qazib olinadigan tabiiy to'ldiruvchilar, kimyoviy ishlov berilgan mineral to'ldiruvchilar. 18-jadvalda tabiiy va 19-jadvallarda kimyoviy qayta ishlagan to'ldiruvchilar xarakteristikalari keltirilgan.

#### **Tabiiy to'ldiruvchilarning asosiy xossalari**

*18-jadval*

To'ldiruvchi	Tarkibi %, va kimyoviy formulyasi	Zichligi, g/sm <sup>3</sup>	Sindirish koef-fitsiyenti	Zar-rachalar o'lchami, mkm	Oqlik darajasi, % ISO
Kaolin	$\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{SiO}_2$	2,6–3,2	1,55–1,6	0,5–10,0	70–84

*jadvalning davomi*

	$2\text{H}_2\text{O} (\text{Al}_2\text{O}_3 - 34-42; \text{SiO}_2 - 43-52; \text{H}_2\text{O} - 12-15)$				
Tabiiy ohak	$\text{CaCO}_3 (\text{CaCO}_3 - 95-99; \text{MgO} \cdot \text{MgCO}_3 - 1-5)$	2,5-2,7	1,50-1,65	0,7-5,0	85-95
Talk	$\text{Mg}_3\text{H}_2(\text{SiO}_3) \text{SiO}_2 - 60-62; \text{MgO} - 30-35; \text{H}_2\text{O} - 1,9-4,3)$	2,6-2,8	1,56-1,57	0,5-10,0	70-95
Gips	$\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O} (\text{CaO}-32,6; \text{SO}_3 - 46,5; \text{H}_2\text{O} - 20,9)$	2,3-2,4	1,52-1,55	1,0-5,0	70-80
Barit	$\text{BaSO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}(\text{BaSO}_4 - 80; 2\text{H}_2\text{O} - 20)$	4,5	1,65	2,0-5,0	93-95
Kalsiy silikati	$\text{CaSiO}_3 - 96$	2,5-2,9	1,53-1,62	1,0-10,0	89-95

**Kimyoviy o'zgartirilgan to'ldiruvchilarining asosiy xossalari**

*19- jadval*

To'ldiruvchi	Tarkibi, %, va kimyoviy formulası	Zichligi, g/sm <sup>3</sup>	Sindirish koefitsiyenti	Zar-rachalar o'lchami, mkm	Oqlik darajasi, % ISO
Cho'ktirilgan ohak	$\text{CaCO}_3 (\text{CaCO}_3 - 95,6; \text{H}_2\text{O} - 4,4)$	2,7-2,9	1,55-1,66	0,2-0,5	95-97

*jadvalning davomi*

Titan diok-sidi: rutil anataz	$\text{TiO}_2$ – 99 $\text{TiO}_2$ – 99	4,2 3,3	2,70 2,55	0,2–0,5 0,1–0,5	97–99 98–99
Blanfiks	$\text{BaSO}_4$	4,5	1,64	0,5–2,0	95–97
Rux sul-fidi	ZnS	4	2,37	0,3–0,5	97–98
Rux ok-sidi	ZnO	5,6	2,01	0,3–0,5	97–99
Litopon	$\text{ZnS} + \text{BaSO}_4$ ( $\text{ZnS}$ – 28–30; $\text{BaSO}_4$ – 70–72)	4,3	1,84–2,0	0,3–0,5	97–98

Kaolin – qog'oz va karton ishlab chiqarishda, to'ldiruvchi va yuza yelimlashda qo'llaniladigan pigment. Mineral pigmentlar ichida kaolin keng tarqalgan. Kaolinni asosiy konlari AQSH, Angliya, Braziliya, Qozog'iston va Ukraina. Yaqindan boshlab O'zbekistonda ham ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Kaolinni oqlik darajasi va zarrachalarining o'lchamлari, asosan, qazib olingan joyiga va ishlab chiqarish usuliga: tozalash, oqartirish va flotatsiyalashga bog'liq. Masalan, Ukrainada ishlab chiqarilgan kaolin markasidagi raqamlar uning oqlik darajasini ko'rsatadi, ishlab chiqarish texnologiyasini farqini shundan ham farqlash mumkin: qog'oz yuzasini qoplash uchun ishlatiladigan – КП-87, КП-84; to'ldiruvchi sifatida ishlatiladigan: KH-84, KH-82, KH-80, KH-78, KH-77, KH-73. O'zbekistonda Angrenda ishlab chiqariladi, uning oqlik darajasi 76–86 % atrofida.

Karbonatli to'ldiruvchilar bosma qog'oz olishda keng qo'llaniladi. Asosan neytral yoki kuchsiz ishqoriy usulda qog'oz olishda qo'llaniladi. Karbonatli birikmalar yet shari massasining 1 % tashkil etadi. Dunyoda 59 dan ortiq zavodlar kukun yoki

pasta holida karbonatli to'ldiruvchilar ishlab chiqaradi. To'ldiruvchi va qisman qog'oz yuzasiga ishlatiladigan pasta tabiiy kalsiy karbonatni maydalab olinadi.

Tabiiy kalsiy karbonatning oqlik darajasi 80 dan 96 %gacha ISO, 2 mkm dan past fraksiyasi 40 dan 98 %, suspenziyalangan mahsulotida qattiq moddalar 65–78 % tashkil etadi.

Suspenziyalangan mahsulotning qulayligi:

- maksimal o'lchamli zarrachalarning kamligi;
- gomogenligining yaxshiligi;
- ishlatishga tayyor holda keltirilishi;
- qayta ishlashni osonligi.

Qayta cho'ktirilgan kalsiy karbonat ohakni 800–900°C kalsiy oksidi CaO holida oladi. So'ngra u kalsiy gidroksidiga, ohakli sut holiga keltirish uchun, suv bilan ishlov beriladi. Ohak sut orqali CO<sub>2</sub> gazini o'tkazib kalsiy karbonat olinadi. Olingan kalsiy karbonatning oqligi 91–97 % ISO, 2 mkm dan past fraksiyasi 60 dan 70, %, 10 mkm dan yuqorilari – 10 % gacha. Eng yaxshi to'ldiruvchi kalsiy karbonatlarining xarakteristikalari 20-jadvalda keltirilgan.

### **Eng yaxshi navli karbonatli to'ldiruvchi va pigmentlarning xossalari**

*20-jadval*

Marka	Og'irli- gi, % ISO	Granu- lometrik tarkib, %		Ishlatilishi va ustuvorligi
		< 2 mkm	> 10 mkm	
ECC firmasi ishlab chiqaradigan				
Carbilux	94,0	99	—	Losk va oqlik darajasi yuqori
C95HS	94,5	95	—	Losk va oqlik darajasi juda yuqori

*jadvalning davomi*

C90HS	95,0	90	—	Yuzani qoplash uchun
C75HS	95,0	75	—	Yuzani oqartirib qoplash va pastki qatlam uchun
C60HS	95,0	60	—	Yuzani oqartirib qoplash, pastki qatlam va to'ldiruvchi
Interacarb 80	94,0	80	—	Yuqori dispersli to'ldiruvchi
Interacarb 60	94,0	60	—	To'ldiruvchi
LX95	87,0	95	—	Yuqori losk, oqlik darajasi o'rtacha
LX75	87,0	75	—	Tag qatlam va to'ldiruvchi

*«Omya» firmasi ishlab chiqaradigan*

Hudrocarb 40-VA (Chexiya)	93	40	>2	To'ldiruvchi
Hudrocarb 50-VA (Chexiya)	93	50	>1	To'ldiruvchi
Hudrocarb 60-FO/LV 75 (Finlandiya)	93	60	> 0,5	To'ldiruvchi
Hudrocarb 90LV 75 (Finlandiya)	94,5	90	—	Bo'rash (мелование) uchun pigment
Hudrocarb 90-OG (Fransiya)	91	90	—	Bo'rash (мелование) uchun pigment
Hudrocarb 90-FO/LV 75 (Finlandiya)	93	90	—	Bo'rash (мелование) uchun pigment
Hudrocarb tiller FO/LV 65 (Finlandiya)	93	54	>2	To'ldiruvchi

Talk – bu mineral tog‘ shamoli ta’sirida hosil bo’ladi. Kimyoviy formulasi –  $3\text{MgO} \cdot 4\text{SiO}_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$ . Tarkibida  $\text{SiO}_2$  60 – 63%;  $\text{MgO}$  30 – 32 %;  $\text{H}_2\text{O}$  4,8 % hamda temir va aluminiy qoldiqlari bor. Talk – juda yumshoq, kimyoviy neytral, suvda erimaydi, organofil, gidrofob, zarrachalari plastinka shaklidagi mineral pigment.

Oqlik darajasi yuqori emas – 85–87 %. Zarrachalarining o’lchami 0,3 dan 10 mkm (asosan 0,3–5,0 mkm).

Yirik qazilma joylari: Avstraliya, Avstriya, Kanada, Finlandiya, Ispaniya va AQSh. Talk asosan makulaturani qayta ishlashda ko’proq ishlatiladi.

Titan dioksidi ( $\text{TiO}_2$ ) oqlik darajasi (98 %) va disperslik darajalari yuqori (0,3–0,5mkm) bo’lgan kristall holidagi poroshok. Titan dioksididan 2–3 % qo’shilganda, kaolindan 30 % qo’shilgan qog’ozning tiniqsizligini beradi. Qog’oz ishlab chiqarish sanoatida ikki xil turi ishlatiladi: anataz (yorig’lik sindirish koeffitsiyenti 2,55, zichligi – 3,9 g/sm<sup>3</sup> gacha) va rutil (yorig’lik sindirish koeffitsiyenti 2,70, zichligi – 4,2 g/sm<sup>3</sup> gacha). Sifatining yaxshiligi tufayli maxsus qog’oz ishlab chiqarishda keng qo’llaniladi.

## 4.2. Qog’ozda to’ldiriuvchilarining ushlanib qolishi

### 4. 2.1. Qog’ozda to’ldiriuvchilarining ushlanish darajasi

Qog’ozda to’ldiriuvchilarining ushlanish darajasi deb, qog’oz qilish mashinasining (QQM) nakatida qog’oz tarkibidagi to’ldiriuvchini (%), qog’oz massasini QQM setkasiga quyush oldidagi to’ldiriuvchi miqdori nisbatiga aytildi. To’ldiriuvchini massadagi va qog’ozdagi miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$N_m = 100(Z_m - Z_t)/100 - Z_m - S;$$
$$N_q = 100(Z_q - Z_t)/100 - Z_q - S,$$

bunda,  $N_m$ ,  $N_b$  – a.q. to'ldiruvchini massadagi va qog'ozdag'i miqdori, %;

$Z_m$ ,  $Z_q$ ,  $Z_t$  – kulning a.q. massadagi, a.q. qog'ozdag'i va a.q. toladagi miqdori, %;  $S$  – a.q. to'ldiruvchini kuydirishdagi isrofi, %.

To'ldiruvchilarning kuydirishdagi isrof 21-jadvalda keltirilgan.

### To'ldiruvchilarning kuydirishdagi isrofi

21-jadval

Ko'rsatkich	Kuydirgandagi isrof, %
Talk	12–14
Kaolin	4–6
Kalsiy karbonati	38–42
Gips	18–22
Titan dioksidi	0,2–0,5
Sink sulfati	14–18

Har xil tolali materiallarning kul miqdori 22-jadvada keltirilgan.

### Har xil tolali materiallarning kul miqdori

22-jadval

Ko'rsatkich	Kuydirgandagi isrof, %
Sulfid selluloza: oqartirilgan	0,4–0,5
oqartirilmagan	0,5–1,2
Sulfat selluloza: oqartirilgan	1,0–1,3
oqartirilmagan	0,4–1,4

Bargli daraxtdan olingan oqartirilgan selluloza	0,4–1,0
Daraxt massa	0,2–2,0
Paxta selluloza	0,07–0,10

Qog'ozda to'ldiruvchilarining ushlanish darajasi ( $U$ ) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$U = \frac{100 N_q / N_m}{(100 - Z_q)(100 - Z_m - S)/(Z_m - Z_t)} \times 100\%,$$

To'ldiruvchini foydalanilgan darajasini ( $I$ ), aniqlash uchun aylanma suvdagi, mashina va massa chiqindisidagi, massada ushlovchi apparatlardagi ushlanganlarni ham hisoblash kerak:

$$I = 100 \times K_n / \times K_z \%$$

bunda,  $K_z = B$  kg miqdordagi qog'oz olish uchun massaga solingan to'ldiruvchi miqdori, kg;  $K_i = B$  kg nakatdagi qog'zoning tarkibidagi to'ldiruvchi miqdori, kg.

$$K_i = BN_q / (100 - W), \text{kg}$$

bunda,  $B$  – nakatdagi qog'oz miqdori, kg;  $N_q$  – a.q. qog'ozdagi a.q. to'ldiruvchi, %.

#### 4.2.2. To'ldiruvchilarни fiksatsiyalash sistemasi

Fiksatsiyalash sistemasi – bu barcha yordamchi kimyoviy moddalarni kerakli darajada ushlab qolishga erishish uchun, fizik-kimyoviy jarayonlarini (sorbsiya, koagulatsiya, flokulatsiya, cho'ktirish va boshqalar) optimal borishi.

Koagulantlar – noorganik va organik sintetik moddalar, bu-

lar kuchli kationli zaryadlangan va molekular massasi kichik (aluminiy tuzlari — kvasslar, aluminiy sulfati, aluminiy poliok-sixloridi). Koagulantlar, tolalarga, to'ldiruvchi zarrachalariga sorbsiyalanib, ularning manfiy zaryadlarini to musbat zaryad-lanishigacha kamaytiradi va sisteman ni izoelektrik holatigacha keltiradi.

Flokulantlar — yuqori molekulali sintetik polimer mahsulot-lar, ularning zaryadlari ionsiz, kationli va anionli bo'ladi. Flok-lantlarning xarakterli vakillari: kationli kraxmal, kationli poliakriliqid, anionli poliakrilamid.

Ionsiz polimer — flokulantlarga selluloza esirlari, o'ta yuqori molekulali va effektiv bo'lgan sellulozaning akrilamid bilan so-polimeri.

Buning effektivligi, yirik pag'a-pag'alar hosil qilishi, qog'oz polotnasining makrostrukturasini yomonlashtiradi. Bu pag'a-pag'alarmi dispersiyalashga to'g'ri keladi.

Parchalangan makroflokolotlarni va mikroflokolotlarni bir-lashtiruvchi maxsus qo'shimchalar mayjud, ular qog'oz qo'shimchalarni ushlab qoladi. Bu qo'shimchalar qog'oz qu-yushdan oldin massa oqimiga qo'shiladi va sezilarli darajada qo'shimchalarni qog'oz tarkibida ushlab qoladi. Mikrozarrachalar noorganik (bentonit, kremnozol) yoki sintez qilingan organik moddalar (polifleks) bo'lishi mumkin. Mikrozarrachalar juda mayda va kuchli anion zaryadli bo'lishi mumkin.

Fiksatsiya sistemasini to'g'ri tanlash uchun, ho'l qismni pa-rametrlarini aniqlash zarur:

muhitni pH qiymati (kislotali — 4,0—6,0, neytral — 6,5—7,5, past ishqorli — 8,0 — 9,0);

solishtirma elektro'tkazuvchanlik;

dzeta-potensial yoki elektrokinetik potensial;

kationga yoki anionga talab;

Kationga (yoki anionga) talab yelimlash jarayoniga, to'ldirishga, suvsizlantirishga va ularning qoniqarsiz ketishiga sababchi bo'ladi.

### **4.3. Texnologik jarayonlarning to'ldiruvchilarini ushlab qolishiga ta'siri**

Quyushda qog'oz massasi konsentratsiyasi. Quyush qurilmalarida (napusk) konsentratsiyani pasaytirish ushlab qolish darajasini pasaytiradi. Qog'oz massasini suyultirish darajasini oshirish komponentlar zarrachalari orasidagi masofani uzaytiradi, nati-jada, ularning harakati tezlashadi. Qog'oz massasi orasidagi bog'larni kamayishi, zarrachalar aglomerati susayadi va ular oz kuch (saralash, aralashtirish) ta'sirida ham tez parchalanadi.

Boshqa sababi – suvsizlantirishni tezlatish. Bu holda setka stolida suvsizlantirish jarayonida to'ldiruvchilar setkadan o'tib ketadi.

$1 \text{ m}^2$  qog'oz massasi.  $1 \text{ m}^2$  qog'oz massasi qanchalik katta bo'lsa to'ldiruvchilarni ushlab qolish ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ma'lumki,  $1 \text{ m}^2$  qog'oz massasini oshirish uchun, qog'oz quyush qurilmasida massa konsentratsiyasini oshiradi, setkada filtrlanayotgan tolalarning qatlamini oshishi tezlashadi, suvsizlanish sekinlashadi. Bularning hammasi to'ldiruvchilarning qog'ozda ushlanib qolishini oshiradi.

**Setka nomeri.** Qog'oz massasi setkali to'qimaga berilgan zohati, suvsizlanish tugaydi, chunki birdaniga tolali filtrlanuvchi qatlam hosil bo'ladi. Tolali qatlamni g'ovoqlari, setkanikiga qaraganda ingichka, shuning uchun boshqa ko'rsatkichlar baravar bo'lganda, to'ldiruvchilarni ushlab qolish darajasi g'ovoq struktura tolali filtrlovchi qatlamga bog'liq bo'ladi.

**Tola turlari va maydalanish darajasi.** Kalta tolali sellulozalar, setkada zinch filtrlanuchi qatlam hosil qilganligi sababli, to'ldiruvchilarni ushlab qolish qobiliyati yuqori. Sellulozani maydalanish darajasi oshganda ham, shu hol kuzatiladi. Lekin ba'zi bir daraxt sellulozasi tolachalari juda mayda bo'lgani sababli, setkadan o'zi bilan birga to'ldiruvchilarni ham olib ketadi.

**Qo'shilgan to'ldiruvchilar miqdori.** Qog'oz massasiga to'ldiruvchilar ko'p qo'shilsa, ushlanib qolish darajasi pasayadi.

Ushlab qolish darajasini oshirish uchun bu hollarda massaga flokulant qo'shish lozim.

**To'ldiruvchilar ko'rinish holati.** Yuqori dispersli to'ldiruvchilar qog'oz qatlamlarida yaxshi ushlanib qolinadi. Mayda zarrachalar mikroflokkullotlarga mahkam bog'lanadi va tolali qatlamni shakllashtirishda sekin cho'kadi, bu hol tekis set-kada quyganda muhim hisoblanadi. Tez cho'kadigan yirik zarrachalar polotnoni setkali qismidan tez yuvilib ketadi.

Plastinka va cho'zinchoq shakldagi zarrachalari (talk) bo'lgan to'ldiruvchilar yaxshi ushlanib qoladi. Sfera shaklidagi to'ldiruvchilarning ushlanib qolish darjasasi pastroq. Zichligi yuqori bo'lgan to'ldiruvchilar ( $TiO_2$ ) ham kam ushlanadi.

Suvda eriydigan to'ldiruvchilarning ( $CaCO_3$ ) ham ushlanib qolish darjasasi past. Shuning uchun ham massa muhiti pH 4,0–5,5 bo'lganda ishlatilmaydi. Dzet-potensiali yuqori bo'lgan to'ldiruvchilarning ham ushlanib qolish qobiliyati past.

#### **4.4. To'ldiruvchilarning texnologik jarayonga va qog'oz xossasiga ta'siri**

Adabiyotlarda ideal to'ldiruvchilar qanday xossalarga ega bo'lislighi keltirilgan:

- oqlik darajasini yuqoriligi;
- yorig'lik nurini sindirish koefitsiyentini kattaligi;
- zichligini pastligi;
- yumshoqlik;
- suvda erimaslik va kimyoviy neytrallik;
- qog'ozda ushlanib qolish darjasini yuqoriligi;
- arzonligi;
- suspenziya qovushqoqligini pastligi;
- ekologik xavfsizligi.

Bu talablarning hammasiga javob beradigan to'ldiruvchilar yo'q.

Qog'oz sifatining to'ldiruvchilarga bog'liq bo'lgan kompleks ko'rsatkichlari bor: mustahkamligi, gigroskoppligi, deformatsiya

ko'rsatkichlari, yelimlanish darjasи va nam holidagi mustah-kamlik. To'ldiruvchilar tolalar orasidagi bog'larga salbiy ta'sir etadi. To'ldiruvchi zarrachalari tola yuzasida sorbsiyalanib, gidroksil gruppalarini faolligini pasaytiradi. Qog'oz deformatsiyalanishini pasayishi va uning o'lchamlarini stabil saqlanishi, qog'ozni quritishda, tolalar orasidagi bog'larning kamligidir.

**To'ldiruvchilarning texnologik jarayonlarni borishiga ta'siri.** Tuldiruvchilar asosan, qog'oz va karton olishda yelimlash jarayoniga ta'sir etadi. To'ldiruvchi massaga qancha ko'p qo'yilsa, yuqori darajada yelimlangan qog'oz olish murakkablashadi. To'ldiruvchilar smolan qiyinchiliklarni yengillashtiradi. Smola va to'ldiruvchi zarrachalari birlashib, texnologiyaning dastlabki jarayonlaridayoq cho'kadi va mashina kiyimlarini va tayyor mahsulotni ifloslantirmaydi. Smolan qiyinchiliklarni pasaytirishda talk (10–40 kg/t) qulay to'ldiruvchi hisoblanadi.

To'ldiruvchilar massa reologiyasiga ta'sir etadi, massa qovushqoqligini kamaytiradi, natijada, qog'oz massasini aralash-tirishda va transportirovka qilishda energiya kam sarflanadi.

Tarkibida to'ldiruvchi bo'lgan qog'oz massasi, tez suvsizlanadi, natijada, setkadan va presslovchi qismlaridan keyin, qog'oz massasining quruqlik darjasи oshadi. Qog'oz g'ovakligi oshadi, shu tufayli qog'oz polotnoning qurishi tezlashadi.

Qog'oz massasidagi to'ldiruvchilar, mashina kiyimlariga, ayniqsa, ho'l qismida, salbiy ta'sir etadi. Ular obraviv (setkani yemirilishini tezlashtiradi) ta'sir etadi, presslovchi suknolarning teshiklariga tifilib qoladi.

**To'ldiruvchilarning qog'oz sifatiga ta'siri.** To'ldiruvchilar qog'oz va karton sifatiga ham ijobiy ham salbiy ta'sir etadi. Ularning ta'sir darjasи, to'ldiruvchi turi, qo'shilgan miqdoriga bog'liq.

To'ldiruvchi miqdorining oshishi, qog'ozning qalinligini kamaytiradi, zichligi, havo o'tkazishi, xiraligi, deformatsiyasi (quruq va nam holda) oshadi.

To'ldiruvchilar qog'ozning bosma xossalalariga yaxshi ta'sir

etadi (silliqlik, losk, yumshoqlik, bo'yoq yutish, siqilish, oqlik va boshq.). To'ldiruvchiligi bo'lgan qog'ozning silliqligi va loski, yumshoq kalandrda va super kalandrda kalandrlanganda, tez oshadi.

To'ldiruvchilar qog'ozning oqligi va nurga chidamliligini oshiradi. Ayniqsa, uning miqdori va dispersligi oshganda.

Bo'yoq yutishi – g'ovakligini oshishi va yumshoqligi bilan bog'liq.

To'ldiruvchilar massada tekis tarqalganligi sababli, qog'ozning makrostrukturasini yaxshilashga olib keladi. Shu bilan birga, to'ldiruvchilar qog'ozning mustahkamligini, ayniqsa, bukilishiga qarshilik, uzilish va bosimga qarshilik ko'ratkichlarini pasaytiradi.

**Neytral yoki past ishqoriy muhitda to'ldirish.** Bu usulning ustunlik tomonlarining asosi, aluminiy sulfatni ishlatmasligi, kalsiy karbonat to'ldiruchini qog'oz olishda hamda qog'oz yuzasiga qo'llash imkoniyati borligi. Neytral yoki past ishqoriy muhitda yelimlash kanifolni o'rmini bosuvchi sintetik to'ldiruvchini ishlatish imkoniyati borligidir.

Neytral yoki past ishqoriy muhitda yelimlash, kaolin o'rniiga kalsiy karbonat to'ldiruvchisini ishlatish, bunda qog'ozning mustahkamligi, oqlidan tashqari ko'p yilga chidamliligi. Qog'oz texnologiyasida – maydalash, suvsizlantirish va quritish jarayonlarining osonlashishidir. Anion faol optik oqartiruvchilar neytral va past ishqoriy muhitda effektivroq o'tadi. Karbonatli to'ldiruvchilarni qo'llaganda oqlik darajasi oshishi sababli optik oqartiruvchi moddalarni 80 %gacha iqtisod etish mumkin. Bu usulda olingen qog'ozning ishqalanishga qarshiliqi oshadi, energiyani 25 %gacha kam sarflanadi.

Kalsiy karbonatning buferlik xossalari muhitni 7,2–8,4 darajasi bir xil ushlab turish imkonini beradi. Modifikatsiyalangan kraxmal bilan polimer (polietilenamin) aralashmasi flokulant sifatida keng qo'llaniladi.

Neytral yoki past ishqoriy muhitda, smolanli qiyinchiliklarni kamaytirish uchun kationli sintetik o'rta molekula massali polimer ishlatiladi.

---

## *V bob. QOG‘OZ MASSASINI QUYUSHDA MASSANI TAYYORLASH TEKNOLOGIYASI*

### **5.1.Teknologik sxema**

Qog‘oz massasini quyush, qog‘oz va karton olish mashinalar sxemasining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu sistemaning asosiy vazifasi – mashinaning bosim yashigiga (напорный ящик) berishga tayyorlash. Quyushga tayyorlash quyidagi masalalarni yechishni talab qiladi:


- mashina hovuzidan keyin massani suyultirish;
- massani har xil komponentlar bilan qo‘shilgan qo‘sheimchalardan butunlay tozalash;
- massani mashinaga berishdan oldin: tugunchalar, barglar, tolalardan tozalash;
- massadan havoni chiqarish (degazatsiya).

Quyushdan oldin, qog‘oz massasini tayyorlash sistemasi birechtea bloklarni – sistemachalarni (modullar) o‘z ichiga oladi. Bu bloklar massani suyultirish, vixqli tozalagichlar, massadan havoni chiqarish va boshqalar. Sistemaning tarkibiy qismi bular – nasoslar, qog‘oz massasini bir joydan ikkinchi joyga jo‘natish uchun kerakli armatura va kommunikatsiyalar, chiqindilar, aylanma va toza suvlar. Yarimmahsulot turi va mahsulotga qo‘yligan talablarga qarab, massani tayyorlashda alohida bloklar ba’zi boshqa funksiyalarni ham bajarish mumkin. Agar ko‘p qavatli mahsulot chiqarganda (karton, asos-qog‘oz va boshq.), har bir qavatini quyushda o‘zining massasini alohida tayyorlash sistemasi bo‘lishi kerak. Bularni boshqarish uchun o‘zining alohida sistemasi bo‘lishi kerak. Bu bloklarning konstruksiysi, ekspluatatsiya qilish rejimi qog‘oz polotno sifatiga va

qog'oz olish mashinasining ishlashiga katta ta'sir etadi.

Tolali yarimmahsulotlar fabrikaga kelishdan oldin ular tegishli bo'lmlarda tozalangan bo'ladi va iflosligi kam darajada bo'ladi. Shu sababli quyushga tayyorlashda tolalarning isrofi juda kam bo'ladi.

Quyushdan oldin massani tozalashning tipik sxemasi 11-rasmda keltirilgan.



11-rasm. Massani bir bosqichli suyultirish usuli bilan tayyorlash sistemasining sxemasi:

1—arashtiruvchi nasoslar; 2—vixrli tozalagich; 3—mashina usulida navlarga ajratish; 4—bosim yashigi; 5—setka tagi suvi saqlanadigan bak; 6—mashina hovuzi.


Odatda, bosim yashigida past konsentratsiyali (0,4–0,5 %) massani ikki bosqichli sistema qo'llab suyultiriladi. Birinchi suyultirish, vixrli tozalagichdan oldin 0,7–1,0 %gacha, ikkinchisi – bosim yashigida kerakli konsentratsiyagacha massa suyultiriladi. Bu usul vixrli tozalashlarni ancha qisqartirish imkonini beradi. Bu usul 1 m<sup>2</sup> qog'ozni massasi har xil bo'lgan hollarda qo'llaniladi, chunki massa hajmini tez-tez o'zgartirish kerak bo'ladi. Sistema barqaror ishlashi uchun kerakli hajmda 2-bosqichda massani suyultirish kerak bo'ladi.

Alovida hollarda bir bosqichli sistema qo'llaniladi. Bunda massani konsentratsiyasi bosim yashigi talabiga ko'ra suyultiriladi.

Massani mashinaga berishdan oldin havosizlantirish texnologik sxemasi 12-rasmida keltirilgan.

Asosiy oqim, suyultirilgach mashina usulida saralashga ajratish qismiga jo'natiladi. Massani dekulatorda suyultirish uchun, setka tagi suvi bilan suyultirish mumkin. Katta tezlikda ishlaydigan mashinalar uchun bu usul keng qo'llaniladi.

### Havo



12-rasm. Massani tayyorlashda deaeratsiyalash sxemasi:

- 1—aralashtiruvchi nasoslar;
- 2—vixrli tozalagichlar;
- 3—dekulator;
- 4 —mashina usulida navlarga ajratish;
- 5—bosim yashigi;
- 6—setka tagi suvi saqlanadigan bak;
- 7—mashina hovuzi.

## 5.2. Massalarni mashina hovuzlarida saqlash (аккумулирование)

Qog'oz massasi, qog'oz quyushga tayyorlash sistemasiga maydalash-tayyorlash bo'limidan keladi, bu bo'limda yarim-

mahsulot maydalanadi, qisman tozalanadi va kerakli kompozitlar qo'shiladi: to'ldiruvchi, bo'yoq, yelimlovchi va boshqa mod-dalar. Tayyor kompozitsiya mashina hovuziga 3–4 % konsentratsiyada beriladi.

Mashina hovuzining vazifasi – kompozitlar, massa konsentratsiyasining barqarorligi va bufer zaxira – keyingi texnologik bo'limga uzlusiz yetkazib turish vazifasini o'taydi. Kompozitlarning bir tekisligini va massa xossalari barqarorligini, mashina hovuzida ularni uzlusiz aralashtirib turish natijasida erishiladi. Aralashtirish tezligini lopasli propellerlarning aylanish chastotasini o'zgartirib turish bilan erishiladi.

Mashina hovuzining hajmini, mashinani ishlab chiqarish quvvatiga qarab, 10–90 min ishlab turish hisobidan, tanlanadi. Mashina hovuzini shakli gorizontal yoki vertikal silindr shaklida bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtida, asosan, vertikal silindr shaklidagi ishlatiladi.

### 5.3. Qog'oz massasini suyultirish


Qog'oz massasini qog'oz quyush mashinasiga berishdan oldingi dastlabki operatsiya – uni suyultirish. Suyultirish uchun aylanma suv – qog'oz polotnoni mashina setkasida suvsizlantirishda setka tagi suvidan foydalaniladi. Suyultirish darajasi  $1 \text{ m}^2$  qog'ozning massasiga, tolalarning qaysi daraxtdan yoki paxta momig'idan olinganiga, maydalanish darajasiga bog'liq. Bundan tashqari, massa temperaturasi, setka stoli konstruksiyasiga (setka uzunligi, so'rvuchi yashik quvvati) bog'liq.

Kam quvvatli mashinalarda, hozirga qadar massani suyultirish uchun suvni uzlusiz berib turish, bir tekisda suvi toshib turadigan baklardan (баки постоянного напора) beriladi. Bu baklarni sathi yig'uvchi registrdan 4–6 m balandlikda joylashgan bo'ladi. Aylanma suv va massani nasoslar orqali beriladi. Bir tekisda suvi toshib turadigan baklardan aylanma suv suyultirish uchun, quvurlar orqali beriladi. Ortiqcha aylanma suv va massa

to'siqdan toshib, quvur orqali qaytib aylanma suv yig'iladigan bakka, massa esa — mashina hovuziga quyuladi.

Tez harakat qiladigan mashinalarda, yuqoridagi usul to'g'ri kelmaydi, ularga aralashtiruvchi nasoslar ishlatalidi.

Aralashtiruvchi massa nasoslar, qog'oz massasini konsentratsiyasi 5 %gacha haydashi mumkin. Suyultiruvchi suvni so'ravuchi nasos liniyasiga berishdan oldin, bir bo'lak quvur payvandlanadi (13-rasm). Sistema yaxshi ishlashi uchun so'rish quvurida bosim 10 kPa dan kam bo'lmasligi lozim.



**13-rasm. Qog'oz massasini suyultiruvchi qurilma:**

1—korpus; 2, 3—quvurlar; 4—zaslonka; 5—komponentlarning chiqish joyi; 6—aralashtiruvchi nasos.

Qurilma, korpus (1) pastki qismiga o'rnatilgan. Quyuq

massa mashina hovuzidan (2) quvur orqali nasos yordamida, aylanma suv beriladigan (3) quvur ichiga o'rnatilgan, quvur orqali beriladi. Bu quvurlar orqali berilayotgan quyuq massa va aylanma suv nisbatlari 5 dan 10 bo'lishi kerak. Natijada, (5) zonada komponentlar (2) va (3) quvurlar orqali setka tagi suv bilan aralashgan joyda, nasos (6) oldida «portlovchi» effekt hosil bo'ladi. Avtomatlashtirilgan zaslонка (6) yordamida massa kon-sentratsiyasi, mashinada tegishli  $1 \text{ m}^2$  qog'ozning og'irligini olishni ta'minovchi zaslонка (4) orqali boshqarib turiladi. Odatda, massa suyultirilgach, uning konsentratsiyasi, a.q. tolalar nisbatan, 0,1–0,3 % tashkil etadi.

#### 5.4. Massani tozalash

Qisman yoki butunlay suyultirilgan massa nasoslar yordamida tolali massani tozalash qurilmalariga yuboriladi. Tozalanish darajasi, mashinaning ishlashiga va olingan mahsulot sifatiga ta'sir etadi.

Tolali massa ifoslari kelib chiqishi, shakli va o'lchamiga qarab xilma-xil bo'ladi. Ular mineral, metalli qo'shimchalar, polimer pylonka parchalari, rezina, tolali zarrachalar, qayta ish-lashga yuborilgan nuqsonli qog'ozning maydalanmay qolgan mayda parchalari, tola tugunchalari va to'plamchalar, to'ldiruvchi zarrachalari, yelim, daraxtni o'zak zarrachalari, qobiq va boshqalar.

Tez-tez uchrab turadigan ifoslantiruvchi zarrachalarning zichligi 23-jadvalda keltirilgan.

#### Tolali massani ifoslarning zichligi

*23-jadval*

Ifoslarni ko'rinishi	Zichligi, g/sm <sup>3</sup>
Og'irlari: metall	6,0–9,0

*jadvalning davomi*

qum	2,0–2,2
loy	1,8–2,6
siyoh	1,2–1,6
yengillari:	
suyuqlanuvchi va	
yelimlovchi	0,9–1,1
polisterol	0,9–1,1
vosk	0,9–1,0
penaplast	0,3–0,5

Ko'rsatilgan iflosliklarni konus shaklidagi vixqli tozalagichlarda tozalanadi. Ular «to'g'ri» — og'ir zarrachalarni tozalash uchun, «teskari» — yengil zarrachalarni tozalash uchun va «kombi» — og'ir va yengil zarrachalarni ajratish uchun, ko'ri-nishda bo'ladi. Vixqli tozalagichning ishlash prinsipi — toladan zichligi yoki solishtirma yuzasi bilan farq qilishiga asoslangan.

Massani nasos bilan konusning keng qismiga berganda «to'g'ri» tozalagichni ichida ikkita suspenziya vixri hosil bo'ladi: tashqi — konus devori orqali tepaga yo'nalgan va ichki — konus o'qi orqali tepadan pastga qarab yo'nalgan. Tashqi vixrni harakati natijasida og'ir iflosliklar, markazdan qochirma kuch ta'sirida tolali massani oz qismi bilan konus devori orqali harakatlanadi va patrubka orqali chiqib ketadi. Massani qolgan qismi oqim bilan tepaga qarab harakatlanadi va tepadagi toza massa chiqadigan markaziy patrubka orqali chiqadi.

«Teskari» vixqli tozalagichlarda, iflosliklar rolini yaxshi tolalar bajaradi, plastika, eritilgan modda, vosk va penoplastlar tipidagi yengil iflosliklar esa markaziy vixr orqali tepe teshik orqali chiqariladi. «Kombi» turidagi tozalagichlarda bitta konus ichida, massa uch oqimga bo'linadi, og'ir, yengil va havo ajratib chiqariladi. Odatta, mashinalar oldida og'ir chiqindi qo'shimchalarni tozalagichlar qo'llaniladi, ba'zi hollarda, massani tozalashni havosizlantirish bilan birga olib borish uchun «kombi» tozalagich-

lar qo'llaniladi. «Kombi» tozalagichlari, qog'oz yoki karton ishlab chiqarishda makulaturani ishlatganda qo'llaniladi.

Tozalagich sistemalari odatda, oddiy kaskad usulida o'rnatiladi, bunda chiqindilar birinchi bosqichdan keyingi bosqichga o'tadi, yaxshi massa esa — oldingisiga kiradi va shu tariqa tozalash sistemalarining hamma bosqichlarida.

Tozalagichlarning ishlashiga ta'sir etuvchi faktorlar uch ruhg'a bo'linadi:

konstruktiv — tozalagich diametri, kirish zonasining konfiguratsiyasi, silindr qismining balandligi, kirish va chiqish patrubkalarining diametri, konuslik burchagi, konus ichki yuzasi konfiguratsiyasi va boshqalar;

- ishchi parametrlar — bosim va massa konsentratsiyasi;
- tozalanuvchi suspenziya xarakteristikasi — tola turi, ifloslarning ko'rinishi (o'lchami, konfiguiratsiyasi, zichligi) va ularning miqdori.

Konstruktiv faktorlardan eng muhimi tozalagich diametri hisoblanadi. Massani tozalash effektivligi chiqarib tashlangan chiqindi miqdorini uning massa tarkibidagi miqdoriga nisbati (%) bilan aniqlanadi.

Tozalovchilarni ishlash davridagi effektivligini, uning xizmat vaqtini oshirishda eng muhimi tegishli bosimni ko'rsatilgan rejimda ushlab turish kerak.

### 5.5. Massani navlarga ajratish (saralash)

Mashina usulida navlarga ajratish vazifasi — bosim yashigi va mashinaning setkali qismini bevaqt ishdan chiqishini himoyalash uchun tolalar to'plami va tugunlarni chiqarib tashlashdan iborat.

Navlarga ajratishda bir, ikki, ba'zan uch bosqich qo'llaniladi. Birinchi bosqichda chiqindilar miqdori 3–5 % va ko'p hollarda oxirgi bosqichdan keyin chiqindi kamerasi o'rnatiladi, u to'lgandan keyin ochitadi. Mashina usulida nav-

larga ajratish qurilmasi, flokullar yana hosil bo'lmashligi uchun, bosim yashigiga yaqin joyga o'rnatiladi. Yoshlanmaslik (slizist) va sliza to'plamlari qog'oz polotnosini yuzasiga tushmaslik uchun, qurilma ichki yuzasi silliq bo'lishi, flansli ulangan joyi «metall – metall» turida bo'lishi kerak. Mashinali navlashga qo'yilgan asosiy talablardan biri – past pulsatsiyalanish.

Qog'oz polotnosini shakllash jarayonida pulsatsiya negativ faktor hisoblanadi, shuning uchun uning chastotasi va intensivligi qattiq limitlangan bo'ladi.

Zamonaviy usulda navlarga ajratishda aylana yoki shel shaklidagi setkalar qo'llaniladi. 24-jadvalda massa konsentratsiyasi 0,4–0,8 % bo'lganda, navlarga ajratishda ishlataladigan setka teshiklari keltirilgan.

### **Mashina usulida navlarga ajratishda ishlataladigan setkalarni taklif etilgan teshikchalarining diametri**

*24-jadval*

Navlarga ajratiladigan massa ko'rinishi	Setka teshikchalarini diametri, mm
Gazeta qog'ozlari uchun	1,6–1,8
Tipografiya qog'ozlari uchun	1,6–2,0
Yupqa ko'rinishdagi qog'oz va karton	1,6–2,4
Qog'oz uchun sulfat selluloza	2–2,4
Kraf – layner uchun	2,0–2,4
Makulatura	2,0–3,2
Tara kartoni	2,2–2,6

Shelli setkalarning quvvati yuqori va navlarga ajratishi effektiv hisoblanadi.

Setkani perfaratsiya koefitsiyentini ( $k$ ) aniqlash uchun taklif etilgan formula:

$$\text{aylana qirqimlik teshikchalar uchun: } k = 90,7 \frac{d^2}{t^2}$$

shel qirqimlik teshikchalar uchun:  $k = 100 \text{ bl/tm}$   
bunda, d—teshik diametri, mm; t—ko'ndalang kesim yo'nalishidagi teshik va shel qadamlari, mm; b—shel eni, mm; l—shel uzunligi, mm; m — shel qadamlari.

Bularni qaysi birini tanlash quyidagi faktorlarga asoslanadi:

Mexanik dizayni, pulsatsiya xarakteri, chiqindilarni chiqarib tashlash qurilmasi konstruksiyasи.

## 5.6. Qog'oz massasini deaeratsiyalash


Mashinada qog'oz quyushga qadar massaga ishlov berish jarayonlarida tola bilan suv aralashmalari, ozmi ko'pmi havo bilan to'yinadi. Havoning miqdori massani ko'rinishi va ishlov berishiga bog'liq.

Qog'oz massasida havo uch xil holatda mavjud bo'ladi:

- 1) ozod havo — vaqt o'tishi bilan agregatlashadi va yuzaga ko'tariladi;
- 2) bog'langan havo — mikroskopli pufakchalar, tolalarning gidrofob qismlari bilan bog'langan;
- 3) suvda erigan havo (uning miqdori pH ko'rsatkichiga, uning temperatura va bosimiga bog'liq).

Uchala holatdagi havo ishlab chiqarish jarayonlariga va mahsulot sifatiga salbiy ta'sir etadi. Ozod havo ko'pik hosil qiladi va yoshlanishga olib keladi, bu holat saralash ishlariga, nasos va klapanlarning beqaror ishlashiga olib keladi. Bog'langan havo qog'oz shakllashga negativ ta'sir etadi, massani flokulatsiyalanishiga sababchi bo'ladi, polotnoni yomon shakllanishiga, xira dog'lar, mayda teshikchalar va qog'oz polotnosini suv so'rish qobiliyatini susaytirishga olib keladi. Bog'langan havo jiddiy muammolarni keltirib chiqarmasada, ular bog'lovchi havoga aylanish tendensiyasiga ega.


Qog'oz massasini havosizlantirishning asosiy prinsipi — so'rish prinsipi. So'rish maxsus gidrotsiklonlarda olib boriladi. Havosizlantiruvchi qurilmalarning sxemasi 14—15-rasmarda keltirilgan.



14-rasm. Vixrli tozalagichlar yordamida massadan havoni  
chiqarish qurilmasining sxemasi:

1—nasos; 2—og'ir ifoslarni chiqarib tashlovchi vixrli tozalagich;  
3—«kombi» turidagi vixrli tozalagich; 4—havoni ajratkich;  
5—vakuum-nasos.

14-rasmdagi qurilma, massa tozalagichlari 1-bosqichiga o'rnatiladi. Bu xil tozalagichlarda og'ir, yengil ifloslar va havoni alohida ajratishi mumkin.




15-rasm. Vixrli tozalagichlar yordamida massadan havoni va-kuum-nasosni ishlatmasdan chiqarish qurilmasining sxemasi:  
1—havo aratuvchi quvur (truba); 2—og‘ir ifoslarni chiqarib tash-lovchi vixrli tozalagich; 3—«kombi» turidagi vixrli tozalagich

15-rasmdagi qurilma yordamida massani havosizlantirishda vakuum-nasos qo'llanilmaydi. Massa tarkibidagi havo, yengil chiqindilar bilan birga sistemadan maxsus konstruksiyali trubadan chiqariladi.

Massani havosizlantirishni ikkinchi prinsipi — vakuum dekulatorlar yordamida massa tarkibidagi havoni butunlay chiqarib tashlash. Dekulatorlarning ishlash prinsipi shunga asoslanganki, havosizlantiruvchi qog'oz massasi vakuumlangan berk kamera ichiga massa purkaladi. Bu prinsipda ishlaydigan har xil konstruksiyali dekulatorlar mavjud. Namuna sifatida Cleanvac turidagi kombinatsiyali dekulatorning sxemasi 16-rasmda keltirilgan.

Cleanvac turidagi kombinatsiyali dekulator yopiq kamera bo'lib, ikki seksiyaga bo'lingan. Bularning birida tayyor qog'oz massasi, boshqasida — bosim yashigiga massani suyultirish uchun berilayotgan setka tagi suvi deaeratsiyalanadi.

Zamonaviy deaeratsiya sistemasi bitta qurilmada dekulator va bir nechta vixrli tozalagich bloklar jamlangan.



16-rasm. Cleanvac turidagi kombinatsiyali dekulyatorning sxemasi.

---

## **VI bob. QOG'oz VA KARTON POLOTNOLARINI SHAKLLANISHI**

### **6.1. Napusk qurilmasi**

**Napusk qurilmasining funksiyasi.** Napusk qurilmada qog'oz massa yupqa shakliga o'tadi, u qog'oz quyushda asosiy qism hisoblanadi. Bu qurilma qog'oz massasini oqimini tezligini, qog'oz – karton qilish mashinalarining tekis yoki aylanma setka qismlari tezliklariga moslab berishni ta'minlaydi.

Massa bilan setka tezligi nisbatlari ( $K_m$ ), quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$K_m = V_m / V_c ,$$

bunda,  $V_m$  – setkaga oqib kelayotgan massa tezligi, m/min;  $V_c$  – setka tezligi yoki shakllantiruvchi silindrning aylanma harakat tezligi, m/min.

Massa tezligi oshganda setka ustiga tushayotgan massa miqdori oshadi, bu qog'oz makrostrukturasini yomonlashuviga va mustahkamligini pasayishiga olib keladi. Teskari holatda (setka tezligi oshganda) – qog'ozni anizatropiyasi oshadi. Har ikkala holatlarda ham qog'oz  $1m^2$  massasini bir maromda ushlab turish va tolalar orientatsiya darajasini boshqarish qiyinlashadi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, ko'p xil qog'ozlarni ishlab chiqarishda taxmindan  $V_m = V_c$  yoki  $V_c$  dan biroz kam bo'ladi. Quyidagi jadvalda massa va setka tezlik nisbatlarining qog'ozni nur o'tkazish notekisligiga ta'siri keltirilgan.

## Qog'oz nur o'tkazish notejisligiga $K_m$ ta'siri

25-jadval

Qog'oz qiluvchi mashinalar turi	$K_m$ qiymati	Qog'oz nur o'tkazish notejisligi, (shartli birliklar)
O'rta quvvatli tekis set-kali qog'oz qiluvchi mashina	0,96	70
	0,98	65
	1,00	63
	1,02	66
	1,04	72
Ikki tomonlama suv-sizlantiruvchi (Papri Former) qog'oz qiluvchi mashina	0,96	61
	0,98	59
	1,00	56
	1,02	58
	1,04	64

Setkaga massani oqib kelish tezligi,  $v$ , Torichelli formulasi bilan aniqlanadi:

$$v = 60 (2gh)^{0,5}, \text{ m/min}$$

bunda,  $g$  — og'irlikni tezlanish kuchi,  $g = 9,81 \text{ m/s}^2$ ;  $h$  — bosim yashikning napusk sheli oldidagi massa bosimi, m.

Setkaga massani oqib tushish tezligi amalda quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$v_m = \mu v, \text{ m/min},$$

Bunda,  $\mu$  — massa oqib o'tish koefitsiyenti.

Koefitsiyent  $\mu$  qiymati massa chiqayotgan teshik shakliga, oqimni joyidagi teshikdan oqib chiqish qarshiligiga, massa konsentrasiyasiga, uning suyuqlik darajasiga, reologik xarakteristikasiga, oqimdagи massani miqdoriga bog'liq. Uning qiymati har doim 1 dan kam, zamonaviy napusk qurilmalari uchun  $\mu = 0,95-0,99$ .

Setkaga massani oqib tushish tezligini, qog'oz qilish mashinasiga kelayotgan massa balans tenglamasi orqali ham aniqlash mumkin:

$$v_m = 0,001 \cdot v \cdot V \cdot q \cdot (100 - W) / (100 - m) \text{ cla, m/min,}$$

bunda,  $v$  — qog'oz qilish mashinasining tezligi, m/min;  $V$  — na-katdagi qog'oz eni, m;  $q$  — 1 m<sup>2</sup> qog'oz massasi, g;  $W$  — na-katda o'ralayotgan qog'oz namligi, %;  $m$  — mashinadagi a.q. chiqindi moddalar miqdori, %;  $c$  — setkaga oqib tushayotgan massa konsentratsiyasi, %;  $l$  — shel eni, m:

$$m = (A - B) \times 100/A, \%,$$

bunda,  $A$  — ma'lum vaqt birligida bosim yashigidan setkaga ke-layotgan a.q. modda, kg;  $B$  — shu vaqtida nakatdan olingan modda, kg.

Absolut quruq (a.q.) chiqindilar, m, asosan qog'oz massa komponentlarining mashinani ho'l qismida ushlanishiga bog'liq va uning o'zgarish chegarasi 10 dan 50 %gacha bo'lishi mumkin.

Massa tezligi,  $v_m$ , bosim orqali boshqariladi va bosimi (на-пор) bu formula bilan aniqlanadi:

$$h = K_c K_m / 60 \mu \cdot v^2 \mu / 2g, m,$$

bunda,  $K_c$  — setkani nakatda o'ralayotgan qog'oz tezligidan se-kinlashish koefitsiyenti, bu qog'oz turiga bog'liq,  $K_c = 0,90 - 0,95$ ;  $K_m$  — massa tezligini setka tezligiga nisbati;  $v$  — qog'oz qilish mashinasi tezligi, m/min;  $\mu$  — massa oqib o'tish koefitsi-yenti.

Agar bosim (напор) 1,0—1,5 m gacha bo'lsa, ochiq turdag'i bosim yashigi (напорный ящик) o'rnatiladi, bosim katta bo'lsa — yopiq tipdag'i bosim yashigi o'rnatiladi.

Mashina setkasi bilan oqim orasida ma'lum qiymatli

tutashuv burchakni hamda massa bilan setka aloqasini, napusk qurilma ta'minlaydi. Uchrashuv burchagi va massa bilan setka bog'lanish joyi qog'oz massasi komponentlarini ushlab qolishini kamaytiradi, suvsizlanishini esa oshiradi.

Napusk qurilma qog'oz massani bir maromda ta'minlashi kerak. Massa konsentratsiyasini birday ushlab turish bilan birga, qog'oz 1 m<sup>2</sup> massasining tebranishini past darajaga keltiradi. Napusk qurilma qog'oz massani tegishli dispersiyasini ta'minlashi kerak. Dispers darajasi qog'oz polotnosini makrostrukturasining bir tekisligini aniqlaydi, bu ko'p hollarda mahsulot sifatini aniqlaydi. Qog'oz massasini disperglash imkoniyatini uning kompozitsiyasi, konsentratsiyasi va napusk qurilmaning konstruksiyasi aniqlaydi.

**Qog'oz varog'i anizotropiyasi.** Qog'oz varog'i ma'lum darajada anizotropiyaga ega. Uning mustahkamlik ko'rsatkichi – mashina yo'nalishi va ko'ndalang yo'nalishlariga bog'liq. Massalan, qog'ozning mashina yo'nalishidagi mustahkamligi, ba'zi qog'oz va kartonlarda, 2–3 baravar, ba'zi hollarda 5–6 baravar yuqori. Buning sababi, tolalarning mashina yo'nalishi bo'yicha orientatsiyalanganidadir. Boshqa sabablaridan biri qog'oz massasi oqimi bilan setka tezliklari. Ko'pchilik qog'oz turlari uchun uzilishga qarshilik kuchi bo'yicha anizotropiya darajasi o'rtacha (2–3):1 nisbatni tashkil etadi. Bu nisbatni ushlab turish murakkab, ayniqsa, keng formatli yuqori tezlikda ishlaydigan mashinalarda.

Qog'oz qop va tekis qatlamlik kartonlar uchun anizotropiya past darajada – (1,0–1,5):1 nisbat talab etiladi. Bu turdag'i anizotropiyali qog'oz va kartonlarni olish, yangi gidrodinamik turdag'i napusk qurilmasini va ikki setkali shakllovchi qurilma yaratilish evaziga erishiladi. Shakllovchi setkani tormozlash harakati tufayli, qog'ozning yuqori va pastki qavatlarida tolallarni dezorientatsiyalanadi, varoqning oraliq qismi esa orientatsiyalangan holda qoladi.

Ikki setkali shakllash va polotno chetlaridagi massa oqimi

tezligini boshqarish usullarining ijobiy tomonlaridan foydalanib, eng past anizotropli mahsulot olish mumkin.

**Napusk qurilmalaridagi massa konsentratsiyasi.** Massa konsentratsiyasi ( $S$ ), %, yoki gramm a.q moddani  $1\text{ l}$  ( $C_1$ ) miqdori ifodalanadi. Bular orasidagi nisbat:

$$C = C_1/10.$$

Napusk qurilmasidagi massa konsentratsiya — qog'oz va karton olish texnologiyasida asosiy parametrlardan hisoblanadi, uni quyidagilar bilan tasdiqlash mumkin:

- napusk qurilmasida massa konsentratsiyasi — barcha texnologik oqimlarda past bu holda, konsentratsiya suv miqdorini aniqlaydi;
- napusk qurilmasida massa konsentratsiyasi ko'p hollarda qog'oz massasini reologik xarakteristikasini aniqlaydi, uning flokulatsiyaga va disperglashga bo'lgan qobiliyatini aniqlaydi;
- qanchalik konsentratsiya past bo'lsa, shuncha uning disperglanishi katta bo'ladi;
- napusk qurilmasida massa konsentratsiyasi, qog'oz massasini mashinaning setkali qismida, qog'oz massa komponentlarining ushlanishiga ta'sir etadi — qanchalik ko'p suyultirilsa, shuncha kam ushlanadi;
- napusk qurilmasida massa konsentratsiyasi tayyor mahsulot mustahkamligiga ta'sir etadi;
- yuqori darajada suyultirilganda mustahkamlik ko'r-satkichlari, tolalarning asosiy qismi gorizontal tekislikda orientatsiyalangani va makrostrukturani notekisiligi kamayishi hisobiga, yaxshilanadi.

Napusk qurilmasidagi massa konsentratsiyasi qator faktorlarni aniqlaydi, ulardan asosiyлari:

- olinayotgan mahsulot ko'rinishi;
- $1\text{ m}^2$  qog'oz yoki karton massasini og'irligi;
- qog'oz yoki karton kompozitsiyasi;

- tolalarga ishlov berish darajasi;
- to'ldiruvchilarning bor yo'qligi;
- yordamchi kimyoviy moddalardan foydalanganlik;
- setka stolining suvsizlantirish imkoniyati.

26-chi jadvalda napusk qurilmasida, har xil mahsulotlar turi uchun, qog'oz massa konsentratsiyasi keltirilgan.

**Napusk qurilmasida, har xil mahsulotlar turi uchun,  
qog'oz massa konsentratsiyasi**

*26-jadval*

Mahsulotlar turi	$1m^2$ mahsulot massasi, g	Massa konsentratsiyasi, %	Ilova
Gazeta qog'izi	42,0–48,8	0,35–0,60	—
Offset qog'izi	60–80	0,60–0,80	—
	90–120	0,80–1,20	—
Qog'oz qop	70–80	0,20–0,40	—
Oboy qog'izi	100–130	0,80–1,20 0,60–0,80	Bir qavatli Ikki qavatli
Sanitar-gigiena qog'izi	17–32	0,20–0,35	—
Gofra karton uchun tekis karton	150–200	0,80–1,20 0,50–0,70	Tekis setkali KDM* Ko'p qavatli shakllash
Gofplash uchun qog'oz	120–170	0,70–1,0	—
Sellulozali papka	600–800	1,80–2,20	—

KDM\* – картонделательная машина (karton qiladigan mashina).

Hozirgi zamон napusk qurilmalariga qo'yilgan talablar. Qog'oz massasini disperslash – qog'oz polotnosini bir tekis

Yashik tekis setkali qog'oz — karton qiluvchi mashinalar hamda presspadlar, har qanday tezlikda va har xil kenglikdagi mashinalar uchun mo'ljallangan.


Universal bosim yashigi konstruksiyasini ta'minlaydiganlar:

— setka kengligi bo'yicha massa suspenziyasini bir tekisda tarqatish;

— ventil hamda retsirkulatsiya liniyasi orqali, mashina kengligi bo'yicha massa bosimini bir xilda ushslash;

— massa chiqishida yuqori deflokulatsiyalovchi effekt, varoq makrostrukturasini bir tekisda bo'lishi.

Oqimni boshqarib boruvchi, ВНИИБ tomonidan ishlab chiqilgan, bosimi yashik, qog'oz massasi og'irligi 25 dan 250 g/m<sup>2</sup> va eni 5–6 m qog'oz olish imkonini beradi (18-rasm).



18-rasm. Oqimni boshqarib boruvchi bosim yashik:

1—oqimni bo'lib beruvchi; 2—teshikli valiklar; 3—massa chiqadigan shelni boshqaruvchi; 4—grudnoy val.

Bosim yashigi konstruksiyasi quyidagilarni ta'minlaydi:


— qog'oz varoq'ini makrostrukturasini juda yaxshilaydi;

— polotno 1 m<sup>2</sup> massasini bo'yи va eni bo'yicha farqini eng pastga yetkazadi.

**Gidrodinamik turidagi bosim yashiklar.** Bu turdagи bosim yashiklar zamonaviy ikkitomondan so'rib suvsizlantiruvchi, shakllan-tiruvchi sistemalarda qo'llash uchun mo'ljallangan. Bularni bermalol tekis setkali qog'oz va karton qiluvchi mashinalarda qo'llash mumkin. Gidrodinamik yashiklarda bosim, qog'oz massasini potoklarga tarqatuvchi nasolar yordamida hosil qilinadi, bu turdagи bosim yashiklarida havo yastig'i (воздушная подушка) bo'lmaydi.

«Escher Wyss» firmasini gidrodinamik turidagi bosim yashiklari (19-rasm, a, b), tekis setkali mashinalarga o'rnatish uchun mo'ljallangan. Ularning muhim elementlari bosqichli diffuzorlar hisoblanadi:

- oqim tarqatuvchidan (3) chiqayotgan qog'oz massa oqimini, mashina yo'nalishida orientatsiyalash;
- mashina eni bo'yicha massa oqib chiqish tezligini tekis ta'minlash, diffuzordan chiqayotgan, qog'oz massasi profil tezligini tekislash;
- flokullarni yemirish uchun oqimini kuzatish imkonini yaratish.



19-rasm. Gidrodinamik turidagi bosim yashik (a) va bosqichli diffuzorlar blok sxemasi (b):

- 1—massani setkaga chiqaruvchi (oqizuvchi) qurilma;
- 2—bosqichli diffuzorlar bloki;
- 3—oqim tarqatuvchi.


Bosim yashiklari konstruksiyasi xilma-xil, ularning qo'llanishini turlari ham ko'p. Bularni Rossiya va boshqa g'arb firmalari ishlab chiqargan.

Ko'p qavatli quyush uchun napusk qurilma. Qog'oz massa oqimini gidrodinamik stabillashni, ta'minlovchi zamonaviy konstruksiyali napusk qurilmalar, bir bosim yashigi orqali ko'p qavatli qog'oz va karton shakllash imkonini beradi. Bu turdag'i shakllash, strukturali shakllash nomini olgan. Bu qurulmalarning yutuqlari quyidagilardan iborat:

- har xil kompozitlarni qog'oz va karton qavatlari orasiga kiritish imkoniyati;
- to'ldiruvchilarni, yelimlovchi va kimyoviy yordamchi moddalarni tegishli qatlamlarga kiritish imkoniyati;
- bo'yagan qog'ozni olishda, bo'yoqni faqat qog'ozning yuqori qatlamiga (yopadigan qatlam) berish imkonii;
- tolalarni har xil fraksiyasidan optimal foydalanish imkoniyati.

Strukturali shakllash usuli bilan barcha turdag'i qog'ozlarni olish mumkin. Bu tipda ishlaydigan «Tampella» firmasini Controflo-Foemer shakllantiruvchi qurilmasining sxemasi 20–21-rasmarda keltirilgan.

Chet el firmalari mutaxassislarining fikricha, strukturali shakllantirish — istiqbol yo'naliшlardan biri — qog'oz va karton ishlab chiqarishning eng mukammalligidir.



20-rasm. Controflo-Foemer shakllantiruvchi qurilmasining sxemasi:

1—uch qavatli napsuk qurilma; 2—shakllantiruvchi setkalar;  
3—gauch-val; 4—so'ruvchi qurilma.


Bosim yashiklari konstruksiyasi xilma-xil, ularning qo'llanishini turlari ham ko'p. Bularni Rossiya va boshqa g'arb firmalari ishlab chiqargan.

Ko'p qavatli quyush uchun napusk qurilma. Qog'oz massa oqimini gidrodinamik stabillashni, ta'minlovchi zamonaviy konstruksiyali napusk qurilmalar, bir bosim yashigi orqali ko'p qavatli qog'oz va karton shakllash imkonini beradi. Bu turdag'i shakllash, strukturali shakllash nomini olgan. Bu qurulmalarning yituqlari quyidagilardan iborat:

- har xil kompozitlarni qog'oz va karton qavatlari orasiga kiritish imkoniyati;
- to'ldiruvchilarni, yelimlovchi va kimyoiy yordamchi moddalarni tegishli qatlamlarga kiritish imkoniyati;
- bo'yalgan qog'ozni olishda, bo'yoqni faqat qog'ozning yuqori qatlamaiga (yopadigan qatlam) berish imkonii;
- tolalarmi har xil fraksiyasidan optimal foydalanish imkoniyati.


Strukturali shakllash usuli bilan barcha turdag'i qog'ozlarni olish mumkin. Bu tipda ishlaydigan «Tampella» firmasini Controflo-Foemer shakllantiruvchi qurilmasining sxemasi 20–21-rasmarda keltirilgan.

Chet el firmalari mutaxassislarining fikricha, strukturali shakllantirish – istiqbol yo'nalishlardan biri – qog'oz va karton ishlab chiqarishning eng mukammalligidir.



20-rasm. Controflo-Foemer shakllantiruvchi qurilmasining sxemasi:

1—uch qavatli napusk qurilma; 2—shakllantiruvchi setkalar;  
3—gauch-val; 4—so'ruvchi qurilma.




**21-rasm. Uch kanallli Stratoflo qurilmasi:**  
**113–114—oqimni taralovchi; 2—massalar uchun kanallar;**  
**3—Controflo-varoqlari; 4—gauch-val.**

Yuqori konsentratsiyali qog'oz massa uchun napusk qurilma. Yuqori konsentratsiyali massa, qog'oz quyushda quyidagi imkoniyatni yaratadi:

- setkali stol uzinligini qisqartiradi;
- suvsizlantirishda va qog'oz massasini transportirovka qilishda energiya sarsfini kamaytiradi;
- hovuzlar va quvurlar o'lchamini kamaytiradi;
- oqova suvlar hajmi kamayishi hisobiga, tozalash qurilmaliga keladigan yuklarni kamaytiradi;
- presslangandan va qog'oz massasi komponentlari ushlangandan keyin quriqlanish darajasi oshadi.

Napusk qurilmasining maxsus konstruksiyasi, konsentratsiyasi oshirilgan massa uchun, quyushdagi konsentratsiyasini 3–4 %gacha oshiradi. Bunda napuskli qurilmada, nisbatan bir tekis

tolali struktura hosil bo'ladi. Qog'oz nisbatan g'ovakroq bo'ladi, yirtilishga qarshilik kuchi yuqori, past konsentratsiyadan qu-yuganga qaraganda, uzulish uzunligi past. Yuqori konsentratsiyali massa uchun qo'llaniladigan napusk qurilma sxemasi 22-rasmda keltirilgan.



**22-rasm. Yuqori konsentratsiyali massa uchun napusk qurilma-sining sxemasi:**

1 — silindr shaklidagi teshiklar; 2 — toraygan shel; 3 — aralashtiruv-chi kamera; 4 — tezlashtiruvchi kanal; 5 — chetlanuvchi kamera; 6 — oqim turbolentligini so'ndiruvchi kanal.

Disperglash zonasida, oqimning kamera devorlariga urilishi natijasida massani disperslanishi tezlashadi, so'ngra oqim turbulenligini pasaytiruvchi kanalda uch o'lchamli tolali struktura shakllanadi.

Yuqori konsentratsiyali massani quyib, gofrlash, so'riluvchan va havo o'tkazuvchan g'ovaklik, qog'oz va karton shakllashda ishlataladi.

## **6.2. Qog'oz va karton qiluvchi mashinalarning setkali qismida suvsizlantirish**

**Shakllantirish jarayonining umumiy xarakteristikasi.** Mashinani setkali qismida qog'oz massasi, qog'oz polotnoga aylanadi,

qog'oz strukturasiga asos solinadi, tayyor mahsulotni mexanik mustahkamligining oshishiga sharoit yaratiladi. Bu jarayonlarning borishida, asosiy faktor cho'kayotgan tolalar qatlamini suvsizlanishi va suv ishtirokida birlamchi bog'larning hosil bo'lishidir. Setka stolida qog'oz polotnosini quruqlanishi, massani dastlabki, napusk qurilmasidagi konsentratsiyasidan to, o'rtacha 18–24 %, (mahsulot turi va setka konstruksiyasiga nisbatan) setka qismida suvsizlantirish tugaguncha oshib boradi. Shunday qilib, setka stolida, dastlabki konsentratsiyasiga qarab, 95–99 % qog'oz massasidagi suv so'rib olinadi yoki – 1 t mahsulotdan 80–450 m<sup>3</sup> suv so'rib olinadi.

Suvsizlantirishni hisoblashning asoslari. Shakllantirish vaqt deb, massani napusk qurilmasidan, to'xtovsiz suvsizlantirish sharoitida, setkada «quruq liniya» paydo bo'lgancha o'tgan vaqt tushuniladi. Shakllantirish vaqtini  $t_f$  quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$t_f = L/v_c \text{ min},$$

bunda,  $L$  – napusk qurilmasidan to «quruq liniya»gacha suvsizlantiruvchi zonagacha bo'lgan uzunlik, m;  $v_c$  – setka tezligi, m/min.

Shakllantirish vaqtini filtirlashning o'rtacha tezligi bilan bog'langan. Suvni o'rtacha balandlik qatlami  $\Delta h$ , quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta h = q (C_{cl} - C_0) / C_{cl} \cdot 10^3 C_0 - C_{per} \text{ m},$$

bunda,  $q$  1 m<sup>2</sup> a.q. massa, g;  $C_{cl}$  – quruq liniyadagi massa konsentratsiyasi, g/l;  $C_0$  – bosim yashigidagi massa konsentratsiyasi, g/l;  $C_{per}$  – registrli suv konsentratsiyasi, g/l.

Qog'oz polotnosini shakllantirishda o'rtacha filtrlash tezligi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$v_{f,cr} = \Delta h / t_{prf} = \Delta h v_c / L, \text{ m/min}$$

Uzilish uzunligini, bosim yashigidagi massa konsentratsiyasi, shakllantirish vaqt bilan bog'liqligi mavjud. Ruxsat etilgan past shakllantirish vaqt davomi ( $t_{pr,f}$ ) — bu, uzilish uzunligining yuqori vaqt hisoblanadi. Shakllantirish vaqt  $t_{pr,f}$  dan kam bo'lsa, unda uzilish uzunligi ham  $t_{pr,f}$  dan kam bo'ladi. Massa konsentratsiya kamayishi bilan  $t_{pr,f}$  oshadi. Agar shakllantirish vaqtida, konsentratsiya o'zgarmas  $C_0$  bo'lganda, qog'ozni  $1 \text{ m}^2$  massasini ikkinchi darajasiga proporsional bo'ladi.

Shakllantirishdagi chegara vaqt shu bilan tushuntiriladi, yuqori tezlikda filtrlanganda tolalarning bir qismi qog'oz tekisligi yuzasida emas, qog'oz massasi traektoriyasi bo'ylab chiqari layotgan suvda. Natijada, qog'ozning makrostrukturasi va uning mustahkamligi buziladi.

Ma'lum turdag'i qog'oz uchun shakllantirish chegara vaqt  $t_{pr,priv}$  deb nomlanuvchi vaqtdan foydalanish mumkin.  $t_{pr,f}$  va  $t_{pr,priv}$  bir-biri bilan bog'liqlik quyidagicha emperik formula bilan hisoblash mumkin:

$$t_{pr,f} = t_{pr,priv} (q/100)^2, \text{ s},$$

bunda —  $q \text{ } 1 \text{ m}^2$  qog'oz massasi, g.

Ma'lum tipdag'i qog'oz uchun shakllantirish chegara vaqt quyidagi emperik formula bilan hisoblanadi:

$$t_{pr,priv} = b - aC_0, \text{ s},$$

bunda,  $t_{pr,priv}$  — massasi  $100 \text{ g/m}^2$  bo'lgan qog'oz shakllashdagi chegara vaqt, s;  $C_0$  — qog'ozni quyish vaqtidagi konsentratsiyasi, %; a, b — eksperiment koefitsiyentlari.

Shakllantirishdagi chegara vaqt, qog'oz massasini ruxsat etilgan suvsizlantirish intensivligini setkali qismida chegara laydi. Agar massani suvsizlantirish bitta suvsizlantiruvchi elementda bir xil bosimda o'tkazilsa, u holda  $t_{pr,f}$  bevosita foydalanish mumkin. Suvsizlantirish jarayonini hisoblashda qu-

yidagi shart bajarilishi lozim:  $t_{pr,f} \geq t_{pr,r}$ .

Agar suvsizlantirish birnechta suvsizlantiruvchi elementlaridan o'tkazilayotgan bo'lsa, unda o'rtacha filtrlash tezligi chegara vaqtidan foydalanish mumkin. Bu holda  $v_{f,cr,pr}$  quyidagicha hisoblanadi:

$$v_{f,cr,pr} = \Delta h_{kon} / t_{pr,f}, \text{ m/min}$$

bunda,  $\Delta h_{kon}$  – shakillantirish tugagandagi massa qavatini bandligi; m.

Bu holda quyidagi shart bajarilishi lozim:  $v_{f,rasch} \leq v_{f,cr,pr}$ .

$v_{f,cr,pr}$  hisoblash uchun registr suvini konsentratsiyasini  $S_{reg}$  bilish kerak, buning uchun 27-jadvaldan foydalilaniladi.

**Filtrlash o'rtacha chegara tezligini hisoblash uchun, registr suvi konsentratsiyasi  $S_{reg}$ , %**

27-jadval

Qog'oz	Bosim yashigidagi konsentratsiya, %									
	0,3	0,4	0,5	0,6	0,7	0,8	0,9	1,0	1,1	
Gazeta uchun ( $q = 51 \text{ g/m}^2$ , 60 °SHR)	0,018	0,024	0,029	0,034	0,40	–	–	–	–	–
Bosmaxona uchun, № 3 ( $q=63 \text{ g/m}^2$ , 55 °SHR)	0,115	–	0,165	0,190	0,215	0,240	0,265	–	–	
Pergament asosi uchun ( $q=62 \text{ g/m}^2$ , 60 °SHR)	–	0,040	0,042	0,044	0,046	0,048	0,050	–	–	
Yozuv uchun	–	0,06	0,07	0,08	0,09	0,10	0,11	–	–	
№ 2 ( $q=65 \text{ g/m}^2$ ,										

*jadvalning davomi*

<b>60 °SHR)</b>									
Bosmaxona uchun № 1 ( $q=60 \text{ g/m}^2$ , $56^\circ\text{SHR}$ )	—	—	—	0,180	0,220	0,240	0,250	—	—
Illustratsi- yalar uchun ( $q=120 \text{ g/m}^2$ , $27^\circ\text{SHR}$ )	—	—	0,121	0,132	0,142	0,154	0,164	0,174	0,184
Offset uchun № 2 ( $q=75$ $\text{g/m}^2$ , $64^\circ\text{SHR}$ )	—	—	—	0,077	0,082	0,088	0,094	0,10	—

Registirli qismda  $v_f,cr$  qiymati har bir suvsizlantiruvchi elementlar uchun alohida hisoblanadi. Shuning uchun,  $v_f,cr$ . pr asosida  $v_f,cr$  o'zgarishini jami shakllantirish uchastkasi bo'yicha va tegishli qog'oz massasi konsentratsiyasiga bog'lab, aniqlanadi. Filtrlash tezligi nisbatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$v_{f(x)} / v_{f,sr} = 0,5 (L/x)^{0,5}$$

bunda,  $x$  — suvsizlantirish boshlanishidan bo'lgan masofa, m;  
 $L$  — suvsizlantirish zonasini «quruq liniya»gacha bo'lgan uzunlik, m.

Bu nisbatlarning qiymati 28-jadvalda keltirilgan.

$v_{f(x)} / v_{f,sr}$  ning shakllash zonasi bo'ylab  
qiymati

*28-jadval*

X L	$v_{f(x)} / v_{f,sr}$	X/L	$v_{f(x)} / v_{f,sr}$
0,001	50,0	0,5	0,707

jadvalning davomi

0,001	15,81	0,6	0,645
0,01	5,0	0,7	0,598
0,05	2,236	0,8	0,559
0,1	1,581	0,9	0,527
0,2	1,118	0,95	0,513
0,25	1,0	0,98	0,505
0,3	0,913	1,0	0,5
0,4	0,790		

Elementni boshlanishidan X masofadagi massani o'rtacha konsentratsiyasi  $S_{0(x)}$  quyidagi formula bilan topiladi:

$$C_{0(x)} = C_{reg} + C_0 - C_{reg}/1 - (1 - C_0 - C_{reg}/C_{sl} - C_{reg}) \\ ((L/x)^{0,5}, \%)$$

Filtrlash o'rtacha tezligi aniq bo'lganda, so'rish yashiklari uchun kerakli vakuum S quyidagicha aniqlanadi:

$$S = \frac{v_{f,pr}}{K} (l_1 + \frac{C_{01} - C_m v_{f,pr}}{C - C_{01} v_c} L_{yash} n), m,$$


bunda,  $n$  – so'rish yashigi raqami;  $L_{yash}$  – so'rish yashigini uzunligi, m;  $K$  – filtrlash koefitsiyenti (maydalinish darajasiga va filrlanish bosimiga bog'liq), m/s;  $l_1$  – yashik ustida cho'kkan tolalar qatlami, m;  $C_{01}$  – yashik ichidagi qog'oz massasining konsentratsiyasi, %;  $C_m$  – setkadan so'rيلayotgan suv konsentratsiyasi, %;  $C$  – qog'oz massasini yashikdan keyingi konsentratsiyasi, %;  $v_c$  – setka tezligi, m/s.

Shu formula orqali registr qismidagi shakllantiruvchi so'ruv yashigi uchun kerakli vakuumni hisoblab topish mumkin. Buning uchun  $n = 1$  qilib olish kerak, chunki har bir yashik oldidan, cho'kkan tolalar qatlami yuviladi, shu sababdan massa

konsentratsiyasi  $C_{01}$  yashikka kirish yuzasida bir xil bo'ladi, bunda  $l_1 = 0$ .

**Setka stolini suvsizlantiruvchi elementlar.** Tekis setkali stol konstruksiyasi mashina tezligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot turiga qarab aniqlanadi (23- rasmida keltirilgan).

Setka stoli bosh qismida diametri 400–1000 mm bo'lgan grudnoy val o'matilgan. Ko'p hollarda grudnoy val setkaga ishqalanish natijasida aylanadi. Tezyurar mashinalarda grudnoy val mustaqil harakatlantiruvchi kuchga ega. Yuqori sifatlari qog'oz ishlab chiqaradigan, sekin harakatlanadigan mashinalarda ( $v_c < 250$  m/s), polotnoni makrostrukturasini yaxshilash va anizotropiyani pasaytirish maqsadida, setkani tebratuvchi moslama qo'llaniladi.



23-rasm. Ho'l, vakuum va so'rvuchi yashiklar bilan ta'minlangan setkali stol:

- 1 — grudnoy val; 2 — shakllantiruvchi yashik; 3 — «ho'l yashik»;
- 4 — «vakuumli yashik»; 5 — registri valik; 6 — tekislagich;
- 7 — so'rvuchi yashik; 8 — so'rvuchi gauch-val; 9 — yetaklovchi val;
- 10, 13 — setka yurituvchi valiklar; 11 — setkani taranglovchi valik;
- 12 — setkani to'g'irlovchi valik; 14 — setka.

Tebratuvchilarning effektivligi uning amplituda va chastotasiغا hamda kompozitsiyasi, maydalinish darajasiga, massa konsentratsiyasiga,  $1 \text{ m}^2$  qog'oz massasiga, bog'liq «Sadkiy» massada past amplituda (2–4 mm) va katta chastota (minutiga 200 yuqori tebranish), massa «жирный» bo'lganda — katta amplituda (10...12 mm) va kichik chastota (minutiga 100–120 tebranishlar). Quyidagi nisbat bajarilganda, tebratish effektli bo'ladi:

$$2An / v = 150 + 450,$$

bunda,  $A$  — tebranish amplitudasi, m;  $n$  — tebranish chastotasi,  $s^{-1}$ ;  $v$  — mashina tezligi, m/s.

Setkani dastlabki qismida suvsizlantirish tezligini kamaytirish uchun, polotno quyush jarayonini boshqarish maqsadida hamda grudnoy valdan keyin setkani egilishini yo'qotish uchun, shakllantiruvchi doska yoki shakllantiruvchi yashik o'rnatiladi. Doska yuzi tekis yoki teshikchalar teshilgan bo'lishi mumkin. Registrli valiklar setka orqali aylanadi va u bilan birga biroz sirpanib aylanadi. Suvni yo'qotish vakuum orqali bajariladi. Vakuumni kattaligi 40 kPa gacha boradi. Shunday qilib, registrli valiklardan foydalanilganda, massani suvsizlantirish navbatma-navbat goh bosim ostida goh vakuumda boradi.

Registrli valiklarning so'rish harakati ularning aylanish tezligi kvadratiga proporsional, chiqariladigan suvning miqdorini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$W = K \nu r l, \text{ m}^2/\text{s},$$

bunda,  $K$  — massa xossasi va uning filtrlanishga qarshilik, koefitsiyenti;  $\nu$  — valikni aylanma tezligi, m/s;  $r$  — valik radiusi, m;  $l$  — valikni ishchi qismi uzunligi, m.

Suvning asosiy miqdori (mashinani setkali qismida barcha suvni 40 %), birinchi 5–6 registrli valiklarda chiqariladi. Registrli valiklarning zararli ta'sirini yo'qotish uchun ularning bir qismi yoki hammasi birato'la registrli plankalarga (gidroplanka) almashtiriladi.


Gidroplankalar shaberni bir turi bo'lib, setka 1–5° ostida o'rnatiladi.

Gidroplankalar orqali hosil qilingan vakuum 2–5 marta, registrli valiklar hosil qilgan vakuumga qaraganda kam.

Shakllantirish zonasini oxirlarida, quruq liniyadan oldin,

gidroplanka orqasiga suvsizlantiruvchi element sifatida ho‘l so‘rvuchi yashiklar o‘rnataladi.

Vakuumni oshirganda, suvsizlantirish tezlashadi, setkada qog‘oz massasi komponentlarining ushlanib qolishi pasayadi, setka yacheykalari muhirlanib qoladi. Setka stolida so‘rvuchi yashiklar soni 10–12 donagacha yetishi mumkin. So‘rvuchi yashik konstruksiyasi 24-rasmda ko‘rsatilgan.



24-rasm. So‘rvuchi yashik:

1 – suv va havoni chiqaruvchi trubalar; 2 – yashik balandligini boshqaruvchi boltlar; 3 – korpus; 4 – ko‘p teshikli (perfarlangan) yopindi; 5 – shiber; 6 – so‘rg‘ich enini boshqaruvchi vint.

**Qog‘oz qiluvchi mashinalar (QQM) setkasi.** Qog‘oz-karton qiluvchi mashinalarning setkasi — setka stolini eng muhim elementi hisoblanadi. Mahsulot sifati va mashinaning effektiv ishlashi setkani sifatiga bog‘liq. Setkani texnik funksiyalariga qo‘yilgan talablar:

- pH o‘zgarishiga chidamlilik;
- mustahkamlikka, uzilishga, egilish va ishqalanishga chidamlilik;
- to‘qimani yetarli zichligini ta’minlash;
- suvni yaxshi o‘tkazish qobiliyati.

Setkalar har xil belgilari bilan xarakterlanadi, bularning ichida eng muhim: setka materiali, to‘qima turi, iplarining qalinligi, yacheykalar o‘lchami va ularning  $1 \text{ sm}^2$  soni. Set-

kalarni raqami - asosidagi iplarni 1 sm setka eniga to'g'ri keladigan soni.

Setkalar bittali, ikkitali va uchta larda bo'linadi.


Bittali setkalar asosi alohida iplardan iborat. Ikkitali setkalar asosida just-just iplar bo'ladi.

Uchta larda, setkalar asosida uchta dan yonma-yon joylashgan iplar bo'ladi (25-rasm).

Uzoq vaqtlar setkalar metall simlardan tayyorlangan. Iplarni asosini qalay fosforli bronzadan tayyorlangan, ularning tarkibida 92,5–93,7 % mis, 6–7 % qalay va 0,3–0,4 % fosfor, ko'ndalang ipi esa (utok) – 80 % mis va 20% rux bo'lgan.

Metall setkalarining asosiy kamchiligi ularning tez yemirilishi, shu tufayli xizmat vaqtining kamligi. Bu kachiliklar, ayniqsa, yuqori tezlikda ishlaydigan mashinalarda ko'rindi. Hozirdi vaqtida metall setkalar amalda qo'llanilmaydi. Sintetik polimer setkalarining asosiy yaxshi tomonlari – xizmat vaqtining kattaligi, qog'oz polotnoning makrostrukturasini yaxshilashda, setka to'qimasini 1 m<sup>2</sup> massasini 6–8 marta yengilligidir.

Setka yurgizuvchi vallarga ishqalanish koefitsiyentini kamligi, setka ishlaganda qattiq tortilib turilishi, bu mashinani setka qismida energiyaning ko'p sarflanishiga olib keladi. Sintetik polimer setkani ekspluatatsiya qilish jarayonida 1,0–1,5 % cho'ziladi, ba'zan bu qo'shimcha setka yetaklovchi valiklar o'rnatishini talab etadi.



25-rasm. To'qilgan setkalar turi: a – bittalik setka (Inyanli to'qilma); b – bittalik setka (yarimsarjlik to'qilma); c – ikkitalik setka; d – uchta larda setka:  
1 – asos iplari; 2 – ko'ndalang iplar.

Sintetik polimer tolalardan to‘qilgan setkalarga qo‘yiladigan texnologik talablar:

- kerakli darajada suvsizlantirish;
- qog‘oz massasidagi komponentlarni yaxshi ushlab qolish;
- qog‘oz polotnoni yengil ajratib olish;
- qog‘ozda setkani muhrlanmasligi;
- setkali qismida energiyani kam sarflash;
- yuqori xizmat vaqtini;
- uzunligi bo‘yicha kam cho‘zilish;
- ko‘ndalang yo‘nalishda tekis va qattiqlik.

Sintetik setkalar mustahkam, maxsus issiq ishlov berilgan, ishqalanishga chidamlilikni oshirish uchun sintetik smolalar bilan qoplangan pöliefır va poliamid iplardan tayyorlanadi.

Qoidaga ko‘ra, qog‘ozni  $1\text{ m}^2$  massasi kam bo‘lsa va maydalanish darjasini yuqori bo‘lsa, u holda ishlataladigan setkani raqami yuqori bo‘ladi. Masalan, kondensator qog‘izi uchun uchtalik setka № 34–40, papiros, nusxa ko‘chirish qog‘ozlari uchun uchtalik № 24–32 yoki bittalik № 36–40, yengil yuqori sifatli qog‘ozlar va sanitari-gigiena qog‘ozlari uchun – bittalik setka

28–32-raqamli, gazeta, yozuv, qog‘oz qoplar uchun 24–28-raqamli, o‘rovchi qog‘ozlar uchun – № 16–24, selluloza pap-kalari va ba’zi karton tiplari uchun – № 8–16.

Setkadan muhrlanishni kamaytirish uchun, yupqa ingichka diametrlik iplardan to‘qilgan setkalardan foydalanish kerak. Sintetik setkalardan ikkitaligidan foydalanganda, keng mashinalarda bermalol ishlatish mumkin. Qog‘oz polotnosini setkada me'yorda shakllantirish jarayonini ta‘minlash uchun, setka toza bo‘lishi va bir tekisda tarang tortilishi kerak.

**Shakllantirish va mabsulot sifati.** Qog‘oz polotnosini setka qismida shakllantirish jarayoni, qog‘oz va karton makrostrukturasi hosil bo‘lishiga, qog‘oz massasi komponentlarini ushlanishiga, mexanik ko‘rsatkichlarini shakllanishiga va boshqa ekspluatatsiya xarakteristikalariga, katta ta’sir etadi.

Qog‘oz polotnosining makrostrukturasi noteksligi, qog‘oz

*jadvalning davomi*

<b>Qog'oz qop</b>	<b>400</b>	<b>79,0</b>	<b>83,2</b>
<b>Gazeta</b>	<b>600</b>	<b>57,0</b>	<b>61,5</b>
<b>Gazeta</b>	<b>750</b>	<b>64,8</b>	<b>69,2</b>
<b>Nozik bosish (тонкая печать)</b>	<b>500</b>	<b>60,0</b>	<b>65,0</b>
<b>Bosish</b>	<b>850</b>	<b>63,4</b>	<b>70,0</b>

Varoqlarning har xilligi tipografik bosish xossalariiga – silliqlik, g'ovaklik, kul miqdori, changlanish, deformatsiyalanish, g'adir-budirliklarga, salbiy ta'sir etadi. Bu muammo-larni faqat, qog'ozni ikkitomonlama suvsizlantirish usuliga o'tish yo'li bilan yechish mumkin.

### 6.3. Shakllantirish qurilmalari


Shakllantirish zonalari. Ochiq va yopiq shakllantirish zonalari mavjud. Misol tariqasida tekis setkali QQM registr qismini keltirish mumkin. Tekis setkali mashinani registr qismiga qog'oz massasi bosim yashigidan ochiq holda beriladi. Qog'oz massasini shakllantirishni registrli ochiq zona qismida suv-sizlantirishda quyidagi asosiy kamchiliklar bor:

- mashina tezligini oshirganda ochiq zonalarda shakllantirilganda, qog'oz massasini suvsizlantirish effekti kamayadi, kkan tolalar qatlami qog'oz massasini suvsizlanishini keskin kamytiradi, shuning uchun suvni filtrlashni bir tomoniga yo'naltirilgan usuli, yuqori tezlikda effekti kam bo'ladi;
- registrni suvsizlantirish elementlari (valiklar, gidroplankalar) bir-biridan ancha uzoqda joylashgan, shu sababli effektsiz;
- shakllantirishni chegara vaqtini va filtrlash tezligini chegara vaqtini suvsizlantirishning tezligi bilan pasaytiradi, bu registr qismini gabarit o'lchamlarini oshirishga olib keladi;
- suv, qog'oz massadan faqat setkani pastki yuzasidan

so'riladi; shu sababli to'ldiruvchilar qog'oz polotnosи qalinligi bo'yicha notejislik ko'rindi.

Shu sababli intensiv ravishda yopiq zonali shakllantirishni yaratishga kirishilgan. Yaratilgan yopiq zonali shakllantirish konstruksiyalardan ikki turi keng tarqalgan – ikki setkali qurilma va vakuum shakllantirish silindri. Bularning ba'zilarida bosim yashik vazifasini bajaruvchi konstruksiyasi ham kiritilgan.

26-rasmda «садкий» qog'oz massasini egiluvchan zonada shakllash prinsipi keltirilgan. Qattiq yuza, ustida hosil bo'lgan egiluvchan zona, egiluvchan zonaning tayanch yuzasi deb ataladi.




26-rasm. Egiluvchan zonali shakllantirishni ishlash prinsipi,  
«prisadkali» (a): «жирный» (b) qog'oz massa:

1 – shakllantirish zonasining boshlanishi; 2 – «quruq liniya» chegarasi; 3 – shakllantirish zonasini tugashi.

Vakuum-shakllantiruvchi silindrning tuzilishi bosim yashigini ichiga olgan shakllash zona va bir tomonidan aylanuvchan setkali silindr bilan chegaralangan, boshqa tomonidan – qimirlamaydigan nam o'tkazmaydigan yuza bilan chegaralangan. Bu zonadan chiqish joyida bo'sh yuzali massa uchastkasi bor. 27-rasmida vakuum-shakllantiruvchi silindrлarning ishlash prinsipi ko'rsatilgan.

Vakuum-shakllantiruvchi silindrлarning boshqalaridan aso-

siy farqi, zonani boshidan oxirigacha bosim bir xil – atmosfera bosimidan yuqori bo‘ladi. Qog‘oz massasini suvsizlantirish shu vakuum ta’sirida, silindr ichida joylashgan so‘rvuchchi kameralardagi vakuum va markazdan qochirma kuchlar orqali boradi.



**27-rasm. Vakuum-shakllantiruvchi silindrлarning ishlash prinsipi:**  
**a, b – silindrni ochiq va yopiq uchastkalarida massani bo‘sh yuzalilarining hosil bo‘lishi:**

1 – massaning kirish joyi; 2 – qog‘oz massa; 3 – qimirlamaydigan lablar yuzasi; 4 – massaning bo‘sh joyi; 5 – tolalarning cho‘kkani qatlami; 6 – silindr yuzasi.

Qog‘oz polotnosini shakllantirishda ikki tomonlama suvsizlantirish. Hozirgi vaqtida qog‘oz polotnoni quyushni klassik – tekis setka ustiga quyush usulidan, ikki tomonli suvsizlantirish usuliga o’tilmoxda.

Asosiy sababi – agregatлarning quvvatini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash.

Ikki tomonlama suvsizlantirish usulida qog‘oz va kartonlarning keng assortimentini ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Klassik usuldagiga qaraganda bu usul yuqori tezliklarda qog‘oz olish imkonini beradi. Ular kam joy egallaydi, energiya kam sarflanadi va sifatli qog‘oz polotnosini olish imkonini beradi. Ikki setkali QQM, tekis stolli mashinalarga qaraganda, texnologik tebranishlar kam ta’sir etadi. Ikki tomonlama suvsizlantirgichli shakllantiruvchi qurilmaning ustunliklari:

- yuqori darajali suvsizlantirish, shu sababli tezlikni oshirish yoki  $1\text{ m}^2$  qog'oz massasini oshirish imkoniyati;
- nisbatan yuqori simmetriyali qog'oz polotnosini, varoqni ikkala tomonining bir xilligini, buralish va bosma xossalari ni yaxshilashi;
- ishlab chiqarish maydonini kam egallashi;
- mashinani boshqarishni osonligi va bir tur qog'ozdan ikkinchi tur qog'oz olishga tez o'tishligi, suvsizlantirish jarayonini boshqarishligi.

Shu bilan birga ikki tomonlama suvsizlantiruvchi qurilmani ma'lumi kamchiliklari ham bor:


- $1\text{ m}^2$  qog'oz massasi kam bo'lganda ( $30\text{ g/m}^2$  dan) to'ldiruvchilarni ushlab qolishligi va yuqori g'ovakligi;
- setkani ifloslanishini katta xavfi, ayniqsa, makulaturani ishlatganda;
- haddan tashqari setkani qog'ozning ikkala tomoniga muhrlanishi.

Shunday qilib, ikki setkali shakllantirish, mahsulot sifatini pasaytirmagan holda, suvsizlantirishni tez o'tish imkonini beradi.

**Qog'oz shakillantiruvchi qurilmalar.** Hozirgi vaqtarda gibrit shakllantiruvchi qurilma keng tarqalmoqda, bunda awal odatdagidek bir tomonlama setka orqali suvsizlantirish, keyin — ikki tomonlama suvsizlantirish. Buning uchun maxsus shakllanti-ruvchi «bashmak» qo'llaniladi.

Gibrit shakllantiruvchi qurilma quyidagilarni ta'minlaydi:

- nur o'kazishni va g'ovakligini tekislaydi;
- qog'ozni mexanik ko'rsatkichlarini, ayniqsa, uzunasi va ko'ndalang yo'nalishi bo'yicha hamda polotnoni ichki mustahkamligini;
- setka tamg'alanishini minimumga keltiradi;



28-rasm. SimFormer P shakllantiruvchi qurilma:

1 – tekis shakllantiruvchi qism; 2 – yuqori setka; 3 – suvsizlantiruvchi bashmak; 4 – guch-val.

- yupqa qog'oz ishlab chiqarishda, kalta tolalarni va to'ldiruvchilarni yuqori darajada ushlab qolish;
- bosma uchun ishlatiladigan gazeta va boshqa yupqa qog'ozlarni  $1\text{ m}^2$  og'irligini kamaytiradi.

Buriday gibrit usulida shakllantiruvchi SimFormer qurilmalarni «Valmet» firmasi ishlab chiqaradi. Bu turdag'i yangi shakllantiruvchi qurilmani yangi avlodini shakllantiruvchi bashmak oldiga shakllantiruvchi val o'rnatilgan (29-rasm). Masalani bunday yechilishi, suvni effektiv ravishda chiqarib tashlash va qog'ozning yaxshi simmetrik strukturasini ta'mishakllantirishni yaxshilash shakllanuvchi bashmakdagi vakuumni me'yorida ushlab turish va bashmak ustida deflektor plankasini qo'llash evaziga erishilgan.

Yuqori tezlikda ishlaydigan QQM – nalarda, gibrit shakllantiruvchi qurilmadan ko'ra, qog'oz massani setka bilan GapFormer qurilmasi oralig'idan berish effektiv hisoblanadi.

**Ko'p qavatli karton shakllash.** Ko'p qavatli shakllantirishni dastlab – aylana setkali karton qiluvchi mashinada bajarilgan. Bu mashinani har bir shakllantiruvchi silindrlerida qavatlar quyulib, so'ngra bu qavatlar birlashtiriladi. Lekin bu mashinani tezligini va kengligini oshirganda, qog'ozni  $1\text{ m}^2$  massasi va qalinligini bir tekisda ushlab turish qiyinlashadi.

Bundan tashqari, silindrarda suvsizlantirish, mashina tezligi oshgan sari imkoniyati pasayadi.

Suvsizlantirishni tezlashtirish uchun vakuum — shakllantirish silindrleri yaratilgan. Shu tariqa karton qiluvchi mashinani (KQM) shakllantirish tezligi oshirilgan. KQMdagi napusk qism-ni mavjudligi — kartonni uzunasi va ko'ndalangi bo'ylab mustahkamligini oshirib va  $1 \text{ m}^2$  massasi hamda qalinligini bir xil tekisligi ta'minlanadi.

Tekis qavatli gofrikarton ishlab chiqarish unumdorligini oshirish maqsadida, tekis setkali KQMga ikkinchi napusk qurilma o'rnatilgan. Bunday mashinalarni ishlab chiqarish unumdorligi katta bo'lgani bilan bir qancha kamchiliklari ham bor. Qog'oz massani suvsizlantirish vakuumda so'rvuchi yashik orqali, shakllantirilib bo'lgan asosiy karton orqali bajariladi. Bu turdag'i KQM parametrlarini ulab turish qiyinroq bo'lgani uchun. Kartonni sifati jahon standartlaridan qolishmasligi uchun  $1 \text{ m}^2$  massasini  $200\text{--}250 \text{ g/m}^2$  ushlab turish qabul qilingan.

Ko'p qavatli shakllantirish texnologiyasi quyidagi yutuqlarga ega:

- napusk qurilmasida massa konsentratsiyasini kamaytirish;
- mustahkamlikni optimal zonasida ishlash uchun tolalarni maydalash darajasini yuqori darajada ushlab turish;
- shakllantirish oxirida quruqlik darajasini oshirgan holda, har bir qatlamni bir tekisda suvsizlantirish;
- KQM tezligini va ishlab chiqarish unumdorligini oshirish;
- har bir qatlamda tolalar tarkibini o'zgartirish, sifat ko'rsatkichlarini pasaytirmagan holda, shu tariqa kompozitsiyalarni arzonlashtirish.

Ko'p qavatli shakllantirishda, ko'p setkali shakllantiruvchi qurilmalarda quyidagi texnik muammolarni yechish imkonini beradi:

- $1 \text{ m}^2$  qog'oz massasini kamaytirmagan holda, tezlikni oshirish hisobiga mashinani ishlab chiqarish unumdorligini oshirish;
- ishlab chiqarish unumdorligini pasaytirmagan holda, karton sifatini oshirish, yuqori markali kartonni har bir elementar qatlamlarini yuqori sifatda shakllantirish;

— mexanik ko'rsatkichlarini pasaytirmasdan, zinch va tekis polotno olish, bu qimmatli tolq xomashyolarni iqtisod qilish;


— karton sisatini pasaytirmagan holda va arzon kompozitsiyadan foydalanib, mashina quvvatini oshirish.

Dunyo tajribasida ko'p qavatli usulda shakllantirish ikki yo'nalishda bormoqda:

— har bir qatlarni alohida-alohida shakllantirib, so'ngra ularni ko'p qavat qilib birlashtirish;

— ikki setkali qurulmada, bitta napusk orqali quyush (odatda, bu usul «strukturali shakllantirish» deb ataladi), so'ngra suvsizlantirish.

Kartonn elementar qatlamlarini shakllantiruvchi qurilma 29-rasmda ko'rsatilgan («Voith Sulzer» firmasi - DioFormer TOP). Bu qurilma asosan oq qoplama karton olishda qo'llaniladi. Dastlabki suvsizlantirish ochiq shakllantiruvchi valda past vakuumda bajariladi. Polotnoni suvsizlantirishni davomi, vakuum ta'sirida yuqori setkadagi so'ruchchi yashik yordami orqali boradi. So'ngra, polotno tashqi setka orqali, gauch valga yuboriladi gauch val orqali, bosim ta'sirida asosiy qatlamlar bilan birlashtiriladi.



29-rasm. DioFormer TOP rusmli shakllantiruvchi qurulma:

1 — pastki setka; 2 — napusk qurulma; 3 — shakllantiruvchi val;  
4 — tepa setka; 5 — asosiy setka.

— DioFormer TOP mashinasi quyidagi imkoniyatilarga ega:

— 1 m<sup>2</sup> massasi — 150 g, tezligi — 300—1400 m/min;

— effektiv usulda suvsizlantirish;

— konstruksiyasi kompakt joylashgan.

## **6.4. Qog'oz polotnosini presslash**

### **6.4.1. Qog'oz va karton qilish mashinalari presslash qismlari-ning vazifasi va ularga qo'yilgan talablar**

Setkani oxirgi qismida qog'ozda ancha miqdorda suv ushlanib qoladi. Suvdan tashqari, kapillar kuchlari ushlab qolgan qog'oz polotnoda bir qancha ozod suvlar ham bo'ladi, bular setka qismidan chiqarib ulgurilmagan. Chunki vakuumlash vaqtin yetarli bo'limgan. Mashina setkasida tolalar o'zaro chalkashadi, natijada, qog'oz polotnoda tegishli mustahkamlik yaratiladi, shu sababli polotno setkadan press qismiga uzilmasdan uzatiladi. Bundan tashqari, asosiy rolni, tolalar orasidagi suvning sirt tortish kuchi o'ynaydi. Qog'oz va kartonlarning ko'p turlarida setka qismidan chiqishda suvning miqdori 20 % tashkil etadi. Polotnoni suvsizlantirishning davomini mashinaning press qismi bajaradi. Presslash jarayonida polotno, tashqi kuch ta'sirida zichlanadi natijada, asosan, tolalar bilan bog'lanmagan suv polotnodan chiqariladi. Tolalarning zichlanishi sababli, kapillar kuchlar oshadi. Qog'oz polotnoni mustahkamligi, tolalarni o'zaro bog'inining oshishi natijasida, oshadi. Shunday qilib, mashinani presslash qismining asosiy vazifasi — qog'oz polotnoni suvsizlantirish, shu tufayli olinayotgan mahsulot sifatini ta'minlash hamda mashinani normal ishlashiga sharoit yaratishdan iborat. Presslash natijasida qog'ozning quruqlanishi, mustahkamligi va zichligi oshadi. Ko'p qavatli qog'oz va karton olishda presslash muhim rol o'ynaydi. Presslash jarayonining effektivligi — polotnoni quritish uchun energiya sarsini kaimaytiradi, mashinani ishlab chiqarish unumдорligini oshiradi. Lekin haddan tashqari presslash, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini pasaytirib yuboradi. Hozirgi zamon qog'oz qilish mashinalarini presslash qismining texnik-ekonomik ko'rsatkichlari 30-jadvalda keltirilgan.

**Hozirgi zamон qog'oz qilish mashinalarini presslash qismining texnik-ekonomik ko'rsatkichlari**

*30-jadval*

Qismlar	El. energiya sarfi, %	Chiqarilgan suv ulushi, %
Setka qism:		97,2
El.dvigatellar;	6	
Vakuum nasoslar	5	
Presslovchi qism:	6	2,1
El.dvigatellar;	11	
Vakuum nasoslar		
Quritish qism:	3	0,7
El.dvigatellar;		
Par	69	

Suvszlantirish effektivligi press qismi konstruksiyasi, presslovchi sukno konstruksiyasi hamda presslanuvchi material xossalari bilan aniqlanadi.

Zamonaviy qog'oz qiluvchi mashinalarning presslovchi qismlariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- polotnoni setkadan yirtmay presslovchi qismiga uzatish;
- qog'oz polotno strukturasini buzmasdan, yuqori darajada, kam energiya sarflab, suvini chiqarish;
- polotno strukturasini mustahkamlash, uning mexanik mustahkamligini oshirish va kerakli yuza xossasini olish.

#### **6.4.2. Qog'oz va karton qiluvchi mashinalar presslarining klassifikatsiyasi**

Odatda, presslovchi qism bir necha xil presslardan iborat. Presslarni har xil belgilari bilan klassifikatsiyalanadi. Konstruksiyasiga qarab ularni ikki turga bo'lish mumkin:

- 1) valikli, bunda qog'oz polotnoni suvsizlantirish ikkita aylanuvchan vallarning kontakt zonasidan o'tkaziladi va;

2) bashmakli, bunda presslanish, statsionar joylashgan siuvchi bashmak bilan aylanuchan vallar orasida bajariladi.

Presslovchi vallarning soniga qarab, ikki valli va  $\text{Ro}'\text{p}$  valli (kombinatsialangan) bo'ladi. Ikki valli presslar, suknodagi suvni oqim yo'nalishiga qarab, suvni ko'ndalang filtrlovchi va suvni to'g'ri yo'nalish bo'y lab filtrlovchi presslarga bo'linadi. To'g'ri yo'nalish bo'y lab suvni filtrlovchi presslarda, qog'oz polotnodan suknoga siqilayotgan suvli qog'oz, suknoda asosan mashina yo'nalishi bo'y lab oqadi. Bunday presslar ikkita silliq vallardan iborat bo'lib, ularni odatda, oddiy presslar, deb ataladi. Ikkinci tur presslarda presslovchi vallarning bittasida teshiklar yoki chuqurchalar (kanavkalar) bo'lib, chuqurchalarga, presslash zonasida suknodan suv oqib kelishi mumkin. Shuning uchun bunday presslarda suv suknoda asosan qog'oz polotno yuzasidan val yuzasidagi teshikchalar yoki chuqurchalar tomoniga qarab harakatlanadi. Bu turdag'i presslarda, suknoda suvning filtrlanish yo'li, birinchi turdag'i presslarga qaraganda, ancha qisqa. Bu, bir xil sharoitda, qog'oz polotnodan suvni ko'p miqdorini chiqarish imkonini beradi. Bu turdag'i presslarga quyidagi so'ruchilar kiradi: teshikli vallar, sukno qo'llanilganda, presslash zonasiga qaytirilgan presslar.


Oddiy presslar odatda, sekin ishlaydigan mashinalarda qo'llaniladi.

#### 6.4.3. Qog'oz polotnoni presslashga zamонавиқтар

Qog'ozni presslash jarayoni nazariy tomonini ifodalash (yozish), hozirgi zamон mexanikasining eng murakkab masalalari dan hisoblanadi. Muammo shundan iboratki, suv va havoni, deformatsiyalanuvchi har xil g'ovak muhitda, filtrlash masalasini yechishni va ikkita kontaktdagi vallar masalasi bilan birgalikda yechish. Bunda ikkita valni bittasi yoki ikkalasi ham qovushoq xossali material bilan qoplangan bo'ladi. Bundan tashqari, holatning murakkablanishi — qog'oz polotno katta miqdorda deformatsiyalanadi, jarayonni ifodalash tenglamasining egri chiziqligidir.

Shuning uchun presslash jarayonini matematik ifodalashda eng sodda mexanik modeli olinadi (30-rasm). Bu modelda, qog'oz polotnoni tolali skeleti prujina ko'rnishida ko'rsatilgan. Silindrda suyuqlikni porshen yordamida o'tishini, qog'oz polotnosidan svuni o'tishi modellashtirilgan, g'ovakli silindr tagi qarshiligi — polotnoni gidravlik qarshiligi qilib olingan. Silindrda suyuqlikni siqib chiqarishdan boshlab, tashqi bosim  $R_{\Sigma}$  suyuqlik bilan prujina orasida taqsimlanadi. Bunda  $R_{\Sigma} = R_n + R_s$ , Pa. ( $R_n$  — material orasidagi gidravlik bosim;  $R_s$  — material skeletidagi effektiv kuchlanish).

Prujinani qarshiligi tashqi kuchlar bilan tenglashganda, svuni g'ovakdagagi bosimi nolga tenglashadi va oqish to'xtaydi (30-rasm, b). Dastlab suyuqlik siqilmaganda hamma kuchlarmi suv qabul qiladi (30-rasm, a). 30-rasm, b: material skeletida effektiv kuchlanish.



30-rasm. Suvda bo'kkан qog'oz polotnoni presslash jarayonining mexanik modeli.

Presslash qismda qog'oz polotnoni effektiv suvsizlantirishini namlik (quruqlik) dan yoki suv tarkibi ko'rsatkichlaridan foydalilanildi.

Namlik — bu qog'oz polotnosi tarkibidagi suv massasini nam holdagi polotno massasiga nisbati (%).

Quruqlik — nam holdagi material tarkibidagi quruq moddani shu nam holdagi material massasiga nisbati. Suv tarkibi deganda, ma'lum bir hajmdagi qog'oz polotnodagi suv massasini absolut quruq massaga nisbati, tushuniladi.

Presslash jarayonini asosiy parametri sifatida qo'llaniladigan ko'rsatkichlar: chiziqli bosim, o'rtacha bosim, presslash vaqt davomi, presslash zonasini kengligi, presslash impulsi. Chiziqli bosimni aniqlash uchun vallarni bir-birini siqish kuchlanishini shu vallarni ishchi yuzasiga nisbati olinadi. Birligi kN/m. Press-

lash zona kengligi — qog'oz polotnoni siqib turadigan yuza (maydon). Presslash zonasidagi o'rtacha bosim, chiziqli bosimni presslash zona kengligiga nisbati. Presslash vaqt davomi presslash zonasini kengligini mashina tezligi nisbatiga teng. Odatda, bu vaqt juda qisqa bo'lganligi sababli uni millisekundlarda o'lchanadi. Presslash zona kengligini aniqlash amaliyotda qiyin bo'lganligi sababli, amaliyotda o'rtacha bosim emas, chiziqli bosimdan soydalaniladi. Lekin suvsizlantirish jarayonini xarakterlash uchun faqat, bir xil diametrli va qoplamlari ishchi presslar uchun qo'llaniladi. Presslash impulsini (*i*) aniqlash uchun o'rtacha bosimni presslash vaqtiga ko'paytmasi yoki chiziqli bosimni mashina tezligiga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$i = P_{SR} T = \frac{q}{v}, \text{ MP·s}$$

bunda,  $R_{sr}$  — o'rtacha bosim, MPa;  $T$  — presslash vaqt, s;  $q$  — chiziqli bosim, kN/m;  $v$  — mashina tezligi, m/s.

Presslash jarayonlarini xarakteri — qog'oz polotnosini turgan holatiga bog'liq. Ko'ndalang filtrlashda presslashni, hozirgi vaqtida, oltita fazaga bo'lgan.

**I faza.** Tashqi kuch ta'sir etishdan boshlanadi. Bu holatda qog'oz polotno va sukno suvgaga bo'kmagan, faza qog'oz polotno yoki sukno suvgaga bo'kkanda tugaydi. Suvni qog'oz polotnodan suknoga o'tishi yoki teskarisi suvni qog'oz yoki sukno yuziga tegib turish yuzasiga bog'liq. Qaysi yuza — qog'oz yoki sukno birinchi bo'lib suvgaga to'yingishi, uning dastlabki namligiga, sukno bilan qog'oz polotno qatlamlari tegib turgan yuzadagi kapillarlikka, siqiluvchanligiga bog'liq.

**II faza.** Boshlanishi qog'oz polotno yoki sukno suv bilan to'yinganda boshlanadi va ikkala material to'yingach tugaydi.

**III faza.** Ikkala material suvgaga to'yingach, tashqi kuch yuqori darajaga yetganda, tugaydi.

**IV faza.** Tashqi kuch yuqoriga yetgan vaqtidan boshlanib, qog'oz polotnoni pastki yuzasi g'ovaklarida bosim, presslovchi

sukno yuzasi bilan tegib turgan joyda, manfiy bo'lganda tugaydi.

**V faza.** Qog'oz polotnoni qaytarilish vaqtidan boshlanib, tashqi kuchni olgandan keyin tugaydi, ya'ni qog'oz polotno va presslovchi sukno presslash zonasidan chiqqach, tugaydi.

**VI faza.** Qog'oz polotno va presslovchi sukno presslovchi zonadan chiqqan vaqtidan boshlanib va qog'oz polotno presslovchi suknodan ajralgach, tugaydi.

#### 6.4.4. Presslashni effektivligini aniqlovchi faktorlar

Presslovchi qismni loyihalashtirish vaqtida, presslash effektivligini aniqlovchilar ikki guruhga bo'linadi: 1) konstruktiv va 2) texnologik.

Konstruktiv faktorlar, konstruksiyasini aniqlaydigan parametrlarga bog'liq, texnologik faktorlar esa texnologik jarayonlarning ayrim — yarimmahsulot xossasi va tayyor mahsulotga qo'yilgan talablarga bog'liq.

Konstruktiv faktorlarga quyidagilar kiradi:

- press turlari (valli yoki bashmakli);
- presslovchi vallarni diametri;
- press vallar qoplamalarini mexanik xossalari;
- press vallar konstruksiyasi (so'rvuchi, jeloblik, silliq, berk teshiklik);
- presslovchi suknolar konstruksiyasi va pressdan oldingi ularning quruqli;
- presslovchi suknolar soni (bitta yoki ikkita).

Texnologik faktorlarga quyidagilar kiradi:

- qog'oz polotnoni kompozitsiyasi va uni, filtranuvchi — kompression xossalari aniqlovchi, deb nomlanuvchi, tayyorchash tarixi;
- mashina tezligi;
- chiziqli bosim;
- qog'oz polotnoni boshlang'ich quruqligi;
- qog'oz polotnoni  $1 \text{ m}^2$  massasi;
- qog'oz polotnoni temperaturasi.

Konstruktiv faktorlar qog'oz polotnoni suvsizlantirish vaqtida davomini o'zgarishiga ta'sir qiladi.

Val konstruksiyasini tanlash — presslovchi qismida, uni o'rnatadigan joyi va olinadigan mahsulotiga bog'liq.

Nisbatan muhim texnologik faktorlarga qog'oz polotnoni kompozitsiyasi (tarkibiga) va uni tayyorlash kiradi. Ma'lumki, suvsizlanish qobiliyati massani maydalik darajasiga, olinayotgan qog'oz turlariga bog'liq.

Shuning uchun suvsizlantirish ko'rsatkichini xarakterlovchi ko'rsatkich hisoblanib, bu suv ushlab qolish koeffitsiyenti hisoblanadi. Suv ushlab qolish koeffitsiyent qiymatini aniqlash uchun har xil metodlar qo'llaniladi. Bularidan eng ko'p qo'llaniladigani — markazdan qochirma suvsizlantirishdir. Suv ushlab qolish koeffitsiyenti WRV (Water retention value) — suvsizlantirgandan keyin qolgan material tarkibidagi suv massasini, quruq tolalar massasi nisbati. Bu koeffitsiyent orqali, presslash natijasida erishgan eng kam (chegara) quruqlik  $C_L$ , qiymatini aniqlash mumkin:

$$C_L = 100/I + WRV, \%$$

Chegara quruqligiga ( $C_L$ ) asosan selluloza turi, maydalanish darajasi va olingan miqdoriga, ta'sir qiladi.


Suvsizlantirishni effektivligiga ta'sir etuvchi faktorlardan biri —  $1\text{ m}^2$  qog'oz polotno massasi hisoblanadi. Boshqa ko'rsatkichlar bir xil bo'lib,  $1\text{ m}^2$  qog'oz polotnoni massasi oshganda, qog'oz polotnoni ezib yubormaslik uchun, presslash vaqtida oshiriladi. Shu bilan birga, mashina tezligi kam bo'llib,  $1\text{ m}^2$  massa  $100\text{ g/m}^2$  gacha oshirilganda, pressdan keyingi quruqlik oshadi. Pressni eng effektiv ishlashiga ijobjiy ta'sir etish — bu qog'oz polotnosini qizdirishdir. Qog'oz polotnoni qizdirganda, *birinchidan*, uning qovushoqligi va suvni sirt tortish kuchlari pasayadi, polotnoda suv oqimi qarshiligini pasaytiradi. *Ikkinchidan*, temperatura oshganda qog'oz polotnoni zichlanishi osonlashadi, polotnodan suvni chiqarish tezlashadi. Ko'p hollarda temperatura  $10^\circ\text{C}$  ga oshganda, olinayotgan mahsulotni quruqlanishi  $1-1,3\%$  gacha oshadi.

## VII bob. PRESS TURLARI

### 7.1. Valli presslar

Ishlab chiqarishlarda presslarning valli turlari ko'plab qo'llaniladi. Bular ikki valli va ko'p valli presslardir. Ikki valli presslarga oddatdagi (silliq valli), so'ruvchi, jeloblik va berkteshikli presslar kiradi. Ko'p valli presslar bular kombinatsiyalangan presslar.

**Odatdagi press.** Odatdagi press deb, ikkita silliq vallar orasidan qog'oz polotno bilan sukno o'tadigan vallarga aytildi. Bu ancha eski konstruksiya hisoblanadi. Pressning pastki vali, odatda, rezina bilan qoplangan, tepadagisi — granit bilan (31-rasm).



31-rasm. Odatdagi ikki valli pressdagi vallarning joylanishi:

- 1 — qog'oz polotno;
- 2 — tepe val;
- 3 — pastka val;
- 4 — presslovchi sukno.

Rezina bilan qoplangan val quyidagi imkoniyatni beradi:

- presslash zonasining kengligini hamda uning muddatini oshirish;


— sukno yemirilishini kamaytirish (mexanik vallarga nisbatan).

Press vallarini granit bilan qoplashdan maqsad, har xil kompozitsiyali qog'oz polotnoni granitga adgeziyasini pastligidir. Granit qoplamanini foydali tomonlaridan biri — ishqalanish natijasida qattiqligi sababli, yemirilishga chidamliligi.

Presslash zonasida qog'oz polotnoni uzatish va undan siqib chiqarilgan svjni o'tkazishda, presslovchi sukno xizmat qiladi. Suknoni yurguzuvchi valiklar antikorroziya qoplamali po'lat trubaldardan tayyorlanadi.

Ishlash davomida presslash zonasida suv, qog'oz polotnosi dan tashqari, suknodan ham siqib chiqariladi. Bu suv pastki val tagiga o'rnatilgan idishda yig'iladi. Presslash zonasida, pressga kerakli bosimni yaratish uchun, press vallariga mexanik siquvchi o'rnatilgan. Press vallari hamda uning boshqa elementlari stani naga o'rnatiladi. Ishlash qobiliyatini asosiy kriteriyasi — mustahkamlik va tebranishga bardoshlik. Bulardan tashqari, konstruksiyasi, presslovchi suknoni almashtirib turishga qulay bo'lishlidir.


**Granitli val.** Granitli valning asosiy elementi bu granit qoplama. Qoplama bir bo'lak granitdan tayyorlanadi. Granitga metall serdechnik o'rnatish uchun, teshiladi. Granit qoplama serdechnikka rezbali flaneslar orqali siqib qo'yiladi. Serdechnikni granitli qoplamaga mahkamlashdan oldin u qizdiriladi. Serdechnik qizdirilgan holda granitli qoplama mahkamlansa, sovuganda mustahkamligi yanada oshadi. Qoplama bilan serdechnik orasidagi bo'shliq beton yoki poliuratan ko'pigi bilan to'ldiriladi (32-rasm).



**32-rasm. Granitli val:**

1 – chap gayka; 2, 7 – shaybalar; 3 – prokladka; 4 – serdech-nik; 5 – granit qobig'i (рубашка); 6 – vtulka; 8 – shitok; 9 – o'ng gayka.

**So'ruchchi press.** Ko'p qog'oz va karton qiluchi mashinalarda birinchi presslar sifatida so'ruchchi presslar qo'llaniladi. So'ruchchi press so'ruchchi val, just granit va cho'yan vallardan iborat. So'ruchchi perfarlangan val rezina bilan qoplangan bo'lib, ichiga so'ruchchi kamera o'rnatilgan. Press ishlaganda, so'ruchchi kamerada vakuum-nasos yordamida vakuum hosil qilinadi (33-rasm).



**33-rasm. So'ruchchi pressda qog'oz polotnioni presslash:**

1 – rezinali qoplama; 2 – po'lat qoplama; 3 – orqa zichlagich; 4 – old zichlagich; 5 – sukno; 6 – yuqori val.


Kamerada vakuum 50–85 kPa darajada ushlab turiladi. Kamerani eni 100–150 mm, metall qoplamacagi teshikchalar diametri 3,7–4,0 mm, rezina qoplamacaga – 4–5 mm tashkil etadi. Valni ochiq yuza qismi (живое сечение) 16–20 %. Shovqinni kamaytirish uchun qoplamlarda teshikchalar spiral shaklida joylashtirilgan.

So'rvuchi val, polotno bilan sukno orasida havo pufakchalarini, ularni presslash zonasiga kirishdan oldin, hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi hamda qog'oz polotnoni ezilishining oldi olinadi. Vallardagi teshikchalar, svuni harakat yo'lini qisqartirib, sukno g'ovaklari orasidagi bosimni kamaytiradi, shuning bilan presslash zonasida qog'oz polotnosini tarkibidagi svuni chiqarishni osonlashtiradi.

So'rvuchi vallarning kamchiligi: konstruksiyasi va ekspluatatsiya qilishni murakkabligi, xizmat davrining kamligi, qimmatligi, nisbatan mustahkamligini pastligi, ishchi bosimini chegaralanganligi. Undan tashqari, valning teshikchalar joylashgan qismlarida bosim, valning boshqa joylariga qaraganda pastligi. Bu hol qog'oz polotno namligini pressdan chiqishda notejisligiga olib keladi.

**Jelobkali press.** Bu ko'p uchraydigan press. U tepe granit val va pastki rezina qoplalmali valdan iborat bo'lib, qoplama yuzasiga jelobchalar (chuqurchalar) kesilgan. Presslash zonasida sukno suv bilan to'yinganda, suv chuqurchalarga o'tib, suknoda yo'nalish bo'ylab suv oqishining oldi olinadi hamda presslash jarayonini me'yorida borishini ta'minlaydi.

Jelobchali vallni to'g'ri ishlashi uchun presslovchi suknoni va qog'oz polotnoni presslash zonasiga to'g'ri uzatish kerak (заправит) (34-rasm).



**34-rasm. Jelobli pressga qog'oz polotnoni uzatish sxemasi:**

- 1 — qog'oz polotno; 2 — tepa val; 3 — jelobli val;
- 4 — presslovchi sukno.

Ikkala holatda ham sukno va polotno pressning tepe valiga birlashtirilgan. Bunda polotno bilan sukno orasida havo pufakchalari hosil bo'lmaydi. Variantlar ichida *a* bilan *b* variantlari qulay hisoblanadi. Bu usulda og'ir qog'oz va kartonlar olinadi, chunki polotno balandga sukno bilan ko'tarilayotganda uzulish xavfi bo'lmaydi.

Jeloblik presslarning boshqa presslardan ustunligi:

- tayyorlash va ekspluatatsiya qilishini arzonligi;
- pressdan keyin quruqlik darajasini yuqoriligi;
- polotnoni ezmashdan yuqoriroq bosimda ishlashi;
- polotnoni eni bo'ylab namligini bir tekisdan bo'lishi.

Berk teshikli valli press. Ma'lumki, kameradagi vakuum kattaligi, tezligi kam bo'lgan mashinalarda, qog'oz polotnoni pressdan keyin quruqligiga, qisman ta'sir etadi.

Berk teshikli val po'lat qobiqli bo'lib, usti rezinka yoki poliuretan material bilan qoplangan. Usti berk holda teshilgan. Teshikchalar diametri — 2,3 dan 4,0 mm gacha, chuqurligi — 10–13 mm. Teshiklar yuzasi, val yuzasini 30 %ni tashkil etadi.

## 7.2. Qog'oz polotnoni setka qismidan press qismiga uzatish

Qog'oz qilish mashinasining ishidagi eng katta qiyinchilik —

bu qog'ozni so'rurvchi gauch-valdan birinchi pressga o'tkazishda. Chunki qog'ozni quruqligi yuqori (18–20 %) bo'lganligi sababli mustahkamligi past, o'tkazish vaqtida cho'zilishi sababli uzilib ketishi mumkin. Qog'ozni o'tkazishda hal qiluvchi faktor uning nam holidagi mustahkamligidir. Ayniqsa, bu hol, yuqori tezlikda ishlayotgan mashinalarni yupqa turdag'i qog'ozlar olishda muhim hisoblanadi.


Past tezlikda ishlaydigan mashinalarda qog'oz polotnoni presslash qismiga uzatish quyidagicha bajariladi. Qog'ozni, suv purkash yo'li bilan, eni 50–150 mm qiyiqcha, polotnoni bir qismidan qirqilib, qo'l bilan birinchi press suknosi ustiga tashlanadi. Yoki bu amal siqilgan havo kuchi bilan avtomat yordamida ham bajariladi. Bunda trubkadagi havo bosimi 0,4–0,6 MPa tashkil etadi.

Qog'oz polotnoning setkaga yopishgan kuchni yengish uchun, birinchi press tezligini, setka tezligidan oshiriladi. Setkadan polotnoni ajratib olish kuchining miqdori – qog'oz polotno yo'nalishi bilan gauch-valdan chiqish burchagiga (o'tish burchagi), qog'oz turi, gauch-valdag'i so'rish vakuumiga, qog'oz polotnoni quruqligiga va boshqalarga bog'liq. Bu kuch quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P = A + my^2/l - \cos \varphi, J/m^2$$

bunda,  $A$  – qog'oz polotnoni setkadan ajratib olishda sarflanadigan solishtirma ish,  $J/m^2$ ;  $\varphi$  – o'tish burchagi;  $m$  – qog'oz polotno massasi,  $g/m^2$ ;  $y$  – qog'oz polotno tezligi,  $m/s$ .

Gauch vallarni joylashgan o'rniga qarab, o'tish burchagi (ugol s'yoma) 30–60° tashkil etadi (35-rasm).




**35-rasm. Qog'oz polotnoni presslash qismiga uzatishning odatdag'i usuli:**

1 – gauch-val; 2 – setka; 3 – siquvchi valik; 4 – qog'oz polotno; 5 – birinchi press; 6 – presslovchi sukno.

Bu usulda polotnoni setkadan o'tkazish sekin ishlaydigan mashinalarda ( $200 \text{ m/min}$ ) qo'llanilada.

Bundan ko'ra qulayroq usul – qog'oz polotnoni o'tkazishda – o'tkazishni ushlab turish usuli hisoblanadi (36-rasm).



**36-rasm. Vakuuni orqali so'rib oluvchi qurulmada setkani burish vali:**

1 – setka; 2 – gauchni siquvchi vali; 3 – tepe sukno; 4 – so'rib oluvchi val; 5 – purkalgan suvni yig'uvchi kamera; 6 – tepe sukno qog'oz bilan; 7 – pastki sukno; 8 – setkani burish val; 9 – so'ruvchi gauch-vali.

Ko'p hollarda ikkita vakuum kamerali so'ruvchi val qo'llaniladi. Birinchi kameraning kengligi  $70\text{--}90 \text{ mm}$ , undagi vakuum –  $0,06\text{--}0,07 \text{ MPa}$ , qog'oz polotno setkadan ajratib olinadi. Ikkinchini kameraning kengligi  $140\text{--}150 \text{ mm}$ , qog'oz

polotnoni so‘rvuchi suknoda ushlab turish uchun, undagi vakuum – 0,04–0,05 MPa.

So‘rvuchi qurulmani me'yorda ishlashi uchun, o'tkazuvchi suknoni effektiv darajada tozalash zarur. Undan tashqari, so‘rvuchi val teshiklaridan tomchilanayotgan suvni, markazdan gochirma kuch ta'sirida, chetlashtirish kerak (устранит).

### 7.3. Presslash vallarining qoplamlalari

Presslovchi vallarni qoplamlalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- qarshilik ko'rsatuvchanlik va chidamlilik;
- issiqni o‘zida kam saqlash;
- termostabillik;
- qirilishga va yemirilishga qarshilik;
- mineral moy va erituvchilarga qarshilik;
- qoplama yuzasidan qog'ozni oson ajratib olish.

Presslovchi vallarni qoplash uchun tabiiy va sintetik kau-chukdan olingan rezina hamda har xil polimer materiallar qo'llaniladi. U yoki bu material bilan vallarni qoplash, ularni ishlatish (qanday qog'oz olishiga) joyiga qarab tanlanadi. Masalan, yog'och selluloza massasi tarkibida smola borligi sababli, yum-shoq qoplama salbiy (yopishadi) ta'sir qiladi. Shuning uchun yog'och selluloza massasini ishlatganda, QQM presslovchi vallari qoplamasining qattiqligi yuqori bo'lishi kerak. Presslash zo'nasida, suknoni ko'pga chidashi, presslash parametrini to'g'ri tanlashga bog'liq.

Qoplama material va uning qalinligi to'g'ri tanlanganda dastlabki 1–4 soat ishlash davomida qoplama temperaturasi va qattiqligi stabillashadi. Ko'pchilik materiallar uchun me'yori ishchi temperatura 70°C dan oshmaydi. Temperatura 70–90°C bo'lganda qoplama valdan ajralib ketish xavfi tug'iladi. Temperatura 110–150°C bo'lganda rezinali qoplama valdan tezda ajralib ketadi.

Hozirgi vaqtarda qoplama material sifatida poliuretan keng qo'llanilmoqda. Poliuretanli qoplama rezinaga qaraganda ancha

mustahkam, ishqalanishga chidamli. Poliuretan fizik-mexanik xossasi uning qattiqligiga bog'liq (31-jadval).

### Har xil qattiqlikdagi poliuretanning xossasi

*31-jadval*

Qoplama xossasi	P&J bo'yicha qattiqligi		
	20–26	12–16	5–8
Namunani 100 % cho'z-gandagi kuchlanish, MPa	7	13	25
Uzilishdagi, chegara mustah-kamligi, MPa	32	40	45
Uzilish uzunligi, %	420	400	300
Cho'zilish deformatsiya ishi, %	60	50	48
Siqilishdagi qoldiq deformatsiya, %	20	25	28
Yung moduli, MPa	33–55	80–90	280–320

Rezinali qoplama qaraganda, poliuretanli qoplamada temperatura oshishi bilan, presslash zonasi polotno eninining o'zgarishi kam. Poliuretan bilan qoplangan vallardan foy-dalanilganda press vallarning tebranishi kamayadi. Bu esa qoplamanini shikastlanishini kamaytiradi, podshipnik va suknoni tez ishdan chiqishining oldini oladi.

Poliuretanli qoplamlar asosan so'rvuchi, jelobli va berk teshikli presslash vallarda qo'llaniladi. Qog'ozning poliuretanli qoplama adgeziyasi juda kam, bu valning teshikchalarini va jeloblarini tiqilib qolishini kamaytiradi.

Rezina bilan qoplangan press vallarni har 6–9 oy ishlaganda qayta shliflanadi (jilvalanadi), og'ir rejimda ishlaganda esa – har 2–4 oyda.

### 7.4. Presslovchi sukno

Qog'oz qiluvchi mashina unumдорлиги, ishlab chiqrilgan

mahsulotning tan narxi va sifatiga ta'sir etuvchi faktorlardan biri, presslovchi suknoni to'g'ri tanlashda. Amaliyotda, presslovchi suknoni QQM kiyimi, deb ham ataladi.

Presslovchi suknoga quyidagi talablar qo'yiladi:

— kam qarshilik ko'rsatib svjni suknodan o'tkazishda, yuqori o'tkazuvchanlikni ta'minlash;

— g'ovak bo'shlig'ini ko'pligi;

— g'ovak bo'shliqlarni ko'proq saqlab qolish uchun, kam siqiluvchanlik,

— qog'ozga berilayotgan bosimni bir tekis tarqatishlik;

— ishlash jarayonida stabillik va suknoni eni bo'yicha, xossasini bir tekisda saqlash;


— pressning, ishlash jarayonida, titrashni so'ndirish;

— suvsizlantirishni, presslanuvchi suknoni konditsionirlashni qiyinlashtirmaslik;

— ximikatlar ta'sirida yemirilishga chidamlilik;

— o'matish va yechishda yengillik.

Suknoni to'g'ri tanlashda suvsizlantirishning effektivligi va olingan mahsulotni sifatiga ta'sirini, bilish lozim. Zamonaviy presslovchi suknolar sintetik tolalardan tayyorlanadi. Ular ikki komponentdan tashkil topgan: asosi (karkas) va yuza momig' (vatka) qatlam, nina o'tkazish (иглопробивное) usuli bilan birlashtirilgan. Suknoni ko'ndalang kesimi 37-rasmda ko'rsatilgan.



37-rasm. Igloprobivnoy suknoning ko'ndalang kesimi:

1 — yuqori ip; 2 — asos-ko'ndalang iplar; 3 — asosni to'g'ri yo'nalgan iplari; 4 — pastki ip.

Har bir kvadrat santimetri 300 va undan ko'p nina o'tkazish yo'li bilan, momig'ni asos bilan yaxshi mustahkamlaydi.


Suknoni asosiga bo'lgan talab — mashina yo'nalishi bo'yicha yetarli mustahkamlik, kam siqilish, presslash zonasida yetarli bo'sh g'ovaklikni ta'minlash hamda ishslash jarayonida xossalaringa saqlanib turishi.

### 7.5. Presslovchi suknoni konditsionirlash

Vallarni bir-biri bilan aloqasi natijasida presslanganda suknoga, qog'oz polotnoni siqishda suv bilan birga qattiq zarrachalar (mayda tolalar, to'ldiruvchi va h.), yelimlovchi moddalar, namga mustahkam smolalar ham o'tadi. Bu zarrachalar suknoga g'ovaklarida ushlanib, suknoni g'ovak bo'shlig'ini kamaytiradi, natijada uning o'tkazuvchanligi pasayadi. Ayniqsa, suknoga eni bo'ylab notejisini tiqilgani xavfli. Bu qog'ozda ho'l yo'laklar hosil qiladi. Natijada, qog'oz qurutilganda unda ajinlar hosil bo'ladi. Suknoni me'yorda ish rejimida ushlab turish uchun har xil sistemalarda konditsionirlaydi. Odatda, konditsionirlanish jarayoni uch etapni ichiga oladi:

- tolali ifoslarni tozalash maqsadida ishlov berish;
- ajratilgan tola zarrachalari suknoga tolalari bilan qayta birikishni oldini olish;
- ifoslantiruvchi moddalarini chiqarib tashlash va suknoga kontakt zonasiga kirishdan oldin tegishli namligini ta'minlash.

Suknoni konditsionirlash elementlarini joylashishi 38-rasmda keltirilgan.



**38-rasm. Presslovchi suknoni konditsionirlash elementlarining joylashish sistemalari.**

Ifoslantiruvchi zarrachalarни 1-bosqichda ajratish uchun yuqori bosimda suvni purkashdan (СВД) foydalaniladi. 2-bosqichda – past bosimda (СНД) purkab ko‘p miqdorda suv beriladi. 3-bosqichda ortiqcha suv ifoslantiruvchi zarrachalar bilan sukno yuvuvchi shel orqali so‘riladi.

Konditsionirlashning effektivligi, ko‘p hollarda purkovchini suknoga nisbatan joylanishi bilan aniqlanadi. Ko‘p qavatli igloprobivnoy sukno qo‘llanilganda suv juda katta bosimda purkalishi kerak, chunki ifosliliklarni sukno orasidan tashqi yuzasiga chiqarish uchun ko‘p kuch sarf qilish kerak bo‘ladi. Undan tashqari, zamonaviy presslovchi suknolarini yuzasidagi momig‘da (vatka) g‘ovaklari kichik, ifosliliklar esa asosan shu joyda to‘planib qoladi. Shuning uchun, konditsionirlash sistemalarida СВД suknoni yuza tomoniga joylashtiriladi va uning vazifasi momig‘ qismini titib, to‘planib qolgan ifoslilarni chiqarishni osonlashtirishdan iborat. Suknoga suv purkaganda, suv oqimi  $20-40^\circ$  burchak ostida, sukno harakatiga teskari yo‘nalishda bo‘lishi kerak. Ko‘p hollarda purkagich uchiga  $30^\circ$  ostida, diametri  $0,7-1,0$  mm, tepe qismiga –  $1,0-1,5$  mm lik ignali soplolar o‘matilgan bo‘ladi. Suvni bosimi  $1,0-1,5$  MPa, agar purkagich uzlusiz ishlaganda, bosim  $4$  MPa gacha yetishi mumkin. Suvni sarfi,  $0,7$  mm soplo uchun,  $2,5$  MPa bosimda – minutiga  $5 / 1\text{m}$  suknoga; diametri  $1,0$  mm soplo uchun –  $12$

I. СВДни ishlash effektivligiga purkovich bilan sukno orasidagi masofa katta ta'sir etadi. Odatda, bu masofa 100–150 mm, bu masofada oqim kompakt shaklini saqlaydi.


Mashina kengligi bo'yicha СВД tezligi sekin tezlikda ishlaydigan mashina suknolari uchun 6 mm/min, katta tezlikda ishlaydigan mashina suknolari uchun – 100–150 mm/min.

Purkash uchun filtrlangan vodoprovod suvi ishlataladi. Ba'zan vodoprovod suvini ishlatganda ham teshiklar tiqilib qolishi mumkin, shuning uchun o'zi tozalaydigan purkagichlar qo'llaniladi.

Sukno yuvg'ich qurulmani effektiv ishlashini hal qiluvchi ikkita faktor mavjud: vakuum miqdori va sukno yuvg'ich sheling kengligi. Shelni kengligi – mashina tezligiga bog'liq. Suknoni yuvish qurulmasini sxemasi 39-rasmda keltirilgan.

Zamonaviy qog'oz qilish va karton qilish mashinalari, ma'lum tur mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan.

Mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari mashina konstruksiyasiga bog'liq. Qog'oz polotnoni effektiv suvsizlantirish, siqilayotgan tolalar skeletini qarshiligiga va siqilayotgan polotnodagi suvni filtrlanishiga bog'liq. Ba'zi qog'ozlar uchun hal qiluvchi faktor – qog'oz polotnoni siqishga qarshiligi. Bu, yuqori sifatli – massasi  $100 \text{ g/m}^2$  gacha bo'lgan qog'ozlar hamda ofset va boshqa qog'ozlari. Bu turdag'i qog'ozlarning o'tkazuvchanligi yuqori va siqilgan holatda, polotnoni g'ovaklari ichidagi gidravlik bosim, hatto tashqi yuk katta bo'lganda ham, past. Shuning uchun, bu turdag'i mahsulotlarni olishda, nisbatan qattiq valli presslar qo'llaniladi. Massalan, granit valli va korroziyaga chidamlik, rezina qoplamasiz po'lat jelobli vallar qo'llaniladi.



**39-rasm. Vakuum-nasosning sukno yuvg'ich bilan ulagan sxemasi:**

1 — boshqaruv shiti; 2 — sukno yuvg'ich; 3 — klapan; 4 — separatorlar; 5 — vakuum-nasos.

### **7.6. Zamonaviy qog'oz va karton qiluvchi mashinalarning presslovchi qismlari**

Bu turdag'i qog'ozlarning  $1\text{ m}^2$  massasi past bo'lganligini hisobga olgan holda va presslaganda, chiqariladigan suv miqdorini nisbatan kamligi sababli, yengil, lekin qattiq suknoqalar qo'llaniladi. Presslash zonasidan chiqishida qog'ozni qayta nam-lash, katta ahamiyatga ega. Shu sababli, past va o'rta tezlikda, ishlaydigan mashnalarda, ikki sukno orasida presslash usuli qo'llanilmaydi. Polotno suvni qaytadan so'rmaslik uchun, ingichka tolalardan to'qilgan sukno qo'llaniladi. Polotnoning yuza tomoni momig' bilan qoplagan bo'ladi.

Suvszlantirishga, massani maydalanish darajasi va olinadigan qog'ozning  $1\text{ m}^2$  massasi katta ta'sir etadi. Bunday qog'ozlarni olishda, suvszlantirish vaqtini oshirish kerak. Ak-sariyat zamонавиy mashinalarning presslash qismi uch yoki to'rt zonali presslashdan iborat bo'lib, zonalarning har biridan keyin bitta yoki ikkitadan presslar o'matilgan. Nisbatan ko'p qo'llaniladigan shu turdag'i presslardan (Tri-nip) pressining sxemasini keltirish mumkin (Tri-nip), 40-rasm.

bunda,  $g_{s.b}$  – absolyut quruq qog'ozning massasi.

Absolyut quruq qog'ozning namligi  $W_a$  – bu qog'oz tarkibidagi namlik massasini  $g_{vl}$ , a.q qog'oz massasiga nisbati, %:

$$W_a = (g_{vl}/g_{s.b}) \cdot 100\% = (g_{vl.b} - g_{c.b}/g_{s.b}) \cdot 100, \%$$

Qog'oz tarkibidagi namlik – bu namlik massasini  $g_{vl}$ , a.q qog'oz massasiga  $g_{sb}$  nisbati, %:

$$u = g_{vl}/g_{c.b}, \text{ kg/kg}$$

Sellyuloza – qog'oz sanoatida qog'oz polotnoni «quruqlik», tushunchasidan foydalanimadi, bu a.q. qog'ozning  $g_{sb}$ , nam qog'oz massasiga  $g_{vl}$  nisbati %:

$$S = (g_{s.b}/g_{vl.b}) \cdot 100\% = (g_{s.b}/g_{s.b} - g_{vl}) \cdot 100\%$$

Bundan:  $W_o + S = 100\%$ .

Qog'oz qiluvchi mashinaning ishlab chiqarish unumdorligi, a.q. qog'oz hisobida:

$$G_m = 60 \omega_m B_p P_{sb}, \text{ kg/soat}$$

bunda,  $\omega_m$  – mashina tezligi, m/min;  $B_p$  – qirqilmagan qog'oz polotno eni, m;  $P_{sb}$  – 1 m<sup>2</sup> qog'oz massasi, g.

Qog'oz qiluvchi mashinaning quritish qismidan chiqariladigan nam massasi:

$$M_{vl} = G_m(u_o - u_2), \text{ kg/soat}$$

bunda,  $u_o - u_2$  qog'oz polotnodagi boshlang'ich va oxirgi namlik miqdori, kg/kg.

Qog'ozning muvozanatlashgan namligi. Qog'oz polotno ko'p vaqt havoda turib qolganda, nam material va havodagi suv pari bilan muvozanat o'rnatiladi. Qog'oz polotnodagi namlikni miqdori, materialning tabiat va strukturasiga, havo temperatu-

rasi va uning namligiga, muvozanatga yetishish usuliga bog'liq. Bu ko'rsatkichlarning birortasi o'zgarsa, materialdagi namlik muvozanati ham o'zgaradi. Qog'ozdagi namlik miqdori va atrof havo orasidagi muvozanat grafik ifodasi sorbsiya va desorbsiya izotermasi deb ataladi. Atrof havoning nisbiy namligi o'zgarsa, qog'oz namligi ham o'zgaradi (32-jadval).

Sorbsiya va desorbsiya izotermasini bilish katta amaliy ahamiyatga ega. Chunki, agar qog'ozni muvozanat quruqligidan past darajagacha quritilsa, bir qancha vaqtidan keyin, qog'oz yana muvozanat namlik holatiga keladi. Shunday qilib, qurutish uchun sarflangan energiyaning bir qismi befoyda ketadi.

### Har xil turdag'i qog'ozlarning muvozanatlashgan namligi

*32-jadval*

Qog'oz turi	Yelim-lanish darajasi mm	Hajm massa, g/sm <sup>3</sup>	Kul miqdori, %	Qog'ozning muvozanatlashgan namligi, havoning quyidagi namligida, %				
				40	55	65	75	85
2-bosmaxona	0,25	0,64	14,0	6,4	7,0	8,1	8,7	10,5
Perfokartochka uchun	0,50	0,91	-	6,8	7,55	8,3	9,3	11,3
Chuqrur bosish uchun	0,50	1,09	20,6	4,9	5,75	6,2	6,7	8,5
Kitob muqovalash uchun, 160 g/m <sup>2</sup>	0,75	0,80	8,0	7,6	8,9	10,0	10,8	12,5
2-raqamli dafatar jilti uchun	1,0	0,96	8,8	5,8	6,8	7,3	7,9	10,2
Gofrplash uchun kraft-qog'oz	1,0	0,58	-	7,1	8,3	9,2	9,9	12,6

*jadvalning davomi*

2-raqamli daf-tar uchun	1,25	0,80	8,7	6,6	7,4	8,3	9,0	10,8
1-raqamli yo-zuv uchun	1,75	0,96	6,5	6,0	6,8	7,7	8,3	10,7
Kitob muqo-vasi uchun 120 g/m <sup>2</sup>	2,0	0,85	10,0	5,8	6,9	7,8	8,5	9,6
Rasm chizish uchun	2,0	0,62	8,0	6,0	6,7	7,6	8,2	9,7
Kartografiya uchun	2,0	0,96	5,0	5,7	6,7	7,3	8,0	10,1
1-raqamli daf-tar uchun	2,0	0,87	7,4	5,8	6,8	7,8	8,1	10,2

**Qog'oz polotnoni kirishishi.** Quritish jarayonida qog'ozning uchala o'lchami qisqaradi. Qog'oz polotnoni qisqarish miqdori: uzunasiga  $\varepsilon_l$ , eniga  $\varepsilon_b$  qalinligi  $\varepsilon_c$ :

$$\varepsilon_l = (l - l' / l) 100 \% = (1 - l' / l) 100 \%;$$

$$\varepsilon_b = (b - b' / b) 100 \% = (b - b' / bl) 100 \%;$$

$$\varepsilon_c = (c - cl' / b) 100 \% = (1 - c / cl') 100 \%.$$

bunda,  $l, b, c$  — qog'oz polotnoni qisqarishdan oldingi o'lchamlari, m;  $l', b', c'$  qog'oz polotnoni qisqargandan keyingi o'lchamlari, m.

Tadqiqotlarning ko'rsatishi bo'yicha, kartonni konvektiv usulda qurutganda, bo'yiga 3,0–3,5%, qalinligi bo'yicha esa — 30% ga kamayadi. Eniga, bo'yiga qaraganda 1,5–2,0 baravar ko'p qisqaradi. Bu karton va qog'ozning strukturasiga bog'liq.

Quritish rejimi, tayyor mahsulotning fizik – mexanik xos-sasiga katta ta'sir etadi. Qisqarish ko'p hollarda, polotnoning quyidagi sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etadi: cho'zilishiga, buklilishga qarshilik va boshqalar.

## 8.2. Ko‘p silindrli qurutish qurulmalarida qog‘ozni qurutgandagi issiqlik— massa almashuv va kinetika

### 8.2.1. Qurutish kinetikasi

Quritish jarayoni kinetikasi — bu materillarning temperaturasi va namligini vaqt birligidagi o‘zgarishi. Quritish kinetikasi egri chizig‘i orqali, issiqlik bilan ta‘minlashning effektiv usuli tanlanadi. Barcha nam materiallarni quritish jarayoni uch davrga bo‘linadi:

- *birinchi davrda* — nam oz miqdorda parlanadi;
- *ikkinci davrda* quritish tezligi bir tekisda boradi;
- *uchinchchi davrda* quritish tezligi kamayadi, vaqt o‘tishi bilan parlanish ham pasayadi.


Ko‘p silindrlik kontakt-konvektiv quritish qurilmalarida, qog‘oz polotno temperaturasi va namlik miqdori mashina uzunligi bo‘yicha uzlusiz o‘zgarib boradi, shuning uchun hisoblashda temperatura va nam miqdorining o‘rtacha qiymati olinadi.

Qog‘oz polotnoni uzlusiz o‘tkazishda, boshqaruvchi val qizdirilmaydi va uning diametri yuqori qog‘oz qurutgich silindrлarning diametriga qaraganda kichik. Namlikning parlanishini tezlashtirish uchun polotno quritish silindrлarni yuzasiga ko‘proq kontaktlangan bo‘ladi (41-rasm).

Polotnoni silindrлar orasidagi yurish uzunligi:

$$l_{cx} = [H^2 + (L/2)^2 - (r + R)^2]^{1/2}$$

Quritish silindrлarida turgan, qog‘oz polotno qismining uzunligi:



**41-rasm.** Qog'oz polotnoni quritish silindrlari yuzasiga tegib turgan qismi va erkin yurish uzunligi.

$$l_p = \pi D_s \varphi_s, \text{ m.}$$

Issiq almashinadigan quritish silindrning faol yuzasi:

$$l_a = l_p b_p = \pi D_s \varphi_s b_p, \text{ m}^2$$

bunda,  $b_p$  – qirqilmagan qog'oz polotnoning eni, m.

Qog'oz polotnoni quritish tezligiga ta'sir etuvchi faktorlar:

- maydalanim darajasi va massa kompozitsiyasi;
- 1 m<sup>2</sup> qog'oz massasi;
- qog'oz polotnoni dastlabki namligi (quruqligi);
- mashinadagi suknoni bosimi.

### 8.3. Ko'p silindrli quritish qurilmalar

#### 8.3.1. Quritish qurilmasining ta'rifi

Qog'oz polotno presslangach, nam holatda ko'p silindrli

kontakt-konvektiv quritkich qurilmasiga keladi. Quritish qurilmasining vazifasi, nam materialni oxirgi nisbiy namlikka qadar – 5–8 % gacha quritib berish.


Issiqlikni kontakt usulida nam qog'ozga yetkazish, boshqa tur quritish usullaridan katta ustunliklarga ega. Chunki qog'oz qurituvchi silindrлarning issiq yuzasi dazmol rolini bajaradi. Qog'ozning bir yoki ikkala yuzasini silliq holatga keltiradi.

Ko'p silindrli kontakt-konvektiv qog'oz qurituvchi qurilmaning tarkibi – ikki qator aylanuvchan qog'oz quritkich, sukno quritkich va sovituvchi silindrлar, suknoni harakatlantiruvchi, suknoni yo'naltiruvchi, har xil boshqaruvchi vallar, parni silindirga beruvчи va kondensatni chiqaruvchi sistemalar, silindr yuzasini tozalovchi shaberlar, ventilatsiya sistemalari va issiqlikni regeneratsiyalovchi qismlardan iborat (42-rasm).

Olinadigan mahsulotning turi, unga qo'yilgan talablarga qarab, qurituvchi qism sxemasiga qo'shimcha elementlar kiritilishi mumkin: konvektiv shkaf, qog'oz va kartonga kraxmal shimdirish uchun yelimlash pressi, konditsioner, namlagich, bo'rlovchi qurilma va boshqalar.

Ko'p hollarda QQM lar sxemasida quritkich silindrлari ikki qatorda shaxmat tartibida joylashtiriladi. Shuning uchun, qog'oz polotno navbatma-navbat avval birinchi tomoni bilan tepada joylashgan birinchi qator silindrga, keyin ikkinchi tomoni bilan, pastdagи ikkinchi qatordagi birinchi silindrga shu tartibda boshqa silindrлar yuzasiga tegib, quriydi.

Qog'oz polotno quritkich silindrлar yuzasiga sukno yoki setka yordamida siqiladi. Bu usul qog'ozni issiq quritish yuza bilan yaxshi kontaktlaydi hamda qog'ozning har xil g'ijmlanishlarini oldini oladi.



**42-rasm. Qog'oz quritish mashinasini quritish qismining prinsipial sxemasi:**

1—vakuum val; 2—qog'oz qurituvchi silindr; 3—qog'oz polotno; 4—quritish setkasi; 5—ventilatsiya qalpog'i; 6—qurituvchi havo; 7—havoni umumiy havo almashtiruvchi ventilatsiyaga uzatkich; 8—skruber; 9—havo oluvchi shaxta; 10—2-chi bosqich teploulitel; 11—1-bosqich teploulitel; 12—qog'oz polotnoni o'tkazuvchi yuqori quritkich setka; 13—kalandr; 14—nakat; 15—pastki quritkich setka; 16—havo tarqatuvchi kanallar.

Ventilatsiya qalpog'inining vazifasi — quritish qismi tepasida to'plangan havo-par aralashmani to'plab chiqarib tashlaydi.


Issiqlik sarfini kamaytirish maqsadida, qurulma issiqlik almashtingrich, skruber va havo almashtirgich ventsistemalar bilan ta'minlangan.

### 8.3.2. Qurituvchi silindr

Qog'oz qilish mashinasini kontakt — konvektiv qurilma sxemasida, quritish silindr asosiy element hisoblanadi. Uning yordamida issiqlik qog'oz polotnoga uzatiladi. Bundan tashqari,

ko'p hollarda quritish silindr tayyor mahsulotga tegishli ehtiyoj xossasini ham yaratib beradi.

Qog'oz quritish silindrni tuzilishi: silindrli korpus, ikki yonida sapfali qopqoq va qarab turish lyukdan iborat (43-rasm).



43-rasm. Qurituvchi silindr:

- 1—old sapfa;
- 2—old yon qapqoq;
- 3—qarab turuvchi luk;
- 4—qog'oz polotnoni silindrga qo'ndirish uchun yordamchi arqon yurish o'rni;
- 5—sifon uchi uchun chuqurlik;
- 6—harakatlantiruvchi qopqoq;
- 7—harakatlantiruvchi sapfa.

Qog'oz quritish silindr tarkibiga yana, par beruvchi va kondensatni chiqaruvchi qurilma, podshipniklar, shesternalar, termoplanka va boshqalar kiradi. Qog'ozga yuqori silliqlik berish uchun, silindr korpusini tashqi yuzasi yuqori qattiqlikka ega (Bryunel bo'yicha 170–220 birlik) va shlifflangan. Undan tashqari, yuqori qattiqlik ko'p muddat xizmat qilishga imkon beradi.

Silindrarning ichki yuzasi, qalinligi bir xil bo'lishi uchun, qirib tekislanadi. Bunda yuza bo'ylab temperatura bir xilda tarqaladi va silindrni muvozanatlanishini ta'minlaydi. Kichik tezlikda ishlaydigan mashinalar uchun (350 m/min gacha) silin-

dirlar statik muvozanatlantiriladi, yuqori tezlikda ishlaydigan mashinalarda — dinamik muvozanatlantiriladi. Silindrlar yon tomon temperaturasi bir xil bo‘lishi uchun, uzunligi qog‘oz polotno eniga nisbatan, uzuniroq bo‘ladi.

Keng tarqalgan silindirlar diametri 1500 mm bo‘ladi, yuqori tezlikda ishlaydigan mashinalarda silindr diametri 1812 mm, oxirgi yillarda esa — 2200 mm.

Quritish qismini oxirida sovituvchi silindrlar o‘rnataladi. Bu silindrlar qog‘oz polotnoni 85–90°C dan 50–55°C gacha va qog‘oz namligini 1,5–2,5 %gacha, suv parini silindrning sovuq yuzasida kondensatsiyalash hisobiga, oshirib beradi. Natijada qog‘oz biroz plastik holiga keladi. Qog‘ozni sovitish va namlash, kalandrlarda uni yaxshi zichlanishiga olib keladi. Natijada, qog‘ozning yuzasi va setka tomonlari orasidagi silliqlik farqi kamayadi. Shu bilan birga polotnoning elektrylanishi kamayadi. Sovitish silindrlarida temperaturani 35–40°C da ushlab turish tavsija etiladi. Buning uchun silindr ichidagi suv har gal sirkulatsiya qilinib turilishi lozim.

Sovituvchi silindrlarning konstruksiyasidagi farq, qog‘oz quritish silindrlariga qaraganda, korpus yuzasi xromlangan bo‘ladi. Sovituvchi silindrlarning ichidagi bosim 0,15 MPa da ushlab turiladi.

### **8.3.3. Quritish setka va sukno**

Ko‘p silindrli qurilmalarda setka va suknlolar qog‘oz polotnoni uzatishga xizmat qiladi. Polotnoni silindrarga o‘raydi, qizib turgan silindr yuzasiga jipslashtirib, qog‘ozda har xil nuqsonlarni paydo bo‘lishining oldini oladi.

Suknolar jundan, paxtadan va sintetik tolalardan tayyorlanadi. Jundan tayyorlangan sukno—sof sellulozadan sifatli qog‘ozlar olishda qo‘llaniladi. Paxtadan tayyorlangan sukno esa yog‘och selluloza massasidan gazeta, yozuv, bosmaxona qog‘ozlar olishda qo‘llaniladi.

Agarda mashinalarda sukno o'matilgan bo'lsa, mashina konstruksiyasida suknoni quritish sxemasi hisobga olinadi. Quritish setka va suknolar qog'oz quritishdagi issiqlik va massa almashuv jarayonlarida faol ishtirok etadi: qog'oz polotnoga tegib turganda qog'ozni, suv parini kondensatsiyalanishi hisobiga, namlaydi; sukno quritish silindrlarida — qog'oz namligi pasayadi.

Sintetik setkalarni xizmat davri juda yuqori, o'zi yengil, par o'tkazishi ham yuqori. Sintetik tolalar gidrofob, shuning uchun uni quritishni hojati ham yo'q. Hozirgi vaqtida Rossiyada sintetik setkalarning ko'plab turlari ishlab chiariladi (33-jadval).

### **Quritish setka va suknolar xarakteristikasi**

*33-jadval*

Markasi	Konstruksiyasi	Massasi, g/m <sup>2</sup>	Havo o'tkazuvchan- ligi sm <sup>3</sup> /sm <sup>2</sup> . sek
CK	Asosi — poliamid qoplamlali poliesfir ipi; utogi — monoip	1064	382
CK-2	Bu ham	1464	110
CK-3	Asosi — poliamid qoplamlali poliesfir ipi; utogi 1 — poliesfir ip bilan, 2 — monoip	1218	154
CK-4	Asosi — kompleks akril ipi; utogi — mono ip	1236	346
CK-5	Asosi — so'rilgan kompleks akril ipi; utogi — natron qoplamlali tamg'a-lanmaydigan monoip.	1218	184

*jadvalning davomi*

CM-1	Monoipdan to‘qilgan setka	1150	305
—	Jun va sintetik to- lalar aralashmasi	3500	2,04–11,60
—	dan to‘qilgan quritish setkasi		
—	Asbest paxta tolalar aralashmasidan to‘qilgan quritish suknosi	1800– 1900	1,56–4,10


Jadvalda keltirilgan sintetik setkalar yengil, havo o‘tkazuvchanligi yuqori, shu sababli mashina quritish qismini ishlashiga ijobiy ta’sir etadi.

### 8.3.4. Qog‘oz polotnoni uzdirmasdan o‘tkazish

Yuqori tezlikda ishlaydigan qog‘oz qiluvchi mashinalarda, ko‘p miqdorda ishlatiladigan qog‘ozlar (gazeta, bosmaxona, qop va boshq.) ishlab chiqariladi. Qog‘oz polotnoni uzdirmasdan o‘tkazish uchun dastlabki silindrлarda, qog‘oz polotno bilan birgalikda setka ham harakatlandi. Bu sxemada, quritish setkasini bittasi yuqori va pastki silindrлarga o‘ralib, qog‘oz polotno, setka orqali silindrлarning issiq yuzasiga siqladi.

Uzdirmasdan o‘tkazish usuli:

- mashinaning ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi;
- qog‘oz polotnoda namlikni eni bo‘ylab bir tekisda tarqalishini ta’minlayda;
- setkani harakatlantiruvchi vallar va shaberlar sonini kamaytiradi;
- qog‘oz polotno bilan yuqori silindrлarni o‘rab olish ulishini oshiradi.



**44-rasm.** Qog'oz qilish mashinasining quritish qismida qog'oz polotnoni uzdirmasdan o'tkazish sxemasi:

1—quritish setkasi; 2—uzatuvchi val; 3—setkani tarranglovchi vall; 4—qog'oz qurituvchi silindr; 5—vakuum kamerali val; 6—qog'oz polotno.


#### 8.4. Quritish qurilmalarning parkondensat sistemasi

Qog'oz qilish mashinalarni parkondensat sistemasining vazifasi — quritish silindrlarini par bilan ta'minlash va kondensatni yig'ib olish. Parkondensat sistemasi orqali mashina uzunasi b. ylab, qog'oz polotnoni quritish temperatura grafigi ta'minlanadi. Bundan tashqari, parkondensat sistemasiga va uning ishlash rejimiga — issiqlik va elektr energiya sarfi, mashinani barqaror ishlashi va olingan mahsulotning fizik-mekanik ko'rsatkichlariga bog'liq.

Parkondensat sistemasi ikki guruhga bo'linadi:

- parallel usulda quritish silindrlarini par bilan ta'minlash;
- guruh usulida par bilan ta'minlash va quritish guruhlarini ketma-ket ulash.

Birinchi usulda par bilan ta'minlash sxemasi 45-rasmda keltirilgan.



**45-rasm.** Qog'oz qilish mashinasi quritish qismini parallel usulda par bilan ta'minlash va kondensatini chiqarish sxemasi:  
 1—kondensat nasoslari; 2—kondensat baki; 3—par separatori;  
 4—par bosimini boshqaruvchi – avtomat klapani; 5—mashinaga beruvchi par o'tkazuvchi quvur; 6—yopuvchi ventillar;  
 7—qog'oz qurituvchi silindrlar; 8—kondensat chiqaruvchi qurilma; 9—baypaslar.

Quritish qurilmalarning parkondensat sistemasi tarkibiga kiruvchi qismalar:

- sovitkichlar;
- vakuum suv halqali nasoslar;
- kondensatni yig'uvchi.

### 8.5. Mashina quritish qismi ventilatsiyasi

Nam havoni holati ikkiga bo'linadi – to'yinmagan nani va

to'yingan nam havo. To'yinmagan nam havo – quruq havo va o'ta quritilgan par aralashmasi va to'yingan nam havo quruq havo bilan to'yingan par aralashmasi.

To'yinmagan nam havo quruq va namlagan termometr bilan xarakterlanadi. Quruq havo bir necha gazlardan iborat va uning taxminiy tarkibi quyidagi (suratida – moddaning massadagi miqdori, %, maxrajida – hajim, %):

Kislород .....	23,10/20,90
Azot .....	76,55/78,13
Argon.....	1,30/0,94
Gaz uglerod to'rt oqsidi.....	0,05/0,03


Havoda yana, hududga xos boshqa moddalar bo'lishi ham mumkin.

Qog'oz qilish mashinasining quritish qismi texnologik ventilatsiyasining vazifasi – qog'oz polotnoni konvektiv quritishda hosil bo'lgan suv parini assimilatsiyalash va uni qurilmadan tashqariga chiqarishdan iborat. Bundan tashqari, qizdirilgan havo qog'oz polotnoni quritishda ishtirok etadi. Ayniqsa, erkin harakat holatida, parametrlari to'g'ri tanlanganda, namini quritishni tezlashtiradi, mashinani ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi, mahsulot sifatini yaxshilaydi hamda mashina zalidagi havoning sanitar holatini yaxshilaydi. QQM ventilatsiya sistemasi ikkita sistemadan iborat: texnologik havoni mashina tagiga berish hamda mashina zalidagi havoni almashtrib turish.

Berilayotgan havo temperaturasiga qarab, past temperaturali ( $50^{\circ}\text{C}$  gacha), o'rta temperaturali ( $50$  dan  $100^{\circ}\text{C}$  gacha) va yuqori temperaturali ( $100^{\circ}\text{C}$  dan ortiq) bo'ladi.

Havoni aralashtirish sarfiga qarab texnologik ventilatsiya past ( $75\ 000$  kg/soat gacha), o'rta ( $75\ 000$  dan  $150\ 000$  kg/soat) va yuqori ( $150\ 000$  kg/ soat dan yuqori, quvvatlilarga bo'linadi).

46-rasmda, yuqori tezlikda ishlaydigan keng formatli QQM havo berish – so'rib olish sistemasi keltirilgan.



**46-rasm. Zam'onaviy QQM quritish qismi ventilatsiya sxemasi  
(sxemada temperaturani har xil uchastkalardagi qiymati keltirilgan):**

1—turbokompressordan kelayotgan havo; 2—pastki havo taratuvchi; 3—havoni havo taratuvchi kameraga berish; 4—mashinani quritish qismi; 5—qurituvchi havoni qizdiradigan koloriferlar; 6—quritilgan havoni beruvchi ventilatorlar; 7—1-pog'ona issiqlikni tutuvchi korpus; 8—1 — pog'ona issiqlikni tutuvchi ikkinchi korpus; 9—zaldan havoni so'rvuch; 10—2-pog'ona issiqlik tutuvchi; 11—skruber; 12—o'qli ventilatorlar; 13—ishlatilgan par havo aralashmani chiqarish.

Qog'ozni kontakt-konvektiv quritish parametrlari 34-jadvalda keltirilgan.

### **Qog'ozni kontakt-konvektiv usulda quritish parametrlari**

*34-jadval*

Parametr	Kontakt-konvektiv quritish (silindrlerda)
Silindr dagi temperatura, °C	20–175
Siqish bosimi, kPa	2–5
Polotno temperaturasi, °C	100 dan past
Quritish muddati, sekund	0,2–0,5
Quritish tezligi, kg nam / m <sup>2</sup> . soat	10–30
Energiyanı solishtirma sarfi, kj / kg namlikka	2800–3500

### **8.6. Qog'oz va karton qiluvchi mashinalarda materialni pardozlash**

Qog'ozni yoki kartonni pardozlash - quritish jarayonida yoki quritish jarayonidan keyin, mahsulot sifat ko'rsatkichlarini (zichligini oshirish, silliqlik, yuza mustahkamligi, losk, suv o'tkazilganligini oshirish) yaxshilash uchun hamda QQMdan keyin bajarilgan pardozlash ishlarini osonlashtirish uchun bajariladi.

**Pardozlash aslahalari.** Bularga quyidagi aslahalar kiradi:

- yarimquruq kalandr;
- lohil kalandr;
- kreplirlovchi va mikrokreplirlovchi qurumlalar;
- yelimlovchi press;
- mashina kalandrlari;
- yumshoq kalandrlar va nakat.

**Yarimquruq kalandr.** Yarimquruq kalandrning asosiy vazifasi – qog'ozni zichlash. Zichlanish darajasi chiziqli vallar orasi-

dagi chiziqli bosim bilan qog'oz quruqligiga bog'liq. Yarimquruq kalandrdan o'tishda qog'ozni quruqligi 50–55 % tashkil etadi. Bu namlikda qog'ozni mexanik zichlanishini osonlashtiradi.

**Loshil kalandri.** Qog'ozni quritishda, nam holidagi qog'oz polotno quritish silindrлarning silliq tashqi yuzasi bilan kontakt-da bo'ladi. Unda quritish bilan bir qatorda dazmollanadi. Agarda qog'oz silindriga bir tomoni bilan jipslashsa, uning bir tomoni silliq bo'lib, ikkinchi tomoni g'adir-budirligicha qoladi. Bunday qog'ozlar, qisman quritilgach, loshal (silliq) katta silindrda, issiq yuzada sukno tagida rezina qoplamali siquvchi valik yordamida siqib, qog'ozni dazmollaydi. Agar parametri to'g'ri tanlansa, loshal silindridan keyin qog'oz silliqligi, super-kalandrdan o'tgan qog'ozdan ham yuqori bo'ladi.

**Krepirllovchi va mikrokrepirllovchi qulelmalar.** Bu pardozlashning alohida usuli bo'lib, qog'oz strukturasini uning yuzasini qatlami-qatlam qilishdan iborat. Krepirlash natijasida hosil qilingan qatlamlar ko'rindi, mikrokrepirlanganda amalda – bilinmaydi.

Qog'ozni krepirlash bevosita QQMda yoki maxsus krepirlash silindrda bajariladi. Krepirlangan qog'ozni asosan dekarativ yoki sanitар-gigiena maqsadlari hamda o'rab material sifatida ishlataladi.

**Yelimlovchi press.** Yelimlovchi press keng qo'llaniladigan qurilma bo'lib, uning yordamida har xil qog'oz va kartonlarga: yuza yelimlash, pigmentlash, bo'yash, plastifikatsiyalash, har xil qoplovchi moddalar bilan ishlov berish va shu kabi, pardoz berilada.


Yelimlovchi press QQMni quritish qismiga o'rnatiladi. U ikkita bir xil diametrli vallardan iborat. Qog'oz yuzasiga reagentlarni purkash yo'li bilan beriladi. Bunda valiklar sistemasi qo'llaniladi.

Yuza yelimlovchi reagent sifatida ko'p hollarda kraxmal va uning hosilalari qo'llaniladi. Bularidan tashqari, karboksimet-selluloza, polivinil spiriti, qo'shimcha sifatida bog'lovchi agent-

lar, gidrofoblovchi va polimer disperslari, optik oqartiruvchilar, antisepstiklar va boshqalar qo'shiladi.

**Mashina kalandrlar.** Mashina kalandrlari sifatida quritish silindrлari ishlataladi. Par o'rниga, val sapfalari orqali, sovuq suv oqimi beriladi.

Mashina kalandrlarining asosiy turlari ko'p vallli, vertikal tekislikda joylashgan vallar bo'lib, soni 3 dan 10 gacha bo'ladi (47-rasm).



47-rasm. Mashina kalandrlari turlari: a—yopiq staninali; b—ochiq staninali va vallarni siqish mexanizmi konsollli, vallarni yengillashtirish uchun ichiga o'rnatilgan mexanizmi bilan:

1—vallarni siqish va ko'tarish mexanizmi; 2—stanina;

3—siquvchi vallar; 4—pastki val.

Zamonaviy yuqori tezlikda ishlaydigan QQMlarida kalandrlar ochiq ko'rinishda bo'lgan qulay, chunki vallarni almash tirish va boshqa ta'mirlash ishlarini bajarish onson. Mashina kalanlarining valini konstruksiyasi yaxshi bo'lsa, ishlov berilayotgan qog'oz sifati va mashinaning ishlash unum dor-

ligi ham yuqori bo'ladi. Mashina kalandrlovchi vallarning texnik xarakteristikalari 35-jadvalda keltirilgan.

### Kalandrlovchi vallarning texnik xarakteristikalari

35-jadval

Polot-no qirqim eni, mm	Diametr, mm	Uzunligi, mm	Suya-nchlar orasi-dagi masofa, mm	Massasi, kg		Vallar soni, dona		
				val	val pod-ship-niki bilan			
<b>Pastki val</b>								
4 200	800	400	4 500	6500	5 400	18200	20 030	1
6 300	1020	160	6 800	8770	7 600	41200	46 485	1
6 720	1020	160	7 100	9300	8 100	45500	50 305	1
10 080	1200	—	10 500	—	11 700	75000	77 000	1
<b>Ikkinchchi val</b>								
4 200	500	200	4 500	5860	5 400	6 600	7 310	1
6 300	600	260	6 800	8245	7 600	16 290	17 450	1
6 720	510	260	7 100	8730	8 100	15 360	16 910	2
10 080	800	—	10 500	—	11 700	41 000	42 000	1
<b>O'rta val</b>								
4 200	400	160	4 500	5860	5 400	4 400	5 040	5
6 300	450	220	6 800	8162	7 600	8 430	9 298	5
6 720	500	220	7 100	8730	8 100	10 400	11 533	3
10 080	700	—	10 500	—	11 700	32 000	32 100	4
<b>Yuqori val</b>								
4 200	500	200	4 500	5860	5 400	4 400	5 040	1
6 300	600	260	6 800	8245	7 600	8 430	9 298	1

*jadvalning davomi*

6 720	500	260	7 100	8730	8 100	10 400	11 533	1
10 080	700	—	10500	—	11 700	32 000	32 100	1

**Yumshoq kalandrlar.** «Yumshoq» kalandrning texnologik imkoniyatlari katta, barcha qog'oz va kartonni silliqligini oshirishda qo'llaniladi. Har xil turdag'i qog'ozlarning yuzasini, tekisturasini saqlagan holda, sillqlashda yuqori temperaturali yumshoq vallar qo'llaniladi. Yozuv - bosma qog'ozlarini, yuqori darajada sillqlash uchun, 5–6 % namligida kalandrlanadi. Kartonni kalandrlashda «termokalandrlar» qo'llaniladi. Uning vazifasi qog'oz va kartonning yuzasiga pardoz berish hamda polotnoni silliqligi ya qalinligini talablarga moslab to'g'rilab berishdan iborat.


**Nakat.** Mashinani oxirgi qismida nakat o'rnatilgan. Uning vazifasi – qog'ozni rulonga tekis va zinch qilib o'rash. Rulonga yaxshi o'ralgan qog'ozni kesish, transportirovka qilish, saqlash, ishlov berish va qayta ishlash osonlashadi.

Nakatga o'ralish tezligi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$V = r\omega = D\omega/2, \text{ m / min},$$

bunda,  $r$  va  $D$  – qog'oz o'ralayotgan rulonning radiusi va diametri, m;  $\omega$  – rulonni aylanish chastotasi,  $\text{min}^{-1}$ .

Qog'ozni nakatga o'rashda, qog'ozni enini 200 mm chamasida qirqilgan uchi nakatga uzatilib o'raladi (48-rasm).



48-rasm. Nakat sxemasi:

1 — o'ralayotgan rulon; 2 — stanina; 3 — nakat silindri;  
 4 — tambur vali; 5 — qabul qiluvchi richag; 6 — tamburni siqib  
 turuchi pnevmosilindr; 7 — to'g'rilovchi valik; 8 — o'rovchi  
 arqon; 9 — silindrni boshqaruvchi richag; 10 — silindrning ish-  
 chi richagi; 11 — asosiy richag; 12 — rulonni tornozlash quril-  
 masi; 13 — dempfer.


Yuqorida keltirilgan massa tayyorlash, qog'oz quyush texnologiyasi, qo'llaniladigan jihozlarning ko'plari, O'zbekistonning mustaqillik yillarda tashkil etilgan bir qancha selluloza va qog'oz olish korxonalarida qo'llaniladi. Shulardan biri Yangiyo'l paxta momig'idan selluloza va qog'oz ishlab chiqarish fabrikasi. Undagi o'zlashtirilgan yangi texnologiya, misol tariqasida, keltirilgan.

## **IX bob. PAXTA SELLULOZA TEXNOLOGIYASI**

Paxta momig'idan selluloza olish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- paxta momig'ini transportirovka qilish va tozalash;
- momig'ni Bi-Vis mashinasiga yuborish;
- paxta momig'ni qisman qirqish va pishirish;
- momig'ni qirqish, yuvish va massani oqartirish;
- oqartirilgan massani yuvish;
- quritish, taxlab joylashtirish.

**Paxta momig'ini transportirovka qilish va tozalash:** fabrikaga paxta momig'i kiplarda keltiriladi. Kiplari ochilib, titilib, markazdan qochirma kuchlar usulida ishlaydigan, siklonli separator qurilmalariga beriladi (49-rasm), qurilmada og'ir chiqindilar ajratiladi, so'ngra titib-tozalagich qurilmasida tozalanadi.




**49-rasm. Paxta momig'ini tayyorlash seksiyasi:**

1 – kiplarni ochish qurilmasi; 2 – ventilator; 3 – transportyor;  
4 – siklon; 5 – titib - tozalovchi qurilma.

Kiplarni ochish va titish vaqtlarida hosil bo'lgan chang, ventilator orqali havo filtr qurilmasiga beriladi va changdan tozalanadi.

Tozalangan paxta momig'i, uzatuvchi kolonna, metall zarrachalarini tutuvchi dedektorlar orqali, birinchi Bi-Vis mashinasiga berish uchun zichlagichga beriladi (50-rasm).



50-rasm. Bi-Vis seksiyasi:

1—uzatuvchi kolonna; 2—metall zarrachalarini ushlab qoluvchi dedektor; 3—zichlovchi; 4—1-Bi-Vis mashinasi; 5 — 1-saqlovchi bak; 6 — 2 - Bi-Vis mashinasi; 7—statik filtr; 8 — 2-saqlovchi bak.

Birinchi Bi-Vis mashinasining vazifasiga quyidagilar kiradi:

- momig'ni tezda yuvish;
- paxta tolalarini qisman qirqish;
- massaga mexanik ishlov berish orqali tegishli temperaturaga ko'tarish;
- natriy ishqori eritmasini shimdirlish va selluloza bilan reaksiyaga kiritish.

**Momiqni tezda yuvish:** momiqni Bi-Vis mashinasiga quyuqlantiruvchi orqali beriladi. Momiq beriladigan joydan, markaz-

dan qochirma nasos orqali, shnek pressdan chiqayotgan oqova suv ham beriladi. Suyuq oqovani ekstraksiyalash, shnek elementining dastlabki qismida, filtrlovchi yuza orqali, orqa (задний шаг) qadamlar bilan bajariladi.

Shnek ikkinchi elementini boshlang'ich qismida orqa qadam shaklida (обратным шагом) o'rnatilgan filtrlovchi yuza orqali suyuq oqova ajratib olinadi. Yuqorida keltirilgan ikki bosqich orqali momig' tezda yuviladi va paxta momig'ining suvda eriydigan iflosliklaridan, tozalanadi.

**Tolalarni qisman qirqish:** shnek profili uch yoki to'rt zonali orqa qadam bilan, tolalarni qisman maydalaydi, buning uchun shnekni ishlash rejimi to'g'rilab qo'yiladi.

**Temperatura rejimi:** Bi-Vis mashinasining mexanik qismlarini intensiv ishlashi natijasida, massa va mashina korpusi qizib ketadi. Mashina korpusining temperaturasi 90–110°C gacha ko'tarilishi mumkin.


Bu temperatura massaning ishqorlanishini, tashqaridan is-siqlik bermasdan ham, ta'minlaydi.

**Tolalarni natriy ishqori eritmasi bilan shimirish:** ishqor eritmasi bilan ishlov berishdan maqsad, paxta momig'idagi yo'ldosh qo'shimchalarning bir qismini tozalash (smola, pektinlar, organik qo'shimchalar) va tolalarni gidratatsiyaga tayyorlashdan iborat. Natriy ishqori Bi-Vis mashinasiga yuboriladi. Yuborilishdan oldin natriy ishqori, shnek – presslardan chiqayotgan suyuq oqova bilan aralashtiriladi.

Massani quruqlik darajasi yuqori bo'lishiga qaramasdan, shnek – press effektiv ravishda tolalarni ishqor bilan aralashtira oladi.

Paxta momig'ini quruqlik darajasi, 1- Bi-Vis mashinasiga berilish oldidan 94 %ni tashkil etadi. 42–44 % ishqorming sarfi, Bi-Vis mashinasiga berish oldidan, 4–5 % (quruq massaga nisbatan) tashkil etadi. Suvni sarfi – 3–4 m<sup>3</sup>/t. a.q. momig'ga nisbatan.

1-Bi-Vis mashinasidan keyin massani saqllovchi va suyultuvchi 1-bakka beriladi (51-rasm).



*Si-rasm.* Massani shnek – pressdan keyin suyultirish seksiyasi:  
 $V_{nek}$ -presslardan Bi-Vis seksiyasiga kelayotgan oqava suv

- 1 – 1-suyultiruvchi bak;
- 2 – neytrallovchi qurilma;
- 3 – 2-suyultiruvchi bak;
- 4, 5 – shnek – presslar;
- 6 – oraliq fezervuar;
- 7 – saqlovchi va aralashtruvchi bak.

Birinchi suyultiruvchi – saqlovchi bakni vazifasiga quyida gilar kiradi:

– natriy ishqorini reaksiyaga kirish imkonini (organik moddalarning erishi, tolalarning gidratatsiyalanishini) ta'minlash,



- massani kerakli temperaturasini saqlab turish;
- massani bir me'yorda 1-Bi-Vis mashinasidan 2-Bi-Vis mashinasiga yetkazib turish.

Momig' massasini baklarda saqlanib turgan vaqtlarida, tolalarning yo'ldosh qo'shimchalari: smoja, yog', pektinlar va organik moddalar ishqor bilan reaksiyaga kirishi eriydi va suyuqlik qismiga o'tib ketadi.

Reaksiya natijasida massaning rangi ancha xiralashib qoladi. 1-bakdag'i massani temperaturasi 90–99°C, ushlanib turish vaqt – 60 min.

**Massani qisman yuvish va oqartirish:** massa 1-bakdan chiqib, 2-Bi-Vis mashinasiga yuboriladi. Unda massa intensiv ravishda yuviladi, oqartiriladi hamda qirqiladi.

**2-Bi-Vis mashinasining vazifasiga:** 1-bakdan kelgan massani yuvish;

tolalarni qirqish;

massaga kerakli temperaturani, mexanik ishlov berish natijasida ta'minlash;

yuvilgan massani oqartiruvchi suyuqlik bilan to'yintirish. Intensiv ravishda oqartirish.

**Qog'oz massasini ishqor bilan ishlov berilgandan keyingi yuvish,** 1-bakda saqlangan vaqtida, massa tarkibidagi qo'shimcha moddalar qisman kimyoviy reaksiyaga kiradi. So'ngra ishqor qoldiqlari va reaksiyaga kirmay qolgan qora oqovadan yuvilishi kerak. Buning uchun shnek — pressdan ajralib chiqqan suyuq oqova 2-Bi-Vis mashinasining kirish joyiga purkash usuli bilan beriladi. 2-Bi-Vis mashinasida uchta filtrlanish zonasini bo'lib, oqova suvlarni chiqarib yuborishga mo'ljallangan.

**Tolalarni qirqish:** shnek profillari to'rtta zonada o'rnatilgan maxsus qismlari bilan tolalar qirqiladi.

**Temperatura rejimi:** intensiv mexanik ishlash natijasida tolalar qirqiladi, massa temperaturasi  $90-100^{\circ}\text{C}$ , mashina korpusining temperaturasi  $90-110^{\circ}\text{C}$  ga yetadi. Bu harorat oqartirish reaksiyasini ketishi uchun yetarli hisoblanadi. Oqartiruvchi eritma sifatida  $30-32\%$  vodorod peroksiidi, va  $42-44\%$  natriy ishqori aralashmasi ishlataladi, eritma shnekning uchunchi elementiga teskari yo'naliishi bo'ylab purkaladi.

Yuvish natijasida bosil bo'lgan suyuq chiqindi, mashinani birinchi, ikkinchi va uchinchi zonalarini filtrlari orqali chiqaro yuboriladi.

Oqartiruvchi eritma ~~masos~~ orqali, to'rtinchi siqish zonasidan oldin beriladi. Oqartirish jarayonini boshqerish uchun ba'zi bir qo'shimcha moddalar ham ishlataladi. Suv va ximikatlar tarkibidagi temir ionlari, selluloza oqligini pasaytiradi ( $2\%$  gacha), shuning uchun suv yumshatilgan va temir ionlari kamaytirilgan bo'lishi kerak.

2-Bi-Vis mashinasiga kirishda, massani quruqligi 35 %, chiqishda esa 35 – 40 % tashkil etadi.

30 – 32 % vodorod perekisini sarfi – 1 – 2 %, 42 – 44 %li ishqorni – 4 – 5 %, a.q massaga nisbatan.

Oqartirilgan massa 2-saqlovchi bakka beriladi. Ikkinci bakda selluloza bilan oqartiruvchi massa butunlay reaksiyaga kirishgan bo'ladi.

2-chi Bi-Vis mashinasidan keyingi suyuq oqovani, statik filtr orqali filtrlab tolalar ajratib olinadi. Olingen tolalarni 1-Bi-Vis mashinasiga berish uchun, 1-saqlovchi bakka beriladi. Suyuq oqova filtr setkadan keyin kanalizatsiyaga yuboriladi.

Ikkinci saqlovchi bak quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- oqartiruvchi reagentlarni reaksiyaga kirishini (90 min) ta'minlash;
- tegishli temperaturani ta'minlash (90–99°C);
- uzluksiz ravishda massani 2-Bi-Vis mashinaga yetkazib turish.

Suyultirish seksiyasi quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

- 1 – suyultirish baki;
- massani neytrallovchi qurilma;
- shnek – press;
- shnek – pressdan chiqqan suyuq oqovani saqlab turish uchun oraliq rezervuar;
- suyultirish baki;
- haydovchi nasoslar.

Oqartirish reaksiyasidan keyin massa, ximikatlarning qoldig'ini 2-saqlovchi bakda yuvib tashlanadi. Bu bakdag'i 35 %lik massa 3 – 3,5 %gacha suyultiriladi. Shunday qilib, suyultirish natijasida massa batamom yuviladi. Suyultirish uchun, aylanma suvni toza suv bilan aralashmasi ishlataladi. Tegishli priborlar yordamida massa konsentratsiyasi bir me'yorda ushlab turiladi. Massani neytrallash uchun suyultirilgan sulfat kislota ishlataladi.

Massani bir qismi nasoslar bilan shnekli pressga beriladi.

Birinchi shnek — press massani 40 % quruqlikkacha suvi kamaytirilib beriladi.

Shnek — presslardan aylanma suv rezervuarga yig'iladi (1 va 2 rezervuarlarga), undan bir qismi Bi-Vis qurilmasiga — momig'ni namlash va massani yuvish uchun beriladi, qolgan qismi — kanalizatsiyaga yuboriladi. Maydalash seksiyasini talabiga ko'ra, massa 3,5 %gacha suyultiriladi. So'ngra, suyultirilgan massa sig'imi 150 m<sup>3</sup> lik hovuzlarga yuboriladi. Hovuz meshalkali bo'lib uzlukusiz aralashtirilib turiladi. Bu hovuzdan massa, maydalash-tayyorlash bo'limiga yuboriladi va ikkita to'plovchi (аккумулирующий) hovuzga beriladi. Tegirmonda maydalan-gan massa diskali tegirmonga beriladi. Tegirmonda 20–25°ShR darajagacha maydalanib, oraliq bak, undan keyin mashina bakiga beriladi. Tugun ushlagich qurilmasidan o'tib, massa bosim yashigiga keladi (5-rasm).

Bosim yashigidan massa bir tekisda, oqim bosimida, setkaga oqib tushadi, bu yerda filtrlanib, selluloza polotnosiga aylanadi. Selluloza polotnosini setka qismida suvsizlantirish, registr valiklari orqali bajariladi.

Polotnoni suvsizlantirishni davomi, qog'oz qiluvchi mashinaning press qismida o'tkaziladi, so'ngra polotno mashinaning quritish barabanlariga uzatiladi. Quritish barabanlarida polotnoning namligi 12 % qolgunigacha quritiladi.

QQM nakatida polotno tambur valiga o'raladi. So'ngra, selluloza polotno o'ralgan tambur ko'ndalang kesuvchi stanokka yuboriladi. Ko'ndalang kesuvchi stanokda polotno kerakli formatlarda qirqilib, gilzaga o'raladi.

Oqartirilgan paxta selluloza har xil qog'oz, karton ishlab chiqarinda va kimyoviy qayta ishiashda, xomashyo sifatida qo'llaniladi.

Faxta selluloza polotno holida, talablarga muvosiq, rulon yoki to'rtburchak shaklida qirqib kiplarda, o'rovchi qog'ozlarga o'srab, jo'natiladi.


## 9.1. Paxta sellulozasidan qog'oz ishlab chiqarish

Xonashyo sifatiida yuqoridagi usul bilan olingan paxta sellulozasi ishlataladi. Paxta sellulozasining sifat ko'rsatkichlari 36-jadvalda keltirilgan.

Oqartirilgan paxta sellulozasining sifat ko'rsatkichlari

*36-jadval*

t/r	Ko'rsatkichlar nomi	Mé'yori	Tekshirish usuli
1	ПРА tegrimonida оShR gacha maydalagan-dagi, uziish uzunligi, kamida, km	60 3,5	GOST 13525.1
2	Oqligi, %, kamida	76	GOST 7690
3	Iflosligi – 1m <sup>2</sup> yuzadagi dog'lar soni, dog'lar yuzasi: 0,1 dan 1,0 mm <sup>2</sup> yu-qori bo'lgani, ko'pi bilan; 1,0 dan 2,0 mm <sup>2</sup> yuqori bo'lgani, ko'pi bilan; 2,0 dan 3,0 mm <sup>2</sup> yuqori bo'lgani, ko'pi bilan.	70 5	GOST 14363,3
4	Namligi, %, ko'pi bilan	12	GOST 16932



52-rasm. Qog'oz qilish texnologiyasi: 1, 2 – Gr - 1 2 birinchi va ikkinchi vertikal gidromaydalagichlar; 3 – G-3 uchinchi gidromaydalagich; 4,7 – B-1, B-4 nuqsonli massalar uchun hovuzlar; 5,6 – B - 2, B - 3 – qabul havuzlar; 8,9,11,12 – disli tegirmonlar; 10 - SGM – yuqori konsentrasiyalı massani tozalagich; 13 – massa toshib turadigan kichik bak; 14, 15 – B-5, B-6 – maydalangan massa saqlaydigan hovuzlar;

16 – B – 7 – kompozitsiya hovuzi; 17,18 – A – 1, A-2 – aralashtiruvchi hovuzlar; 19 – konus shaklidagi tegirmon; 20 – massa konsentratsiyasini moslab turuvchi; 21 – SVS – tebratib saralovchi;

22,23 – bir tekis balandlikda ushlab turuvchi baklar; 24 – fortrop; 25 – vertikal tola tugunlarini tutgich;

26 – QQM; 27 – ho'l nuqsonli massalar gauch-aralashtirgich; 28 – vakuum nasos; 29 – aralashtiruvchi nasos; 30 – markazdan qochirma nasos

Massa 20–30°ShR gacha maydalangach, u diskali tegirmonlarga yuboriladi. Tegirmonlar soni 5 ta, bulardan 4 tasi bitta liniyada, bittasi — ikkinchi liniyada joylashgan. 30–60°ShR gacha maydalangan massa, massa toshib turadigan kichik bak oraliq hovuzga beriladi. Hovuzlarning har birining sig'imi 30 m<sup>3</sup>. Bu hovuzlardan massa aralashtiruvchi kompozitsiyali hovuzlariga beriladi. Kompozitsiya hovuzlarning sig'imi 25 m<sup>3</sup>, bu hovuzlarga kanifol suti va kaolin suspenziyasi quyuladi.

QQM va ko'ndalang qirqich mashinalaridan chiqqan qog'oz chiqindilar 3-, sig'imi 2,5 m<sup>3</sup> lik gidromaydalagichda maydalaniadi. Maydalangan massa sig'imi 17 m<sup>3</sup> lik yig'uvchi bakka beriladi.

So'ngra, nasos yordamida quyuq massani saralab, chiqindi qog'ozga mo'ljallangan diskali tegirmonga beriladi. Maydalangan massa avval oraliq bakka, keyin sig'imi 25 m<sup>3</sup> lik kompazition hovuzga beriladi. So'ngra mashina hovuziga quyiladi. Mashina hovuzidagi massaga aluminiy sulfati eritmasi qo'shilib aralashtiriladi, konus shaklidagi tegirmondan o'tkaziladi. Massani maydalinish darajasini 45–90°ShR, konsentratsiyasini 1,5–1,9 %ga keltiriladi. Massani suyultirish uchun QQM setka tagi aylanma suvidan foydalaniladi. So'ngra, vixrli tozalagichlar orqali tozalanib, massa QQMni bosim yashigiga quyiladi. Bosim yashigida massa konsentratsiyasi 0,5–0,8 %ni tashkil etadi.

Massani tozalash jarayonida yirik selluloza tugunchalari, mashina hovuzidagi selluloz bilan qayta tozalanish uchun, yana mashina hovuziga yuboriladi. Bosim yashigiga unislok massa, setka eni bo'yicha bir tekis taralish uchun, bir xil bosimda QQM setkasiga uzluksiz oqizib turiladi. Ko'pikni kamaytirish uchun, bosim yashigi ustiga yumshatilgan suv purkalib turiladi. Uzluksiz harakatdagi QQM setkasiga oqib tushayotgan massani suvi so'rilib, qog'oz polotno shakllanadi. Setkaga oqib tushayotgan massani tezligi setka tezligidan kamroq bo'lishi kerak. Setka kengligidagi massani eni va polotnodagi tolalarni bir tekis tarqalishini, maxsus mashina elementlari orqali baravar ushlab

turiladi. Qog'oz polotnoni suvsizlantirish mashinani registr qis-midagi so'rvuchi yashiklar va registr valiklari orqali bajariladi. Aylanma suv setka tagi suvida yig'iladi. QQMda qog'oz polotnoni suvsizlantirish gauch-valda tugaydi, shu bilan QQMda shakllash ham tugaydi.

So'rvuchi vallaridan keyin, qog'oz polotnosini suvsizlantirish jarayonining davomi mashinani zichlash, presslash qismilariiga beriladi. Natijada, polotnoni quruqligi 32–38 %ni tashkil etadi. Presslash jarayonidan keyin, selluloza polotnosini QQMning quritish barabonlariga uzatiladi, bu yerda polotnoni namligi 12 %gacha quritiladi.

Quritgich barabonlari va kalandrlardan keyin polotno tamburga o'raladi. Sö'ngra qog'oz ko'ndalang qirqish stanogiga beriladi. Tayyor mahsulot ГОСТ 1641–75 da ko'rsatilgan usul bo'yicha qirqilib o'rabb taxlanadi.

Daftarlар uchun qog'oz, quyidagi o'lchamlarda qirqilib o'rabb taxlanadi:

to'rtburchak shaklida: 420 x 600; 600 x 840; 620 x 860; 620 x 880; 640 x 840; 700 x 840 mm;

rulonlarda: 420; 600; 625; 640; 700; 840; 1050 mm.

### Daftar uchun tayyorlangan qog'ozni sifat ko'rsatkichlari

*37-jadval*

t/r	Ko'rsatkichlar nomi	Me'yor	Tekshirish usuli
1	1 m <sup>2</sup> qog'oz massasi, g	55 ± 2,5; 60 ± 4; 65 ± 3; 70 ± 2	ГОСТ 13199
2	Yelimlanish darajasi, mm, kamida	1,2	ГОСТ 8049
3	Uzulish uzunligi, m, kamida	2500	ГОСТ 13525.1

*jadvalning davomi*

4	Silliqligi, s, (kalandr-langan)	30 – 250	ГОСТ12795
5	Silliqliq, s, (QQMdan)	15	ГОСТ12795
6	Oqligi, %, kamida	77	ГОСТ7690
7	Xiraligi, %, kamida	85	ГОСТ8874
8	Iflosligi – 1 m <sup>2</sup> da dog'lar soni: yuzasi: 0,1 dan 0,5 mm <sup>2</sup> , ko'pi bilan; 0,5 dan 1,0 mm <sup>2</sup> , ko'pi bilan; 1,0 dan 2,0 mm <sup>2</sup> , ko'pi bilan.	150 10 5	ГОСТ13525.4
9	Kul miqdori, %, ka-mida	8	ГОСТ7629
10	Namligi, %	4 ± 1,5	ГОСТ13525.1 9

## X bob. QOG'oz va KARTONLARGA ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI

Qog'oz va kartonlarga ishlov berishdan maqsad — ularning iste'mol xossalari yaxshilashdan iborat. Qog'oz va kartonga ishlov berish natijasida sellulozali kompozitsion material olinadi (SKM).

Kompozitsion material deb — ikkita va undan ko‘p komponentlardan tashkil topgan, ularning har biri o‘z fazasiga ega bo‘lgan va o‘zining mustaqil vazifasini bajaruvchi materialga aytiladi. Komponentlar bilan birikish tabiatи har xil bo‘lishi mumkin. Natijada materialning va undan olingan mahsulotlarning barcha xossalari keskin o‘zgartiradi.

Kompozitsion materiallar quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topgan: armirlovchi, bog‘lovchi, uzlusiz matritsa hosil qiluvchi, to‘ldiruvchi va maxsus modifikatsiyalovchi qo‘sishchalar.

Sellulozali kompozitsion material (SKM) — bu sellulozali komponent bilan (selluloza, qog'oz, karton) tabiiy yoki sintetik polimerlarni qo‘sish natijasida olingan material. Sellyulozali komponent armirlash funksiyasini bajarish mumkin. Undan tashqari, armirlash elementi sifatida silluloza fibrillari, tolalar yoki fibrillardan olingan tolalar, qog'oz va kartonlarning tolalari bo‘lishi mumkin. Sellulozali komponentlarning ustunlik tomonlari juda katta:

- selluloza fibrillari juda mustahkam;
- gidrofobligini yuqoriligi;
- so‘rish qobiliyati;
- termoplastikligini yo‘qligi;
- xomashyo bazasining ko‘pligi;

— ishlatalilgan materialni ikkinchi marta qayta ishlashini osonligi.

Polimer esa, bog'lovchi vazifasini bajarib, sellulozali komponentning kamchiliklarini yo'qotadi:

- mexanik va elastiklik xossalarini oshiradi;
- nam holdagi mustahkamligining pasayishini kamaytiradi;
- maxsus xossa beradi va boshqalar.

Hozirgi vaqtida ko'p turli qog'oz va kartonlar, sellulozali kompozitsion materiallar hisoblanadi, bularning ulushi dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan qog'oz va kartonlarning yarimidan ko'piga to'g'ri keladi.

Qog'oz va kartonlarga ishlov berish va qayta ishlash texnologiyasini mexanik va fizik-kimyo usullariga bo'lish mumkin (38-jadval). Mexanik texnologiyaga shaklini o'zgartirish, materialning fizik xossalarini o'zgartirish (tarkibini va strukturasini o'zgartirmagan holda), jarayonlar kiradi. Fizik-kimyoviy texnologiyaga bu tarkibini, struktura xossalarini, ya'ni moddani ichki strukturasini, uning nadmolekular strukturasini, tupdan o'zgartirish kiradi.

#### Ishlov berish va qayta ishlash jarayonlari klassifikatsiyasi

38-jadval

Jarayon	Tex-nologiya	Texnologik jarayonlar parametri		
		selluloza uchun	qog'oz uchun	karton uchun
Ishlov berish	Mexanik	Papkali quruq sellulozani titish (atsetillashdan oldin)	Krepirlash, siqish, kalandrlash	Gofrlash
	fizik - kim-yoviy	Qog'oz hosil qiluvchi tolalarni kimyoviy modifikatsiyalash	Kimyoviy modifikatsiyalash, qoplama berish, shimanish	Kimyoviy modifikatsiyalash, polimerli

*jadvalning davomi*

		(qisman oksietil-lash)	dirish, metal-lash, bosish	qoplash, shimdirish
Qayta ishlash	Mexanik	—	Formatlarga qirqish (A4, A5), qoplarga, konvertlarga, daftarlarga, bloknotlarga, gilzalarga, shpullarga ishlov berish	Yashiklarga, korobkalarga, kombiblok-larga qayta ishlash
	Fizik - kim-yoviy	Selluloza efirini va kukunli sellulozalar olish	Pergament, qatqatli plastik olish	—

### 10.1. Qog'oz va kartonlarni mexanik qayta ishlash texnologiyasi

Qog'oz va kartonlarni mexanik texnologiyasiga kiradigan jarayonlar: kalandrlash, yumshoq kalandrlash, loshlash (лошение), muhrlash (тиснение) krepirlash va hokazo.

### 10.2. Superkalandrda ishlov berish

Qog'oz va kartonlarni quritish jarayonida qisqarish kuchlanishi hosil bo'lib, ularning asosini va qoplamasini qisqartirishga olib keladi. Bu geometrik o'lchamlarining qisqarishga, yuza notejisligiga va g'adir-budirlikka olib keladi.

Yuzada silliqlik, losk hamda qog'oz va karton qalinligini tekislash uchun superkalandrda ishlov beriladi. Superkalandrda qog'oz polotnosti metalli va elastik vallar orasida ishlov beriladi. Elastik vallar, siquvchi kuchlar ta'sirida siqiladi, bunda kontakt

maydoni hosil bo'lib natijada, issiqlik ajralib chiqadi, bu issiqlik yuzani tekislashga imkon yaratib beradi. Mashina kalandriga qaraganda, superkalandrning kontakt zonasini kengligidagi qog'oz bilan elastik val orasidagi chiziqli bosim 4–5 marta katta. Shuning uchun uning ta'sir doirasi yuqori. Valning elastikligi qog'ozning g'ovak va zich struktura elementlariga birday ta'sir etadi.

Superkalandr tuzilishi: mustahkam stanina, uning ustida ustma-ust joylashgan 6 ta dan 20 ta gacha vallar. Kalandrlarning taxminiy diametri: pastki tayanch — 350–450, o'rta metalli — 200–250, qog'ozli — 300–400 mm.

Ikkala tomoni bir xil silliqlikda bo'lган qog'oz olish uchun, kalandr o'rtasiga ikkita, orasi to'ldirilgan val, tepa va pastki vallar metalldan yasalgan katta diametrali va bobirovka. Yubqa bo'rangan (мелованный) va og'ir texnik qog'ozlarni — tarkibida jun tolalar bo'lган qog'oz bilan to'ldirilib kalandrlanadi, yuqori sifatli bo'rangan qog'ozlarni — maxsus navli momig' bilan kalandrlanadi. Superkalandrlar, kalandrlanadigan qog'oz rulonini o'rnatish uchun «raskat» qismi bo'ladi, ishlov berib o'tab oladigan qismi — nakati — qog'oz o'rash uchun va qog'oz polotnoni kuch bilan tortib turish uchun tormoz qurilmaga ega. Superkalandr pastki vali orqali harakatlanadi, agar ko'p valli bo'lsa — uchinchi yoki beshinchi val harakatga keltiriladi, ular reduktor orqali elektr dvigatellarga ulangan. Superkalandr tezligi: sifatli og'ir massali qog'ozlarga ishlov berishda — 100–400 m/min, yubqa bo'rangan qog'ozlarga esa — 1000–1500 m/min.

### 10.3. Yumshoq kalandrlarda ishlov berish

Yumshoq kalandr qog'oz qilish mashinasiga o'rnatiladi. U qog'oz polotnoga ishlov berishga xizmat qiladi, shu bilan superkalandrda oxorlashni osonlashtiradi. Yumshoq kalandrning eng katta yutug'i  $1 \text{ m}^2$  qog'ozning notejisligini kompensatsiyalash-

dan iborat. Qog'oz polotno zichligini, qalinligini tekislab beradi. Ayniqsa, qog'oz yuqori temperaturada va nam holda bo'lganda ishlov yaxshi natija beradi. Yumshoq kalandrlash, oddiy kalandrlashga qaraganda qog'ozning mexanik xossalarini yaxshi saqlaydi, changlanishini kamaytiradi. Xiraligi esa atigi 0–1 %, oqligi 0–5 %ga pasayadi. Gazeta, bo'rlangan qog'ozlar va karton olishda, yumshoq kalandrlangan qog'oz polotno yuqori darajada oxorlanadi.

Yumshoq kalandr vallari yuzasini qoplashda sintetik polimerlar bilan armirlangan material ishlatiladi. Material, pishiqligi va yuzasining silliqligi bilan ajralib turadi. Bu 47,5 MPa va 121°C dan yuqori temperaturaga chidamli. Vallarining qattiqligi, Shoru birligi bo'yicha, 75–95 ga teng.

Yumshoq vallarni quyidagi yirik firmalar ishlab chiqaradi:  
«Voith» (Germaniya), «Metso» (Finlandiya) va «Beloit» (AQSh).

«Metso» firmasi yumshoq kalandrlarning bir nechta xillarini ishlab chiqargan: ikki valli – OptiSoft va OptiNit, to'rtvalli OptiGloss.

Kalandrlash jarayonining parametrlari:

chiziqli bosim 350 kN/m dan yuqori;

tezligi 1500 m/min dan yuqori;


yuza temperaturasi 200°C dan yuqori.

Vallarining qattiqligi, Shoru birligi bo'yicha, 75–95 ga teng.

#### 10.4. Qog'oz va kartonlarni loshlash

Qog'oz (karton) yuzasiga yuqori losk berish maqsadida, friksion yoki loshlash kalandrlarida ishlov beriladi. Yuqori loskli qog'oz yoki karton (rangli silliq qog'oz) olish uchun friksion kalandr qo'llaniladi. Oddiy superkalandrda qog'ozning silliqlik darjasи, asosan, chiziqli bosimga bog'liq bo'lsa, friksion kalandrda chiziqli bosim asosiy hisoblanadi. Friksion kalandrlarning vallari har xil tezlikda aylanadi, natijada vallar orasida katta

ishqalanish sodir bo'ladi. Vallar tezligidagi farq qancha katta bo'lsa, qarshilik ko'rsatishi shuncha katta bo'ladi va qog'oz sililiqligi va loski yuqori bo'ladi. Frikcion kalandrlar ikki- uch va to'rt valli bo'ladi. Qog'oz va kartonlarning ba'zi bir turlarini ishlab chiqarishda — yuzasiga yuqori losk berish uchun loshlovchi kalandrlar (53-rasm) qo'llaniladi.



**53-rasm. Loshlovchi kalandr sxemasi:**

- 1 — xromlangan silindr; 2 — siquvchi vallar;
- 3 — qog'oz yurituvchi valik.

Loshlovchi kalandr yuzasi silliq qilib, xromlangan silindr (diametri 1–4 m) va bir yoki ikki siquvchi po'latdan yasalgan, diametri kichikroq, vallardan iborat. Qog'oz va kartonlarning turlariga qarab, siquvchi vallar, silindr eni bo'ylab bosimni biday ushlab turadi. Silindr va vallar 130–300°C temperatura-gacha qizdiriladi. Siquvchi vallarning yuzasi polimer material bilan qoplangan.

## **10.5. Qog'ozlarni yuzasida har xil figuralar hosil qilish uchun siqish**

Qog'oz fakturasini o'zgartirish uchun uning yuzasiga har xil figuralar (shakl va rasmlarni), maxsus siquvchi vallar yordamida bajariladi. Bu amal, asosan dekorativ va gulqog'ozlar olishda bajariladi. Maqsad, odamlarning ko'zlariga, qog'oz yuzasida bo'rtib turgan gullar yoki boshqa shakllar chiroyli ko'rinish uchun bajariladi.

### **10.5.1. Qog'oz va kartonlarni fizik-kimyoviy qayta ishlash texnologiyasi**

Qog'oz va kartonlarni fizik-kimyoviy qayta ishlash texnologiyasiga kiradigan jarayonlar: yuzasiga qoplama surtish, shimdirish, yelimlash, metallash, bosish va boshqalar.

Qog'oz va kartonga qoplama surtish jarayonlaridagi fizik-kimyoviy hodisalar. Harakatdagi qog'oz polotnoga qoplovchi kompozitsiya surtiladi. Kompozitsiya tarkibi – polimerlar, pigmentlar, maxsus texnologik qo'shimchalardan tashkil topgan ko'p komponentli sistema.

Qoplama kompozitsiya quyuq oquvchan eritma holatida bo'ladi. Quyuq sistema – polimerlarni eritish yoki suyultirish bilan yoki lateks yoki disperslardan olinadi. Asosga musta'kkam biriktirish har turli adgezivlarni qo'llash orqali ta'minlanadi:

oquvchan holatdagi polimerlarni qog'ozning g'ovaklariga mexanik adgeziyalash, so'ngra usha joyda qotirish;

sellulozaning funksional gruppalariga maxsus adgeziyalash yoki qog'oz polotno yuzasidagi selluloza fibrill elementlariga fizik yoki vodorod bog'lari orqali biriktirish;

qog'oz polotno yuzasiga surtilayotga polimer makromolekulasini qog'oz polotnodagi selluloza bilan, xossalaringning yaqinligi hisobiga, adgeziyalash.

### **10.5.2.Qog'oz va kartonlarga ishlov berish uchun qo'llaniladigan polimerlar**

Polimerlar, qog'oz polotnoni qoplash yoki unga shimidirishda asosiy komponent bo'lib, pylonka hosil qiluvchi, bog'lovchi yoki yelimlovchi modda hisoblanadi. Qog'oz va kartonlarga ishlov berishda, polimerlar: eritma, dispers, latekslar, emulsiya, suyulma, pylonka, tolalar, kukun va mikrokapsullar holatida qo'llanilishi mumkin.

Pylonka hosil qiluvchilarga—qog'oz va karton yuzasida uzlusiz, mustahkam, elastik pylonka, SKMni himoyalovchi xossaga ega bo'lgan (issiq-, gaz-, havo-, suv-, bug' o'tkazmaydigan, atmosfera va kimyoviy ta'sirlarga chidamlik) qoplamlarni germetik holatlovchi, yelimalash imkoniyatiga ega bo'lgan polimerlar kiradi.

Bog'lovchi polimerlarga — qog'oz va kartonlarning yuzasida mustahkam bog'langan qavat hosil qiluvchi kompozitlar kiradi. Bog'lovchi kompozit SKMga kerakli qovushoqlik va qoplama suspenziyani reologik xossalarini, qog'oz va kartonlarning fizik-mexanik, optik, tipografik bosish xossalarini ta'minlaydi.

Bog'lovchilarga qo'yilgan talablar:

- pigment zarrachalariga yuqori darajada yelimlanishi;
- qog'oz asosiga yuqori adgeziyalanishi;
- suvni optimal ushlashi;
- yaxshi disperglanuvchanlik;
- bo'rlovchi suspenziya komponentlari bilan yaxshi aralashishi;
- optimal qovushoqlik va reologik xossalar;
- ko'piklanmaslik;
- mexanik va temperatura ta'siriga ustuvorlik;
- nurga chidamlilik va oqligini yuqori darajada saqlashlik;
- biologik ustuvorlik;
- yuqori fizik-mexanik, tipografik bosish va optik xossalarni ta'minlash;

— arzonlik.

Bog'lovchi polimerlarga qo'yilgan katta talablarni, oson yo'l bilan ta'minlash uchun gidrofil va gidrosob, tabiiy va sintetik polimer — bog'lovchilardan soydalanish lozim.

Quyida «BASF» firmasi, har xil bog'lovchi polimerlarning bog'lash qobiliyatini, kazein bog'lovchining qobiliyatini shartli ravishda 1 deb olib, har xil bog'lovchi polimerlarning bog'lash qibiliyatini keltirgan:

Kazein	1,0
Kraxmal	0,5 – 0,7
Karboksimetilselluloza	1,0 – 1,5
Polivinil spirit	1,2 – 2,0
Latekslar	1,0 – 1,6
Sintetik bog'lovchilar	1,0 -1,5

Yelimlovchi yoki adgeziyalovchi polimerlarga — ikki yoki undan ortiq bir xil yoki har xil materiallarni birlashtiruvchi polimerlar kiradi.

**Suvda eriydigan polimerlar.** Bularga kazein (GOST 17626 – 81), suyak yelimi (GOST 2067 – 97), jelatin (GOST 11293 – 89), kraxmal va uning modifikatsiyalari (GOST 10163 – 76), sellulozaning oddiy esirlari, polivinil spiriti (PVS), (GOST 10779 – 78), poliakrilamidlar (PAA) kiradi.

Kazein — traditsion ishlatib kelingan polimer, u bo'rangan va dekarativ qog'ozlarda bog'lovchi sifatida qo'llaniladi. Lekin oxirgi vaqtarda kam qo'llaniladigan bo'lib qolgan.

Kazein fosforproteyinlardan bo'lib, kimyoviy formulasi  $C_{17}H_{274}N_{44}SPO_{55}$ . Kozein sutdan olinadi. Kazein suvda bo'kadi, kuchli ishqoriy yoki kislotali muhitda yaxshi eriydi. Odatda, uni ishqoriy muhitda, 25% li ammiak eritmasidan qo'shib eritadi. Ammiak sarfi, kazeinga nisbatan, 12–15 % tashkil etadi. 55–60°C temperaturada 30 minutda, sovuq holda 3 soatda eriydi.

**Kazeinning ustunlik tomonlari:**

- yuqori adgeziyalanishi;
- yaxshi pylonka hosil qilishi;
- qoplamada pigment rangiga kam ta'siri.

Kazein bilan qoplanguanda pylonkasi tiniq, bog'lanishi va oxorlanishi oson kechadi.

**Kazeinning kamchiliklari:**

- quruq va eritma holida beqaror;
- noxush hidli;
- eritmasi va suspenziyasi oson ko'piklanadi.

Qoplamasi mo'rt, uni yumshatish uchun plastifikator qo'shish lozim.

Suyak yelimi va jelatinni, yog'sizlangan hayvon suyaklaridan yoki mezdirdan olinadi. Suyak yelimi va jelatinni 50–60 °C suvda eritib tayyorlanadi. Suyak yelim hozirgi vaqtida ba'zi bir qog'ozlarni yelimlashda (adgeziya) ishlatiladi. Texnik jelatin — foto qog'oz asosida bog'lovchi sifatida qo'llaniladi.

Suyak yelimning asosiy kamchiligi — biologik beqarorlik. 16 % namlikda ayniydi, temperaturasi 15°C dan oshganda, eritma ko'piklanadi.

Hosil qilingan qoplamaning mustahkamligi past. Quritganda yuqori kuchlanish hosil qilganligi sababli ko'p kirishadi.

Kraxmal va uning modifikasiyasи. Hozirgi vaqtida bu polimer qog'oz sanoatida keng qo'llaniladi. Offset bosishda, offset texnikasida qog'oz yuzasini yelimlovchi — pylonka hosil qiluvchi, pigmentlangan, bo'rangan qog'ozlarni olishda bog'lovchi sifatida, qop, gofrikarton va korobkalar olishda yelimlovchi modda sifatida ishlatiladi.

Kraxmal ba'zi o'simliklar tarkibida mavjud bo'lib, uglevoddan tashkil topgan. Tabiiy kraxmalni kartoshkadan, bug'doy donidan, jo'xori, guruch donlaridan olinadi. Ularning shakli va o'lchamlari har xil (39-jadval).

## Har xil kraxmal granullarining xarakteristikasi

*39-jadval*

Parametr	Kraxmal turlari			
	kartoshka	jo'xori	bug'doy	arpa
Xomashyo turi	kluben	don	don	don
Granul diametri, mkm	5–100	2–30	1–45	2–30
Yelimlanish temperaturasi, °C	56–59	62–64	52–64	58–63

Kraxmal donqlari tarkibiga, ikkita polisaxarid: amiloza va amilopektin kiradi. Ularning polimerlanish darajasi va elementar zveno bog'larining bir-biri bilan bog'lanishi har xil. Polisaxaridning tarkibi  $\alpha$ -D-angidroglukopiranoza qoldiqlaridan iborat. Umumiy formulasi  $(C_6H_{10}O_5)_n$ . Amiloza chiziqli makromolekula bo'lib, tarkibida 200–4000.

D-glukoza qoldiqlari, ular bir-biri bilan 1,4- $\alpha$ -glukozid bog'lari bilan bog'langan. Tarmoqlangan joylarida – 1,6-bog'ni tashkil etadi. Amilopektin makromolekulasi kuchli tarmoqlangan bo'lib, 600–10000 glukoza qoldiqlaridan tashkil topgan, ular bir biri bilan 1,4-  $\alpha$ -glukozid bog'lar orqali bog'langan. Tarmoqlangan joylarida – 1,6-bog'lar orqali bog'langan. Amiloza va amilopektin bir-biridan fizik-kimyoviy xossalari bilan farqlanadi. Bu farqlar ularning tuzulishidagi farqlar natijasi hisoblanadi.

Tabiiy kraxmal har xil xomashyolardan olinishiga qarab, tarkibidagi amiloza va amilopektin miqdori ham o'zgaradi. Kraxmalning asosini aminopektin tashkil etadi (83 %). Tabiiy kraxmal sovuq suvda erimaydi. Faqat suspenziya hosil qilib cho'kadi. Suspenziyani qizdirganda, suv molekulasi mitsellar orasiga kirish natijasida, asta-sekin eriy boshlaydi va shu tariqa uning strukturasi o'zgarib boradi. Temperaturasi kleysterlanish darajasiga yetganda, donachalarining o'lchamlari kattalashib

bo'kadi, so'ngra yorilada. Natijada, kleysterlanish sodir bo'ladi. Kleysterlanish temperaturasi, xomashyo turlariga qarab, bir-biridan farq qiladi (2-jadval).

Modifikatsiyalanmagan tabiiy kraxmalning ikkita kamchiligi bor: birinchisi konsentratsiyasi past holda ham qovushoqligi juda yuqori, ikkinchisi – termodinamik beqarorligi. Tabiiy kraxmalning bu kamchiliklari keng ishlatishga imkon bermaydi.

Bu kamchiliklar kraxmalni modifikatsiyalash yo'li bilan yo'qotiladi. Modifikatsiyalash jarayoni ishlov berish sharoitiga bog'liq. Modifikatsiyalash: oksidlash, depolimerlash, gidroksil gruppalarini eterifikatsiyalash hamda amilopektinni qisman yemirish hisobiga amilozalash. Bu amallar kraxmalning kimyoviy, fizik-kimyoviy xossalarni o'zgartirishga olib keladi. Kraxmal eritmasini reologiyasining xossalari o'zgaradi – qovushoqligi pasayadi, stabilligi oshadi va boshqalar. Kraxmalni modifikatsiyalashni asosiy usullari ikkita – termik va kimyoviy modifikatsiya.

Termik modifikatsiya asosan kraxmal eritmasining sifatini yaxshilaydi. 120°C da kraxmalning yaxshi eritmasi (kleyster) olinadi.

Kimyoviy modifikatsiya kraxmal eritmasining ko'p xarakteristikalarini yaxshilaydi: reologik xossalari yaxshilanadi, qovushoqligi pasayadi, stabilligi oshadi, kraxmalni adgeziyalanish xususiyati oshadi, qoplama elastikligi oshadi. Kraxmalni kimyoviy modefikatsiyalash uni har xil kimyoviy reagentlar bilan ishlov berishga asoslangan. Kimyoviy modifikatsiyalashning bir nechta usullari mavjud.

*Oksidlash.* Kraxmalni gipoxloridlar bilan ishlov berib oksidlash. Oksidlanish natijasida kraxmalning anionli xossasi oshadi. Oksidlangan kraxmal eritmasi qog'oz qalnligiga chuqrorroq kirib boradi. Bu hol qog'ozni pishiqligini oshirishga olib keladi.

*Kraxmalni kislotali muhitda modifikatsiyalash.* Kraxmal sus-

penziyasi kislotali muhitda, temperaturasi kleystrlash temperaturasidan past temperaturada ishlov berib olinadi. Natijada, eritmaning reologik xossasi yaxshilanadi.

*Kationli* kraxmal oxirgi yillarda keng qo'llaniladigan bo'ldi. Modifikatsiyalash — kraxmal molekulasiga musbat zaryadli funksional gruppa kiritishdan iborat (masalan, to'rtlamchi amoniy va fosfor, uchlamchi amino-, sulfo- va boshqa gruppalar). Kationli kraxmal qog'oz pishiqligini oshirishda, to'ldiruvchilarni ko'proq ushlab qolishda, yuza yelimlashda va bo'rashda bog'lovchi sifatida qo'llaniladi.

*Sellulozaning oddiy efirlari.* Bu sun'iy polimer bog'lovchi, parda hosil qilish va yuza yelimlash xossalariiga ega. Bular gul qog'oz ishlab chiqarishda, bo'rash jarayonida yuza yelimlovchi sifatida ishlatiladi.

*Karboksimetsellulozani natriyli tuzi.* Na—KMS va metilsellulozalar (MS) qog'oz va karton ishlab chiqarishda keng qo'llaniladigan sellulozaning oddiy efirlari. Na — KMS — ishqoriy sellulozaga monoxlor sirka kislota ta'sir ettirib, MS — ishqoriy sellulozaga dimetilsulfat ta'sir ettirib olinadi. Bu oddiy efirlarning asosiy ko'rsatkichlariga — eterifikatsiya va polimerlanish darajasi, suvda erishi va tozaligi kiradi. Suvda yaxshi eriydigan efirning eterifikatsiya darajasi 0,3—0,8. Qog'oz yuzasini yelimlash uchun eterifikatsiyalanish darajasi 0,6—0,8 bo'lgan mahsuloti ishlatiladi.

Na—KMSning yuqori konsentrangan eritmasi qog'oz yuzasida moy o'tkazmaydigan parda hosil qilish uchun ishlatiladi. Past konsentrangan eritmasi — qog'ozning changlanish va yuza yulinishini kamaytirish uchun ishlatiladi.

Metilselluloza asosan latekslarning qovushoqligini kamaytirish uchun va boshqa qoplama suspenziyalarga qo'shimcha sifatida qo'llaniladi. Bo'rash suspenziyasiga MS qo'shganda olin-gan mahsulot sifat ko'rsatkichlari stabillashadi.

*Polivinil spirti (PVS).* Sintetik PVSni polivinilatsetatni ishqor ishtirokida gidroliz qilib olinadi. PVSning polimerlanish

darajasi 60–90 va tarkibida 20 % bo'lgani eng yaxshi parda hosil qiladi va yaxshi yelimlanadi. PVS eritmasi issiq suvda 80–90°C eritib tayyorlanadi.

*Poliakrilamid (PAA).* PAA qog'oz ishlab chiqarishda, uning pishiqligini oshirish va tarkibidagi to'ldiruvchilarni saqlab qolish uchun keng qo'llaniladi.

*Latekslar.* Qog'oz ishlab chiqarishda qo'llaniladigan latekslar:

- tabiiy lateks;
- sintetik lateks;
- sun'iy latekslar;
- modifikatsiya qilingan latekslar.

Latekslar — bu suvli kolloid dispers polimer bo'lib, zarrachalar o'lchami 50–300 nm, stabillangan, sirt-faol gidratlovchi gruppali modda. Qovushoqligi — 500–1000 mPa. s, zichligi — 1 g/sm<sup>3</sup>. Saqlanish muddati, tarkibidagi qo'shimchalar va to'ldiruvchilar miqdoriga qarab, bir necha oy.

*Tabiiy lateks.* Tarkibida kauchuk moddasi bo'lgan daraxtlarda bo'ladigan lateks — 1,4-sis-poliizopren. Uning miqdori 30–40 % yetadi.

*Sintetik latekslar.* Ular emulsion polimerlash yo'li bilan olinadi. Sintetik latekslar polimerni tarkibi yoki monomeriga qarab klassifikatsiyalanadi. Ularga: butadien-stirolli, tarkibi karboksilli, butadien nitrilli, akrilatli, vinilatsetatli (GOST 18992-80) va boshqalar.

Butadien-stirol asosidagi sintetik latekslar emulsion usuli bilan polimerlab olinadi.

Akrilatlar asosidagi sintetik latekslar — emulsion polimerlash usuli bilan akrilatlar, metakrilatlar va vinilatsetat so-polimerlaridan olinadi (GOST 13522-78). Poliakrilatlar — past modulli elastomerlar hisoblanadi. Tipik shisha-cho'zilishi nol atrofida.

Vinilatsetat sopolimeri asosidagi latekslar — bu sintetik lateks bo'lib, uni odatda polivinilatsetat dispersi deyiladi.

*Sun'iy latekslar.* Bu latekslar kauchuklarga asoslangan (SKS-65GP, GOST 10564-75; SKS-50GPS, GOST 14053-78; SKS-30, GOST 23492-83e). Ularni suvda, qisman polimerlangani, emulgator ishtirokida, disperglab olinadi. Emulsiyadan erituvchini haydash yo'li bilan konsentratsiyasi oshiriladi. Sun'iy latekslarning o'lchamlari sintetik latekslardan yirikroq.

*Modifikatsiyalangan latekslar.* Bular kimyoviy usul bilan modifikatsiyalangan, masalan, vulkonizatsiyalangan latekslar, galogenlangan va gidrogalogenlangan, lateks — smolali kompozitsiyalar hisoblanadi.

Ko'p holatlarda qog'oz va kartonlarga ishllov berishda sintetik latekslar qo'llaniladi. Sintetik latekslar termoplastik, shuning uchun quritish va qizdirib kalandrlash jarayonlarida qoplama biroz suyuilib, qog'oz yuzasini to'liq yopadi. Shu tufayli, qog'ozning changlanishi kamayadi, suvga chidamligi oshadi.

Latekslarning kamchiligi — ko'piklanishi va hidlanishi.

### **10.5.3. Qog'oz va karton yuzasini yelimlovchi polimerlar dispersiyasi**

Yuza yelimlash — bu yelimlovchi pressda qog'ozga ishllov berishdir. Natijada, qog'oz optimal ravishda har xil suyuqliklarni so'rish xossasiga ega bo'ladi. Bulardan tashqari, yuza yelmlanishi natijasida qog'ozning struktura — mexanik va poligraf bosish hamda optik xossalari yaxshilanadi.

Disperslar polimerning hidrofob yadrosi — sfera shaklidagi sintetik polimerlarning zarrachalari (zarrachalar o'lchamlari 70-200 nm) va kolloid zarracha bilan himoyalangan. Disperslarning qo'llanish doirasi keng (40-jadval).

**Sintetik disperslarning yuza yelimlashda qo'llanilish doirasi**  
**40-jadval**

Qog'oz va kartonlar turi	Yuzaga yelimlash uchun qo'llanilishi, %
Ofset qog'ozni	50
Bo'rlangan qog'oz va karton	20
Ikkilamchi tolalardan o'rash uchun karton	15
Maxsus qog'ozlar turi uchun	7

**Kremniyorganik polimerlar.** Kremniyorganik polimerlar – elementorganik polimerlar bo'lib, tarkibida kremniy bor. Qog'oz va kartonlarga ishlov berishda kremniykislorod (siloksanli) bog'li polimerlar ham ishlatiladi. Ularni siloksanlar ham deb yuritiladi. Xarakterli formulasi:  $\text{SiR}_2-\text{O}-\text{SiR}_2$ . Siloksan bog'lar – qoplama qattiqlik beradi, polimerning uglerod gruppalarini qoplamani elastiklik xossasini oshirib beradi. Siloksanlar alifatik, aromatik va uglerodning gologenli hosilalarida, keton va eftillarda eriydi. Silikonlar kimyoviy turg'un: Si—O—Si—bog'lar faqat konsentrangan ishqor va kislotalarda yemiriladi.

Silikonlangan qog'oz olish uchun polimetilsilosanlar (GOST 13031-77) ishlatiladi. Olingan qog'oz o'rash, antiadgeziyal qog'oz (yopishqoq materialarni o'rash qilish uchun) ishlatiladi.

Silosanlar yaxshi parda hosil qilishligi bilan boshqa polimerlardan ajralib turadi. U fiziologik zararsiz, suv, ozon va issiqliq chidamli, yopishqoq materialarga yopishmaydi.

Silikonli qoplama eritma (toluol, ksilol) orqali suvli dispers bilan sutiladi. Qoplama tarkibiga qotiruvchilar va katalizatorlar kiradi.

**Termoplastik polimerlar.** Termoplastik polimerlar rasplav holida qo'llaniladi. Ular asosan parda hosil qiladigan va yelimalovchi modda—yelim—rasplav kompozitsiya holatda, o'rashda ishlatadigan qog'oz va karton olishda qo'llaniladi.

Termoplast sifatida qo'llaniladigan polimerlar: poliolifenlar – polietilen va polipropilen, parafin, serezin, sopolimerlar – etilenvinilatsetat, etilenbutilakrilat, etilenmetilakrilat va boshqalar.

**Polietilen** – oq rangli termoplastik polimer, granul holatda ishlab chiqariladi. Etilenni ikki usulda polimerlab olinadi:

- 1) yuqori bosimda (GOST 16337 – 77e);
- 2) katalizator ta'sirida, past bosimda (16338 – 85e).

Yuqori bosimli polietilenning zichligi past: 0,915–0,932 g/sm<sup>3</sup>, kristallik darajasi 40 dan 60 %gacha, past bosimli polietilenning suyuqlanish temperaturasi past 108–112°C.

Past zichli polietilen, pishiq va elastik parda hosil qiladi va 110–140 °C yaxshi yelimlanadi. Plyonkani mazasi va hidi yo'q. Yaxshi dielektrik xossaga ega. Par va suvlarni o'tkazmaydi, lekin kislorod va CO<sub>2</sub> ni o'tkazadi. Polietilen ishqor, kislota va organik erituvchilarga chidamli.

Past zichli polietilenning kamchiligi issiqqa (+80 °C) yaxshi chidamsizligi, qog'oz va kartonga nisbatan adgeziyясining pastligi. Past zichli polietilen parda bilan qoplangan qog'oz va kanonlar muzlatilgan oziq-ovqat mahsulotlarini o'rash uchun ishlatiladi.

**Polipropilen.** (GOST 26996–86). Murakkab strukturali, metil gruppali, fazo holida joylashgan, zichligi past (0,90–0,91 g/sm<sup>3</sup>) molekular massasi yuqori (80 000–20 000).

#### Yuqori bosimda olinadigan past zichlik polietilenning xarakteristikasi

*41-jadval*

Turi	Asosiy xossalari			
	suyuqlanish indeksi g/10 min *	zichligi, g/sm <sup>3</sup>	suyuqlanish temperaturasi, °C	Parchalanish temperaturasi, °C
A-qattiq	4,0–5,0	0,920–0,925	108–112	92–95

*jadvalning davomi*

B-yumshoq	7,0–8,5	0,917–0,919	106–108	86–90
C-juda yumshoq	12,0–15,0	0,915–0,918	104–106	80–85
* suyuqlanish indeksi – 190°C 10 minut davomida termoplastik polimerning oqqan miqdori, g.				

Polipropilenning polietilenden ustunligi issiqqa (160–170 °C), va moyga chidamliligi va pishiqligi. Kamchiligi sovuqqa chidamsiz, tez oksidlanadi. Bu kamchiliklar 5–10 % polietilen qo'shib yo'qotiladi.

**Polivinilxlorid.** Zichligi 1,4 g/sm<sup>3</sup>, oq amorf holidagi kukun. Polivinilxlorid polietilen va polipropilenden barcha ko'rsat-kichlari bo'yicha ustun turadi. Kamchiligi – temperatura 100°C dan oshganda parchalanib, vodorod xlorid ajralib chiqadi. Minus 10 °C da mo'rt holga kelib qoladi. Nam o'tkazmaydigan gulqog'oz olishda ishlatiladi.

**Parafin.** Parafin to'yingan uglevodlar aralashmasi ( $C_{19}H_{40}$  –  $C_{35}H_{72}$ ), molekular massasi 300–600. Suyuqlanish temperaturasi 50–54 °C. Parafin benzin, benzol, skipidarda eriydi. Odatda qog'oz va karton yuzasiga surtish uchun, suvdagi dispers yoki suyuqlangan holatida ishlatiladi. Asosan o'rash uchun ishlatiladigan qog'oz va kartonlarga ishlov berishda ishlatiladi.

Qog'oz va kartonlarning yuzasiga qoplash uchun serezin, etilenatsetat, etilenbutilikrat, etilenmetilakriatlar sopolimerlari ham qo'llaniladi.

**Qog'oz va kartonlarga ishlov beriladigan pigmentlar.** Pigmentlar mayda dispersli, eritmalarda erimaydigan noorganik va organik moddalar (GOST 19487 – 74). Bo'rlangan qog'oz va kartonlar, dekorativ qog'ozlar, gul qog'oz va maxsus qog'ozlarning yuzasiga pardoz berish uchun ishlatiladigan komponentlar hisoblanadi. Pigmentlarning asosiy vazifasi – optik va poligraf bosma xossalari hamda qog'oz va kartonlarning tashqi ko'rinishini yaxshilashdan iborat.

Pigmentlarga qo'yilgan talablar:

- yuqori darajada oqlik;
- bo'yoqlarning intensivligi;
- qog'oz xiraligini oshirish;
- zarracha o'lchamlarining optimalligi;
- pigment — bog'lovchi chegarasida faolligining pastligi;
- abrozivligini kamligi.

Selluloza - qog'oz sanoatida qo'llaniladigan pigmentlarning asosiy xossalari 42-jadvalda keltirilgan.

### Selluloza - qog'oz sanoatida qo'llaniladigan pigmentlarning asosiy xossalari

*42-jadval*

Pigment	Zichlik, g/sm <sup>3</sup>	Nur sin- dirish koeffitsi- yenti	Oqligi, %, ISO	Mossu bo'yicha mortligi, mg	Zarrachalar- ning o'rtacha o'lchami, mkm
Kaolin	2,58	1,56	80–90	1,0–3,0	1,0–2,0
Kalsiy karbonat (bo'r)	2,80	1,56	84–97	1,0–3,0	0,7–2,0
Cho'ktirilgan kalsiy karbonat (bo'r)	2,70	1,59	96–99	3,0–4,0	0,1–1,0
Talk	2,72	1,57	85–90	1,0–1,5	0,3–5,0
Titan dioksidi: anataz rutil	3,90 4,20	2,55 2,70	98–99 97–98	5,0–6,0 6,0	0,2–0,5 0,2–0,5
Kalsilan-gan kaolin	2,69	1,56	93	1,0–3,0	0,5–1,0
Bariy sulfati	4,30	1,64	98	3,0–3,5	0,5–1,0

*jadvalning davomi*

Natural gips	2,30	1,52	93–97	2,0	2,0–10,0
Kuydiril-gan gips	2,30	1,58	95–98	2,0	1,0–5,0
Aluminiy gidroksidi	2,40	1,57	98–99	2,0–3,0	0,2–2,0
Sintetik kalsiy silikati	2,10	1,47	95	2,0–2,5	0,03
Polimer pigmentlar	0,60–1,0	1,59	93–94	—	0,0–1,0


**Kaolin (GOST 19285 – 73).** Kaolining asosiy komponenti kaolinit-kristall, geksaganal shaklida, diametri 2 mkm va diametrini qahñligiga nisbati 10:1 dan 10:3 gacha. Tozalangan kaolining kimyoviy tarkibi alumokremny kislota,  $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{SiO}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  va 39,6 % aluminiy oksidi, 46,5 % kremniy oqsidi va 13,9 % gidrat suv.

Kaolin tog' jinslaridan tashkil topgan – granit va dala shpatining shamol va yog'ingarchilik ta'sirida hosil bo'lgan modda. O'zbekistonda kaolin Angren tog'laridan qazib olinadi. Kaolin qazib olinadigan joyda uni boyitadigan fabrika bo'ladi. Fabrikada kaolin tozalanadi, maydalanadi, suvsizlantiriladi va quritiladi.

Texnik kaolining tarkibi: kremniy dioksidi – 45–74 %, aluminiy miqdori 16 dan 40 %gacha. Temir, titan, magniy, kalsiy, natriy, kaliy, fosfor, oltingugurt, vanadiy, xrom va boshqa elementlarning miqdori 2 %dan oshmaydi.

Kaolin zarrachalarining o'lchamlari, kelib chiqishiga qarab, har xil. Odatda, o'lchamlari 0,1 dan 40 mkm gacha, asosiy fraksiyasining o'lchamlari 0,5–1,0 mkm tashkil etadi. Oqlik darajasi, eng yaxshi kaolinda 94,5 %gacha bo'ladi. Angrenda ishlab chiqarilgan kaolining oqlik darajasi 76–86 %.

**Kalsiy karbonat.** Kalsiy karbonat — kalsiy oqsidi va karbon kislotaning o'rta tuzi. Hosil bo'lish reaksiyasi:



Selluloza - qog'oz sanoati kalsiy karbonatning har xil turini ishlatadi: tabiiy kalsiy karbonat (marmor, ohakni yoki bo'r talqonlari) va sintetik kalsiy karbonat. U yer qa'rini 2 % tashkil etadi.

**Bo'r (mel)** — past zichlangan mineral,  $\text{CaCO}_3$  miqdori 95 % tashkil etadi.

**Talk.** Talkning alohida o'zi kam ishlatiladi. Odatda, talk (30 %) kaolin bilan aralashtirib ishlatiladi.

**Bariy sulfati (blansifik).** Qog'oz va kartonlarga ishlov bershda sun'iy bariy sulfati ishlatiladi. Uni bariy tuzini sulfat kislotasi bilan cho'ktirib olinadi:



Olingen bariy sulfati yuvilib, konsentratsiyasi 35–40 % yetkazilgach, ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Uning oqlik darajasi 98–99 %.

**Titanli pigmentlar (GOST 9808–84).** Titan pigmentlari titan rudasidan olinadi, rutil ( $\text{TiO}_2$ ) va ilmenit ( $6\text{TiO}_2 \cdot \text{Fe}_2\text{O}_3$ ). Titan pigmentining asosini titan dioksidi tashkil etadi, u sof holda tabiatda uchramaydi. Pigment sifatida ikkita modifikatsiyasi qo'llaniladi — anataz va rutil. Rutil va anataz holatida titanning har bir atomi oktaedr markazida joylashgan bo'lib, oltita kislород atomlari bilan o'ralgan. Farqi fazodagi joylashganligida. Anatazda bitta oktaedrga 4 ta umumiy qirra, rutilda — ikkita. Ya'ni anataz elementar yacheykasi 4 molekula  $\text{TiO}_2$ , rutilda — ikkita. Rutil shaklidagi titan dioksidining zichligi katta, nur sindirish koefitsiyenti ham yuqori, lekin rangi sal sarg'ishroq. Zarrachalarining o'rtacha kattaligi 0,3 mkm.

Titan dioksidi ikki xil usul bilan olinadi: xloridli va sulfatli. Rutil shaklidagi titan dioksidi xlorid usuli bilan, sulfat usuli bilan titan dioksidi almenitdan olinadi.

Titan dioksidining xiraligi va oqlik darajasi juda yuqori bo'lganligi sababli qog'oz ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Titanli pigmentlar kam gidratlanadi va bog'lovchi moddalarini kam talab qiladi.

**Ruxli pigmentlar.** Ruxli pigmentlar asosan kaolin pigmentiga qo'shimcha sisatida ishlatiladi. Ruxli pigmentlarga rux oksidi va rux sulfidi kiradi. Rux oksidi gulqog'oz va dekarativ qog'ozlar olishda qo'llaniladi. Kamchiligi — suyultirilgan kislotalarda erishligi. Dekorativ qog'ozlar olishda ishlatilishidan sabab uning luminessentlanishidir.

**Aluminiy gidroqsidi.** Aluminiy gidroqsidi boksiddan, ho'l usul bilan olinadi. Ruda sharikli tegirmonda maydalaniib, so'ngra kauistik soda eritmasida isitiladi ( $200\text{ }^{\circ}\text{C}$ , 2MPa). Uning oqlik darajasi yuqori — 98–99 %. Zarrachalari juda mayda, plastinka shakliga ega.

**Polimer pigmentlar.** Asosan yupqa qog'ozlar olishda ishlatiladi. Suvli dispers holida (polistirol, zarrachalar o'chhami 0,5 mmk). Polimer pigment termoplastik bo'lgani uchun oson kalandrланади.

**Rangli pigmentlar.** Bu turdag'i pigmentlar dekorativ va gulqog'ozlar olishda ishlatiladi. Kimyoviy tuzilishi bo'yicha ular noorganik, organik va metalloorganik bo'lishi mumkin.

Noorganik pigmentlar — tabiiy va sintetiklarga bo'linadi.

Tabiiy temiroksidli pigmentlar (mo'miyo, temirli surik, oxralar) minerallardan olinadi.

Noorganik rangli sintetik pigmentlar — asosan temir, kad-miy va xrom oksidlari hamda berlin lazuri hisoblanadi.

Temir oksidli pigmentlar — tarkibida temir oksidlardan biri mavjud. Ularni temir tuzlaridan, cho'ktirish va qizdirish usullari bilan olinadi.

**Organik rangli pigmentlar.** Bular suvda erimaydigan rangli

disperslar. Kimyoviy tarkibiga qarab bir nechta guruhg'a bo'linadi: azopigmentlar, ftalsianli va politsiklik pigmentlar. Sanoatda, polimer pigmentlar stabil suvli pasta holatida ishlab chiqariladi, konsentratsiyasi 10–12 %. Organik pigmentlar rang-barang, yuqori intensivli, keng qo'llaniladiganlari: aliy 2SV, nurga chidamli sariq 23V, havorang ftalsianli V, qip-qizil 4JV.

**Luminessentli pigmentlar.** Bu xil pigmentlar fotoluminessent xossalisa ega, ya'ni unga nur tushirilganda yonadi (yorig' beradi). Ular fluoressentli va fosforessentlilarga bo'linadi: *bir-inchisi* ko'zga ko'rinarli nur tushirilganda o'zidan nur taratadi, *ikkinchisi* – ko'rinaldigan nurni olib qo'ygandan keyin ham 2 dan 25 soatgacha nurlanib turadi.

Bu turdag'i pigmentlar toza stronsiy va kalsiy sulfidlari yoki rux (sink) va kadmiy sulfidlardan iborat.

Luminessentli pigmentlar maxsus qog'oz va kartonlar, kartografsik dekorativ qog'ozlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

**Metalli pigmentlar.** Bu xil pigmentlar metall kukun (pudra) bo'lib, zarrachalar diametri 1 dan 5 mkm va qalinligi 0,2–0,5 mkm. Ularni mis, aluminiy, kumush, mis-rux qotishmalarini nozik maydalash yo'li bilan olinadi. Oqsidlanmasligi uchun tarkibiga stearatlar, parafin, stearin kislotasidan 2 % gacha qo'shiladi. Metall pigmentlar bog'lovchilarni parchalanishdan saqlaydi. Qog'oz qoplamlarini yuqori pishiqlik holatida ko'p saqlaydi. Asosan metall pigmentlar gulqog'oz, dekarativ va kopqog'ozlar olishda ishlatiladi.

**Sludali pigmentlar.** Sluda – bu ishqorli alumosilikatlar va ishqoriy-yer metallar, qisman temir, xrom va boshqa elementlarga almashilgan ham bo'ladi. Ishlatilishi: gulqog'oz, ruberoid, dekarativ va elektr himoyalovchi qog'ozlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

**Sintetik silikatli pigmentlar** – tarkibida natriy bo'lgan aluminosilikatlardan iborat:

Titan dioksidi ikki xil usul bilan olinadi: xloridli va sulfatli. Rutil shaklidagi titan dioksidi xlorid usuli bilan, sulfat usuli bilan titan dioksidi almenitdan olinadi.

Titan dioksidining xiraligi va oqlik darajasi juda yuqori bo'lganligi sababli qog'oz ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Titanli pigmentlar kamgidratlanadi va bog'lovchi moddalarni kam talab qiladi.

**Ruxli pigmentlar.** Ruxli pigmentlar asosan kaolin pigmentiga qo'shimcha sifatida ishlatiladi. Ruxli pigmentlarga rux oksidi va rux sulfidi kiradi. Rux oksidi gulqog'oz va dekorativ qog'ozlar olishda qo'llaniladi. Kamchiligi — suyultirilgan kislotalarda erishligi. Dekorativ qog'ozlar olishda ishlatilishidan sabab uning luminessentlanishidir.

**Aluminiy gidroqsidi.** Aluminiy gidroqsidi boksiddan, ho'l usul bilan olinadi. Ruda sharikli tegirmonda maydalaniib, so'ngra kaustik soda eritmasida isitiladi ( $200\text{ }^{\circ}\text{C}$ , 2MPa). Uning oqlik darajasi yuqori — 98–99 %. Zarrachalari juda mayda, plastinka shakliga ega.

**Polimer pigmentlar.** Asosan yupqa qog'ozlar olishda ishlatiladi. Suvli dispers holida (polistirol, zarrachalar o'lchami 0,5 mkm). Polimer pigment termoplastik bo'lgani uchun oson kalandrlandi.

**Rangli pigmentlar.** Bu turdag'i pigmentlar dekorativ va gulqog'ozlar olishda ishlatiladi. Kimyoviy tuzilishi bo'yicha ular noorganik, organik va metalloorganik bo'lishi mumkin.

Noorganik pigmentlar — tabiiy va sintetiklarga bo'linadi.

Tabiiy temiroksidli pigmentlar (mo'myo, temirli surik, oxralar) minerallardan olinadi.

Noorganik rangli sintetik pigmentlar — asosan temir, kadmiy va xrom oksidlari hamda berlin lazuri hisoblanadi.

Temir oksidli pigmentlar — tarkibida temir oksidlardan biri mavjud. Ularni temir tuzlaridan, cho'ktirish va qizdirish usullari bilan olinadi.

**Organik rangli pigmentlar.** Bular suvda erimaydigan rangli

disperslar. Kimyoviy tarkibiga qarab bir nechta guruhga bo'linadi: azopigmentlar, ftalsianli va politsiklik pigmentlar. Sanoatda, polimer pigmentlar stabil suvli pasta holatida ishlab chiqariladi, konsentratsiyasi 10–12 %. Organik pigmentlar rang-barang, yuqori intensivli, keng qo'llaniladiganlari: aliy 2SV, nurga chidamli sariq 23V, havorang ftalsianli V, qip-qizil 4JV.

**Luminessentli pigmentlar.** Bu xil pigmentlar fotoluminessent xossasiga ega, ya'ni unga nur tushirilganda yonadi (yorig' beradi). Ular fluoresentli va fosforesentlilarga bo'linadi: *birinchisi* ko'zga ko'rinarli nur tushirilganda o'zidan nur taratadi, *ikkinchisi* – ko'rinaligan nurni olib qo'ygandan keyin ham 2 dan 25 soatgacha nurlanib turadi.

Bu turdag'i pigmentlar toza stronsiy va kalsiy sulfidlari yoki rux (sink) va kadmiy sulfidlardan iborat.

Luminessentli pigmentlar maxsus qog'oz va kartonlar, kar-tografik dekorativ qog'ozlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

**Metalli pigmentlar.** Bu xil pigmentlar metall kukun (pudra) bo'lib, zarrachalar diametri 1 dan 5 mkm va qalnligi 0,2–0,5 mkm. Ularni mis, aluminiy, kumush, mis-rux qotishmalarini nozik maydalash yo'li bilan olinadi. Oqsidlanmasligi uchun tarkibiga stearatlar, parafin, stearin kislotasidan 2 % gacha qo'shiladi. Metall pigmentlar bog'lovchilarni parchalanishdan saqlaydi. Qog'oz qoplamarini yuqori pishiqlik holatida ko'p saqlaydi. Asosan metall pigmentlar gulqog'oz, dekarativ va kopqog'ozlar olishda ishlatiladi.

**Sludali pigmentlar.** Sluda – bu ishqorli alumosilikatlar va ishqoriy-yer metallar, qisman temir, xrom va boshqa elementlarga almashilgan ham bo'ladi. Ishlatilishi: gulqog'oz, ruberoid, dekarativ va elektr himoyalovchi qog'ozlar ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

**Sintetik silikatli pigmentlar** – tarkibida natriy bo'lgan aluminosilikatlardan iborat:

$\text{Na}_2\text{O} \cdot \text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 13,6\text{SiO}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  ( $\text{SiO}_2$  – 75 %,  
 $\text{Al}_2\text{O}_3$  – 9%,  $\text{Na}_2\text{O}$  – 6 %).

Zarrachalarning o‘rtacha o‘lchamlari 0,2–0,5 mkm. Strukturasining g‘ovakligi qog‘ozning g‘ovakligiga olib keladi va qog‘oz silliqligini oshiradi.

### Texnologik qo‘shinchalar yoki modifikatorlar

**Dispergatorlar.** Bu sirt faol modda, suvda ionlashtirilgan, pigment zarrachalarining tortish kuchini kamaytirish uchun, suspenziyasiga qo‘shiladi. Aks holda flokulatsiyalanishi mumkin.

Dispergatorlar, pigmentlarga adsorbsiyalanib, uning manfiy zaryadini oshirishini kuchaytiradi. Dispergatorlar sisatida noorganik moddalar (geksametasofatning natriyli tuzi va pirofosfat) va organik yuqorimolekular moddalar (suvda eriydigan polimerlar). Dispergatorlarning sarfi 0,2 dan 0,6 % a.q. moddaga nisbatan tashkil etadi.

**Plastifikatorlar (GOST 8728–88).** Polimerlarni plastifikatsiyalash – struktura elementlarining harakatchanligini oshirish maqsadida bajariladigan amal. Plastifikatorlar qo‘shilganda, molekulalararo bog‘lar kamayadi, makromolekulalar harakati oshadi, materialning barcha xossalari – pishiqligi, mo‘rtligi va elastiklik xossalari o‘zgaradi. Plastifikatorlar, polimer miqdorida 3–30 %gacha qo‘shiladi. O‘ralgan qog‘ozlarini olishda, plastifikatorlar sisatida poliizobutilen, polibutilakrilat, sintetik kauchuk qo‘llaniladi.

**Ko‘pik so‘ndiruvchilar va ko‘piklanishning oldini oluvchilar.** So‘rdiruvchi va qoplamlar tayyorlash jarayonida (filtrlash, aralashtirish va hokazo) havo to‘planib qoladi (3 dan 10 % gacha), bular pufakchalarga tarqalib, yuzada ko‘pik bo‘lib to‘planib qoladi. Ko‘piklanishga qarshi kurashish uchun, kompozitsiyaga ko‘pik so‘ndiruvchilar va ko‘piklantirmaydigan moddalar qo‘shiladi. Ko‘piklanmaslik uchun, ko‘pik

so'ndiruvchilardan terpineol, aktıl va izoaktıl spirtlardan 0,2 % gacha qo'shiladi. Ko'pitirmaydigan moddalar sifatida poliglikollar va ularning yog' kislotalar bilan aralashmasi ishlatiladi. Ularning sarfi 0,1–0,5 %ni tashkil etadi.

**Fluorescentli optik oqartirgichlar va bo'yqolar.** Fluorescentli optik oqartirgichlar – rangsiz yoki och rangli organik birikmalar, ultrabinafsha nurlarni yutib, fluorescent effekti hisobiga, ko'rinadigan havorang yoki binafsha rang beradi (GOST 27404–87; 270676–86). Nurni yutish hisobiga fluorescent aktiv holatga (возбужденный) o'tadi. Qog'ozning oqligi, optik oqartiruvchilar hisobiga yana oqligi oshadi. Optik oqartiruvchilar sifatida diaminostil-βendisulfokislotaning, tarkibida triazin halqali hosilalari qo'llaniladi. Optik oqartiruvchilarni sarfi, a.q. moddaga nisbatan 0,4 dan 0,6 %ni tashkil etadi.

**Antistatik qo'shimchalar.** Qog'oz va kartonlarga ishlov berishda yoki qayta ishlashda, polotno mashinadan o'tishda har xil vallarga ishqalanish natijasida elektrostatik zaryadlar hosil bo'ladi. Bu hol qog'oz polotnoni vallarga yopishishiga olib keladi, uni qayta ishlashni qiyinlashtiradi. Elektrostatik zaryadlarni kamaytirish uchun qoplamlalar tarkibiga gigroskopik modda (glitserin, glikollar), elektrolitlar (KCl va boshqalar) yoki antis'ik qo'shimchalar qo'shiladi.

**Antiseptiklar.** Tabiiy bog'lovchi va pigmentlarni (hayvondan olingan yelim va kazeyn) qog'oz yuzasiga ishlatganda, qog'oz yuzasida dog'lar va noxush hidlar paydo bo'lishi mumkin. Uning oldini olish uchun aniseptiklar qo'shiladi. Qoplamani konservatsiya etish uchun, uning kompozitsiyasiga salitsil kislota, fenol, natriy storit, dialgegidlar, pentaxlorfenolyat natriy, trixlorfenolatlardan qo'shiladi.

**Antioksidantlar.** Poliolesin yoki rasplav bilan qog'oz yuzalari qoplanganda, kompozitsiya tarkibiga, isitganda oksidlanishdan himoyalash, uchun antioksidantlardan qo'shiladi.

## 10.6. Qog'oz va kartonlarga ishlov berishda qo'llaniladigan qurilmalar va usullar

Polimer materialarni qog'oz yuzasiga qoplashning asosan to'rtta usuli mavjud:

- 1) rasplavni surtish;
- 2) eritmani surtish;
- 3) dispersni surtish va

4) tayyor pylonkani qog'ozga yelimlab yoki isitib presslash orqali, qoplash.

43-jadvalda, qog'oz yuzasini qoplashda, keng tarqalgan qurilmalarning xarakteristikalari keltirilgan.

### Qog'oz yuzasini qoplashda keng tarqalgan qurilmalarning xarakteristikalari

43-jadval

Surtuvchi qurilma turi	Qoplama kompozitsiya xos-salari		Qoplama massasi, g/m <sup>3</sup>	Surtish tezligi, m/min
	quruq modda miqdori, %	qovushoqligi, MPa . s, (Brukfild, 100 min <sup>-1</sup> )		
Yelimlovchi press	5–30	100–300	2–10	500 gacha
Pardali ye-limlovchi press	1–65	1–2000	3–15	100–1800
Valikli sur-tish: tekislab; shyotkalab; ofset- gravurali massa bilan	25–45 3040 50–70 45–65	10 000–30 000 1000–30 000 1000–2000 2000–10 000	12–30 15–20 4–10 6–25	90–150 30–120 600 gacha 350–400

*jadvalning davomi*

Shaberli surtish: aylanuvchan shaber; to'ldirilgan tirqish orqali; favoriali shaber bilan; Beel-Blade; Egiluvchan pichoqli shaber bilan; Qattiq pichoqli shaber bilan havoli shaber bilan	30–50 30–60 50–60 50–60 72 gacha 72 gacha 35–45	100–600 400–3000 1000–3000 500–1000 400–2000 400–2000 100–250	10–20 4–20 4–20 10–12 10–25 6–15 5–30	200 gacha 350–1250 1200 gacha 450–1000 350–1500 350–1500 860 gacha
Kashirlovchi mashina	Rasplav (Suyulma)	$10^6$ – $10^8$	10–400	100 gacha
Ekstruziya usuli bilan	—	$3 \cdot 10^6$ gacha	5–200	600 gacha
Filera usuli bilan	30 gacha	30 000 gacha	100 gacha	100 gacha

### 10.7. Yelimlovchi press


Yelimlovchi press yuza yelimlash, pigmentlash va yengil bo'rlash uchun ishlataladi. Yelimlovchi press qog'oz qilish mashinasining quritish qismiga o'rnatiladi, bu yerda qog'oz polotnoning quruqlilik darajasi 70 %dan kam bo'lmaydi. Agar pressda namlanishini hisobga olganda, uning quruqligini 88–

95% bo'lgani yaxshi. Chunki, quruqligi 70 %dan kam bo'lgan polotnoni qo'shimcha namlaganda, uzilib ketadi. Undan tashqari yuqori namlikka ega bo'lgan polotnoni quritish qiyinlashadi.

Polotno yuzasiga yelim surtish ikki valli presslar orqali yoki purkash orqali bajariladi.

Yelimlovchi presslarning kamchiligi — qog'oz polotnoda qatlamlarning hosil bo'lishi. Buni yo'qotish uchun, yelimlovchi presslardan chiqishda maxsus tekislovchi valiklardan o'tkaziladi. Valiklarga, ho'l polotno yopishmasligi uchun, silikon bilan qoplangan. Yelim oxirigacha qurishi uchun, qurituvchi silindr ham shu masofaga o'rnatiladi.

Qog'oz polotnoni yelimlovchi pressdagi harakatini uch zonaga (54-rasm) bo'lish mumkin:



54-rasm. Qog'oz polotnoning yelimlovchi press ishchi vallari orasidan o'tish sxemasi:

- 1—so'rilish zonasasi; 2—gidravlik va mexanik bosish zonasasi;
- 3—dekompressiya va plyonkani ajralish zonasasi.

1—kapillar va adsorbsiya kuchlari orqali qog'oz yuzasiga so'rilish zonasasi;

2—yelim polotno strukturasiga suyuqlikning gidravlik bosim ta'sirida, presslanish zonasasi;

3—dekompressiya zonasasi, bu yerda vallarning bosim kuchlari tezda kamayadi va yelimlangan qog'oz uning yuzasidan ajraladi.

Hozirgi vaqtida qog'oz va kartonlarning yuzasini yelimlashga qo'yilgan talablar kuchaygan. Buning sababi qog'oz va karton qiluvchi mashinalarning tezligi oshganligidir. Bu talabni qondirish uchun parda shaklidagi, yelimlovchi presslardan foydalaniladi.

#### **10.8. Parda shaklidagi yelimni yelimlovchi press**

Suyuq yelim pardanining qalinligi maxsus sterjen yordamida boshqarib boriladi. Bu usulda yelimlashning boshqalardan farqi tezlik diapozonning kengligi – 100 dan 1800 m/min. Qoplama massani polotnoning ikkala tomoniga  $0,05 \text{ g/m}^2$  (yelimlash)dan  $40 \text{ g/m}^2$  (bo'rslash). Qoplama kompozitsyaning qovushoqligi 1,0 dan 2000 mPa . s gacha bo'ladi.


#### **10.9. Valiklar yordamida qoplamani surtish**

Qoplamani valiklar usulida surtish 55-rasmida ko'rsatilgan.

Valiklik sistemalarning konstruksiyasi xilma-xil, valiklar soni bittadan o'nta va undan ham ko'p bo'lishi mumkin. Har bir valikning o'z vazifasi bor.

Valikli qurulmaning asosiy elementlari:

- cho'miluvchi valik (55-rasm, a);
- surtuvchi valik 1 (55-rasm, a,b);
- cho'miluvchi valik 2 (55-rasm, b);
- me'yorida surtuvchi valik 3 (55-rasm, b);
- siquvchi valik 4 (55-rasm, d).




**55-rasm. Valiklar orqali qoplama surtishning har xil variantlari:**  
**a – cho‘miltirish; b – surtish; d – cho‘miltirish va me’yorlash;**  
**1 – surtuvchi valik; 2 – cho‘miluvchi valik; 3 – me’yorida sur-**  
**tuvchi valik; 4 – siqvuchi valik.**

Valiklar xromlab silliqlangan yoki rezina bilan qoplangan bo‘lishi mumkin.

### 10.10. Shaberlar yordamida qoplamani surtish

Bu usulda qoplama surtish, qog‘oz yuzasidan ortiqcha qoplovchi massani shaber orqali sidirib tashlashga asoslangan. Shaber usulida qoplamani qog‘oz polotno yuzasiga surtish, mashina 1500 m/min tezlikda ishlaganda ham imkon yaratib beradi.

Beel Blade sistemasida (56-rasm) qog‘ozning ikki tomonini bitta lezve bilan bo‘rlash sxemasi ko‘rsatilgan. Qog‘oz polotno, qoplovchi massa bilan to‘ldirilgan rezina qoplamali val bilan shaber orasidan, vertikal harakatlanadi.



**56-rasm. Beel Blade qurulmasining sxemasi:**

1 – rezina qoplangan val; 2 – qog‘oz polotno; 3 – suspenziya;  
4 – elastik shaber.

Beel Blade (egiluvchan) sistemasi, tarkibida 50–56 % quruq, qovushoqligi 0,5–1,0 Pa .s bo‘lgan, qoplovchi massani qog‘oz yuzasiga 10–12 g/m<sup>2</sup> miqdorgacha surtish imkonini beradi. Sistema 1000 m/min tezlikda barqaror ishlaydi. Qoplovchi massani qog‘ozga surtuvchi shaber qurilmasining bir necha konstruksiyasi mavjud:

- qattiq pichoqli shaber;
- aylanuvchan shaber;
- havoli shaber.

## **10.11. Qoplamani purkash va «CURTAIN-COATING» usullari bilan surtish**

Finlandiyaning «Metso Paper» firmasi purkash orqali bo'rlash (OptiSpray) usulini ishlab chiqqan. OptiSpray qurilma qator soplolardan iborat bo'lib, bo'rlovchi massani qog'oz polotno yuzasiga bir tekis qatlama ikkala tomoniga purkash usuli bilan bo'rlaydi. Qog'oz polotnoning silliqligini ta'minlash uchun, qog'oz yumshoq kalandrlanadi.

Purkaluvchi suspenziya konsentratsiyasi 55–63 %, qoplan-gan massa miqdori – 30 g/m<sup>2</sup> gacha, bo'rlash tezligi – 2000 m/min gacha bo'ladi.

## **10.12. Qog'ozni ekstruzion usulida qoplash**

Ekstruzion jarayon, quyuq oqish holatidagi polimerni uzluksiz, ma'lum shakldagi teshikchalaridan, siqib chiqarishdan iborat. Ekstruzion usulning ustunligi – jarayonning stabil ke-chishi, uzluksizlik, boshqaruvning qulayligi, ishlab chiqarish unumdorligining yuqoriligi va yuqori sifatli qoplanishidir.

Ekstruder – bu plastifikatsiyalovchi va polimer materialni siqib chiqarishga mo'ljallangan mashina (57-rasm).


Polimer granul holatda ekstruder bunkeriga solinadi, polimer shnek silindri bo'ylab vint kanallari orqali harakatlanib, isitish natijasida suyuqlikka aylanadi, filtrlanib shel qismida yupqa parda holiga o'tadi va qog'ozga bosiladi.

Ekstruder-laminlovchi qurilma texnologik parametrlari:

Laminlovchi val bilan filera orasidagi masofa, mm ..50–120

Laminlovchi zonadagi bosim, Shoru shartli birligida .....60–70


Laminlovchi val temperaturasi, °C..... 30–40



57-rasm. Ekstruzion usulida qoplama surtish: a—ekstruzion — laminlovchi qurilma; b—ekstruder sxemasi; d—shnekning asosiy o'lchamlari; 1—ekstruder; 2—ekstruder filerasi; 3—laminatorning qoplangan valigi; 4—laminatorning metalli sovituvchi val; 5—qog'oz polotno chetlarini qirquvchi qurilma; 6—tayanch podshipnik; 7—bunker; 8—silindr; 9—sovitish sistemasi; 10—qizdirish sistemasi; 11—shnek; 12—setka; 13—old tayanch; 14—dvigatel; 15—boshqaruvchi; 16—uzatkich; I—massani (polimer) kirish zonasi; II—siqish (plastifikatsiya) zonasi; III—siqib chiqarish zonasi.

### 10.13. Qoplama eritmani filera yordamida berish

Filera—metalldan yasalgan rezervuar (58-rasm) bo'lib, past qismni uzunasi bo'ylab shel.



58-rasm. Yuqori qovushoqli eritmalar uchun filera:

- 1 — old devol; 2 — orqa devor; 3 — planka chegaralovchi;  
4 — boshqaruvchi valik.

Massani surtish pastroq tezlikda o'tadi, chunki 100 m/min tezlikdan yuqori bo'lsa, bir tekis qalinlikda qoplama olish qiyinlashadi. Qog'oz yuzasiga surtilayotgan qatlama qalinligini boshqarib turishni, old devolni pastki qismida planka, uning pastki qismi jilvalangan qurilma bajaradi. Qog'oz yuzasiga berilayotgan parda qoplama qalinligini, parda hosil qiluvchi massa miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish orqali bajariladi. Buning

uchun, plankani ko'tarilish balandligini baland yoki pasaytirish mumkin. Bu turdag'i filera, polimer eritmasining qovushoqligi 25 Па.с va undan yuqori bo'lganda qo'llaniladi. Qog'oz yuzasini yupqa qoplama parda bilan qoplash uchun, suyultirilgan parda hosil qiluvchi polimer eritmalaridan foydalaniladi. Qog'oz yuzasiga surtish uchun, valikli filera yoki maxsus kamerali fileradan foydalaniladi.

Valikli fileralarda, qog'ozga berilayotgan eritma qatlami qalinligini, qog'oz bilan valik orasidagi masofa va valikning aylanish tezligini o'zgartirish orqali aniqlanadi. Maxsus kamerali filerada metall korpus to'siq orqali ehtiyot va ishchi kameralarga bo'lingan. Parda hosil qiluvchi eritma ehtiyot kameraga beriladi, undan ishchi kameraga va so'ngra qog'oz yuzasiga oqib boradi. Shelni kengaytirish yoki toraytirish orqali qog'oz yuzasiga berilayotgan eritma qalinligini boshqarib boriladi. Qog'oz polotno yuzasidagi eritma qalinligi, polotno eni bo'ylab bir tekis bo'lishi uchun, old devorni ichki tomoni shel yoniga o'rnatilgan egiluvchan metall plastinka bilan boshqariladi.

Yuqori qovushoqlik eritmalar bilan ishlaydigan fileralarga 50–60 кПа bosimni, me'yorlovchi nasoslar yordamida hosil qilinadi.

#### 10.14. Oldindan olingen parda bilan qoplash (laminlash)

Qog'oz yuzasini tayyor polimer parda bilan qoplash, yuqori sifatli poligraf mahsulotning sifatini yaxshilashda keng qo'llaniladi. Ko'p hollarda mahsulotni laminlash natijasida uning ekspluatatsiya xossasini oshiradi.

Ma'lumki, yuqori fizik-mexanik xossaga ega bo'lgan polimer pardani, cho'zish va termofiksatsiyalash evaziga hosil qilinadi.


Qog'ozni termoplastik polimer pardaga yopishtirish, yelimlash yo'li bilan bajariladi. Yelimlovchi modda qo'llanilganda quruq va ho'l usullar qo'llaniladi. Odatda, yelim pardaga surtiladi.

Quruq holda laminalanganda (yopishtirilganda), yelim eritma yoki dispers holda qo'llaniladi (59-rasm). Ko'p hollarda cho'milib aylanadigan valik yoki bir nechta valiklardan iborat sistema qo'llaniladi.

Qog'oz polotnoning parda qismiga yelim surtilgach, quritish kamerasiga keladi, bu yerda erituvchi yoki dispers muhit parlan-tiriladi. Quritish issiq havo bilan bajarilishi mumkin. Qisman qurigan yelim qatlamli parda, qizdirilgan silliq po'lat valli kalandr va elastik qobiqli siquvchi val orqali, qog'oz bilan birlashtiriladi. Qizdirilgan kalandrda, yopishtirishdan tashqari, qolgan erituvchi parlantiriladi.

Qog'ozga termoplastik yelim pardanining butunlay yelimlanihi, sovitilgach tugaydi.

Ho'l holda laminlash (59-rasm, b) ko'p hollarda yelimni suvli dispersi qo'llaniladi (masalan, polivinilatsetat emulsiyasi).



59-rasm. Laminlash sxemasi: a – quruq; b – ho'l:

1—o'ramdagi parda; 2—yelimlash; 3—quritish kamerasi;

4—qurituvchi kalandr; 5—o'ramdagi qog'oz;

6—sovituvchi vallar; 7 — nakat.

Parda yuziga yelimni surtish, quruq laminlash kabi bajari-ladi. Quritish jarayonida hosil bo'lgan bug'lar qog'oz struktu-

rasining g'ovak qismlaridan chiqib ketadi. He'l laminlashda yelimanuvchi material yelim surtish jarayonida birlashtiriladi. Shuning uchun, yelim avval qog'oz yuzasiga surtiladimi yoki polimer parda yuzasiga surtiladimi, uning farqi yo'q. Sistema sovitilganda qog'oz polotno butunlay yelimanadi.

### 10.15. Qog'oz va kartonlarga shimdirluvchi qurilmalar

Shimdirluvchi mashinalarning turlari, bir-biridan shimdirlish va quritish qismlarining konstruksiyalari bilan farqlanadi. Bu qismlarning asosiy vazifasi, qog'oz va kartonlarga shimdirliladigan yelim, bog'lovchi eritma yoki polimer suyulmasi (rasplav), qog'oz polotnoni eni, bo'yli bo'ylab bir tekisda tarqalgan bo'lishligini ta'minlashdan iborat. Jarayon yuqori tezlikda borGANI uchun, shimdirliladigan bog'lovchi moddalar, qog'ozni g'ovak-kapillar strukturasi darajasiga qarab tanlangan bo'lishi kerak. Ya'ni qog'ozning namligi, namlanuvchanligi va boshqa faktorlar hisobga olinadi.

Materialga shimdirlish uchun yetarli miqdordagi suyuqlik bir necha usullar bilan amalga oshiriladi. Bularidan keng qo'llaniladigani materialni to'yingan shimdirluvchi eritmani siqish orqali boshqarish.

Materialga shimdirluvchi suyuqlik miqdorini boshqarishning ikkinchi usuli – materialni shimdirluvchi vannada ushlab turish vaqtini ko'paytirish yoki kamaytirish orqali bajariladi. Bu amal, vannadan o'tayotgan qog'oz tezligini o'zgartirish yoki vanna uzunligini o'zgartirish orqali bajariladi. Lekin bu holda, shimdirluvchi eritmaning qovushoqligini, temperaturasini va boshqa parametrlarni bir xilda ushlab turish talab etiladi.

Materialga shimdirluvchi suyuqlik miqdorini boshqarishning uchinchi usul – me'yorida beruvchi qurilma yordamida qog'oz yuzasiga surtish. Bu usul, qog'oz yuzasiga surtilgan suyuqlik tez va bir tekisda qog'ozga shimilganda, samarali hisoblanadi.

Qog'oz va kartonlarga suyuqlikni shimdirlishda muhim ma-

salalardan biri, ularning kapillarlaridagi havosini siqib chiqarish. Chunki qog'oz va kartonlarni suyuqlikka tez botirganda, havo suyuqlikni shimilishiga xalaqit beradi, olingan mahsulotning sifatini pasaytiradi. Ayniqsa, shimdirish jarayoni 100 °C dan ancha yuqori bo'lganda seziladi. Qog'oz tarkibidagi namlik parlanib, material strukturasi g'ovaklaridagi havoni siqib chiqaradi. Qarama-qarshi kelayotgan katta niqdordagi shimdiriluvchi suyuqlik oqimining material kapillarlariga kirishiga xalaqit beradi.

Har bir 1 m<sup>2</sup> material tarkibidan chiqariladigan bug' hajmi, qog'oz va karton g'ovaklaridagi havo hajmidan 100 baravardan ham ko'proq bo'lishi kerak. Qog'ozni qisman, 3–4 % namlik-kacha quritilganda, suv bug'larining hajmi ikki baravar kamayadi. Qog'oz va kartonlar tarkibidagi namlik va havo, shimdirishdan tashqari, qoplama surtganda ham salbiy ta'sir etadi. Bu holda material g'ovaklaridagi bug' va havoni, qog'oz yuzasiga surtish tomoniga teskari tomonidan chiqarish lozim. Bu, qog'ozning havo o'tkazish imkoniyati bilan bog'liq.

Qog'ozga shimdirishda, undan havoni chiqarishning har xil usullari bor. Bulardan biri qog'oz polotno surtuvchi vannaga kichik burchak ostida botiriladi, ya'ni sal kam parallel holda. Nati-jada, avval qog'ozning bir tomoni ho'llanadi va qog'ozga so'rilib, havoni tashqariga siqib chiqaradi. Boshqa usul, qog'ozni har xil qurilmalar yordamida qog'ozni bir tomonini ho'llab uning yuzasiga qoplama surishdan iborat. Bu usul, ayniqsa, 100 °C dan yuqori bo'lganda (masalan, bitum eritmasi) samarali bo'ladi. Qog'oz yuzasiga suyuqlik surtganda, temperaturasi 150–180 °C, yuqori temperatura hisobiga qog'oz tarkibidagi barcha namlik va havo, qog'ozning ikkinchi tomonidan parlanib chiqib ketadi.

Qog'oz o'zi bilan olib ketadigan shamilgan suyuqlik miqdori, qog'ozning vannadan o'tayotgan vaqtini o'zgartirish orqali boshqariladi. Oxirgi boshqarish – siuvchi valni siqish kuchini o'zgartirish orqali boshqariladi.

## **XI bob. PAXTA SELLULOZASI VA UNDAN QOG'oz ISHLAB CHIQARISHDA ISHLATILADIGAN SUVLARNI TAYYORLASH**

Selluloza - qog'oz ishlab chiqarish sanoati suvni ko'p ishlataladigan tarmoqlar qatoriga kiradi. Suvning sarfi ishlab chiqarilayotgan qog'oz turlariga bog'liq. Ko'p hollarda suvning sarfi, 1 tonna tayyor mahsulotga  $112\text{--}360 \text{ m}^3$  to'g'ri keladi. Paxta sellulozasidan qog'oz ishlab chiqarishda –  $200\text{--}250 \text{ m}^3$ .

Paxta selluloza va qog'ozini olishda ishlataladigan texnik suvga qo'yilgan talablar, quyidagi sifat ko'rsatkichlardan ko'p bo'lmasligi kerak:

temir ionlari –  $0,1 \text{ mg/l}$  (selluloza va qog'oz rangini sarg'aytiradi);

marganets ionlari –  $0,05 \text{ mg/l}$ ;

xloridlar –  $10 \text{ mg/l}$ ;

qattiqligi –  $0,2 \text{ mg-ekv/l}$ ;

bog'lanmagan  $\text{CO}_2$  –  $10 \text{ mg/l}$ .

Suvning qattiqligi paxta momig'ini pishirish jarayonida, qozonni qizdiruvchi trubalariga kalsiy va magniy karbonat tuzlari o'tirib, pishirish jarayonini qiyinlashtiradi.

### **11.1. Tabiiy suvlar haqida qisqa ma'lumotlar**

Tabiiy suv – murakkab eritma, kimyoviy toza holda uchramaydi (44-jadval).

## Tabiiy suvda uchraydigan moddalar

44-jadval

Mexanik qo'shimchalar	Kolloidlar		Erigan moddalar		
	organik moddalar	mineral moddalar	ka- tionlar	anionlar	gazlar
Zichligi suvdan kam bo'lgan, suzuvchi moddalar; Zichligi suvgateng bo'lgan osma moddalar	Gumin moddalar yog'lar	Kremniy kislotalar temir tuzlari	K <sup>+</sup> Na <sup>+</sup> Ca <sup>2+</sup> Mg <sup>2+</sup> Al <sup>3+</sup> Fe <sup>2+</sup> Fe <sup>3+</sup> Mn <sup>2+</sup>	HCO <sub>3</sub> <sup>-</sup> CO <sub>3</sub> <sup>2-</sup> SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup> Cl <sup>-</sup> NO <sub>3</sub> <sup>-</sup> HSiO <sub>3</sub> <sup>-</sup> SiO <sub>3</sub> <sup>-</sup>	O <sub>2</sub> CO <sub>2</sub> N <sub>2</sub> H <sub>2</sub> S NH <sub>3</sub>
Zichligi suvdan katta bo'lgan cho'kuvchi moddalar				Organik kislotalar	

Mexanik qo'shimchalar suv tarkibida organik va anorganik qo'shimchalar bo'lib, o'lchamlari 0,1 dan 1 mm atrofida bo'ladi.

Organik qo'shimchalar – tolasimon o'simlik qismilari, illar hamda plankton (o'simlik va tirik mikroorganizmlar).

Anorganik qo'shimchalar – qum va loy zarrachalari.

Kolloidlar. Suv tarkibidagi kolloid zarrachalarning o'lchamlari 0,1 dan 0,001 mm. Bular oddiy ko'z bilan ko'rinxmaydi. Suv tarkibidan koagulant qo'shib cho'ktirilgach, filtrlab chiqarib tashlanadi.

Suv tarkibidagi organik moddalar tarkibi murakkab. Organik moddalarning ko'p qismi kolloid eritma holida bo'lib, qisman osma holda va chin eritma holida bo'ladi.

Suvdagagi organik moddalar, daryo qirg'oqlardagi yer qatlani-

larini yuvilishi va o'simlik hamda tirik organizmlarning parchalanishidan hosil bo'ladi. Bular turkumiga kiradiganlardan biri gumus.

Gumus — murakkab organik birikmalar kompleksi. Gumus moddalari asosan ikki gruppera organik kislotasi: gumin va sulfokislotadan iborat.

Gumin kislotasi ligninni oksidlanishidan hosil bo'ladi:



Fulfokislotaning formulasi hozirgacha aniq emas. Fulfokislotta tarkibida 44 uglerod, 5,5 vodorod, 40 kislorod, va 1,5 % azot borligi aniqlangan. Fulfokislotaning suvlilik eritmasi o'zining rangliligi bilan ajralib turadi. Suvda erigan boshqa guruhi organik birikmalarning rangi past. Ularni koagullab yoki filtrlab suvni tozalab bo'lmaydi.

Suvda erigan moddalar, anorganik yoki organik bo'lsin, ular tuz yoki ion holatida bo'ladi. Tabiiy suvlarning muhim kationlari — kalsiy va magniy ionlari, ular xlorli, sulfokislotali yoki  $\text{CO}_2$  holatda uchraydi. Kalsiy va magniy tuzlari suvning doimiy qattiqligi hisoblanadi. Ishqoriy metallarning (natriy, kaliy) ionlari xlorli, sulfat va boshqa tuzlar holatida uchraydi.





Tabiiy suvlarning sifatini xarakterlovchi ko'rsatkichlardan bu kationlar ( $\text{Fe}^{2+}$ ). Anionlar — xlor, sulfat va  $\text{HCO}_3^-$ . Ularning miqdori tez-tez o'zgarib turadi.

## 11.2. Tabiiy suvlarni tozalash usullarining klassifikatsiyasi


1. Tindirish: koagullah, cho'ktirish, filtrlash.
2. Rangsizlantirish: koagullah, cho'ktirish, filtrlash.
3. Yumshatish: qizdirish, ishqorlash va ionalmashtirish.
4. Havosizlantirish: vakuumda purkash, reagent bilan, kationlash, ko'mirlash.

qattiqligini 0,3 mg-ekv/l gacha yumshatadi. Bu usulda suvni yumshatishdagi kimyoviy reaksiyalar quyidagilar:

a) ohak bilan ishlov berganda:





b) soda bilan ishlov berganda:



Natron usuli magniyli vaqtinchalik va doimiylik qattiqlikni yo'qotadi. Natriy ishqori bikarbonat kalsiy va bikarbonat magniy tuzlari bilan reaksiyaga kirishib, ularni erimaydigan karbonatlarga va magniy gidroksidiga aylantiradi. Ajralib chiqqan soda – kalsiyli doimiy qattiqlikni yo'qotadi.

Natron usuli bilan suvni yumshatishda ketadigan kimyoviy reaksiyalar:





Sodali usul suvni kalsiyli doimiy qattiqligini va qisman magniyli doimiy qattiqligini yo'qotishni ta'minlaydi. Sodali usulni, magniy tuzlari kam bo'lganda va kalsiy bikarbonat tuzlari bo'limgan qattiqligida, qo'llash qulay hisoblanadi. Bu usulda ketadigan kimyoviy reaksiya:






Fosfatli usul oldingi ikki usuldan ko'ra to'laroq

suvni yumshatadi. Bu usulda qo'llaniladigan natriy trifosfat ( $\text{Na}_3\text{PO}_4$ ) suvning vaqtinchalik va doimiylik qattiqligini yo'qotadi. Kimyoviy reaksiyalar:



Fosfat kalsiy, va fosfat magniylarning suvda eruvchanligi juda past, fosfat usulida yumshatishning effektivligini oshiradi. Fosfat usuli, suvni avval ohak-sodali usulida yumshatilgandan keyin qo'llanganda qattiqlik beruvchi tuzlari to'la cho'kadi.

I on a l m a s h t i r i s h u s u l i – yomon eriydigan mineral va organik moddalarning suv tarkibidagi kation va anionlarni o'zining tarkibidagi ionlarga almashtirish hisobiga yumshatishdir. Suvdagи kalsiy ( $\text{Ca}^{2+}$ ), magniy ( $\text{Mg}^{+2}$ ) va temir ( $\text{Fe}^{3+}$ ) ionlarini almashtirish uchun vodorod ( $\text{H}^-$ ), natriy ( $\text{Na}^-$ ) va ammoniy ( $\text{NH}_4^-$ ) ionlari qo'llaniladi:



Bu usul bilan yumshatilgan suvning qoldiq qattiqligi 0,05 mg-ekv/l. Ion almashinish reaksiyasi qaytarilish xususiyatiga ega: Qaytarish uchun regenieratsiya jarayonini o'tkazish kerak. Natriy kationtlarni qaytarish uchun osh tuzi qo'llaniladi:




Kationitlar tabiiy va sun'iy bo'ladi.

Tabiiy kationitlar:

glaukonli qumlar yoki glaukonli (suqli) alumosilikatlar; gumusli ko'mirlar (gumusli kislotalar va b.).

Sun'iyalar:

anorganik (alumosilikatlar) — permutitlar, masalan, permuit natriy:



organik — sulfoko'mirlar (qora va toshko'mirni sulfirlab tayyorlanadi);

kationitlar — sintetik smolalar asosida (ekspatetlar, masalan, ekspatet 1, vafotitlar va b.). Kation almashinuvchi sintetik smolalarning funksional gruppalari:

-  $\text{SO}_3\text{H}$ , -  $\text{COOH}$ , -  $\text{OH}$ , -  $\text{CH}_2\text{SO}_3\text{H}$  va b.

Shu guruh smolalarga fenol formaldegid smolasi ham kiradi.

### **11.3. Paxta sellulozasi va qog'ozini olishda ishlatiladigan suvlarni tayyorlash**

Bu suvlar daryo va artezian suvlardan tayyorlanadi. Qaysi biridan foydalanish — korxonaning joylashgan joyiga bog'liq.

#### **11.3.1. Artezian qudug'idan olingan suvni tayyorlash (Farg'ona furan birikmalari kimyo zavodi misoldida)**

Zavod texnologik va deminerallangan suvlarni ishlatadi. Buning uchun artezian qudug'idan olingan suvdan foydalaniлади. Texnologik suv tayyorlash, patron filtr orqali filtrashga asoslangan. Deminerallangan suv tayyorlash —

teskari osmos usuli bilan bajariladi. Bu suvlarning sifat ko'rsatkichlari 45-jadvalda keltirilgan.

### Texnologik va demierallangan suvlarning sifat ko'rsatkichlari 45-jadval

Ko'rsatkich	Quyidagi suvlar uchun me'yor	
	texnologik	demineralangan
Vodorod ko'rsatkich, pH	7,4	5,2
Komponentlar tarkibi, mg/l:		
xloridlar;	9,7	0,02
sulfatlar;	280	0,26
nitratlar;	33	0,13
bikarbonatlar;	250	0,43
silikatlar;	10	0,03
kalsiy;	109	0,16
magniy;	45,3	0,07
temir;	0,05	0,00
quruq qoldiq	813	1,2

Demineralangan suvni tayyorlash texnologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:


artezian suvni filtrlash (texnologik suv olish);

texnologik suvni temir ionlaridan tozalash;

temir ionlaridan tozalangan suvni teskari osmos orqali tozalash.

Artezian suvini filtrlashdan maqsad, undagi osma moddalardan tozalash. Bu ishlar patron filtrlar yordamida, rejimi avtomatik ravishda boshqarilib boriladi.

Texnologik suv tarkibidagi ikki valentli temir ionlaridan tozalash — uni uch valentligiga o'tkazish uchun, havodagi kislorod bilan oksidlashga temir bikarbonatni gidrolizlashga, asoslangan.



1 mg ikki valentli temirni oksidlash uchun 0,143 mg O<sub>2</sub> sarflanadi. Hosil bo'lgan temir gidroksidi filtrlab chiqariladi. Temir ionlaridan tozalangan suv teskari osmos filtridan o'tib, permiat hosil qiladi. Permiat – membranadan o'tgan tuzsizlangan eritma.

Membranalar, suvda kam eriydigan quyidagi tuzlar bilan ifloslanishi mumkin: CaCO<sub>3</sub>, CaSO<sub>4</sub>, BaSO<sub>4</sub>, SrSO<sub>4</sub>, CaF<sub>3</sub>.

Membranalarni anorganik tuzlardan tozalash uchun 2 %li limon kislotasi ishlataladi. Organik birikmalardan tozalash uchun – maxsus 411 tozalagich vositasining 2 % eritmasidan foydalilaniladi. Dizenfeksiyalash – 0,2 % vodorod peroksiidi bilan bajariladi.

### 11.3. 2. Daryo suvlarini tozalash

Bu usulda suvni tayyorlash quyidagi bosqichlardan iborat:

- suvni 30–35 °C gacha qizdirish;
- dastlabki suvni qisman tozalash;
- qisman tozalangan suvni yumshatish;
- organik moddalardan tozalash.

Dastlabki suvni qizdirish texnologik jarayonlarni yengilashtiradi: organik qo'shimchalar va minerallar eritmaga o'tadi.

Qisman tozalash tindiruvchi filtrlar orqali bajariladi. So'ngra bu suv natriy-kationli filtrlardan o'tkaziladi. Organik moddalar – ko'mirga sorbsiyalanib tozalanadi. Natijada, karbonatli qatlilik va kolloid holdagi kremniy kislotalar kamayadi, lekin sulfat ionlar bilan uglerod kislota miqdorlari oshadi.


Kolloid eritmada hamma zarrachalar bir xil zaryadlanganligi sababli bir-biridan uzoqlashadi. Tozalangan suvga koagulant qo'shilsa – zarrachalar yiriklashadi, natijada, cho'kmaga tu shadi. Jarayon tezlashishi uchun yuqori molekular birikmalar dan poliakrilamid (flokulant) qo'shiladi.

Koagulant sifatida aluminiy sulfati (Al<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub>.18H<sub>2</sub>O)


qo'llaniladi. Aluminiy sulfat suvgaga qo'shilganda gidrolizlanib, aluminiy giroksid hosil bo'ladi va u cho'kmaga tushadi:



Suvdagagi bikarbonatlar bilan reaksiyaga  $\text{H}^+$  kirishadi:



Bu reaksiyalar yig'indisi quyidagicha:



Aluminiy gidroksidi – suvda yomon eriydigan modda. Sulfat aluminiyini eritmasi suvgaga solingandan biroz vaqt o'tgach, mayda o'lchamni, 1–2 mm va undan katta pag'a-pag'a zarrachalar hosil bo'ladi. Ular bir-biriga yopishib, yiriklashadi va cho'kmaga tusha boshlaydi. Flokulator (PAA) eritmasi qo'shilganda jarayon tezlashadi, zarrachalar yanada yiriklashadi va cho'kmaga tushish ham tezlashadi. Cho'kmadagi moddalar chiqarib tashlanadi.

Suvni yumshatish, yuqorida yozilgan (natron usuli) usulida bajariladi. Tozalangan suvning sifat ko'rsatkichlari 46-jadvalda keltirilgan.

#### Daryo suvlaridan (Bos-su kanali suvi misolida) tayyorlangan suvning sifat ko'rsatkichlari

*46-jadval*

Sifat ko'rsatkichlar	Dastlabki suv ko'ratkichlari	Me'yor	
		tindirilgan suv	yumshatil- gan suv
Vodorod ko'rsatkich	7,7–8,4	7–8	7–8

jadvalning davomi			
Tiniqligi, sm	15–30	4,1–5,6	4,1–5,6
Umumiy qat-tiqlik, mg-ekv/l	2,0–2,5	2,2–2,5	0,2
Ishqorlik, mg/l	2,0–2,2	1,5–1,7	1,5–1,7
Komponentlar, mg/l: temir; aluminiy	0,1–1,5 0,05–0,15	0,1–0,6 —	0,09 0,3
Eriган mineral moddalarning, quruq miqdori, mg/l	90–130	—	240 gacha
XPK, mgO <sub>2</sub> /л	0,5–0,8	0,5	0,5

#### 11.4. Paxta selluloza va undan qog'oz olishda hosil bo'lgan oqova suvlarni tozalash

##### 11.4.1. Selluloza ishlab chiqarishda

Selluloza ishlab chiqarishda hosil bo'lgan oqova suvning tarkibi, xossasi va suvdan foydalanish rejimiga qarab, tozalash usuli tanlanadi. Ishlab chiqarish oqova suvlarni tozalash usullari:

- mexanik;
- kimyoviy;
- fizik-kimyoviy;
- biologik.

Masalan, Farg'ona furan birikmalari kimyo zavodida oqova suvlarni biologik usulda tozalash yo'lga qo'yilgan. Qurilmaning quvvati sutkasiga 26700 m<sup>3</sup>. Qurilma tarkibi:

- qum tutkich;
- birlamchi radial tindirgich;
- aerotenk-arashtirgich;
- ikkilamchi radial tindirgich;

- il tutgich;
- aerobik minerallovchi;
- nasos-havo beruvchi stansiya;
- illi maydoncha.

Qurilmaga oqib kelgan oqova suv mexanik usulda: reshokali tutkichlarda, qumtutgich, birlamchi tindirgich va biologik aeroten, so'ngra ikkinchi tindirgichlardan o'tkazib, tozalanadi. Ikkinci tindirgichlardan keyin, tindirilgan suv kollektorga yuboriladi.

Yirik erimaydigan qo'shimchalar, tolali chiqindilar reshokali tutkichlar orqali tozalanada. Rye sh yo tk a zazorining eni 5–25 mm, reshokta kollektorlarga 60–70° burchak ostida o'rnatiladi. Zazordan suvning o'tish tezligi 0,8–1,0 m/s dan oshmasligi kerak.

Oqova suv t i n d i r g i c h l a r d a d a s t l a b k i 2 soat ichida 70 % cho'kadi, gorizontal cho'ktirgichlarda oqova suvning oqish tezligi 0,01 m/s dan oshmasligi lozim. Tindirish usuli bilan tozalab bo'lmaydigan, oqova suv tarkibidagi mayda dispersli chiqindilar, filrlash orqali tozalanadi.

Filrlash tezligi, oqova suvdagi disperslarning konsentratsiya bo'lganligi, agar konsentratsiyasi 25 mg/l bo'lsa – 0,2–0,3 m/s, konsentratsiyasi 25–50 mg/l bo'lsa – 0,1–0,2 m/s.

## 11.5. Oqova suvlarni biologik usulda tozalash

Asosan organik moddalardan tozalashda qo'llaniladigan usul. Oqova suv tarkibidagi organik moddalarni bioximik oksidlash orqali tozalanadi. Bu usul mikroorganizmlarga (biotsenozi) kiruvchi har xil bakteriya va suv o'simliklarida kechadigan jarayonlar asosida o'tadi. Organik moddalar bakteriyalar bilan birlashib, ularni parchalaydi – mineralizatsiyalaydi. Kislород miqdori yetarli bo'lganda, organik moddalar parchalanib, aerobik bakteriyalar uchun oziqa bo'lgan azot, fosfor va oltingugurtlarga ajraladi. Bu moddalarni bakteriyalar iste'mol qilish natijasida mineralizat-

siyalanadi va shu tufayli oqova suv tarkibidagi organik moddalar dan tozalanadi. Kislород bo'lmaganda yoki yetarli bo'lmasa, aerobik bakteriyalarning hayotiy faoliyati tufayli organik moddalar achiy boshlaydi.

Aerobik bakteriyalar ikkiga — getrotrof va avtotroflarga bo'linadi.

**G e t r o t r o f l a r** uglerodli birikmalarni iste'mol qilib, energiya oladi va hujayralarni biosintez qiladi.

**A v t o t r o f l a r** hujayralarni biosintez qilish uchun anorganik uglerodni iste'mol qiladi. Energiyani esa yorig'lik hisobida fotosintezdan oladi. Biologik usulda oqova suvni effektiv tozalashda temperatura, muhit (pH) va kislородли rejim ta'sir etadi.

### 11.5.1. Qog'oz ishlab chiqarishda

Qog'oz ishlab chiqarishdagi asosiy oqova suvlar:

paxta momig'ini pishirish qozonidan keyingi;

qog'oz polotnoni shakllanish jarayonidagi.

Oqova suvni tozalashda, asosan kimyoviy usul qo'llaniladi. Buning uchun qo'llaniladigan materiallar: ionitlar, anorganik kislota va tuzlar, sorbentlar hamda oksidlovchilar (47-jadval).

#### Oqova suvni tozalashda qo'llaniladigan materiallar

47-jadval

t/r	Nomlari	GOST	Sifat ko'rsatkichlari	Miqdori
1	Kationit, KU -2-8	20298	Zarrachalar o'lchami, mm; Namligi, %	0,315— 1,25 50—60
2	Anionit, AH- 31	20301	Zarrachalar o'lchami, mm; Namligi, %	0,4—2,0 5

*jadvalning davomi*

3	Sulfo ko'mir	5698	Zarrachalar o'lchami, mm; Namligi, %	0,5–1,25
4	Faollangan ko'mir, БАУ- Б	6217	Namligi, %	8 dan kam
5	Aluminiy sul- fat eritmasi		Konsentratsiyasi, %	10 dan kam emas
6	Temir sulfati eritmasi		Konsentratsiyasi, %	20 dan kam emas
7	PAA eritmasi		Konsentratsiyasi, %	0,1
8	Uyuvchi nat- riy, texnik	2263	Konsentratsiyasi, %	40–42
9	Sulfat kislota, texnik	2184	Konsentratsiyasi, %	92,5
10	Vodorod peroksiidi	177	Konsentratsiyasi, %	30–37

**Oqova suv va tozalangandan keyingi suvning sifat  
ko'rsatkichlari**

*48-jadval*

Ko'rsatkich	Talab qilingan sifat ko'rsatkichlari	
	tozalashdan oldin	tozalagandan keyin
Osma moddalar, mg/l	2000	200
Ishqorligi, mg-ekv/l	350–400	—
Quruq qoldiq, mg/l	1000–1200	2000
XPK, mgO <sub>2</sub> /l	300–400	350
Bo'yoglar (sintetik), mg/l	—	10

*jadvalning davomi*

To'ldiruvchilar , mg/l		0,1
Rangi, graduslar	300–400	100
Vodorod ko'rsatkich, pH	10,6–10,8	5–8
Vodorod peroksidi, mg/l	50–150	—

Qog'oz ishlab chiqarishdagi oqova suvlarni tozalash texnologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- komyoviy ishlov berish;
- oksidlash;
- tindirish;
- tuzsizlantirish.

**Komyoviy ishlov berish.** Paxta momig'ini pishirishdan va qog'oz qilish mashinasidan kelgan oqova suvlarni aralashtirish, osma va organik qo'shimchalardan 10 % aluminiy sulfat eritmasi bilan ishlov berib, koagullash. Jarayonni tezlashtirish uchun 0,1 % flokulant (PAA) eritmasidan qo'shish. Koagullash jarayoni cho'ktiruvchi apparatlarda, havo bilan intensiv aralash-tirib o'tkaziladi. Cho'kma suyuqlikdan ajratiladi. Rang beruvchi organik moddalardan tozalash uchun, so'ngra oksidlanadi.

**Oksidlash.** Oqova suv koagulatsiyalangandan keyin 10 % vodorod peroksid eritmasi va 0,5 % temir sulfati bilan 70°C da kontakt apparatida 15 minut aralashtiriladi. Vodorod perokсиди kislotali muhitda parchalanadi:  $H_2O_2 - H_2O + 0,5 O_2$ , ajralib chiqqan kislorod ta'sirida organik moddalarning asosiy qismi oksidlanadi. Natijada, organik moddalar gidrolizlanib xionin va oksixinionlarga aylanadi. Eritmadagi temir ionlari vodorod peroksidining parchalanishida katalizatorlik rolini bajaradi. Temir ikki valentlikdan uch valentlikka o'tadi. Muhit pH 3–5.

**Tindirish.** Oqova suv oksidlangandan keyin temperaturasi 45 °C gacha pasaytiriladi va cho'kmadan tozalash uchun tindiruvchi filtrlarga jo'natiladi. Jarayon uzlucksiz kechadi. Tindiril-

gan oqova suv tuzsizlantirishga yuboriladi. Tuzsizlantirishdan maqsad, bu suvni qayta ishlatish. Qayta ishlatishga zaruriyat bo'limasi — kanalizatsiyaga oqiziladi. Tindirish va sorbsiyalash filtrlaridagi texnologik jarayonlarining me'yorlari 49-jadvalda keltirilgan.

### Tindirish va sorbsiyalash filtrlaridagi texnologik jarayonlarining me'yorlari

*49-jadval*

t/r	Nomlari	Birligi	Filtrlar	
			tindirish	sorbsiyalash
1	Quvvati	m <sup>3</sup> /soat	18,5	18,5
2	Filtrlash yuzasi	m <sup>2</sup>	3,14	3,14
3	Filtrga solingan material balandligi	m	1	2
4	Filtrga solingan material hajmi	m <sup>3</sup>	3,14	6,28
5	Filtr material		Sul-foko'mir	Faollangan ko'mir БАУ-Б
6	Filtrlash tezligi	m <sup>3</sup> /soat	5	6
7	Regeneratsiyaga ketgan umumiy vaqt	soat	12,27	14,82

**Tuzsizlantirish.** Oqova suvlarni tuzsizlantirish ion almashtirish usuli bilan amalga oshiriladi. Tuzsizlantirish vodorodkationli va anionli birinchi bosqich filtrlarda bajariladi. Erimaydig'an filtrlovchi material sifatida kationit va anionitlar qo'llaniladi. Kationtlarni sulfat kislota bilan regeneratsiyalaganda vodorod kationiti bilan to'yinadi, so'ngra bu kation ishlov berilayotgan oqava suvdagi kation bilan almashadi. Bu

jarayon kationlash deb ataladi. Kimyoviy reaksiyalar sxemasi:



Ionitlar to'yingach, regeneratsiyalanib qayta ishlataladi. Tozalangan oqova suvlar neytrallangach, texnologiya jarayoniga qaytariladi yoki shahar kanalizatsiyasiga oqiziladi.

## 11.6. Qog'oz qilish mashinasida suv va tolalarning balansi

### 11.6.1. Suv va tolalar balansini tuzishning asosiy prinsiplari

Qog'oz olish texnologiyasi bir nechta bosqichlardan iborat. Hamma bosqichlarda suv va tolalar oqimi mavjud. Har bir bosqichda qisman bo'lsa-da, oqim tarkibidagi massadan chiqindi sifatida isrof bo'ladi. Isroflarni (kichik) darajaga keltirish maqsadida qog'oz qilish mashinasida suv va tolalarning balansi tuziladi. Odatda, suv va tolalarning isrofi 1 t qog'ozga nisbatan olinadi. Suvning sarfini (yuqori) darajada kamaytirish uchun suvni aylanma halqa shaklidagi sxema tuziladi. Halqasimon tuzilgan sxemadan foydalanilganda tolalar isrof bo'lmaydi.

Korxonalarni loyihalashtirish vaqtidayoq, qog'oz qilish mashinasida (QQM) harakatda bo'lgan massa oqimini sxemasida har bir bosqichida, massadan namuna olish uchun maxsus joylarni ajratish hisobga olinadi. Bulardan tashqari, sxemada qoshimcha kerak bo'lib qolgan vaqtida berish uchun, tayyorlangan texnologik suv (свежая вода), tindirilgan, aylanma va oqova suvni chiqarishga mo'ljallangan trubalar ham o'rnatiladi.

Loyihalash instituti yangi zavodni loyihalash davomida,

balansni hisoblash uchun, turdosh korxonalardan QQM massa aylanish sxemasiidagi, yuqorida keltirilgan namuna olish nuqtalaridan olingan massa tarkibi va texnik adabiyotlardan ma'lumotlar to'planadi.

Material balansini, 1 tonna tayyor mahsulotga (netto) yoki 1 soatda ishlab chiqargan mahsulotga nisbatan, oqartirish va QQMdagi nuqsonli hamda chiqindilarni hisobga olgan holda tuziladi.

Material balansini 1 tonna tayyor mahsulotga nisbatan hisoblash ko'proq qo'llaniladi, chunki turdosh korxonalardagi suv va tolalar solishtirma sarfiga solishtirish imkonи qulay hisoblanadi.

Balansni hisoblash tayyor mahsulotdan texnologik oqimga teskari yo'naliш bo'ylab hisoblash qabul qilingan. Buning qulayligi shundaki, suv va tolalarning sarfi aniq, aks holda hisoblashda massa konsentratsiyasi va aylanma suvning miqdorini texnologik potokni sirkulatsiya bo'lib turgan vaqtarda to'g'ri aniqlash qiyin.

Har bir bosqich uchun massa, quruq modda va suv miqdori hisoblanadi. Agarda qog'ozga to'ldiruchi qo'shilgan bo'lsa, quruq moddani tola va to'ldiruvchilarga ajratish lozim. Buning uchun aylanma suv tarkibidagi quruq moddaning kuli aniqlanadi. Aniq hisoblashlarda kul miqdori kuydirilgandagi kamayishi hamda tolaning tabiiy kuli hisobga olinadi.

Amaliy hisob-kitoblarda, qog'oz massasidagi tolalarning tabiiy kuli to'ldiruvchi kulini aniqlashdagi kamaygan qismiga teng deb olinadi.

Texnologik jarayonlarning har bir bosqichida, to'ldiruvchini ushlanib qolishi hisobga olinishi talab qilinmaganda hamda tegishli tozalovchi apparatlardagi, aylanma suvni lokal tozalovchi qurilmalarda, aylanma suv uchun bak va nasoslarda, balansni hisoblash uchun quruq qoldiq tarkibidagi tolalar va to'ldiruvchilar ajratilmasdan bajariladi. Bu holda faqat «kompozitsion basseyn» bosqichida, yarimmahsulot sarfini 1 t mahsu-

lot tayyorlashdagi quruq qoldiq, ularning ushlanib qolinishi hisobga olingan holda, tarkibidagi kuydirilayotgan va to'ldiruvchilar hisobga olinadi.

Balansni hisoblashda, shartli ravishda, quyidagi moddalar tarkibidagi quruq moddalarni hisobga olmaslik: aluminiy sulfati, bo'yoqlar va flokulantlar, qabul qilingan. Kanifol yelimi esa tolalär bilan qo'shib hisoblanadi.

Suv va tolalarni balans hisobi tugagach, aniqlangan ma'lumotlar jadvalga yoziladi. Bu jadvalda har bir bosqichdagi suv va tolalarning kirishi va sarsfi, to'ldiruvchilar isrofi keltiriladi. Hamda oqova suv tarkibidagi tolalar va to'ldiruvchilar miqdori ko'rsatiladi. Hisob-kitob natijalarini grafik ravishda ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi. Balans hisoblari natijalarini ikki sxemada ifodalash qulay: suv balansi va tolalar balans. Balans hisoblarining aniqligi – quruq moddalar uchun 0,01 kg (0,1 kg); qog'oz massasi va suvlar – 0,001 m<sup>3</sup> (0,01 m<sup>3</sup> gacha).

### **11.7. Balansni hisoblashning asosiy metodikasi**

Oddiy holatlarda (60-rasm), ishlab chiqarish bosqichining ma'lum bir ko'rيلayotgan qismidan chiqayotgan suv konsentratsiyasi va qog'oz massasining kirish va chiqishidagi quruqligi yoki ularning konsentratsiyasi aniq bo'lsa, ularni I.I. Bogoyavlinskiy tenglamasi orqali aniqlash mumkin:

$$X = G + K \frac{100 - T_u}{T_u} X - \frac{100 - T_k}{T_u} G, \text{ kg}$$

bunda,  $X$  – ishlab chiqarish bosqichi kirayotgan, quruq modda miqdori, kg;  $G$  – ishlab chiqarish bosqichidan chiqayotgan, quruq modda miqdori, kg;  $K$  – chiqayotgan suv konsentratsiyasi, kg/l;  $T_l$  va  $T_k$  – kirayotgan va chiqayotgandagi qog'ozning qu-


ruqligi yoki qog'oz massasining kirayotgan va chiqayotgandagi konsentratsiyasi, %.

Biroz murakkab hollarda, ishlab chiqarishning alohida bo'lagi oqimdagи quruq massa va suvning miqdorini aniqlash uchun ikki noma'lumli tenglama tuziladi: bulardan biri massa hajmi balansi bo'lsa, boshqasi — quruq massa balansi:

$$R_2 = R_1 + R_3;$$

$$R_2 S_2 = R_1 S_1 + R_3 S_3,$$

bunda,  $R_1$ ,  $S_1$  — texnologik bosqichiga kirayotgan massaning hajmi (l) va konsertratsiyasi (kg/l);  $R_2$ ,  $S_2$  — shu texnologik bosqichdan chiqayotgan massaning hajmi (l) va konsentratsiyasi (kg/l);  $R_3$ ,  $S_3$  — shu texnologik bosqichga kirayotgan aylanma suvning hajmi (l) va konsentratsiyasi (kg/l).



*60-rasm. Texnologik jarayonning bir qismida suv va tolalarning material balansini hisoblash uchun schematik grafik:*

a — oqimini aylanma suv bilan suyultirish; b — oqimni setkada suvsizlantirish; d — oqimni toza suv (свежой водой) bilan suyultirish ( $R_0$ ) va aylanma suvni chiqarib qog'oz massasini suvsizlantirish.

Faqat ikkita qiymat noma'lum bo'lishi mumkin, qolganlari berilgan bo'ladi yoki amaliyotdan olingan bo'lishi mumkin.

Balans tenglanmasini tuzish oson bo'lish uchun hamda xa-

toga yo'l qo'ymaslik uchun, oqimni har bir texnologik bosqichda (uzelda) grafik usulini qo'llash taklif etiladi. Bunda har bir texnologik bosqich jarayonida uchta holatning biri bo'lishi mumkin: oqim aylanma suv bilan suyultirilishi mumkin (60-rasm, a) yoki oqim suvsizlantirilishi mumkin (60-rasm, b), yoki suvsizlantirishda toza suv bilan suyultirilishi mumkin (60-rasm, d).

Aylanma suv bilan suyultiralayotgan (60-rasm, a), uzel uchun tenglamani yechishda, masalan, aralashtiruvchi nasos, ikkita aniq bo'lмаган qiymatni aniqlash mumkin, ya'ni  $R_1$  va  $R_3$ :

$$R_1 = \frac{R_2(S_2 - S_3)}{S_1 - S_3}$$

$$R_3 = \frac{R_2(S_1 - S_2)}{S_1 - S_3}$$

Potokni suvsizlantirish sxemasiga asosan (60-rasm, b), bu balans tengligi teng bo'ladi:

$$\begin{aligned} R_1 &= R_2 + R_3; \\ R_1 S_1 &= R_2 S_2 + R_3 S_3, \end{aligned}$$

Bu tenglamadan balansa noaniq bo'lgan  $R_1$  topish mumkin,  $R_3$  – esa bu tenglamadan topiladi:

$$R_3 = \frac{R_2(S_2 - S_1)}{S_1 - S_3}$$

Oqimni suvsizlantirish toza suv ( $R_0$ ) qo'shish bilan borgan hollarda, masalan, purkash orqali (60-rasm, d), tenglamaning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$R_1 + R_0 = R_2 + R_3; \\ R_1 S_1 = R_2 S_2 + R_3 S_3,$$

Odatda, toza suv sarfi aniq bo'ladi, undagi quruq moddalar konsentratsiyasi 0 ga teng deb olinadi. Bu holda noaniq bo'lgan  $R_1$ :

$$R_1 = \frac{R_2(S_2 - S_3) + R_0 S_3}{S_1 - S_3}$$

Shu usullar bilan har bir ishlab chiqarish texnologik uzel-lariga tenglamalar, tuzish mumkin. Agar tenglama to'g'ri tuzil-gan bo'lsa, tolalar isrofi ( $V$ ) a.q. toza tolalar (dastlabki) sarfi 1 t qog'oz  $G_a$  bilan ishlab chiqarilgan qog'oz B farqiga teng bo'ladi:

$$V = G_a - B, \text{ kg/t.}$$

Isrof bo'lgan tolalarning toza sarflangan tolalarga  $G_a$  nisbati (%), yuvindiga ketgan tolalar P hisoblanadi:

$$P = \frac{B \cdot 100\%}{G_a}$$

1 tonna qog'ozga sarflangan absolut quruq tolalar sarfi qu-yidagini tashkil etadi:

$$G_a = \frac{(1000 - W - Na - K)100}{100 - P}, \text{ kg}$$

bunda,  $W$ —qog'oz tarkibidagi suv, kg/t;  $T$ —qog'oz tarkibidagi a.q. to'ldiruvchi, kg/t;  $K$  — qog'ozdagi yelim miqdori, kg/t;  $P$  — yuvindiga ketgan tolalar miqdori, %.

Qog'ozdagi kanifol yelimini miqdori shartli ravishda dozi-rovka qilishdagi miqdoriga teng deb olinadi (ushlab qolinishi 60–75 % ko'p bo'imasada).

Absolut quruq to'ldiruvchining  $N'$  sarfini aniqlashda uning tarkibidagi miqdori  $N_a$  va qog'ozda ushlaniib qolgani  $\phi$ , protsentda ifodalangani:

$$N_a = \frac{N' \times 100}{\phi}, \text{ kg/t.}$$

Odatda, tovar sellulozaning namligi 12 %, to'ldiruvchini 15 %, shuning uchun n.q. tolalar ( $G_a$ ) va n.q. toza to'ldiruvchilar ( $N_v'$ ) sarfi quyidagilarni tashkil etadi:

$$G_a = \frac{G_s}{0,88} \text{ kg/t;}$$

$$N_v' = \frac{N'}{0,85}, \text{ kg/t}$$

1 tonna qog'ozga sarflanadigan tolalarning sarsini, suv va tolalarning material balansini hisoblamasdan, quyidagi formula bilan taxminda hisoblash mumkin:

$$G_a = 1000 - W - \frac{1000 \times Z}{100} - 0,75k + P, \text{ kg/t}$$

bunda,  $G_a$  — 1 t qog'ozga sarflangan a.q. tolalar, kg/t;  $W$  — 1 t qog'ozdagi namning miqdori, kg;  $Z$  — qog'oz kuli, %;  $K$  — 1 tonna qog'ozga sarflangan kanifol miqdori, kg;  $R$  — yuvindiga chiqib ketgan tolalar miqdori, kg/t qog'ozga nisbati.

Hozirgi vaqtida tolalar va suvning balansi maxsus programma orqali kompyuterda bajariladi.

### 11.8. Qog'oz qilish mashinasida suvdan foydalanish

Ishlab chiqarishda qo'llanadigan toza suv turlari. Ishlab chiqarishda qo'llaniladigan suvning sifatiga bo'lgan talab, suvni

tayyorlash sxemasi olinadigan qog'oz turiga hamda tabiiy suvning sifatiga bog'liq: suvda erigan moddalarning tarkibi, osma holdagi qo'shimchalarning turi va miqdori, rangi, pH ko'rsatkichi va boshqa ko'rsatkichlar. Fabrikalarda ishlatiladigan toza suvni tayyorlash texnologiyasining murakkabligiga qarab, quyidagi tartibda joylashtiriladi:

— mexanik tozalangan — suv, suv havzalaridan olingan, undan yirik qo'shimchalarni, cho'p-xashaklarni, axlat, payraxa va shunga o'xshashlardan tozalangan, suv;

— filtrlangan — suv, suvdan mayda dispersli iflosliklardan butunlay yoki qisman tozalangan, suv;

— koagullangap — suv, undan koagulant va flokulantlar yordamida hamda filtrlab butunlay yoki qisman chiqarilgan, yirik va mayda dispers moddalardan tashqari, kolloid eritmalar hamda bo'yagan qo'shimchalardan tozalangan, suv;

— kimyoviy toza — suv, undan koagullash, flotatsiyalash va filtrlab, kerakli kimyoviy moddalar qo'shib yoki butunlay, suvga qattiqlik beruvchi kalsiy va magniy birikmalaridan tozalangan, suv;

— tuzsizlangan — suv, suvda erigan ionlarni ionitlar yordamida tozalangan suv;

— ichimlik — suv, tegishli standartlar talabiga javob beradi-gan darajada tozalangan va ichishga yaroqli suv.

Mahsulot assortimentning kengligi tufayli, xossalari bir-biriga yaqin bo'lgan qog'oz va karton turlari guruhlarga birlashtirilib, suvning sifatiga bo'lgan talablar aniqlanadi. Bundan maqsad suv sarfini me'yorlash, sarfini, qayta ishlatish hisobiga kamaytirish. Bu usul Rossiya selluloza-qog'oz sanoatida qo'llaniladi. Qog'oz va karton ishlab chiqarishda qo'llaniladigan suvning sifatiga bo'lgan talablar 50-jadvalda keltirilgan.

**Har xil qog'ozlar ishlab chiqarishda ishlatiladigan suv sifatiga  
qo'yilgan talablar**

*50-jadval*

	Gazeta qog'ozi	Yuqori kulli		O'rta kulli, ye-	Past kulli		Korob- ka bob
		sahal ye- limlan- gan 1–2 raqamli bosma- xona cho'qur bosimda bosish uchun	Yelimlangan ofset	limlan- gan yozuv, oq, ran- gli, mu- qova bob, gulqo- g'oz, nur sezuvchi	sahal ye- limlan- gan 1–2 raqamli bosma- xona chuqur bosimda bosish uchun	Yelimlangan ofset	
Ko'rsatkich							
Temperatura, °C, ko'pi bilan	50	30	25	30	30	30	45
Mayda osma moddalar, mg/l, ko'pi bi- lan	50	50	50	50	50	50	60
Hidi, ballar, ko'pi bilan	2,0	0	0	0	0	0	0
Rangi, °PKSH, ko'pi bilan	50	50	50	50	50	50	M
Loyqaligi, mg SiO <sub>2</sub> /l, ko'pi bilan	50	40	40	40	40	40	100
Qattiqlik, umumiyl mg-zkv/l, ko'pi bilan	6,5 — 7,5	6,5– 7,5	5,0	5,0– 7,0	3,0– 5,0	6,5– — 7,5	6,5– 7,5

*jadvalning davomi*

Eriyan mod-dalarning umumiy miqdori, mg/l, ko'pi bilan	800	750	750	750	750	750	3000
Tuzlar, mg/l, ko'pi bilan	500	500	500	500	500	500	2000
Kationlar miqdori, mg/l, ko'pi bilan:							
Fe <sup>3+</sup> + Fe <sup>2+</sup>	0,5	0,2	0,2	0,2	0,1	0,1	M
Mn <sup>4+</sup>	0,1	0,1	0,1	0,05	0,05	0,0	M
Ca <sup>2+</sup>	95	95	70	66	42-70	5	95
Mg <sup>2+</sup>	27	27	18	21	11-18	95	27
Anionlar miqdori, mg/l, ko'pi bilan:							
Cl <sup>-</sup>	200	200	200	200	200	200	M
SiO <sub>2</sub> <sup>-</sup>	50	50	100	50	10	10	M
XPK, mgO <sub>2</sub> /l, ko'pi bilan	300	120	120	120	120	120	1000
Permanganat bilan oqsidlanish, mg O <sub>2</sub> /l, ko'pi bilan	150	80	80	80	80	80	800
BPK <sub>5</sub> , mg O <sub>2</sub> /l, ko'pi bilan	30	20	20	20	20	20	70
<i>Eslatma.</i> 1. m – me'yorlanmaydi. 2. Karton ishlab chiqarishda PAV me'yorlanmaydi, qog'oz ishlab chiqarishda 1 mg/l dan oshmasligi kerak. 3. Qog'oz ishlab chiqarishda H <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> ning miqdori 25 mg/l oshmasligi lozim.							

**Aylanma suvdan foydalanishning asosiy prinsiplari.** Qog'oz ishlab chiqarishda uzlusiz ravishda suv chiqariladi, dastlab qog'oz massasidan, setka stolining registr qismida, so'ngra qog'oz polotnosidan, presslash va quritish qismlaridan.

Qog'oz olish jarayonining har bir bosqichida, qog'oz tarkibidagi 1 kg a.q. tolalardagi suv miqdorini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$B = \frac{100 - C}{C}, \text{ kg}$$

bunda,  $C$  – qog'oz massasining konsentratsiyasi, %.

Qog'oz olish jarayonida, uning tarkibidagi suv miqdorini quyidagi formuladan topish mumkin:

$$B_{\text{y}} = \frac{(C_k - C_n)100}{C_k C_n}, \text{ kg}$$

bunda,  $C_n$ ,  $C_k$  – qog'oz tarkibidagi quruq moddaning dastlabki bosqichida ( $C_n$ ) va suvsizlantirilgandan keyingi ( $C_k$ ) miqdori, %.

Qog'ozdag'i osma va erigan moddalar tarkibi, aylanma suvning hosil bo'lish joyiga qarab, olinayotgan qog'oz turi, setkaga quyulayotgan massa konsentratsiyasi, ishslash rejimi hamda boshqa faktorlarga qarab keskin farq qiladi. Bir xil selluloza va to'ldiruvchisiz qog'oz olishda, chiqarilayotgan suvdagi osma moddalar konsentratsiyasi 5–20 %ni tashkil etadi. Odatda, kalta tolali daraxt sellulozasi massasidan gazeta qog'ozini olinadi. Bunda setka tagiga qog'oz massasining, 40–50 % o'tib ketishi mumkin.

Shuning uchun, imkon qadar aylanma suvdan to'la foydalanish lozim. Bunda tolalar va boshqa moddalarini isrof bo'lishdan saqlab, toza suvni va setka tagi suvlarini iqtisod qilish mumkin. Ba'zi bir qog'ozlarni olishdagi chiqarilayotgan suvlarning xarakteristikasi 51-jadvalda keltirilgan.

**Har xil qog'ozlarni ishlab chiqarishda hosil bo'lgan aylanma suv xarakteristikasi**

*51-jadval*

Qog'oz turi	Qo-g'oz mas-sasi, g/m <sup>2</sup>	Qog'oz kuli, %	Bosim ya-shigidagi massa kon-sentratsiyasi, g/l	Suvdagi tolalar kon-sentratsiyasi, g/l		
				reg-istr-da	so'rish-yashi-gida	press-larda
<b>Flokulant ishlat maganda</b>						
Qop	80	tabiiy	4,0	0,40	0,12	0,15
1-sonli yozuv	70	6	8,5	1,8	0,20	2,10
2-sonli yozuv	65	6	7,2	3,0	2,80	3,0
1-bos-maxona	70	15	9,5	5,4	2,80	6,0
2-bos-maxona	65	14	10,2	5,2	2,40	6,0
1-raqamli chuqur bosish	90	18	13,0	6,2	0	7,0
Offset	100	14	12,2	3,0	1,30	5,0
<b>Flokulant qo'llaganda (poliakrilamid)</b>						
1-sonli yozuv	70	8	7,0	1,6	0	2,0
1-bos-maxona	70	18–20	7,8	3,2	1,20	5,0
Offset	100	14	9,5	2,0	0,60	3,5
Chuqur bosish	80–100	22	10,0	3,5	2,0	4,5

Aylanma suvlar uch oqimga bo'linadi. Birinchisi registrli suv. Uning quvvati katta bo'lib 1 t qog'ozga 140–160 m<sup>3</sup> to'g'ri keladi. Tarkibidagi osma moddalar konsentratsiyasi – 3–4 g/l. Bu suv tozalanmasdan sellulozani maydalab massa tayyorlaydi-gan bo'limga, massani suyultirish uchun yuboriladi.

Ikkinci oqimdag'i (so'ruvchi yashikdan, gauch-valdan, set-kani yuvgandagi) suvda osma moddalar miqdori, birinchi oqim-dagiga qaraganda 2–3 marta kam va uning miqdorini 10 % tashkil qiladi. Bu suv massa tayyorlash bo'limiga yuboriladi. Or-tiqchasi – lokal tozalagichlarga yuboriladi. Tozalangan suv toza suv bilan aralashtirilib ishlatiladi. Uchinchi oqimi – vixrli to-zalagich, tugin tutgich, ho'l presslardan chiqqan suvlar. Bu suvlar oqova suvga yuboriladi. Uchinchi oqim suvi miqdori ko'p emas – 2–3 m<sup>3</sup>/t tashkil qiladi. Osma zarrachalar ham, nisbatan kam.

Toza suv juda kam ishlatiladi. Faqat aylanma suvni ishlatib bo'lmaydigan hollardagini qo'llaniladi. Aylanma suvni aylanish darajasi 80–90 %, toza suvni sarfi 5–25 m<sup>3</sup>/t gacha kamayti-radi, yuvindi suv 0,5 %dan kam. Agarda aylanma suv 70 % kam bo'lsa, uni takomillashtirish talab etiladi.

Suv aylanishini ulash va aylanma suvni lokal tozalash. Hozirgi vaqtida qog'oz ishlab chiqarishda, toza suvni butunlay ishlatmaslikni ta'minlovchi texnologiya va qurumalar mavjud. Faqat, par-lanib ketgan suvni o'rmini to'ldirib turadi xolos. Bu texnologiya suv sarsini kamaytirishdan tashqari suvni qizdirishga ketadigan energi-yani iqtisod qiladi, tolalar va ximikatlarning isrofi kamayadi.


Bu texnologiyaning foydali tomonlari bilan birga texnologiyani ancha qiyinlashtiradi: aylanma suvda erigan moddalarining ko'payishiga olib keladi, ya'ni sulfat va xloridlar, yelimlashga, to'ldirishda salbiy ta'sir etadi; osma moddalarining ko'payishi natijasida mashinadagi suknolarning ifloslanishi oshadi, bu hol mikroorganizmlarning ko'payishiga olib keladi, bular qog'oz si-fatining pasayishiga (dog'lar, uzilish) olib keladi.

Shu tufayli mashinada suvning aylanishini effektiv usullar bilan lokal tozalash zarur. Odatdag'i usullar – tindirish,

filtrlash, flotatsiya va koagullash, to'g'ri kelmaydi.

Aylanma suvni tozalashning birmuncha effektiv usuli: qurilma — diskali vakuum — filtrni, flotatsiyali tutqich, osma qatlamni cho'ktirgichlarni qo'llash.

Diskali vakuum — filtr (61-rasm), tolalar qatlamini yuvib turuvchi setkaga beriladigan 5–8 g/l konsentratsiyali suv berilib turganda, effektiv ishlaydi. Aylanma suvdagi osma tolalarni va boshqa qo'shimchalarni effektiv (80–90 %) tutib qolish uchun vakuum 30–40 Pa bo'lishi lozim.



**61-rasm. Aylanma suvni tindiruvchi qurilma sxemasi:**  
 1—havoajratgich; 2—bo'lувчи qurilma; 3—shlam ajratib yo'naltiruvchi truba; 4—ko'p teshikli tag (dno); 5—korpus; 6—cho'kma chiqargich; 7—konusli shitcha; 8—cho'kmaning osma qismi; 9—chashkasimon germetik tag; 10—suvni chiqaruvchi trubalar sistemasi; 11—tindirilgan suvni chiqargich; 12—yig'uvchi jeloba.


Aylanma suvni lokal tozalovchi har xil konstruksiyali qurilmalar bor. Ulardan eng effektiv tozalaydigan qurilma 3-rasmida ko'rsatilgan.

Bu qurilma karton-qog'oz ishlab chiqarishda, tarkibida osma moddalar miqdori 150 dan 2500 mg/l gacha bo'lgan, shu jumladan, 30 – 50 % to'ldiruvchi bo'lganda qo'llaniladi.

Koagulant qo'shmasdan tozalanganda, tarkibida 100–200 mg/l osmalar bo'lganda, effektivligi 65–85 %, koagulant sifatida aluminiy sulfatidan 35 mg/l miqdorda qo'shilganda, tozalash effektivligi 98,0–99,5 %gacha bo'ladi. Tozalangan suvda osma miqdori 2–10 mg/l, bu apparatlarni halqasimon sistemasini tashkil etish imkonini beradi.

Tutuvchi qurilmalarda aylanma suvni tozalashda, yirik va mayda tolalar bilan birga, tola bo'lman mayda qo'shimchalar ham tutiladi. Ular sukno oralariga kirib, setkada massani suvsizlantirish tezligini kamaytiradi va diskali – filtr effektivligini 96–97 %dan 80–90 %gacha tushiradi. Bu holatni yo'qotish uchun struyali fraksionator (62-rasm) qo'llaniladi.

UkrNIIIB tomonidan ishlab chiqilgan ΦCB tipidagi struyali fraksionatorga aylanma suv, kollektor va soplo orqali 0,04–0,10 MPa bosimda, fraksionirlovchi setkaga beriladi. Bunda yirik tolalar ushlanib qolinadi va qayta ishlashga yuboriladi, setkadan o'tgan mayda dispersli fraksiyalar qayta tozalashga jo'natiladi.



62-rasm. Struyali fraksionatorning ishlash sxemasi:

1—forsunka; 2—setkali filtrlovchi element.

Osma moddalarning konsentratsiyasi 200 dan 1000 mg/l bo'lganda, tolaga nisbatan aylanma suvni tozalash effektivligi 95–99 %ni tashkil etadi. Fraksionatorlarning ish unumidorligi sutkasiga 1400 dan 14 400 m<sup>3</sup> bo'lishi mumkin. Bu apparatlar aylanma suvni tozalashda, odatda, lokal tozalagichning 1-bosqichida qo'llaniladi. 2-bosqichida aylanma suvni sifat ko'rsatkichlari toza suvni sifat ko'rsatkichlardan farqi bo'lmasligi kerak, buning uchun maxsus apparatlar qo'llaniladi.

Ba'zi korxonalarda aylanma suvni tozalashda, uni bug'latib, kondensatlab, tozalangan suvni esa toza suvgaga qo'shib ishlataladi. Parlanmaydigan qattiq qismini regenirlab, foydali moddalari ajratib olinadi. Oqova suvlarni bug'latish past temperaturada (50–60°C), vakuum ostida (12–25 kPa) va bosimni o'zgarish intervali: 1,5–2,7 kPa), temperaturaniki – 2–3°C.

Oqova suvlarni tozalash 1-bobda keltirilgan.

## **XII bob. PAXTA MOMIG'IDAN SELLULOZA VA QOG'oz ISHLAB CHIQARISHDA KIMYOVYI NAZORAT**

### **12.1. STANDARTLASH VA MAHSULOT SIFATI**

Standartlar ikki guruhg'a bo'linadi: milliy va xalqaro. O'zbekistonda standartlar quyidagi tushunchalarga bo'linadi: xalqaro standartlar (MHD mamlakatlari); milliy standartlar – O'zbekiston Respublikasi – O'zRST; texnik shartlar standarti – TSh; korxona (birlashma) standarti – STP. Rossiyada ishlab chiqqan xalqaro standartlar O'zbekistonda ularning muddati tugaguncha qo'llaniladi.

O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga standartlar (O'zRST) O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqiladi.

Texnik shartlar (TSh), asosan, iste'molchilar chegaralangan mahsulotlar uchun ishlab chiqiladi.

Korxona standarti (STP) shu korxonada ishlab chiqarilgan va asosan korxonaning o'zida qayta ishlatiladigan mahsulotlarga tuziladi. STP standartini korxona xodimlari tomonidan tayyorlanadi.

Xalqaro standartni (ISO) xalqoro tashkilot tomonidan ishlab chiqariladi. Bu standartning umumiyl nomi «ISO 9000». ISO – 9000 standarti haqida «Mehnat» nashryoti 1996-yilda bosib chiqargan «ISO 9000. Международный стандарты» kitobning 1, 2-tomlarida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

### **12. 2. Mahsulot sifati**

Mahsulot sifati bu iqtisodiy tushuncha bo'lib, bozor tomonidan

talab qo'yiladi. Mahsulot sifati yuqori, raqobatga bardosh bo'lishi lozim. Buni yechishga kompleks yondashish lozim. Sifatni ta'minlash funksiyasini uch guruhga bo'lish mumkin: sifatni rejalashtirish funksiyasi, tekshirish va boshqarish. Bu guruh funksiyalarining tarkibini, shartli ravishda, 52-jadvaldan ko'rish mumkin.

### Sifatni ta'minlash tashkilotlari

*52-jadval*

Sifatni ta'minlash		
Sifatni rejalash	Sifatni tekshirish	Sifatni boshqarish
Me'yoriy-texnik hujjatlari	Xomashyoni dastlabki (kirish) tekshirish	Da'vo va reklamat-siyalarni to'plash
Sifatni tekshiruvchi yo'riqnomalar (metod)	Ishlab chiqarish jarayonida statistikani to'plash	Nuqsonlarni tahlil qilish
O'lchov pribor va asboblari	Ishlab chiqarish jarayonida kompleks tekshirish	Tendensiyalarni tahlil qilish
Sinash apparatura-lari	Tayyor mahsulot sifatini tayyor mahsulot omborxonasiga topshirishdan oldin sifatini tekshirish	Aniqlangan nuqsonlarni yo'qotish uchun chorasini ko'rish
Sinov qurulma-larining EHM (elektron hisoblash mashina)	Sifatini EHM yordamida tekshirish	Bajarilganligini tekshirish
Programmalar bilan ta'minlash		Sifat bo'yicha hujatlarni yuritish
Kompleks test programmasi		

### *jadvalning davomi*

Barcha sinov pri-borlarini kalibrlash		
Ilmiy tadqiqot va sinov tajriba tash-kilotliri bilan alo-qada bo'lish		

Bu funksiyalarni bajarishda asosiy javobgarlar — standartlarda ko'rsatilgan sisfat ko'rsatkichlarni — analiz va sinovlarni ishlab chiqarishning barcha jarayonlarida: xomashyo, material, yarimmahsulot, tayyor mahsulotlarning sifatini sinovchilarda.

### **12.3. Mahsulotlarni sertifikatsiyalash**

Mahsulotlarni sertifikatsiyalashdan maqsad — korxonada sisfat sistemasini xalqaro standartning ISO 9000 ga mos kelishini baholash. Dunyo bozoriga kirishda va korxonada mahsulot sisfatini boshqarishda ISO 9001, 9002, 9003, 9004 standartlar sistemasidan foydalanish maqsadga muvafiq bo'ladi.

Bu standartlarning nomlari:

**ISO 9001 Sifat sistemasi.** Loyihalash, ishlab chiqarish va montajda sisfatni ta'minlash modeli.

**ISO 9002.** Sifat sistemasi. Ishlab chiqarish va montajda sisfatni ta'minlash modeli.

**9003.** Sifat sistemasi. Oxirgi tekshirishda va sinashda sisfatni ta'minlash modeli.

**9004.** Ma'muriyat tomonidan sisfatni boshqarish va sisfat sistemalarining elementlari.

ISO 9000 standartlari bilan sisfatni boshqarishidan foydalanish uchun korxonalar sisfatni boshqarish hujjatlarini ishlab chiqishlari va unga rioya qilishlari kerak.

Sinov laboratoriylarini (markazlarni) akkreditatsiyalash.

Sinov laboratoriylari RST O'z 5.3—92 standarti asosida bajariladi.

Laboratoriyanı akkreditatsiyalash uchun assosiy talablar:

1. Laboratoriyaning tashkiliy statusi.
2. Texnik komponententligi.
3. Laboratoriya nizomi.

Akkreditlanishga davogar laboratoriya O'zstandartga tegishli shaklda talabnomaga beradi.

1. Sinov laboratoriyasini nizomi talabnomaga bilan hamda qaysi sohaga akkreditlanishini – loyiha.
2. Laboratoriya pasporti.
3. Savollarga to'ldirilgan anketa.

Yuborilgan hujjatlar O'zstandart tomonidan tayinlangan ekspert tomonidan o'r ganilib chiqiladi, so'ngra laboratoriyanı tekshirish uchun komissiya tashkil etadi. Tekshirish natijasi ijobiy bo'lsa, laboratoriya akkreditlandi deb hisoblanadi. So'ngra, O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatsiyalash Davlat Reestriga kiritiladi.

### Selluloza va qog'oz ishlab chiqarishda texnologik tekshirish xaritasi

53-jadval

t/r	Aniqlanadigan modda va ularning ko'rsatkichlar nomi	Namuna oladigan joy	Tekshirish chastotasi	Analizni bajaruvchi va journalga yozib qo'yuvchi
1. Kirish tekshiruvi (keltirilgan xomashyo)				
1	Paxta momig'i	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtida	Laborant
2	Natiriy ishqori: konsentratsiyasi, temir ion miqdori	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtida	Laborant
3	Vodorod peroksid: konsentratsiyasi	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtida	Laborant

*jadvalning davomi*

4	Gipoxlorid na-triy: aktiv xlor miqdori	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtida	Laborant
5	Glitserin: konsentratsiyasi	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtida	Laborant
6	Polivinil spiriti: asosiy modda miqdori	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtida	Laborant
7	Sulfat kislota: konsentratsiyasi	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtida	Laborant
8	Melaminformal-degid smolasasi: Asosiy modda miqdori; pH; xlorid kislota miqdori	Xomashyo ombori, MFS yritma tay-yorlangan joy	Keltirilgan vaqtida	Laborant
9	Kanifol: Asosiy modda miqdori; Eritmasini kon-sentratsiyasi, pH	Xomashyo ombori, Kanifol eritma tay-yorlangan joy	Keltirilgan vaqtida	Laborant
10	Ko'pik so'ndirgich: asosiy modda miqdori	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtida	Laborant
11	Titan dioksidi: asosiy modda miqdori; oqlik darajasi	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtida	Laborant
12	Kaolin: asosiy modda miqdori; oqlik darajasi	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtida	Laborant

*jadvalning davomi*

13	Xlorid kislota: konsentratsiyasi	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtda	Laborant
14	Osh tuzi: asosiy modda miqdori	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtda	Laborant
15	Aluminiy sulfati: konsentratsiyasi	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtda	Laborant
16	Poliakrilamid: asosiy modda miqdori	Xomashyo ombori	Keltirilgan vaqtda	Laborant

2. Selluloza olish

17	Pishirish eritma-sining, NaOH, konsentratsiyasi:	NaOH eritmasini tayyorlan-gan bakdan	Ishlatish-dan oldin:	Laborant
18	Pishirish va oqar-tirish: NaOH va natriy gipoklorid ( $H_2O_2$ ) eritma-larining konsen-tratsiyasi	NaOH va natriy gi-poklorid ( $H_2O_2$ ) eritma-larining tayyorlan-gan bakdan	Ishlatish-dan oldin	Laborant
19	Selluloza: polimerlanish da-rajasi	Selluloza olingach	Kalta-lashtirish-dan oldin	Laborant
20	Selluloza: oqlik darajasi	Selluloza olingach	Kalta-lashtirish-dan oldin	Laborant
21	Ishlatilgan pishirish eritmasi: ishqor miqdori	Selluloza olingach	Selluloza olingach	Laborant

jadvalning davomi

22	Ishlatilgan pishirish va oqartirish: NaOH va natriy gipoklorid (H <sub>2</sub> O <sub>2</sub> ) eritmalarining konsentratsiyasi	Selluloza olingach	Selluloza olingach	Laborant
<b>3. Qog'oz polotno olish (shakllash)</b>				
23	Massa: konsentratsiya; tola uzunligi; pH; maydalaniш derajasi	Basseyn-dan	Maydalash jarayoni-ning boshi va oxirida	Laborant, apparatchik
24	To'ldiruvchi: konsentratsiyasi	To'ldiruvchi tayyorlaydigan uchastka-dan	Har bir partiyadan	Laborant
25	Qog'oz qilish mashinasidan (QQM) chiqayotgan oqova suv ko'rsatkichlari	Oqova suv to'plangan bakdan	Har sut-kada	Laborant
26	QQM tezligi	Mashina zali	Smenada 2 marta	Mashinist
27	Kimyoviy mod-dalarni me'yorida berish	Qog'oz qilish sexi	Smenada 2 marta	Mashinist
28	Qog'oz sifat ko'rsatkichlari	Nakat	Har bir rulondan	Laborant

## 4. Qog'oz formatlash

29	Format o'lchamlari: uzunasiga va ko'ndalang kesgandan keyin	Qog'oz formatlash sexi	Har bir rulondan 3-4 marta	Mashinist
30	Qog'ozni tashqi nuqsonlari	Saralash vaqtida	Har bir o'ram	Saralovchi
31	Qog'oz o'rash sifati	Mashinada	Har bir o'ram	Yoruvchi
32	Xona iqlimi	Saralash xonasi	Uzluksiz	Texnolog

## Texnologik suv tayyorlash va oqova suvni tozalash

33	Suv: dastlabki; tindirilgan; yumshatilgan; pH; XPK; ishqorligi; qattiqligi; tiniqligi; temir va xlor ionlar miqdori	Texnologik suv tayyor- lash va oqova suv- ni tozalash sexi	Smenada 2 marta	Laborant
34	Oqova va tozalangan suvlar- ning sifat ko'r- satkichlari	Texnologik suv tayyor- lash va oqova suv- ni toza- lash sexi	Har soatda 2	Laborant

## 12.2. ASOSIY XOMASHYO

### 12.2.1. Paxta momig'i

Tolalarining uzunligiga qarab, paxta momig'i ikki turga bo'linadi: tolalarning o'rtacha uzunligi 7 – 8 mm bo'lgani A tur, uzunligi 6–7 mm va undan qisqa bo'lgani B tur. Tashqi ko'rinishi, rangi va pishganligiga qarab paxta momig'i ikki navga bo'linadi: I va II. Ifloslik darajasi va butun chigitlarining massa ulushiga qarab uch sinfga bo'linadi: oliy, o'rtalik va iflos. Ularning me'yoriy miqdori 54-jadvalda keltirilgan.

#### Paxta momig'inining sifat ko'rsatkichlari

54-jadval

Turi	Nav	Sinflar bo'yicha iflos aralashmalarini va butun chigitlarining massaviy ulushi, ko'pi bilan		
		Oliy (1)	O'rta (2)	Iflos (3)
A	I	4,5	6,0	8,5
	II	8,0	11,0	15,0
B	I	4,5	6,0	8,5
	II	8,0	11,0	15,0

A – turdag'i paxta momig'i, asosan qog'oz olishda xomashyo sifatida ishlataladi.

B – turidagisi – kimyoviy qayta ishlash uchun ishlataladi.

### 12.2.2. Namuna olish

Sinash uchun namunani kiplardan olinadi. Har bir kipning og'irligi 220 – 250 kg atrofida. Kiplar matoga o'ralib, metall simlar bilan bir necha joyidan bog'langan. Namunani kipning qubbali tomonidan ikki sim orasidan, uzunligi 20–25 sm matoni kesiladi. Kipning 3–5 sm qalinligini olib qo'yiladi. Eni 10–12 sm qatlam ko'rinishda 5 ta nuqtadan nuqtalardan 100 g

atrofida olinadi. Olingen namuna polietilen xaltachaga solinadi. Xaltaga, paxta momig'ining partiya, kip tartib raqami va ishlab chiqargan zavodning kodini yozib, shu xaltachaga solib qo'yiladi. 5 ta nuqtadan olingen namunalarning umumiy mas-sasi 500 g atrofida bo'ladi.

### 12.2.3. Iflos qo'shimchalar va butun chigitlar massa niqdorini aniqlash

Usul, paxta momig'i tarkibidagi, sulfat kislotasining 92–96 % konsentratsiyasida erimagan iflos qo'shimchalarning massa ulushini aniqlashga asoslangan. Paxta momig'ining namligi 10% dan oshmagan bo'lishi kerak. Avval namunalar aralashtirilib, o'rta holga keltiriladi, chigitidan ajratiladi va undan 5 g dan 0,001 g aniqlikda tortib olib, 6 ta buksga solinadi. 2 ta buksdan paxta momig'i tarkibidagi iflos qo'shimchalar massa miqdori aniqlanadi, qolgan 4 ta buksdan – namligi aniqlanadi. 5 g dan tortib olingen ikkita byuksdag'i momig'ni, hajmi 800 – 1000 ml farfor stakaniga solinadi. Farfor stakan sovuq suv solingan vannachaga o'rnatiladi. Farfor ichiga solingan momig' namunasiga 10 ml, 20°C gacha sovitilgan sulfat kislota quyuladi. Shu zahotiyoy uchiga rezina naycha kiydirilgan shisha tayoqcha bilan ishqalab sulfat kislota bilan aralashtiriladi. 5 – 10 minut ichida massa erib bir xil massaga aylanadi. Farfor stakaniga suvdan tezda olib, aralashtirgan jarayonda 800 – 1000 ml savutilgan distillangan suv quyuladi. So'ngra aralashmani, erimagan qo'shimchalar butkul cho'kmaga tushgancha, tindirishga qo'yiladi. Eritma tarkibida erimagan tolachalar bo'lmashligi kerak, aks holda analiz boshqatdan bajarilishi lozim. Sekinlik bilan suyuqlik, cho'kmani aralashtirmsandan, quruq, tortilgan iraqamli Shotta filtri orqali filtrlanadi. Filrlash sekin laboratoriya da qo'llaniladigan suv nasosi orqali bajariladi. Stakan tagidagi cho'kmani shisha tayoqcha bilan aralashtirib, birnecha marta distillangan suv bilan (150 – 200 ml) chayiladi. Har gal

qo'shimchalar cho'ktirilib, keyin filtr voronkaga quyuladi. Cho'kmani filtrga tushirmaslikka harakat qilish kerak. Cho'kma neytral holgacha yuviladi. So'ngra cho'kma suv yordamida, shisha filtrga solinadi. filtrdan namlik nasos yordamida so'rib ajratiladi. So'ngra shisha filtrning orqa qismi artilib, quritish shkafida  $105 + 1^{\circ}\text{C}$  da massasi bir xil bo'lgancha quritiladi. Bir-inchi tortish 2 soatdan keyin, so'ngra har 30 minutdan keyin tortiladi.

Paxta momig'inining iflosligi,  $X_1 \%$ , quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X_1 = \frac{(G_1 - G)(100 - W)}{G_2}$$

bunda,  $G$  — toza quritilgan shisha voronka massasi, g;  $G_1$  — quritilgan shisha voronkaning cho'kma bilan og'irligi, g;  $G_2$  — qisman quritilgan namuna og'irligi, g;  $W$  — paxta momig'inining namligi, %.

Analiz tugagach, shisha voronka xrompik eritmasi bilan yuvilishi lozim.

Butun chigitlar miqdorini,  $X_2$ , paxta momig'i tarkibidan qo'l bilan ajratib olinadi va % hisoblanadi. Paxta momig'i tarkibidagi iflos aralashma va butun chigitlar massa ulushi quydagicha hisoblanadi:

$$X = X_1 + X_2$$

#### 12.2.4. Titan dioksidi

Kimyoiy formulasi —  $\text{TiO}_2$ .

Shakli — anataz.

Asosiy modda miqdori — 98 — 99%.

Suspenziya muhiti, pH — 7 — 8.

Oqlik darajasi 93% (R 457 filtrda).

Titan dioksidi (GOST 9808) qog'oz ishlab chiqarishda to'ldiruvchi sifatida ishlatiladi. Titan dioksidi, qog'oz shakllan-ganda tolalar orasidagi bo'shliqni to'ldiradi. To'ldiruvchilar qog'oz massasini oshiradi. Bu ham poligraf talablariga mos keladi. To'ldiruvchilar qog'oz sifatini yaxshilaydi, chunki ular qog'oz yuzasining noteksligini kamaytiradi va strukturasini yaxshilaydi. To'ldiruvchilar erimaydigan va yuqori darajada oq bo'lishi kerak, shu tufayli qog'ozning oqlik darajasini ham oshiradi.

Titan dioksidining havoda ruxsat etilgan konsentratsiyasi (PDK) 10 g/m<sup>3</sup>.

Titan dioksidining oqligini aniqlash. Uning oqlik darajasini Elrepo - 200 (FRG) priborida aniqlanadi. Namunani tegishli moslama orqali laboratoriya pressida 5 g miqdorini 15 mPa bosimda presslab, so'ngra oqlik darajasi aniqlanadi.

### 12.2.5. Kaolin

Qog'oz ishlab chiqarishda keng qo'llanadigan to'ldiruvchilardan biri oq - kaolin. Asosiy sifat ko'rsatkichlari:

kimyoviy tarkibi:  $\text{Al}_2\text{O}_3 \cdot 2\text{SiO}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ;

zichligi: 2,5 – 2,8 g/sm<sup>3</sup>;

nur sindirish ko'rsatkichi: 1,56;

zarrachalarning o'rtacha kattaligi: (0,5 – 1,0) .10<sup>-4</sup> sm;

oqlik darjası, MgO = 100% 70–90 %;

solishtirma yuzasi: – 7,5 m<sup>2</sup>/g.

### 12.2.6. Talk

Silikat guruhidagi, nisbatan qimmat va sifatli to'ldiruvchilar hisobiga kiradi. Bu to'ldiruvchi sifatli silliq qog'ozlarni tayyorlashda ishlatiladi. Asosiy sifat ko'rsatkichlari:

kimyoviy tarkibi:  $\text{MgO} \cdot 4\text{SiO}_2 \cdot \text{H}_2\text{O}$ ;

zichligi: 2,8 g/sm<sup>3</sup>;  
nur sindirish ko'rsatkichi: 1,57;  
zarrachalarning o'ttacha kattaligi: (1,0 – 10) .10–4 sm;  
oqlik darajasi, MgO = 100 % 70–90 %;  
Oqlik darajasini va pH ko'rsatkichlarini aniqlash usuli titan dioksidni analiziga o'xshash.

### 12.2.7. Vodorod peroksidi

Vodorod peroksidi rangsiz suyuqlik. Eritma holida uch xil konsentratsiyada ishlab chiqariladi, %: 30–40; 35–40; 47–50. Germaniyaning ba'zi firmalari konsentratsiyasi 48–52 %, zichligi – 1,195–1,228 g/sm<sup>3</sup>, pH muhit – 1,65 – 2,60. Paxta sellulozasini ishlab chiqarishda, ishqoriy muhitda oqartirish uchun vodorod peroksidi ishlataladi. Oqartirish jarayonida vodorod peroksidi parchalanadi. Bunda peroksid ion hosil bo'ladi, agar muhit pH 10–11 va sekin pasayib, jarayon oxirida – 8–9 gacha yetadi. Agar muhit buzilsa, vodorod peroksidi parchalanib suv va kislorodga ajraladi ( $2\text{H}_2\text{O}_2 = 2\text{H}_2\text{O} + \text{O}_2$ ).

Vodorod peroksidi yuqori sifatli alumin idishlarda saqlanadi, vodorod peroksidi og'ir metall ionlariga sezgir. Metal-larning iflosligi katalizator rolini o'taydi va uning parchalanishini tezlashtiradi. Shuning uchun alumin idishlarni ichki yuzasi konsentrangan azot kislotasi bilan birnecha bor chay-qatiladi, natijada, yuqori adgeziyali aluminiy pardasi hosil bo'ladi.

Vodorod peroksidining ishechi zonada ruxsat etilgan konsentratsiyasi (PDK) – 1,4 mg/m<sup>3</sup>.

### 12.2.8. Vodorod peroksid xomashyoning konsentratsiyasini aniqlash

1-metod. Vodorod peroksidini massa ulushini hajm usulida aniqlash

*materiallar, reaktivlар va apparaturalar;*

*analitik torozi, 2 – klass aniqlikda;*

*sekundomer;*

*kolba, 250 ml;*

*silindrlar, 50 ml;*

*byuretkalar, 50 ml; stakanchalar, SV – 14/8;*

*kaliy permanganat eritmasi, 0,1 mol/l;*

*distillangan suv.*

Aniqlash usuli. 250 ml li kolbaga 25 ml suv va 20 ml sulfat kislota eritmasi quyuladi, ularning ustiga 0,15 – 0,20 g vodorod peroksidini quyulib aralashtiriladi. So'ngra kaliy permanganat eritmasi bilan, qizg'ish ranga o'tgancha titrlanadi. Xuddi shu usulda kolbaga vodorod peroksid quyulmagan hoda titrlanadi.

Vodorod peroksidning massa ulushi, X, %, quyidagi formula bilan hisolanadi:

$$X = \frac{(V - V_1) \times 0,0017 \times K}{m \times 100},$$

bunda,  $V$  – konsentratsiyasi 0,1 mol/l  $\text{KMnO}_4$  vodorod peroksidli tajribani titplashga sarfi, ml;  $V_1$  – konsentratsiyasi 0,1 mol/l  $\text{KMnO}_4$  vodorod peroksidini bo'lмаган тajribani titplashga sarfi, ml;

0,0017 – konsentratsiyasi 0,1 mol/l  $\text{KMnO}_4$  ga to'g'ri keladigan vodorod peroksidining massasi;  $K$  – 0,1 mol/l  $\text{KMnO}_4$  to'g'irlash uchun koefitsiyent;

$m$  – tajriba uchun olingan vodorod peroksidini, g.

**2-metod. Vodorod peroksidining konsentratsiyasini uning  
zichligi orqali aniqlash**

**Quyidagi jadvalda vodorod peroksid konsentratsiyasining  
zichlikka bog'liqligi keltirilgan**

*55-jadval*

H <sub>2</sub> O <sub>2</sub> , %	Zichligi, g/sm <sup>3</sup>	H <sub>2</sub> O <sub>2</sub> , %	Zichligi, g/sm <sup>3</sup>	H <sub>2</sub> O <sub>2</sub> , %	Zichligi, g/sm <sup>3</sup>
1	1,0022	20	1,0725	55	1,2188
2	1,0052	22	1,0802	60	1,2416
4	1,0131	24	1,0880	65	1,2652
6	1,0204	26	1,0959	70	1,2897
8	1,0277	28	1,1040	75	1,3149
10	1,0351	30	1,1122	80	1,3406
12	1,0425	35	1,1327	85	1,3667
14	1,0499	40	1,1536	90	1,3931
16	1,0574	45	1,1749	95	1,4197
18	1,0649	50	1,1966	100	1,4465

**12.2.9. Natriy gipoxlorid  
(GOST 11086)**

**Natriy gipoxloridning sifat ko'rsatkichlari**

*56-jadval*

t/r	Ko'rsatkich nomlari	A va B markalar uchun me'yor	
		A	B
1	Tashqi ko'rinishi	Sariq-ko'kintir suyuqlik	
2	Nur o'tkazish koeffitsiyenti, %, kamida	20	20
3	Faol xloring massa konsentratsiyasi, g/dm <sup>3</sup> , kamida	190	170

### *jadvalning davomi*

4	Ishqorning massa konsentratsiyasi, NaOH, hisobida, g/dm <sup>3</sup> ,	10–20	40–60
5	Temirning massa konsentratsiyasi, g/dm <sup>3</sup> , ko'pi bilan	0,02	0,06

#### **12.2.9.1. Nur o'tkazish koeffitsiyentini aniqlash**

##### **Apparatura**

Fotoelektrokolorimetrr, (markasining ahamiyati yo'q);

Filtrlovchi voronka, BФ tipli.

**Analiz o'tkazish.** Analiz uchun olingan namunaning nur o'tkazish koeffitsiyentini aniqlashda kuveta qalinligi 20 mm va filtr o'tkazgichning to'lqin uzunligi 630–690 nm qo'llaniladi.

Ikkita parallel holda aniqlagandagi, farqi 2 % (ishonch ehtimolligi 0,95 bo'lganda).

#### **12.2.9.2. Aktiv xloring massa konsentratsiyasini aniqlash**

##### **Apparatura, eritmalar, reaktivlar**

buretka, 50 ml;

konus shaklidagi kolba, 250 ml;

o'lchov kolbasi, 250 ml;

pipetka, 10 ml;

o'lchov silindri, 25 ml;

termometr, 0–100 °C.;

distillangan suv;

kaliy yod, 10 % eritma;

sulfat kislotasi, 1 mol/l;

kraxmal eritmasi, 1%;

natriy tiosulfati ( $Na_2S_2O_3 \cdot 5H_2O$ ), 0,1 n.

**Analiz o'tkazish.** O'lchov kolbasiga 10 ml namuna uchun olingan natriy gipokloriddan quyuladi, o'lchov chizig'iga yet-

gancha suv quyuladi, yaxshilab aralashtiriladi (A-eritma).

Tayyorlangan A eritmada pipetka bilan 10 ml olib, konus shaklidagi kolbaga quyuladi, uning ustiga 10 ml kaliy yod eritmasidan quyuladi, aralashtiriladi, so'ngra 20 ml sulfat kislota eritmasidan quyuladi, yana aralashtiriladi. Kolbani og'zi probka bilan yopilib, qorong'i joyga qo'yiladi. 5 minutdan keyin, ajralib chiqqan yodni 0,1 n natriy tiosulfit bilan och-sariq rangacha titrlanadi, so'ngra 2–3 ml kraxmal eritmasidan qo'shib, titrlashni rangsizlangancha davom ettiradi.

**Natijalarini hisoblash.** Faol xloringning massa konsentratsiyasini, X, g/l, quyidagi formula bilan hisoblaydi:

$$X = \frac{V \times 0,003545 \times 250 \times 1000}{10 \times 10}$$

bunda, V – titrlashga ketgan 0,1 n natriy tiosulfati, ml;

0,003545 – faol xloringning 1 ml natriy tiosulfatning 0,1 mol/l to'g'ri kelgan miqdori, g.

Hisoblash aniqligi, ikkita parallel aniqlangandagi farq 2 g/l dan oshmasligi kerak (ishonch ehtimolligi 0,95 bo'lгanda).

#### **12.2.9.3. Ishqorning massa konsentratsiyasini aniqlash (NaOH, hisobida, g/dm<sup>3</sup>)**

**Apparalar, reaktivlar, eritmalar**

*byuretka, 50 ml;*

*konus shaklidagi kolba, 250 ml;*

*pipetka, 50 ml;*

*o'chov silindr, 25 ml;*

*distillangan suv;*

*vodorod peroksiidi, 10 % (fenolftalein bilan neytrallangan);*

*xlorid kislota, 0,1 n;*

*etil spiriti;*

*fenolftalein, 1 % eritma.*

**Analiz o'tkazish.** 50 ml A eritmasidan olib, sekin tomchi-

latib 20–25 ml vodorod peroksid eritmasi qo'shiladi, ko'p gaz ajralib chiqmaslik uchun, (sekin aralashtiriladi). Asosiy gaz chiqib ketgach, 2 – 3 minutdan keyin, kolbaga 2 – 3 tomchi fenolftalein tomiziladi va aralashma 0, 1 n xlorid kislota bilan rangsizlanguncha titrlanadi.

**Natijalarini hisoblash.** Ishqorning massa konsentratsiyasini,  $X_I$ , ( $\text{NaOH}$ , hisobida,  $\text{g}/\text{dm}^3$ ), quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X_I = \frac{V \times 0,004 \times 250 \times 1000}{10 \times 50}$$

bunda,  $V$  – titrlashga ketgan 0,1 n xlorid kislota, ml;

0,004 – natriy gidroksidning 1 ml xlorid kislotaning 0,1 n to'g'ri kelgan miqdori, g.

Hisoblash aniqligi, ikkita parallel aniqlikdagi o'rtacha arifmetik natijasidagi farq 0,5 g/l dan oshmasligi kerak (ishonch ehtimolligi 0,95 bo'lganda).

#### 12.2.9.4. Temirning massa konsentratsiyasini aniqlash

##### Apparatlar, reaktivlar

*konus shaklidagi kolba, 100 ml;*

*o'chov kolbasi, 50 ml;*

*pipetkalar, 10, 25 ml;*

*o'chov silindr, 10 ml;*

*xlorid kislota;*

*elektr plitka.*

**Analiz o'tkazish.** 25 ml, marka A uchun, 10 ml, marka B – natriy gipoxlorid, 2.8.2. ko'rsatilgandek A eritma tayyorlanadi. Uni konus shaklidagi kolbaga quyuladi, so'ngra sekin 1–1,5 ml xlorid kislotadan qo'shiladi va elektr plitkada 5 minut qaynatiladi. So'ngra eritma sovitiladi, o'chov kolbasiga quyub' olinadi va sulfosalitsil usuli bilan GOST 10555da

ko'rsatilgandek, xlorid kislota qo'shmasdan aniqlanadi.

Temirning massa konsentratsiyasini,  $X_2$ , g/l, hisoblash qu-yidagi formula bilan bajariladi:

$$X_2 = \frac{m \cdot 250 \cdot 1000}{V \cdot 10 \cdot 1000}$$

bunda,  $m$  — gradirlovchi grafigi bo'yicha topilgan, temir massa konsentratsiyasi, mg;

$V$  — analiz uchun olingan mahsulot hajmi, ml.

Hisoblash aniqligi, ikkita parallel aniqlikning o'rtacha arifmetik natijasidagi farq 0,005 g/l dan oshmasligi kerak (ishonch ehtimolligi 0,95 bo'lganda).

### 12.2.10. Kanifol (GOST 19113)

57-jadval

t/r	Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlari
1	Tashqi ko'rinishi	Tiniq, shishasimon
2	Rangining qalinligi	M, K, Y, H
3	Suv massa ulushi, % ko'pi bilan	0,2
4	Kulning massa ulushi, % ko'pi bilan	0,04
5	Mexanik qo'shimchalar massa ulushi, % ko'pi bilan	0,04
6	Yumshash temperaturasi, °C, kamida	66
7	Kislota soni, mg, KOH 1 g mahsulotda, kamida	166
8	Sovunlanmaydigan massa modda, %, ko'pi bilan	7,5

### 12.2.11. Yelimlovchi moddalar

Yelumlovchi materiallar yordamida, qog'ozning ishlatalishi shiga qarab, qog'ozga har xil xossa berish mumkin: hidrofob, o'ta pishiqlik, silliqlik va boshqa sifat ko'rsatkichlar. Yelimlovchi moddalar: melamin-formaldegid smola, karbamidformaldegid smola, kraxmal, karboksimetilselluloza, kanifol va boshqalar. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan.

#### Yelimlovchi moddalar

58-jadval

t/r	Nomlari	Ishlab chiqaruvchi	Kimyoviy tarkibi	Qo'llanilishi
1	Karbamid-formaldegid smola	O'zbekiston	$[-N-CH_2 - N - CH_2 -]_n$ $\quad \quad \quad   \quad \quad  $ $OCNH_2 \quad OCNH_2$	Qog'oz massaga qo'shiladi. Namga pishiq qog'oz olishda ishlatalidi
2	Kraxmal	Rossiya	$[C_6H_{10}O_5]_n$	Yuzaelimlash uchun. Pishiqligining ishqalanishiga chidamlik qog'oz olishda ishlatalidi
3	Karboksimetilselluloza	O'zbekiston	$[C_6H_7O_2(OH)_{3-x}(OCH_2COONa)_x]_n$	Qog'oz yuzasini yelimlash uchun. Qog'ozni pishiqligini oshiradi
4	Kanifl	Rossiya	$C_{19}H_{29}COOH$ $(C_{20}H_{30}O_2)$	Qog'oz massaga qo'shiladi. Yelimalash qiyin kechadi

*jadvalning davomi*

5	Madurit M W 100	Germaniya	Kukun holatdagi modifikatsiyalangan anion holatdagi melaminformaldegid smola	Qog'oz massaga qo'shiladi. Pishiligini oshiradi. Yuqori sifatli qog'oz olishda ishlatiladi.
6	Madurit M W 111	Germaniya	Modifikatsiya-langan melamin-formaldegid smolani 33% suvli eritmasi. Anionli	Namga chidamli qog'oz va karton olishda ishlatiladi. Massaga qo'shiladi yoki qog'oz yuzasi yelimlanadi
7	Madurit M W 3114	Germaniya	Modifikatsiyalangan melaminformaldegid smolani 30 % suvli eritmasi. Anionli	Fomaldegid miqdori kam bo'lgan, madurit 111ning yaxshilangani.
8	Madurit MW112	Germaniya	Modifikatsiyalangan melaminformaldegid smolani 75 % suvli eritmasi. Formaldegid miqdori kam	Namga pishiq qog'oz va karton olishda ishlatiladi. Neytral va ishqoriy muhitda effekti yuqori
9	Madurit M116	Germaniya	12 %li melamin-formaldegid smola. Kation formali	Namga pishiq qog'oz va karton olishda ishlatiladi. Kislotali muhitda effekti yuqori. Lekin alohida emas, kanifol qo'shilganda. O'ram, dekorativ, filtr qog'oz va karton olishda ishlatiladi.

*jadvalning davomi*

10	Madurit VMW 3167	Germaniya	12 %li kislotali modifikatsiyalangan melaminformaldegid smola. Kation formali. Formaldegid miqdori kam.	Fomaldegid miqdori kam bo'lgan, Madurit M166ning yaxshilangani.
11	Rezamin VNW 3608	Germaniya	Kationli, poliamidaminoxlorigidrin smolasining 12,5 % suvli eritmasi. Formaldegidsiz. Organik birikkan holdagi xlori kam	Neytral muhitda, namga chidamlik qog'oz olishda ishlataladi. Oziq-ovqat mahsulotlarni o'rashda, filtr material maqsadida ishlataligan qog'oz olishda ishlataladi
12	Madurit VMW3113	Germaniya	Modifikatsiyalangan melaminformaldegid smolani 75 % suvli eritmasi. Formaldegid miqdori kam	Madurit MW112 ning takomillashgani, formaldegid miqdori kam.
13	Madurit VMW3163	Germaniya	10 %li suvli, kislota muhitli modifikatsiyalangan melaminformaldegid smola eritmasi. Kation formali. Formaldegid miqdori kam.	Qog'oz va kartonlarning nam va quruq holatida pishiqligini oshirish uchun ishlataladi. Muhit kislotali. Kanifolning yelimlanishini oshiradi. O'ram, etiket, dekorativ va boshqa qog'oz olishda ishlataladi.

*jadvalning davomi*

14	Madurit MW150	Germaniya	kukun holidagi, kation shaklli, modifikatsiyalangan melaminformaldegid smola.	Kisotali muhitdagisi issiq suvda juda yaxshi eriydi. Qog'oz hamda kartonni nam va quruq hollarda pishiqligini oshiradi. O'rash, ishqorga chidali, filtr qog'oz va karton olishda ishlatiladi.
15	Madurit VMW3151	Germaniya	kukun holidagi, kation shaklli, modifikatsiyalangan melaminformaldegid smola	Madurit MW150 ning yaxshilangan varianti. Formaldegid miqdori kam.

### XIII bob. PAXTA SELLULOZASINI OLISHDAGI KIMYOVYI NAZORAT

Selluloza tabiatdagi har xil o'simliklardan olinadi. O'simliklar tarkibida sellulozaning miqdori ham har xil bo'ladi. Ular jadvalda keltirilgan.

O'simliklar tarkibidagi selluloza, lignin va pentazanlarning  
miqdori

59-jadval

t/r	O'simliklar	Tarkibi, %		
		selluloza	lignin	pentazanlar
1	Paxta tolasi	92 – 97	4	2
2	Kanop: -tolalar; -taram.	79 – 80	5,2	5,5
		58 – 60	7,3	6,3
3	Somonlar	36 – 56	11 – 17	20 – 28
4	Jo'xori poya	38 – 40	34,3	27,6
5	Daraxt	58 – 67	22 – 33	12 – 25

#### 13.1. Paxta sellulozasini namlagich eritmasining sirt tortish kuchini aniqlash


##### Stalagmometrik usul

**Reaktiv, priborlar:**

*trabe stalagmometri (1-rasm), hajmi 10 ml, kapillar diametri 0,6 mm;*  
*termostat;*

*sekundometr;*

**Stalagmometr suv tomichilar sonini aniqlash.** Bu usul oddiy va qulay usul hisoblanadi. Stalagmometr kengaygan qismini tepe va past qismida belgi chiziqshalar bor (63-rasm).



**63-rasm. Sirt tortish kuchini aniqlashda qo'llaniladigan stalagmometr:**

a—pribor sxemasi: 1—kapilliar uchi; 2—rezervuar (kengaygan qismi); 3—belgi chiziqli naycha. b—tomchi massasini naycha uchidan uzilish sxemasi.

Stalagmometri ishlatishdan oldin bir necha marta xrompik eritmasi bilan yuviladi, so'ngra distillangan suv bilan chayiladi. Chunki qolgan yog'ning oz qismi ham noaniqlikni keltiradi. Stalagmometr vertikal holatda qimillamaydigan qilib shtativga mahkamlanadi. Stalagmometrning tepe qismiga rezinka naycha kiydiriladi. Tomchilar tezligini bir xil qilish uchun, rezina naychi qisqich bilan qisib qo'yiladi. Oqish tezligi minutiga 15 tomchi bo'lishi kerak. Solishtirish  $20+1^{\circ}\text{C}$  da disstillangan suv bilan olib boriladi. Buning uchun stalagmometrga 100 ml li kolbadan distil-

langan suv, stalagmometri yuqori belgisidan teparoqqacha, so'riladi. Tomchilar sonini aniqlash 5 marta bajariladi. O'rta arifmetik qiymati – stalagmometrning suv tomchilar soni hisoblanadi.

**Namlagich eritmasining sirt tortish kuchini aniqlash.** Buning uchun, avval eritma 20 min davomida termostatda haroratni 20°C ga keltiriladi. Quruq stalagmometrga rezina nok bilan yuqori belgidan teparoqqacha eritma so'riladi, so'ngra eritma tepe belgi bilan pastki belgi orasidan oqib o'tgan tomchilar soni aniqlanadi. O'Ichash uch marta takrorlanadi.

**Hisoblash.** Namlagich eritmaning sirt tortish kuchi,  $F$ , mN/m, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$F = \frac{n_0 \times d_x \times 72,75}{n_x \times 0,9982}$$

bunda,  $n_0$  – stalagmometrning suv tomchilar soni (stalagmometrdan oqib chiqayotgan distillangan suv tomchilarining soni);  $d_x$  – namlovchi eritmaning 20°C dagi zichligi, g/sm<sup>3</sup>; 72,75 – suvning 20°C dagi sirt tortish kuchi, mN/m;  $n_x$  – stalagmometrdan oqib chiqayotgan namlagich eritmasinining 20°C dagi tomchilar soni; 0,9982 – distillangan suvning zichligi, g/sm<sup>3</sup>.

### 13.2. Smola va yog'larni aniqlash

Metod – smola va yog'larni paxta momig'idan organik modda bilan bir necha marta ekstraksiyalab, so'ngra ajratib olingan moddani quritib tortishga asoslangan.

**Reaktivlar, priborlar:**

*Metilenxlorid;*

*NET – 150 nasadkali Sokslet apparati;*

*XSh-KSh turidagi sovitgich;*

*PKSh turidagi 250 ml kolba;*

*E-8 rusumli ekstraksiya apparati, 100 ml.*

**Aniqlash yo'lli.** Paxta momig'idan 10 g (aniqligi 0,0002 g)

namuna tortib olinadi, uni metilenxloridda namlab, eksikatorga joylashtiriladi. Namunaning tepe qismi, ekstrakt oqib tushadigan naychadan 1,0 – 1,5 sm pastroq bo‘lishi kerak.

105°C da og‘irligi bir xil bo‘lguncha quritilgan kolbaga, ekstraktor hajmidan 1,5 qism erituvchi quyiladi. Nasadka, sovit-kich va kolba bilan ulanadi va isitgich ustiga qo‘yiladi. Isitish darajasi 3 soatda 24 marta qayta quyuladigan bo‘lishi kerak.

Ekstraksiyalash tugagach, ekstraktor orqali toza erituvchi, qoldig‘i 5–7ml qolgancha, haydaladi. Kolba ekstrakt bilan 105°C da og‘irligi bir xil bo‘lgancha 3–4 soat quritiladi. So‘ngra eksikatorda sovitilga, tortiladi.

Agar paxta momig‘i tarkibida smola va yog‘ miqdori 0,4 % dan ortiq bo‘lsa, HЭTB-50 yoki HЭT-150 rusumli nasadka ishlatiladi.

**Hisoblash.** Smola va yog‘ tarkibi, A, %, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$A = \frac{(m_1 - m) \times 100}{m_2(100 - W)}$$

bunda,  $m_1$  – kolbani ekstrakt bilan og‘irligi, g;  $m$  – quruq kolba og‘irligi, g;  $m_2$  – paxta momig‘i namunasining og‘irligi, g;  $W$  – paxta momig‘ining namligi, %.

### 13.3. Sellulozaning mis - ammiak eritmasidagi qovushoqligini aniqlash


Bu usul sellulozaning 1 % mis-ammiak eritmasining GOST 4363 keltirilgan viskozimetr kapillaridan oqib tushish vaqtini aniqlashga asoslangan.

#### Reaktivlar, eritmalar, apparatlar

etilendiamin –  $N,N,N,N$ -tetraksus kislotaning dinatriyli tuzi (*EDTA*), 0,02 M va 0,1 n eritmalar;  
ammiak, 25–27% va 1 M eritmalar;

natriy gidroksidning 40 % li eritmasi;  
 sulfat kislota, 1 n eritma;  
 mis (II) sulfati, ( $Su_2(SO_4)_2 \cdot 5 H_2O$ ) 0,02 M eritma;  
 saxaroza;  
 metil oranj, 0,02 % eritma;  
 tetra - a, a - bis (4-natriy-5 tetrazol) – o'n molekula suvli  
 etilatsetat, 0,2 %-eritma;  
 Mis-ammiak eritma, mis konsentratsiyasi  $13 \pm 0,2$ , ammiakniki  
 –  $200 \pm 2$  va saxaroza  $1,5 - 2,0$  g/l;  
 Viskozimetri, ВПЖ-3;  
 Chayqatish apparati (AVR-3).

**Mis-ammiak eritmasini tayyorlash.** Mis-ammiak eritmasini tayyorlash uchun 64-65-rasmlarda ko'rsatilgan qurilma yig'iladi.



64-rasm. A. Avtomat byuretkali qurilma:


A: 1 – suv termostati; 2 – mis-ammiak eritmali sklyanka;  
 3 – avtomatik byuretka; 4 – termostat; 5 – havo beruvchi naycha;  
 6 – uch tomonga buriladigan kran; rezina nok (grusha).

B. Sellyulozani eritish uchun polietilen bankasi.

D. Kapellarli viskozimetr:

1 – nasadka; 2 – kran; 3, 6 – shliflar; 4 – qobig'i (rubashka);  
 5 – kapillar; 7 – oraliq shisha naycha; 8 – banka.

Tishenko idishini bittasiga 25 %li ammiak eritmasi, ikkinchisiga 40 %li natriy gidroksidi quyulgan. Mis yaxshi erishi uchun reaksiya sovuq suvda yoki muzli suvda bajariladi.



65-rasm. Mis - ammiak eritmasini tayyorlash uchun qurilma:  
1 – kolonka; Tishenko sklankalari.

Tayyorlangan mis-ammiak eritmasi tarkibidagi mis va ammiak miqdori tekshiriladi. Eritma qorong'i, salqin joyda saqlanadi. Eritmaning saqlanish muddati bir oy.

**Mis-ammiak eritmasini analiz qilish.** Tayyorlangan mis-ammiak eritmasi kompleksmetrik va yodometrik usullari bilan tekshiriladi.

A) Kompleksmetrik usul. 0,02 M EDTA (trilon B) eritmasi tayyorlanadi. Buning uchun: 7,445 g (0,0002 g. aniqlik bilan) EDTA tortib olib, 1 l o'lchov kolbasida eritiladi. Trilon B konetratsiyasini 0,02 M mis (II) sulfati bilan o'matiladi (tekshiriladi). Tayyorlangan trilon B eritma polietilen butillarda saqlanadi.

Eritmadagi mis va ammiak miqdorini aniqlash uchun, hajmi 250 ml o'lchov kolbasiga 2/3 qism distillangan suv quyuladi, so'ngra 25 ml mis - ammiak eritmasi qo'shiladi. Termostatda

eritmaning temperaturasi  $20 \pm 0,02^{\circ}\text{C}$  ga yetkaziladi, o'lchov kolbasidagi eritmaning hajmi suv bilan belgisiga yetkaziladi. Shu tariqa tayyorlangan suyuq eritmadan 25 ml olib, hajmi 500 ml bo'lgan o'lchov kolbaga quyuladi va 3 tomchi metiloranj indikatoridan tomizilib 1 n sulfat kislotaning eritmasi bilan rangi havo rangdan qizg'ish ranga o'tguncha titrlanadi. So'ngra titrlangan eritmaning ustiga 300 ml distillangan suv, 20 ml 1,0 M ammiak eritmasi va 5–6 tomchi tetra indikatori tomiziladi. Eritmani 0,02 M yoki 0,1 n trilon B bilan, rangi siyoh rangdan sariq-ko'k ranga o'tguncha, titrlanadi.

Eritmadagi mis miqdorini, A, g/l, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$A = \frac{V \times 0,00127 \times 250 \times 1000}{25 \times 25}$$

bunda, V – 0,02 M trilon B eritmasining titrlashga ketgan hajmi, ml;

$0,00127 - 0,02$  M trilon B ning misga nisbatan titri, g/l.

Agar trilon B 0,1 n fiksandalan tayyorlangan bo'lsa, misni miqdori, A<sub>1</sub>, g/l, quyidagicha hisoblanadi:

$$A_1 = \frac{V_1 \times 0,00375 \times 250 \times 1000}{25 \times 25}$$

bunda, V<sub>1</sub> – 0,1 n trilon B eritmasining titrlashga ketgan hajmi, ml;

$0,00375 - 0,1$  n trilon B ning misga nisbatan titri, g/l.

Ammiakning eritmadagi miqdori, B, g/l, quyidagicha hisoblanadi:

$$B = \frac{V_2 \times 0,017 \times 250 \times 1000}{25 \times 25}$$

bunda, V<sub>2</sub> – 0,1 n sulfat kislotasi eritmasining titrlashga ketgan hajmi, ml;

0,017 – 0,1 n sulfat kislota eritmasining ammiakka nisbatan titri, g/l.

B) Mis-ammiak eritmasini yodometrik usuli bilan tekshirish.

Mis miqdorini aniqlash: 250 ml kolbaga pipetka bilan 3 ml mis-ammiak eritmasi quyuladi, 2–3 tomchi qizil metil indikatorining 0,2 %li eritmasidan solinadi. 5 % sulfat kislotasi eritmasi bilan neytrallanadi va yana ustiga 15 ml sulfat kislota eritmasidan quyuladi. 5 min qaynatiladi, sovitilgach unga 20 ml 10% kaliy yod eritmasidan quyuladi. Ajralib chiqqan yod 0,1 n  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  bilan titrlanadi, titrlash oxirida 2–3 tomchi 0,5% kraxmal eritmasi solinadi.

**Hisoblash.** Mis massa, Cu, g/l, ulushini quyidagicha hisoblanadi:

$$Cu = V \times 0,2119$$

bunda,  $V$  – titrlashga ketgan 0,1 n  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ , ml.

**Anuniak miqdorini aniqlash:** 3 ml mis-ammiak eritmasini pipetka bilan olib, 250 ml kolbadagi 50 ml 1 n sulfat kislota eritmasiga qo'shiladi, mis-ammiakni pipetka bilan qo'shishda pipetkani uchi kolbadagi sulfat kislota eritmasiga tegib turishi kerak, so'ngra pipetkani uchini kolba ichki devoriga tekizib, eritmani pipetkada qoldirmaslik kerak. Ortiqcha kislotani 1 n natriy gidroksid eritmasi bilan qizil metil indikator ishtirokida titrlanadi.

**Hisoblash.** Ammiak miqdorini quyidagicha hisoblanadi:

$$NH_3 = \frac{(V - V_1 - X \times 0,94)0,017 \times 100}{3} = (V - V_1 - X \times 0,94) \times 0,567$$

bunda,  $V$  – mis-ammiak eritmasini neytrallashga ketgan 1 n sulfat kislota eritmasi, ml;  $V_1$  – qayta titrlashga sarflangan natriy gidroksidning 1 n eritmasi, ml;  $X$  – mis miqdori, %; 0,94 – misni 1 n eritmaga to'g'ri kelgan miqdori; 0,017 – 1 n eritmaga to'g'ri kelgan ammiak miqdori, g.

Sellyulozani sinashga tayyorlash. Toza, quruq polietilen yoki shisha bankaga 9 yoki 15 g mis (0,01 g. aniqlikda tortilgan) olinadi. Byuretka bilan banka  $20\pm0,2^{\circ}\text{C}$  dagi distillangan suv bilan to'ldiriladi. Bankani ishchi hajmi, V, ml, quyidagicha aniqlanadi:

$$V = a - 0,5 \text{ (agar bankani hajmi } 50 \text{ ml bo'lsa);}$$

$$V = a - 0,3 \text{ (agar bankani hajmi } 30 \text{ ml bo'lsa);}$$

bunda, a — bankadagi suvning umumiy hajmi, ml; 0,5 yoki 0,3 — sellulozaning egallagan hajmi, ml.

Mis-ammiak eritmasidagi 1 %li sellulozaning miqdorini, A, quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$A = \frac{100 \times 1}{(100 - W)100} = \frac{V}{100 - W}$$

bunda, V — mis-ammiak eritmasining hajmi, ml; W — sellulozaning namligi, %.

Aniqlash usuli. Shisha yoki polietilen bankaga 9 yoki 15 g mis (0,01 g aniqlikda) va hisoblangan selluloza joylashtiriladi. Buretka orqali bankani ishchi hajmiga teng kelgancha mis-ammiak eritmasi bilan ( $20\pm0,2^{\circ}\text{C}$ ) to'ldiriladi. To'ldirilgan banka 20 — 30 min davomida qo'l bilan silkitib aralashtiriladi, so'ngra aralashtirish maxsus apparat yordamida yana 30 min selluloza erib ketgancha, davom ettiriladi. Selluloza butunlay erib ketganligini ko'z bilan yorug'da aniqlanadi. So'ngra eritma 10 min ( $20\pm0,2^{\circ}\text{C}$ ) termostatda saqlanadi.

Aniqlashdan oldin, bankani og'zi ochiladi, eritmaning pastki qismidan olish uchun, unga viskozimetrning pastki qismi tekiziladi. Tepa nasadka yordamida, eritma bilan viskozimetru to'ldirilib, nasadka olib tashlanadi (rasmga qarang) va eritma ning oqib o'tish vaqtí o'chanadi.

**Hisoblash.** Eritmaning dinamik qovushoqligi, h (mPa · s):

$$h = K \times t \times p$$

bunda,  $K$  — viskozimetrr koeffitsiyenti (uning pasportida keltiriladi),  $\text{mm}_2/\text{s}_2$ ;  $t$  — eritmani oqib o'tish vaqt, sek;  $p$  — eritmaning zichligi,  $0,95 \text{ g/ml}$ .

### O'rtacha polimerlanish darajasini aniqlash

Metod mis-ammiak eritmasining qovushoqligini aniqlashga asoslangan (GOST 9105-74).

#### Eritmalar, priborlar:

tarkibida 13 g mis, 200 g/l ammiak va 2 g saxaroza bo'lgan mis-ammiak eritmasi;

ПВЖ-3 viskozimetrr ( $p=0,03 \text{ mm}^2/\text{s}^2$ ) va kapillar diametri  $0,49 \text{ mm}$ .

Aniqlash yo'li. Eritmaning quyidagi konsentratsiyasi tanلانادи: sellulozaning polimerlanish darajasi  $600 - 1000 - 1,5 \text{ g/l}$  ( $0,15\%$ ).

Mis-ammiak eritmasini tayyorlash uchun, selluloza namunasining og'irligi,  $A$ , g, quyidagi formula orqali hisoblab topiladi:

$$A = \frac{V \times c \times 100}{1000(100-W)} = \frac{V \times c}{10(100-W)}$$

bunda,  $V$  — bankani ishchi hajmi, ml;  $W$  — sellulozaning namligi, %;  $c$  — eritmada sellulozaning tarkibi, g/l.

Sellyuloza namunasini  $0,0002 \text{ g}$  aniqlikda va  $30 \text{ g}$  (yoki  $15 \text{ g}$ ) mis tortib olinib, polietilen yoki shisha bankaga joylashtiriladi, buretkadan mis-ammiak eritmasi ( $20 \pm 0,2^\circ\text{C}$ ) bilan banka ishchi hajmigacha to'ldiriladi. Bankani og'zi yopilib aralashtirish va eritish uchun apparatga 30 min davomida qo'yiladi. Sellulozaning to'la erigani aniqlangach, eritmali banka termostatga temperaturasi  $20 \pm 0,2^\circ\text{C}$  bo'lgancha joylashtiriladi. So'ngra eritmani viskozimetrda oqib o'tish vaqt sekundomer bilan o'chanadi.

**Hisoblash.** Solishtirma qovushoqlik,  $h_{sol}$ , aniqlanadi:

$$h_{\text{cos}} = \frac{t_1 - t_2}{t_2}$$

xarakteristik qovushoqlik  $[h]$  quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$[h] = \frac{h_{\text{sol}}}{c(1 - Kh_{\text{sol}})}$$

bunda,  $c$  – eritmadiagi selluloza miqdori, g/l;  $K$  – koefitsiyent, mis-ammiak eritmasi uchun, 0,29.

O‘rtacha polimerlanish darajasi ( $PD$ ) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$PD = \frac{[h]}{K_m}$$

bunda,  $K_m$  – konstanta,  $5 \cdot 10^{-4}$ .

$$PD = \frac{10000 \times h_{\text{sol}}}{5 \times c(1 - 0,29h_{\text{sol}})} = \frac{2000 \times h_{\text{sol}}}{c(1 - 0,29h_{\text{sol}})}$$

Paxta sellulozasining o‘rtacha polimerlanish darajasini quyidagi jadval yordamida ham aniqlash mumkin, agar  $h_{\text{sol}}$  aniqlangan bo‘lsa.

**Paxta selluzasining o'rtacha PDni aniqlash. Mis – ammiak eritmasisidagi selluloza tarkibi 0,1 %  
( $\eta_{sol}$  ning polimerlanish darajasiiga bog'liqligi)**

60-jadval											
$H_{sol}$	PD										
0,10	199	0,64	1078	1,14	1709	1,68	2288	2,22	2689	2,74	3026
0,12	242	0,66	1107	1,16	1730	2,04	2311	2,24	2703	2,76	3037
0,14	290	0,68	1135	1,18	1752	1,72	2334	2,26	2716	2,78	3049
0,16	322	0,70	1163	2,0	1774	1,74	2349	2,28	2730	2,80	3061
0,18	355	0,72	1199	1,22	1795	1,76	2363	2,30	2744	2,82	3073
0,20	414	0,74	1217	1,24	1816	1,78	2377	2,32	2756	2,84	3084
0,22	421	0,76	1246	1,26	1837	1,80	2392	2,34	2770	2,86	3095
0,24	453	0,78	1274	1,28	1859	1,82	2407	2,36	2784	2,88	3108
0,26	486	0,80	1299	1,30	1881	1,84	2421	2,38	2798	2,90	3110
0,28	519	0,82	1323	1,32	1900	1,86	2435	2,40	2811	2,92	3131
0,30	552	0,84	1352	1,34	1920	1,88	2449	2,42	2824	2,94	3143
0,32	586	0,86	1376	1,36	1939	1,90	2463	2,44	2837	2,96	3155
0,34	619	0,88	1403	1,38	1958	1,92	2478	2,46	2850	2,98	3167
0,36	652	0,90	1426	1,40	1988	1,94	2492	2,48	2864	3,00	3178
0,38	684	0,92	1452	1,42	2009	1,96	2508	2,50	2878	3,02	3190
0,40	713	0,94	1476	1,44	2030	1,98	2521	2,52	2892	3,04	3202
0,42	749	0,96	1501	1,46	2051	2,00	2535	2,54	2905	3,06	3214
0,44	780	0,98	1525	1,48	2072	2,02	2549	2,56	2918	3,08	3226
0,46	812	1,00	1549	1,50	2094	2,04	2563	2,58	2932	3,10	3237
0,48	842	1,02	1574	1,52	2115	2,06	2577	2,60	2944	3,12	3249
0,50	873	1,04	1597	1,54	2138	2,08	2591	2,62	2957	3,14	3261
0,52	903	1,06	1623	1,56	2158	2,10	2605	2,64	2968	3,16	3272
0,54	933	1,08	1643	1,58	2179	2,12	2619	2,66	2980	3,18	3284
0,56	963	1,10	1667	1,60	2200	2,14	2633	2,68	2992	3,20	3296
0,58	992	1,12	1688	1,62	2222	2,16	2647	2,70	3003	3,22	3306
0,60	1022	1,14	1709	1,64	2244	2,18	2661	2,72	3014	3,24	3317
0,62	1052	1,16	1730	1,66	2266	2,20	2657	2,74	3026	3,26	3328

## 13.4. QOG'oz MASSASI

### 13.4.1. Massadagi selluloza konsentratsiyasini aniqlash

Priborlar, materiallar:

suvida ishlaydigan nasos;

namunani quritish uchun lampali quritgich;

byuxner voronkasi;

bunzen kolbasi;

analitik torozi (elektron torozi);

filtr qog'ozlar.

Ishlab chiqarish jarayonida selluloza suv tarkibida suspenziya holida bo'ladi. Qog'oz massasini konsentratsiyasini topish uchun, basseyndan namuna suspenziyadan 800 ml olinadi va 8 litrlik silindr shaklidagi idishda suv bilan 6 litrgacha suyultiriladi, yaxshilab aralashtirgach undan 75 ml namuna olinadi va qog'oz filtr orqali filtrlanadi. Filtr avval namlanib Byuxner voronkasiga joylashtirilgan bo'lishi kerak. Vakuum Bunzen kolbasidan suv nasosi orqali havosi so'rilib, filtrlanadi. Filtrlash tugagach, tolalar filtr qog'ozidan sekin ajratib olinadi va lampa quritgichida  $200^{\circ}\text{C}$  temperaturada 10 minut davomida quritiladi. So'ngra konsentratsiyasi hisoblanadi.

### 13.4.2. Massa muhitini aniqlash (pH)

pH ko'rsatkich muhitning kislotali yoki ishqorlik miqdorini ko'rsatuvchi deb hisoblanadi. Muhitning kislotaligiga vodorod ionning ( $\text{H}^+$ ) konsentratsiyasi ta'sir qiladi, ishqorli muhitga esa gidroksil gruppasi ( $\text{OH}^-$ ) konsentratsiyasi ta'sir qiladi. Agar vodorod va gidroksil konsentratsiyalari teng bo'lsa muhit neytral bo'ladi. Agar vodorod ionlarining miqdori ko'p bo'lsa, muhit kislotali va aksincha, gidroksil gruppalari ko'p bo'lsa — ishqorli muhit bo'ladi. Quyida pH shkalasi keltirilgan:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
Kislotali muhitni oshishi	Neytral muhit	Ishqoriy muhitni oshishi											


Qog'oz ishlab chiqarishda pH ko'rsatkichi yarimmahsulotning fizik-kimyoviy xossalariiga, tayyor mahsulotning mexanik xossalariiga ta'sir etadi. Masalan, yelimlovchi modda sifatida melaminformaldegid smolasi ishlatilganda pH me'yoriy ko'rsatkichi 4,5 bo'lishi lozim. Qog'ozning pH ko'rsatkichi uning saqlanish muddatiga, oqliq darajasiga va mexanik ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi. Shuning uchun massaning va qog'ozning pH ko'rsatkichlarini sistematik kuzatib borish lozim. pH ko'rsatkichini pH – metrning barcha modellari bilan aniqlash mumkin.

### 13.4.3. Massadagi sellulozaning maydalanish darajasini aniqlash

#### Apparatlar:

*Shopper – Rigler apparatlari: markasi CP -2 yoki KCΠ – A1*

Shopper – Rigler apparatining tuzilishi (66-rasm): silindr, tagi, №40-raqamli setkadan yasalgan (raqam 1 sm<sup>2</sup> da joylashgan teshikchalar sonini bildiradi) konus. Konus tagida ikkita teshikli naycha. Massani sinashdan oldin, silindrning pastki qismi yopiladi.



**66-rasm. CP – 2 tripli sellulozaning maydalanish darajasini aniqlovchi pribor:**

1 – olinuvchi silindr; 2 – korpus; 3 – setka; 4 – naycha ostidagi tor teshik; 5 – markaziy suv o’tkazgich; 6 – suvni to’kadigan yon naycha; 7 – o’lchov silindri; 8 – konus shaklidagi klapan.

Sellulozaning maydalanish darajasini aniqlashda 800 ml qog’oz massadan namuna olib 6 l suv bilan suyultiriladi (mo’ljallangan konsentratsiyaga qarab (61-jadvalga qarang), yaxshilab aralashtiriladi, agar konsentratsiya 3 % bo’lsa, unda bu namunadan 500 ml olib, 1000 ml gacha suyultiriladi (tempera-

tura 20°C), so'ngra bir stakandan ikkinchisiga 8 marta quyub aralashtiriladi va Shopper – Rigler apparatiga quyuladi.

Kran ochiladi, suv massa tarkibidan, setka orqali oqib silindrga quyuladi. Yon tomondagi naychadan suv o'lchovli menzurkaga quyuladi va Shopper – Rigler birligida (°ShR) maydalanish darajasini ko'rsatuvchi birlik olinadi.

**Qog'oz massasining (sellulozaning) maydalanish darajasini kerakli konsentratsiyani tayyorlash uchun massa konsentratsiyasi, %, bilan hajmi orasidagi bog'liqlik jadvali**

*61-jadval*

Massa konsentratsiyasi, %	Suyuqlik hajmi, ml
1,50	1000
1,55	967
1,60	937
1,65	907
1,70	882
1,75	857
1,80	833
1,85	810
1,90	787
1,95	765
2,00	750
2,05	732
2,10	714
2,15	698
2,20	682
2,25	667
2,30	652
2,35	637
2,40	625

Massa konsentratsiyasi, %	Suyuqlik hajmi, ml
3,40	441
3,45	435
3,50	428
3,55	422
3,60	417
3,65	411
3,70	405
3,75	399
3,80	394
3,85	390
3,90	384
3,95	380
4,00	375
4,05	370
4,10	366
4,15	361
4,20	357
4,25	352
4,30	348

*jadvalning davomi*


2,45	612
2,50	600
2,55	588
2,60	577
2,65	566
2,70	555
2,75	545
2,80	535
2,85	526
2,90	517
2,95	508
3,00	500
3,05	492
3,10	483
3,15	476
3,20	468
3,25	461
3,30	454

4,35	345
4,40	342
4,50	333
4,55	329
4,60	325
4,65	322
4,70	319
4,80	313
4,85	309
4,90	306
4,95	303
5,00	300
5,05	297
5,10	294
5,15	291
5,20	288

#### 13.4.4. Tolalarining uzunligini Slik birligida aniqlash

Qog'oz massasidagi tolalarining (selluloza) uzunligi uch xil yo'l bilan aniqlanadi: maxsus apparat yordamida; o'rta uzunlikni aniqlash usuli (67-rasm) — Slik usuli va mikroskopda o'lchanadi. Quyida Slik usulida aniqlash ko'rib chiqiladi. Bu usul shvetsiyalik tadqiqotchi Slik tomonidan 35 yil avval ishlab chiqilgan. Tolalarining uzunligi «slik» birligida o'lchanadi. «Slik» emperik kattalik bo'lib, bir xil qog'oz massalarni solishtirishda qo'llaniladi. Har bir korxona uchun bu usul alohida kalibrovka etilishi lozim.

Apparatning ishlashi yupqa lezviyalarda tolalarining turib qolishiga asoslangan (67-rasm).



a



b

**67-rasm. Massadagi tolalarning o‘rtacha uzunligini aniqlovchi pribor:**

a — richagli tarozi; b — ramka.

Analiz o'tkazish uchun konsentratsiyasi 3 %li massadan 800 ml (konsentratsiyasiga qarab 61-jadvaldan) olinadi, 6 l sovuq suv bilan suyultiriladi va tola tugunchalari titilib ketgancha yaxshilab aralashtiriladi. So'ngra idishga quyuladi. Idishga ramka (67 b-rasmga qarang) qo'yiladi va kran ochiladi. Tolalarning bir qismi ramkada ushlanib qoladi. Ramkada o'rnashib qolgan tolalari bilan filtr qog'ozda 8 marta siqladi, so'ngra sekinlik bilan osma torozini ilgagiga osib tortilib (67a-rasm), slik birligida tolaning o'rtacha uzunligi aniqlanadi.

Tolalarning o'rtacha uzunligining Slik va mm birligiga bog'liq 62-jadvalda keltirilgan.

### Slik va mm orasidagi bog'liqlik

*62-jadval*

Qog'oz massasidagi tolalarning uzunligi	
Slik	mm
290	1,33
265	1,15
220	1,10
115	0,90
85	0,47
75	0,45

Rossiyada tolalarning o'rtacha uzunligini xarakterlovchi detsigramm (dg) ko'rsatkichi qo'llaniladi. Detsigramm (dg) birligi bilan tolalarning o'rtacha uzunligi, mm, orasidagi bog'liqlik 63-jadvalda ko'rsatilgan.

### Tolalarning o'rtacha uzunligi dg - mm

*63-jadval*

Massa ko'rsatkichi, dg	Tolalarning o'rtacha uzunligi, mm
90	1,9

*jadvalning davomi*

97	2,0
104	2,1
112	2,2
124	2,3
140	2,4
167	2,5

**13.4.5. Massa tarkibidagi to'ldiruvchi miqdorini aniqlash**

Qog'oz ishlab chiqarishda to'ldiruvchi sifatida kimyoviy inert moddalar: kaolin, bor, gips, talk, bariy sulfati, titan dioksidi va boshqa bir qancha moddalar ishlataladi. To'ldiruvchi to'lalar orasidagi g'ovakliklarni to'ldirib, qog'oz sifatini yaxshilaydi: pishiqligini, so'rishini va xiraligini oshiradi, bosmaxona bo'yoqlarning bir tekis tarqalishini ta'minlaydi; egiluvchanligini va kalandrlanganda silliqligini oshiradi. Ba'zi to'ldiruvchilar (gips, titan dioksidi va kaolining yaxshi navlari) qog'ozning oqlik darajasini oshiradi. Shu bilan birga qog'ozning 1 m<sup>2</sup> masasini oshiradi, mexanik pishiqligini biroz pasaytiradi.

Qog'oz massasiga to'ldiruvchi suspenziya holida qo'shiladi. Shuning uchun suspenziyadagi to'ldiruvchining konsentratsiyasi aniqlanadi. Misol tariqasida kaolin suspenziyasida kaolining konsentratsiyasini aniqlash yo'llini ko'rib chiqamiz. Suspenziya konsentratsiyasi piknometr usulida aniqlanadi. Buning uchun piknometr bir xil og'irlikka kelgancha quritiladi va tortiladi. So'ngra suv bilan to'ldirilib yana tortilib piknometrning suv bilan hajmi aniqlanadi. Suv o'rniiga kaolin suspenziyasini quyulib, yana tortiladi.

Kaolin suspenziyasining 1 l konsentratsiyasi, r, g/l, aniqlanadi:

$$p = \frac{Q_2 - Q}{(Q_1 + Q)1000}$$

bunda  $Q$  — bo'sh piknometr massasi, g;  $Q_2$  — piknometrning suv bilan massasi, g;  $Q_1$  — piknometrning kaolin suspenziyasi bilan massasi, g.

### Kaolin suspenziyasi uning zichligiga bog'liqlikligi

64-jadval

1 l kaolin suspenziyasining og'irligi, g	Quyidagi zichlikda, kaolinning 1 l suspenziyasidagi absolut massasi, g									
	2,2	2,25	2,3	2,25	2,4	2,45	2,5	2,55	2,6	2,65
2000	367	360	354	348	343	338	333	329	326	321
1900	348	342	336	330	326	321	316	318	310	305
1180	330	324	318	313	309	304	300	290	293	289
1170	312	306	300	296	292	287	283	280	276	273
1160	294	285	283	278	274	270	266	268	260	257
1150	275	270	266	261	258	254	250	247	244	241
1140	257	252	248	244	240	236	233	230	228	225
1130	239	234	230	266	223	220	217	214	212	209
1120	220	216	212	209	206	203	200	297	195	193
1110	202	198	195	192	189	186	183	181	179	177
1100	184	180	177	174	171	169	167	164	163	161
1095	174	171	168	165	163	161	158	156	155	152
1090	165	162	159	156	154	152	150	148	147	144
1085	156	153	150	148	146	144	142	140	138	136
1080	147	144	141	139	137	135	133	132	130	128
1075	137	135	133	131	129	127	125	123	122	120
1070	128	123	124	122	120	118	117	115	114	112
1065	119	117	115	113	111	110	108	107	106	104
1060	110	108	106	104	103	101	100	99	97	96
1055	101	99	97	96	94	93	92	90	89	88
1050	92	90	88	87	86	84	83	82	81	80
1045	82	81	80	78	77	76	75	74	73	72
1040	73	72	71	70	69	68	67	66	65	64

*jadvalning davomi*

1035	64	63	62	61	60	59	58	53	57	56
1030	55	54	53	52	51	51	50	49	49	48
1025	46	45	45	43	43	42	42	41	41	40
1020	37	36	35	35	34	34	33	33	32	32
1015	27	27	26	26	26	26	25	25	24	24
1010	18	18	18	18	17	17	17	16	16	16
1005	9	9	9	9	9	9	8	8	8	8

### 13.4.6. Titan dioksid massa ulushini fotokolorimetrik metod bilan aniqlash

**Reaktivlar, priborlar:**

*sulfat kislota, konsentrangan;*

*azot kislotasi;*

*aluminiy sulfat tuzi;*


*fotoelektrikolorimetri;*

*o'chov kolbalari, 50 va 100 ml;*


*stakan, 50 ml;*

*elektr plitka.*

Metod, kislotali muhitda vodorod peroksi bilan hosil bo'lgan rangli titan kopleks birikmasi asoslangan:



**Kalibrlovchi grafik tuzish.** Titan dioksididan 0,0433 g (0,0002 g aniqlikda) tortib olinib, 12,5 ml konsentrangan sulfat kislota va 0,4 g aluminiy sulfati aralashmasi ishtirokida parchalanadi. Distillangan suv bilan suyultirib kalibrlash uchun 6 xil konsentratsiyali eritma tayyorlanadi va ularning optik zichligi aniqlanadi. So'ngra optik zichlikning, n konsentratsiyaga bog'liqlik grafigi chiziladi (68-rasm).



68-rasm. Eritma optik zichligining konsentratsiyaga bog'liqligi.

**Aniqlash usuli.** Namunadan 25 ml olib, 100 ml o'lchov kolbasiga quyuladi, ustiga konsentrangan sulfat va azot kislotalar aralashmasidan (1:0,7) quyuladi va elektr plitada, tiniq rangsiz bo'lguncha qizdiriladi. Eritma sovitilib, 50 ml o'lchov kolbasiga quyuladi, 0,3 ml (6 tomchi) 30 %li vodorod peroksididan tomizladi va hajmini belgi chiziqchasiga yetguncha distillangan suv quyuladi. So'ngra, yutilish qalinligi 50 ml bo'lgan kuvetaga eritmadan quyulib,  $\lambda = 440$  nm to'lqin uzunligida, optik zichligi aniqlanadi.

**Hisoblash.** Titan dioksid konsentratsiyasi, mg/l, quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$TiO_2 = \frac{a \times 1000}{V}$$

bunda,  $a$  — titan dioksidining kalibrlovchi grafik orqali topilgan miqdori, mg;  $V$  — aniqlash uchun olingan eritma hajmi, ml.

### 13.4.7. Yelinlovchi emulsiya tarkibidagi kanifol konsentratsiyasini aniqlash

*Sulfat kislota eritmasi, 0,1 n.;*

*Konus shaklidagi tekis tagli 200 ml kolba;*

*Natriy ishqori, 01 n.;*

*Elektr plitka;*

*Shisha tayoqcha.*

Qog'oz olishda uning massasiga kanifol emulsiyasi bilan aluminiy eritmalaridan qo'shiladi, bular selluloza tolachalarini yelimlashdan tashqari setka ustiga cho'kishini ham tezlashtiradi.

Kanifol smolan kislota izomerlar aralashmasi bo'lib, uning emperik formulasi  $C_{19}H_{29}COOH$  yoki  $C_{20}H_{30}O$ .

Kanifol oksidlanganda rangi o'zgaradi, kalsiniriangan sedada yomon eriydi, shuning uchun natriy ishqoridan qo'shib ishlataladi.

Kanifol yelimning konsentratsiyasi quyidagicha aniqlanadi: 20 ml kanifol yelim emulsiyasidan idishga olib, suv hammomida parlantiriladi, so'ngra quritish shkafida, og'irligi o'zgarmay qolguncha, quritiladi. Emulsiya quyulgan stakanning og'irligi aniq bo'lishi kerak.

**Hisoblash.** Yelim konsentratsiyasi, s, g/l, quyidagicha hisoblanadi:

$$C = \frac{(m_1 - m) \times 1000}{20} = (m_1 - m) \times 50$$

bunda,  $m$  — quritilgan bo'sh stakanning massasi, g;  $m_1$  — stakanning quritilgan yelim bilan og'irligi, g.

**Natriy gidroksid.** Kanifoldan yelim tayyorlash jarayonida (sovunlash) ishlatalgan natriy ishqorining ortiqchasinisovunlashdan (омылние) aniqlash uchun, tayyorlangan yelididan 20 ml olib, 200 ml li tekis tagli konus shaklidagi kolbaga quyulib, 30 m 0,1 n sulfat kislota eritmasidan qo'shiladi. Aralashma elektr plitada cho'kma hosil bo'lguncha qizdiriladi. Hosil bo'lgan cho'kma bir joyga to'planguncha kolbani qo'l bilan aylantiriladi. Biroz sovitgach, cho'kma shisha tayoqcha bilan sekin ichidan olinadi va kolbani ichida yuviladi. Kolbadagi ortiqcha kislota 0,1 n natriy ishqori bilan, fenolftalenli indikatori ishtirokida, titrlanadi.

**Hisoblash.** Ishqor miqdori,  $K$ , g/l, quyidagi formula bilan hisoblanadi:


$$K = \frac{(30 - V) \times 0,004 \times 1000}{20} = 0,2 \times (30 - V)$$

bunda,  $V = 0,1$  n natriy ishqorining titrlashga sarfi, ml; 0,004 – natriy ishqorining 1 ml dagi miqdori, g.

Qog'oz sifatini yaxshilash maqsadida birqancha bog'lovchi moddalar qog'oz massasiga qo'shiladi. Bular kraxmal, kalogenli yelim, suyuq shisha;

polimerlardan – poliakrilamid, algenitlar, latekslar va boshqa materiallar. Bog'lovchi moddalarni kanifol yelimi bilan birgalikda ishlatalisa, qog'ozning yelimlanishi yaxshilanadi.

### Qog'ozning yelimlanish darajasini aniqlash



**69-rasm. Qog'ozning yelimlanish darajasini aniqlovchi**

#### ШРБ прибор:

- 1—приборни ю'нлтирувчи рамкаси; 2—реяслайдер; 3—муфтача;
- 4—фиксатор; 5—ушлагич; 6—валик; 7—супроводчи таянчи;
- 8—приборни асоси; 9—то'xtатувчи ҳалқа.

Yelimlanish darajasiga qarab, qog'oz kuchli yelimlangan, sal yelimlangan va yelimlanmaganga bo'linadi.

Kuchli yelimlanganlarga: yozuv qog'ozzi, daftar, chizmachilik, kartografik, fotodagi va boshqa qog'ozlar; sal yelimlanganlarga: bosmaxona, bosma, chuqur bosma, muqova, pachka va boshqa qog'ozlar. Yelimlanmaydiganlarga: kabel, telefon, kondensator, filtr, papiros, gazeta va boshqa qog'ozlar.

Yelimlash darajasini aniqlashning ikkita usuli mavjud: chernil – shtrix va quruq indikator.

**Chernil – shtrix metodi.** Bu metod bilan yozuv, bosma va texnik qog'ozlarning yelimlanish darajasi aniqlanadi. Yelimlanish darajasi shtrix chizig'ining qog'oz yuzasida, maxsus tayyorlangan siyoh namuna qog'oz yuzasida yoyilishini yoki ikkinchi tomoniga o'tishini eni millimetrda o'lchanadi va bu yelimlanish darajasini ko'rsatadi. Sinashdan oldin qog'oz namunasi 65% namlikda va 20°C temperaturada, me'yorda ko'rsatilgan vaqtgacha kondesjonirlanadi.

**Sinash.** Priborning yo'riqnomasida ko'rsatilgandek namuna qog'oz pribor taxtachasi ustiga o'rnatiladi. Shtrixlar qog'ozning yuza tomoniga va setka tomoniga chiziladi. Resfeydorlarga siyoh 10 mm balandlikkacha to'ldiriladi va taxtacha ustidagi namuna qog'oziga, tezligi taxminan 80 – 100 mm/s, chiziqlar chiziladi. Yelimlanish darajasi, 2 soatdan keyin, namuna qog'oz qurigandan keyin aniqlanadi. Priborga 4 ta resfeydr o'rnatilgan, ularning orasi 17 mm. Resfeyderlar pribor taxtachasiga nisbatan 45 gradus burchak ostida o'rnatilgan. Resfeyderlar qog'oz yuzasiga chizayotgandagi bosim kuchi 0,5 N atrofida bo'lishi kerak.

Maxsus tayyorlangan siyoh ko'rsatkichlari: pH – 1,8–2,0; sirt tortish kuchlanishi 48–50 mN/m; qovushoqligi – 1,3–1,5 mPa. s.

Yelimlanish darajasini aniqlashda, siyoh shtrixlarning qog'oz yuziga yoyilmagan eni va orqa tomoniga o'tmagani hisoblanadi. Yelimlanish darajasi uchun 10 ta sinovning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

**Quruq indikator usuli.** Bu usulda yelimlanish darajasini aniqlash, suv ustiga qo'yilgan qog'oz, uning yuzasidagi indikatorga nam o'tgan vaqtini aniqlashga asoslangan. Indikator sifa-

tida shakar uni bilan kraxmal va bo'yoq aralashmasi qo'llaniladi. Ishlatishdan oldin bu aralashma 100°C atofida 0,5 soat quritiladi va elakdan o'tkaziladi. Aralashmadagi komponentlar nisbati: shakar: kraxmal: bo'yoq = 9:1:0,2.

**Sinash.** Namuna qog'oz o'lchami 50x50 sm, maxsus pri-borda (70-rasm) qalinligi aniqlanadi. Tomonlari 5 mm tepaga qayriladi, ichiga yupqa qilib elak yordamida quruq indikator sepiladi. Namuna 20°C li vannadagi suvga qo'yiladi va shu zohati sekundomer yurgiziladi. Indikatorning rangi o'zgarishi boshlanganda sekundomer to'xtatiladi. Bu amal 5 marta qaytariladi va o'rta arifmetik qiymati olinadi.

**Hisoblash.** Yelimlanish darajasi, s/mm, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$D = t/h$$

bunda, D — qog'ozning yelimlanish darajasi, s/mm; t — indikator rangi ko'ringandagi vaqt, s; h — qog'oz qalinligi, mm.

### 13.5. QOG'ÖZ SIFATINI ANIQLASH

#### 13.5.1. Sharoit

Obyektiv va solishtirish mumkin bo'lgan ma'lumotlar olish uchun quyidagi shartlarni bajarish lozim:

1. To'g'ri bajarish.
2. Standartlangan usul.
3. Klimatik sharoit.
4. Namunalarning o'lchami va sinash vaqt.
5. Namunalar soni.

Qog'oz mahsulotlar ochiq havo sharoitiga juda bog'liq. Chunki selluloza gigroskopik polimer hisoblanadi, havodagi namni tez yutadi. Shuning uchun qog'ozni sinashda klimatik sharoitning me'yorida bo'lishi shart, aks holda uning sifat ko'raklichlarida katta farq bo'ladi. Tegishli standart bo'yicha, qog'ozni sinash xonasida, quyidagi klimatik sharoit qabul qilingan:

Havoning temperaturasi  $20 \pm 1^{\circ}\text{C}$

Havoning nisbiy namligi  $65 \pm 2\%$

Ba'zi hollarda maxsus klimatik sharoit o'rnatish zarur bo'lib qoladi. Buning uchun, eksikator ichida o'matilgan, quyidagi usullardan foydalanish mumkin (65-jadval).

### Ba'zi bir noorganik tuz eritmalarini havoning nisbiy namligini saqlashi

65-jadval

t/r	Eritma nomi	Kimyoviy formulasigi	Nisbiy namlik, %
1	Natriy gidroksid	NaOH	5
2	Kalsiy xlorid	CaCl + 6H <sub>2</sub> O	35
3	Kaliy karbonat	R <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> + 2H <sub>2</sub> O	45
4	Ammiakli selitra	NH <sub>4</sub> NO <sub>3</sub>	65
5	Natriy xlorid	NaCl	75
6	Kaliy xlorid	KCl	83
7	Natriy karbonat	Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> + 10H <sub>2</sub> O	92

#### 13.5.2. Qog'ozlarning asosiy xossalari

Qog'ozlarning asosiy xossalari hisoblanadigan ko'rsatkichlar: 1 m<sup>2</sup> yuzasining massasi, qalinligi, hajm zichligi, solishtirma hajm, harakat yo'nalishi, ikkiyuzalik, har xil nur o'tkazuvchanlik va namlik kabi xossalari kiradi.

Qog'ozlarning pishiqlik xossalariiga – cho'zilishga qarshilik kuch, yirtilishga qarshilik kuch, egilishga qarshilik, havo bosimiga qarshilik, siqilgandagi deformatsiya, egiluvchanlik, mo'rtlik (жесткость), uzilish uzunligi xossalari kiradi.

Qog'ozlarning bosma xossalariiga (tipografik) – silliqlik, yuza uzulishiga qarshilik (выщипование) va ishqalanish, yuzasining suyuqlikni shimish qobiliyati, yelimlanish darajasi, qog'ozni bo'yoqni shimish xossalari kiradi.

Qog'ozlarning umumiy fizik xossalariiga – shimish

balandligi, nam va suvini yutilishi, kul, deformatsiyaga chidam-lilik va boshqa xossalari kiradi.

Qog'ozlarning optik xossalariiga – sillqlik, xiralik, tiniqlik, oqlik, ranglar koordinati kabi xossalari kiradi.

**1 m<sup>2</sup> qog'ozning massasini aniqlash  
(GOST 13199; standart: DIN, ISO 536)**

**Apparatura:**

*analitik tarozi yoki elektron 125A rusumli tarozi;  
metalldan yasalgan andoza (shabloan) 200x500 mm.  
namunalar GOST 7004 bo'yicha olinadi.*

**Sinashga tayyorlash.** Qog'oz polotnosidan, andoza bilan, aniqligi 0,5 mm da 200x500 mm qirqib olinadi va 2 soat mobaynida  $20 \pm 1^\circ\text{C}$ , va  $65 \pm 2\%$  sharoitda konditsionirlanadi.

**Sinash.** Namunalar torozida  $+0,05$  g aniqlikda tortib olinadi.

**Hisoblash.** 1 m<sup>2</sup> qog'ozning massasi, m, g, quyidagicha hisoblanadi:


$$m = 10 \times g$$

bunda, g – o'lchami 200x500 mm, (0,1 m<sup>2</sup>) qog'ozning massasi, g; 10 – o'lchami 200x500 mm namunani 1 m<sup>2</sup> ga o'tkazish koefitsiyenti.

Uchta namuna sinaladi va o'rtacha qiymati 0,1 gacha aniqlikda olinadi.

**Qog'ozning qalinligini o'lchash  
(GOST 13199; standart DIN 53105)**

**Sinash.** Qog'ozning qalinligini o'lchash indikatorli L&W turli priborda (70-rasm) bajariladi.



**70-rasm. Qog'ozning qalinligini o'lchaydigan indikatorli D2 modelli pribor:**

1—o'lchash diapozonini o'zgartirgich; 2—ekran; 3—rangli diodlar; 4—shup o'lchagich; 5—mahkam o'matilgan o'lchash yuza; 6—yopish knopkasi; 7—«» nuqtani o'rnatgich; 8—to'g'irlovchi potensiometr 0,08 dyum/2mm; 9—to'g'irlovchi potensiometr 0,02 dyum; 10—VSD ga chiqish; 11—predoxranitel 12—tokka ulash; 13—boshqarish elementiga ulash.

Avval priborning indikator shkalasi «0» to'g'irlanadi. Namuna qog'oz o'lchamlari: uzunligi 1500 mm va eni 10 mm. Namuna, qog'ozning setkali tomonini tepaga qaragan holda, priborning o'lchash joyiga o'matiladi. So'ngra knopka yordamida sterjenni pastga — qog'oz ustiga tekiziladi, bunda priborning indikator oynasida (ekran) qog'oz qalinligini ko'rsatuvchi raqam yoziladi. O'lchash 10 ta namuna qog'ozning beshta nuqtasidan o'lchanib, o'rta arifmetik qiymat 1 mkm aniqlikda olinadi.


**Qog'ozning uzulishga qarshilik kuchini va uzilish uzunligini aniqlash**

(GOST 13525.1; standart DIN 53105)

**Namuna olish.** Olingan namuna qog'ozning chetlari tekis, toza, bukilmagan, g'ijimlanmagan bo'lishi kerak.

Qog'ozning uzulishga qarshilik kuchini va uzilish uzunligini aniqlash EHM li L&W turidagi dinamometrda bajariлади (71-rasm).

**Priborni va namunalarni tayyorlash.** Priborning indikatorida havo bosimi  $0,34 - 0,37 \text{ MPa}$  ga to'g'irlanishi lozim. Qog'oz namunalar, o'lchami  $150 \times 15 \text{ mm}$ , 4 donadan mashina va ko'ndalang yo'nalishlarda qog'oz qirqish asbobida tayyorlanadi. Namunalar 2 soat klimatik sharoitda saqlanadi.



**71-rasm. Qog'ozning pishiqligini aniqlaydigan pribor:**

1—havo bosimini boshqaruvchi; 2—siqilgan havoni bosim datchigi; 3—printer; 4—display; 5—klaviatura; 6—suruluvchi qisqich; 7—zajim; 8—qisqich blokirovkasi.

**Sinash.** Dinamometrning namunani qisib turish oralig'i 100 mm, namuna shu oraliqqa o'matiladi, taxmindan 0,3 H ko'p

bo'lmanan kuch bilan sal taranglab qo'yiladi. Bu amal sinash jarayonida namuna siljib ketmaslik uchun qilinadi. Priborning programmasida sinaladigan nomunalar soni va namuna 1 m<sup>2</sup> og'irligi bilan kiritiladi. So'ngra sinash boshlanadi. Sinov natijalari: uzulishga qarshi kuch priborning printeriga, Nyuton (H), uzulish uzunligi, m, birligida yozib boriladi. Uzulishga qarshilik kuch, 0,1 H aniqlikkacha (agar kuch miqdori, F, 50H gacha bo'lsa) va 1H aniqlikkacha, agar F 50 dan 500H gacha bo'lsa, olinadi.

Sinov natijalaridagi farqlar +4 % oshmasligi kerak. Qog'ozning har ikkala yo'naliishlari bo'yicha sinov natijalari uchun o'rtacha arifmetik qiymatlar olinadi.

**Uzulish uzunligini aniqlash.** Uzulish uzunligi  $L$ , m, quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$L = \frac{I_0 \times F}{m}$$

bunda,  $I_0$  — qisqichlar orasidagi nominal masofa, mm;  $m$  — namuna uchun olingan qog'oz massasi, g (barcha olingan namunalarning o'rtacha massasi).

Olingan natija 50 m aniqlikkacha (agar uzulish uzunligi 5000 m gacha bo'lsa) va 100 m — agar uzulish uzunligi 5000 m dan ortiq bo'lsa, sinov xatoligi +5 % oshmasligi kerak.

#### **Qog'ozning namga pishiqligini aniqlash (GOST 13525.1; standart DIN 53105)**

Qog'ozning namga pishiqligini aniqlash usuli, namunani ma'lum vaqt suvda ushlab turib, uning mexanik pishiqligini aniqlashga asoslangan.

**Apparatlar, materiallar, eritmalar:**  
*dinamometr (oldingi sinashga qarang);*  
*namunani hollash qurilmasi: distillangan suv quyulgan, hajmi 600 ml (GOST 1770) stakan;*

*ΦC – III markali filtr qog'oz (GOST 12026);  
po'lat rolik, 10 kg.*

**Pribor va namunalarni tayyorlash.** Bu amal qog'ozning uzulishga qarshilik kuchini va uzilish uzunligini aniqlash metodida ko'rsatilgandek bajariladi. Namunalar esa har bir yo'nalihsiga 2 tadan olinadi.

**Sinash.** Qog'oz namunalar, o'lchami 150x15 mm, 2 donadan mashina va ko'ndalang yo'nalihsarda qog'oz qirqish asbobida tayyorlanadi. Namuna soni va qog'ozning 1 m<sup>2</sup> og'irligi pribor programmasiga kiritiladi. Namunalar 10 min (yelimlanmagan qog'ozni 3 min) sosud (stakan)dagi distillangan suvda ushlab turiladi, so'ngra olib ortiqcha suvini ikkita filtr qog'oz orasida, 10 kg po'lat rolik bilan siqib chiqariladi. Dinamometr dan olingen sinov natijasi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

**Hisoblash.** Namga pishiqlik *V*, %, quydagi formula bilan aniqlanadi:


$$B = \frac{P_e \times 100}{P_c}$$

bunda, *P<sub>e</sub>* – nam holdagi namunalarning o'rtacha arifmetik uzulishga qarshilik kuchi, N; *P<sub>c</sub>* – quruq holdagi namunalarning o'rtacha arifmetik uzulishga qarshilik kuchi, N. Aniqlik darajasi 0,1 N.

**Qog'ozning ikki tomonga bukilish  
qarshiligini aniqlash  
(GOST 13525.2; standart DIN 53115)**

Qog'ozning ikki tomonga bukilishga qarshiliginani aniqlash, uning tortilgan holda, uzulishgacha bo'lgan bukilish sonlarini aniqlashga asoslangan.

Qog'ozning bukilishga qarshiligi «Frank» rusumli apparatda bajariladi.



**72-rasm. Qog'ozning ikki tomonga bukilishga chidamliliginini aniqlaydigan pribor:**


1—korpus; 2,3—eguvchi golovka; 4,5—siqvchi vtulka;  
6,7—cho'zuvchi qisqich; 8—stoyka; 9—to'xtatuvchi shtift;  
10—rolikli ustun; 11—asosiy elektr. tokni o'chirgich; 12—signal  
lampa; 13,14—eguvchi qismarlari to'xtatkichi, yurgizgich knop-  
kalar; 15—qopqoq; 16,17—setkalar; 18,19—schyotchik  
ko'rsatkichini o'chirgichi; 20,21—printerga uzatuvchi knopka.

**Sinashga tayyorgarlik.** Sinashga keltirilgan qog'ozlardan, 100x15 mm o'lchamda 4 tadan qirqib namuna tayyorlanadi. Klimatik sharoitda 2 soat ushlab turiladi.

**Sinash.** Har bir rulondan, ikkala yo'nalish bo'yicha, ikkidan namuna sinaladi. Namunalar priborning ikkita qisqichiga mahkam qistiriladi. So'ngra apparatning ishchi qismi harakatga keltiriladi. Bukilishlar soni avtomatik ravishda hisoblanib, apparatning ekranida yozib boriladi. Namuna uzulgach (singach) apparatda hisoblash ham to'xtaydi, ikki tomonga bukilish sonlari tabloda yozilib qoladi. Natijalar ikkala sinovning o'rtacha qiymati olinadi (qog'oz namunalarining mashina yo'nalishi va ko'ndalag yo'nalishlar bo'yicha alohida).

## Qog'ozning yirtilishga qarshilik kuchini aniqlash (GOST 13525.1; standart DIN 53105)

Qog'oz namunalarining yirtilishga qarshilik kuchi Elmendorf (73-rasm) rusumli priborda aniqlanadi. Buning uchun, metall andoza (o'lchami 76x63 mm) bilan har bir namunadan to'rtadan, to'g'ri to'rtburchak shaklida, mashina yo'nalishi va ko'ndalang yo'nalishlar bo'ylab, ikkitadan namunalar olib, priborning namuna joylashtiradigan joyiga joylashtiriladi. Priborning pichog'i bilan namunaning standart 43 mm qismigacha qirqiladi. Qirqilgan joyini qolgan qismini priborning mayatnigini ishga solganda qirqiladi. Natijada, priborning tablosida qirqishga sarflangan kuch miqdori ko'rindi. Yirtilishga qarshilik kuch mH birligida o'lchanadi. Sinov natijasi sifatida ikkitadan o'lchangan namunalarning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.



73-rasm. Elmendorf asbobida qog'ozning yirtilishga qarshilik kuchini aniqlash:

1 - naimunalar sonini kirituvchi murvat; 2 - CAL xotirasiga kirituvchi klavishning 0 qiymati; 3 - PGM funksiyasini faollashtirgich; 4 - display; 5 - YES dialog klavshi; 6 - NO dialog klavshi; 7 - CLAMP ochish (yopish) qisqichi; 8 - PEND (bosh harakat) mayatnigini blokirlash; 9 - mayatnikni havo yordamida ushlab turgich; 10 - mahkamlaydigan teshik; 11 - na'munani kesuvchi pichoqli dastak; 12 - havo bilan siqish; 13 - havo uchun reduktor; 14 - siqilgan havoni kuzatuvchi indikator; 15 - tekshirib turuvchi toshlarni o'rnatish uchun teshikcha.

### **Qog'ozning kul massa ulushini aniqlash (GOST 7629)**

Metod qog'oz namunasini  $900+50^{\circ}\text{C}$  temperaturada yondirib, qolgan kulini torozida tortib olishga asoslangan.

**Priborlar, apparatlar:**

*avtomatik usulda boshqariladigan mufel pechi;*  
*elektron torozi, 125 A rusumli (yoki boshqa analitik torozi);*  
*platinali tigellar, GOST 6563;*  
*tigel tutgich.*

**Sinash.** Qog'oz namunadan 1 g tortib olib ( $0,0002$  g aniqlikda), buklab tigelga solinadi, so'ngra mufel pechiga joylashtiriladi. Pechkada tigel 30 minut davomida,  $900^{\circ}\text{C}$  temperaturada ushlab turiladi. So'ngra tigel kul bilan asbest polotno ustiga qo'yib sovitilgach, torozida tortib kulning miqdori aniqlanadi.

**Hisoblash.** Kul massa ulushi,  $K$ , %, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$K = \frac{m \times 100}{m_1 \times (100 - W) 100}$$

bunda,  $m$  - kul massasi, g;  $m_1$  - namuna qog'oz massasi, g;  $W$  - qog'ozning namligi, %.

Aniqlash natijasi sifatida ikkita sinovning o'rtacha miqdori, 0,01 % aniqlikda olinadi.

### **Qog'oz suvdagi ekstraktining pH ko'rsatkichini aniqlash (GOST 12523; standart DIN 53115)**

**Apparat va materiallar:**

pH – metr, WTW sistemadagi 537 turli;

elektron analitik torozi, 125A rusumli;

magnit aralashtirgich, RET rusumli;

o'chov stakan, 100 ml, 200 ml GOST 25336;

qog'ozni qo'l kuchi bilan kesadigan maxsus pichoq;

kaliy xlorid;


distillangan suv.

**Sinash.** Qog'oz namunasini 5x5 mm dan katta bo'limgan qilib bo'lakchalarga qirqib 1 g (0,01 g aniqlikda) tortib olinadi. So'ngra ichiga 100 ml distillangan suv quyulgan stakanga solinadi va magnit aralashtirgichiga qo'yiladi. Bir soat davomida aralashtiriladi. So'ngra 0,1 – 0,2 g kaliy xlorid tuzidan solib, yana 5 minut aralashtiriladi. Olingan ekstraktni 200 ml stakanga quyub olib, pH – metrda pH ko'rsatkichi 0,1 aniqlikkacha aniqlanadi.

### **Qog'ozning silliqligini va g'ovakligini aniqlash (GOST 12795; standart DIN 53120)**

O'chash usul, ma'lum o'chamdag'i namuna qog'oz tagidan havo berganda, undan o'tgan havo miqdorini o'chashga asoslangan.

Qog'ozning silliqlik va g'ovakligini o'chash Bentdsen (74-rasm) priborida bajariladi. Priborning o'chash chegarasi 500 ml/min dan ortiq.



**74-rasm. Qog'ozning g'ovakligini va silliqligini aniqlavchi Bentdsen pribori:**

1—havo oqimini o'lchagich; 2—silliqlikni o'lhash; 3—siliqchanlikni o'lhash uchun; 4—ekran; 5—printer; 6—o'lchangan natijani hisoblagich; 7—havo o'tkazuvchanligini o'lchagich; 8—qisqa bosqich (3 sekundan kam); 9—silliqlik va havo o'tkazgichlarni boshqaruvchi golovka; 10—tekshiruvchi forsunka; 11—o'lhash uchun havoni taqsimlagich; 12—silliqlikni o'lhash joyi; 13—havo oqimini kalibrlovchi patensiometr; 14—havo bosimini o'lchovchi monometr; 15—o'chirgich; 16—g'ovaklikni o'lhash joyi.

**Pribor va namunalarni tayyorlash.** Pribor quyidagi talab-larga javob berishi lozim:

- priborning qisuvchi qismi namunaning  $10 \text{ sm}^2$  qismining germetikligini ta'minlash;
- aylana shaklidagi qisqichni diametri  $35\pm0,05 \text{ mm}$  bo'lishi;
- priborning vakuum metridagi havo bosimi  $1,47+0,02 \text{ kPa}$  bo'lishi;
- qo'l bilan bosadigan richagning turish holati, agar na-

munaning silliqligini aniqlash vaqtida «silliq» va g'ovakligini aniqlaganda «g'ovak» holda turishi.

**Qog'ozni sinashga tayyorlash.** Namuna uchun keltirilgan qog'ozdan besh bo'lak olib, ularning har biridan ikkita namuna 200x500 mm o'lchannda qirqib, ularning ustki va setka tomoni belgilanadi.

**Qog'oz silliqligini aniqlash.** Qog'oz namunasi priborga o'rnatiladi. Namunaning silliqlikni har ikkala tomoni alohida o'lchanadi. Priborga o'rnatilgan qog'oz ustiga uning o'lchov halqasi asta tushuradi, siquvchi (zichlovchi) halqa bilan namuna ustiga havo to'planib, bosimi 15 mbarga kelgach, havo oqimi, priborning havo oqimini o'lchagichi bilan o'lchanib pribor tablosiga, ml/min, birligida yoziladi.

**Qog'oz g'ovakligini aniqlash.** G'ovaklik (havo o'tkazuvchanlik) qog'ozning ichki strukturasini xarakterlaydigan ko'rsatkich. G'ovaklik qog'oz olish texnologik jarayonlarning tolalarni maydalanish darajasiga, qog'oz shakklash sharoitiga va kalandilashga bog'liq.

**Sinash.** G'ovaklikni aniqlash ham Bentdsen priborida bajariladi. Sinaladigan qog'ozning silliqligini aniqlash kabi bajarijadi. Priborning richagi «g'ovak» holatiga burab qo'yiladi. Pribor halqasining orasiga o'rnatilgan namuna qog'oz, pribor richagini qo'l bilan bosib mahkamlanadi. Priborga 15 mbar havo bosimi berilgach, mahkamlangan namunadan bir minutda o'tgan havo miqdori aniqlanib, uning miqdori, ml, tablosida yoziladi.

### **Qog'ozning optik ko'rsatkichlarini o'lchash (GOST 7690; standart DIN 53146)**

Metod bariy yoki magniy oksidining shisha plastinka ustiga silliqlab joylashtirilishi, standartning nur qaytarish xususiyatining solishtirishga asoslangan.

Sinash Elrefo – 2000 rusumli priborda bajariladi.

Priborni sinashga tayyorlash, uning yo'riqnomasida ko'rsatilganidek, avval oq plastinka bilan kalibrlab, to'lqin

uzunligi 400, 420 va 700 nm da 97,71; 97; 90; 98,60 % ko'rsatkichlariga erishgach, pribor kalibrangan hisoblanadi.

**Namuna xiraligini aniqlash.** Aniqlash uchun bir va ko'p qavatlangan qog'ozlarning nur qaytarish darajasini bir-biriga solishtirish yo'li bilan bajariladi. Bir qavatli qog'ozni o'lchaganda qora plastinka qo'llaniladi,  $R_0$ , ko'p qavatli qog'ozlardan nur o'tkazganda  $R_{\infty}$ .


$$X = \frac{R_0 \times 100}{R_{\infty}}, \%$$

Xiralik bu nurni o'tkazish qobiliyati hisoblanadi, chunki 8 qavatli bir xil qog'ozdan qaytarilgan yorug'lik oqimini o'tkazmaydi. Bir qavat qog'ozni priborning sinov qismiga joylashtirib «8» sariq knopka bosiladi, so'ngra bir qavatli qog'oz o'rniga 8 qavatga buklangan qog'oz joylashtiriladi va sariq knopkani bosish bilan xiralik aniqlanadi. Priborning tablosida xiralik miqdori % avtomatik ravishda yoziladi.

**Namuna oqligini aniqlash.** Oqlik — bu qog'ozning nurni qaytarish qobiliyati. Qog'ozning oqlik darajasi,  $R$  — 457 filtri yordamida va yorug'lik oqimi parametri qaytarilishi, oqlik daraja sifatida %da priborning tablosida ko'rsatiladi.

Elrefo priborida qog'ozning oqlik darajasini aniqlash uchun, namuna priborning o'lchash joyiga qo'yiladi va «7» knopkasi bosiladi, natijada, oqlik darajasi tabloda % hisobida ko'rsatadi.

Namunani rang koordinatlarini aniqlash. Qog'ozning rang koordinatlarini Elrefo — 2000 priborida aniqlanadi. Priborni qog'oz sinashga tayyorlash, uning yo'riqnomasida batafsil keltiriladi. Priborda  $L^*$ ,  $a^*$ ,  $b^*$  ko'rsatkichlari quyidagicha aniqlanadi. Namuna qog'oz priborning o'lchash joyiga qo'yib, «2» tugmasi bosiladi. Pribor tablosida  $L^*$ ,  $a^*$ ,  $b^*$  larning qiymatlari avtomatik ravishda ko'rsatiladi. Bunda  $L^*$  — yorug'lik,  $a^*$  — qizil rang qismi,  $b^*$  — sariq rang qismi.



**75-rasm. Qog'ozning optik ko'rsatkichlarini aniqlovchi Elrefo-2000 pribori:**

1—kerakli programmaga o'rnatish uchun klaviatura;  
2—o'lchangan natijalarni ko'rsatuvchi ekran; 3—namuna o'rnatiladigan o'rindiq; 4—tanlangan programmani o'rnatgich knopka; 5—namunani ushlab turgich.

### **Qog'oz yuzasining yulinishiga qarshilik kuchini o'lhash (GOST 12602; standart ISO 535)**

#### **Apparat va materiallar:**

*eruvchan vosk qalamchalari;*  
*spirtovaka yong'ich.*

Qog'ozni sinashga tayyorlash. Vosk qalamchani spirtli yong'ichda suyultirib, qog'oz namunasining yuzasiga bosiladi. 15 minut davomida sovitilgach, yog'och asbob bilan qog'ozni bosib turib, shtiv qalamcha vertikal holda tez yulib olinadi. Yulinishga qarshilik kuchini, qalamchaga qog'oz yuzasidan tolachalar yulinib chiqmagan vosk qalamchasini o'rni, qog'ozning yulinishga qarshilik kuchi hisoblanadi.

## **Qog'ozning ifosligini aniqlash (GOST 13525.4)**

Metod, oddiy ko'z bilan ko'rindigan ifoslarni, qog'ozning umumiy fonidan ajralib turganlarni aniqlashga asoslangan.

**Namuna olish.** Laboratoriya keltirilgan uchta katta formatli listlarni har biridan 500x200 mm formatda qirqib olinadi, olingan namunalarda egilgan, g'ijimlangan joylari bo'lmasligi kerak.

### **Apparatura:**

*metalldan yasalgan o'lchami 500x200 mm andoza;  
organik plynokadan yasalgan tiniq andoza, plynokaga qora, har xil  
o'lchamdag'i chizilgan shakllar, ularning yuzasi: 0,15; 0,40; 1,0 mm<sup>2</sup>.*

**Sinash.** Namunani toza, chap tomonidan yorug'lik tushib turgan tekis joyga qo'yiladi. Yorug' berib turadigan lampaning yorug'ligi 600 luks, bo'lib, yorug'ligi namunaning o'rtasiga tu-shadigan qilib undan 25 sm nariroqqa joylashtiriladi. Ikkita namuna qog'oz tekshiriladi.

**Hisoblash.** Iflos dog'lar sonining (qora nuqtalarni) hammasi, X, hisoblanib, 1 m<sup>2</sup> qog'oz yuzasiga nisbatan aniqlanadi:

$$X = \frac{c \cdot 10}{n}$$

bunda, c — iflos nuqtalarning, namuna qog'ozning ikkala tomonidagi soni; n — tekshirilgan namunalar soni.

## **Qog'ozning namligini aniqlash (GOST 13525.19; standart DIN, ISO 287)**

**Namuna olish.** Har bir rulon ustidan 5 mm qismi olib tashlanib, 500x200 mm shablon bilan rulonni eni bo'ylab 3 joyidan qog'ozdan namunalar qirqib olinadi. Quritishdan oldin va keyin analitik torozida 0,01 g aniqlik bilan tortib olinadi.

### **Apparatlar:**

*quritgich shkafi, temperaturasi 30 dan 200°C gacha boshqariladigan;*

*analitik elektron (yoki boshqa tur analitik) torozi;*

*shablon 500x200 mm;*

*eksikator, GOST 25336.*

**Namlikni aniqlash.** Namuna uchun olingan qog'ozni quritgich shkafiga qo'yiladi va 105°C da og'irligi o'zgarmay qolgancha quritiladi. So'ngra eksikatorda xona haroratigacha sovitiladi va torozida tortiladi.

**Hisoblash.** Qog'ozning namligi, W, %, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$W = \frac{m_1 \cdot m_2 \cdot 100}{m_1}$$

bunda,  $m_1$  — namuna uchun olingan qog'ozning quritishdan oldingi massasi, g;  $m_2$  — namuna uchun olingan qog'ozning quritishdan keyingi massasi, g.

Namligini aniqlash uchun olingan ikkita parallel sinalgan  $\perp$ -g'ozlarning o'rtacha arifmetik qiymati, 0,1 % aniqlikda olinadi.

### **Qog'ozning yelimlanish darajasini Cobb usulida aniqlash (standart ISO 535)**

Qog'oz sifatini aniqlovchi muhim ko'rsatkichlardan biri uning yeimlanish darajasi hisoblanadi. Yelimlashdan maqsad, qog'ozga suv o'tkazmaslik xossasini berish va siyoh bilan yozish imkonini berish.

Qog'ozning yelimlanish darajasini aniqlashning uchta usuli mavjud: siyoh — shtrix usuli, quruq indikator usuli va suv yutish. Quyida oxirgi usul bilan qog'ozning yelimlanishini aniqlashi ko'rib chiqiladi.

### **Apparatura:**

absorbsiyalash pribori, L&W rusumli;

kvadrant torozi, L&W rusumli;

sekundomer;

andoza, o'chami 140x140 mm;

po'lat rolik, 10 kg;

filtr qog'oz, ФБ – III.

**Naniunani sinashga tayyorlash.** Qog'ozdan 2 dona 140x140 o'chamda andoza qirqib olinadi. Ularning setka va mato qismi belgilanadi va 2 soat konditsialashga qo'yiladi.

**Sinash.** Namunalar kvadrant torozida tortib olinadi va uni absorbsion priborga o'rnatiladi va ustiga 100 ml distillangan suv quyuladi. Sorbsiyalanish muddati 60 sekund. So'ngra suvini to'kib, namunani ikkita filtr qog'ozni orasiga qo'yib, 10 kg po'lat rolik bilan ortiqcha suv chiqariladi. Namuna yana tortiladi. Sinash qog'ozning setka va mato tomonlari alohida o'tkaziladi.

**Hisoblash.** Qog'ozning yelimlanish darajasi, ED, g/m<sup>2</sup>, Kobb usulida quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$ED = m_m - m_c$$

bunda,  $m_m$  – namuna qog'ozning suv yutgandan keyingi massasi, g/m<sup>2</sup>;  $m_c$  – namuna qog'ozning quruq holidagi massasi, g/m<sup>2</sup>.

### **Qog'ozning kapillar suv yutishini aniqlash (GOST 12602)**

Metod, lenta shaklida qirqib olingen qog'oz namunasini vertikal osib qo'yib, ikkinchi tomonini suvgaga botirib qo'yganda, qog'oz kapillarlaridan suvning tepaga ko'tarilishini aniqlashga, asoslangan. Kapillarlar orqali ko'tarilgan namlik millimetrda o'chanadi.

**Apparatlar, materiallar va reaktivlar:**

*klemma pribori, 76-rasm.;*

*sekundomer;*

*distillangan suv.*

**Sinashga tayyorlash.** Har bir qog'oz namunasidan ikkitadan, o'lchami 15x250 mm, lenta qirqib olinadi. Bulardan biri mashina yo'nalishida, ikkinchisi ko'ndalang yo'nashda bo'lishi kerak. Lentani bir uchidan 10 mm masofada qalam bilan belgi chiziladi.

**So'rish balandligini aniqlash.** Qog'oz namunalari 2 soat klimatik sharoitda turgach, Klemma priboriga ikkita namuna, biri mashina yo'nalishi, ikkinchisi ko'ndalang yo'nalishdan olin-gan namunalar vertikal holda, parallel qilib qistirib qo'yiladi (76-rasm). Priborda o'lchov lineyka bo'lib, uning pastki uchi vannadagi distillangan suv yuziga tegib turadi. Namunalar esa lineykaning pastki uchidan 5 — 10 mm pastda suv ichida bo'ladi. Suvning temperaturasi 20°C. 10 minutdan keyin suvning namunalar kapillari bo'ylab ko'tarilishi (so'riliishi), o'lchov lineykasi bilan o'lchanadi. Qog'ozning har bir yo'nalishidan ikkitadan olingan namunalar o'lchanadi va o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

#### **Qog'ozning hajm va solishtirma zichliklarini aniqlash (GOST 13199; standart DIN 53105)**

Qog'ozning hajm va solishtirma zichliklari uning qalinligi va  $1 \text{ m}^2$  massasi orqali hisoblanadi.

Hajm zichligi.  $1 \text{ m}^2$  qog'ozning massa ko'rsatkichi,  $m_a$ , uning massasining,  $m$ , yuzasiga,  $A$ , nisbatiga teng:

$$m_a = m/A,$$

Qog'ozning zichligi,  $p$ , uning  $1 \text{ m}^2$  massasining qalinligiga,  $S$  nisbati teng:

$$R = \frac{m_a}{S}$$

Solishtirma zichlik,  $p_z$ , bu zichlikning teskarisi, ya'ni:

$$p_z = 1/p$$

Odatda, solishtirma hajmni birligi ko'rsatilmaydi. Natijasi nisbatlarda xarakterlanadi. Masalan, zinch bosma qog'ozlarning nisbiy hajm 1,5; 2 yoki 3 marta deb xarakterlanadi.

**Qog'oz tarkibidagi sulfat - ionlarining massa ulushlarini aniqlash  
(GOST 20422)**

Qog'ozni nitrat tuzi eritmasidagi ekstrakti qog'ozning suv-dagi ekstrakti tarkibidagi sulfat-ionlarini aniqlash nefelometrik usulga asoslangan.

**Apparatura, idishlar, reaktivlar va eritmalar:**

*fotoelektrokolorimetr ФЭК yoki boshqa turlari;*

*pH — metr;*

*elektr plita yoki qum vannasi;*

*sekundomer;*

*analitik tarozi;*

*kolba konus shaklida, 100 va 1000 ml;*

*kolba konus shaklida, 50 va 250 ml;*

*shamol bilan sovitkich, uzunligi kamida 500 mm;*

*pipetkalar, shkalali, 5, 10, 20 ml;*

*shisha voronka;*

*qog'oz filtr;*

*xlorid kislota, 0,1 n eritma, ch.d.a.;*

*sirka kislota, x.ch.;*

*bariy xlorid, 5 %oli eritma, x.ch. (6 g bariy gidrat xloridi yoki suvsiz bariy xloridni 100 ml distillangan suvda eriladi);*

*etil spiriti, tozalangan;*

*etilenglikol yoki glitserin, ch.d.a.;*

*kaliy sulfat, x.ch.*

**1-Standart eritma** kaliy sulfati, tarkibida 200 mg sulfat-ionlar 1000 ml distillangan suvda, 0,363 g kaliy sulfatidan olib

1000 ml distillangan suvda eritib tayyorlanadi;

**2-Standart eritma** tarkibida 20 mg sulfa-ionlar 1 l. Tayyorlash usuli: 1 preparatdan (standart eritmada) 100 ml olib 1000 ml o'lchov kolbasiga quyiladi va distillangan suv bilan belgisiga yetkaziladi.

**3-Standart eritma** tarkibida 40 mg sulfat-ionlar 1 litr. Tayyorlash usuli: 1 preparatdan (standart eritmada) 200 ml olib 1000 ml o'lchov kolbasiga quyiladi va distillangan suv bilan belgisiga yetkaziladi.

*Distillangan suv.*

**Sinashga tayyorlash.** Qog'oz namuna quyidagi usul bilan tayyorlanadi: har bir listdan, og'irligi kamida 40 g qirqib olinadi. namuna  $10 \times 10$  mm o'lchamda bo'lakchalarga bo'linib maydalanadi va aralashtiriladi.

**Cho'ktiruvchi reaktiv tayyorlash.** Cho'ktiruvchi reaktiv 96 % etil spiritidan uch hajmda tayyorlanadi, uch hajmda etilenglikol (yoki glitserin) va bir hajm 5 %li bariy xlorid eritmasi.

pH ko'rsatkichini xlorid kislotaning 0,1 n eritmasi bilan pH-3 ga yetkaziladi.

Eritmadan 5 – 7 kundan keyin foydalanish mumkin.

**Kalibrlovchi grafik tuzish.** Mo'ljallangan sulfat-ionlarining ushiga qarab, kalibrlovchi grafik quyidagi usullarning biridan foydalanib tuziladi.

1. Agar sulfat-ionlari 0,001 dan 0,02 % atrosida bo'lsa, standart eritma 2 dan 10 namuna olib, sulfat-ionlari 0,0005 dan 0,01 mg/ml. Buning uchun 100 ml o'lchov kolbaga 2,5 ml dan 50 ml standart eritma 2 ga quyiladi va distillangan suv bilan belgisigacha to'ldiriladi. Konus shaklidagi 50 ml kolbaga 20 ml har bir standart eritmada quyib, 5 ml cho'ktiruvchi reaktivdan quyiladi va yaxshilab aralashtiriladi.

Bir vaqtning o'zida shu usul bilan tekshiruvchi namuna tayyorlanadi, bunda standart eritma distillangan suv bilan almashinadi. Tekshiruvchi namunaga nisbatan qilib 15 minutdan keyin tayyorlangan barcha namunalarning optik zichligi aniqlanadi.

Fotometplash 434 nm to'lqin uzunligida (havorang svetofiltr) qaliligi 50 min bo'lgan nur yutuvchi kuvetada bajariladi.

Olingen natijalardan soydalanim kalibrlovchi grafik tuziladi: horizontal o'qda sulfat-ionlar, vertikal o'qda optik zichlik.

Har bir konsentratsiya uchun uch marta o'lchanadi va ularning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

Agar sulfat-ionlari 0,02 dan 0,08 % atrofida bo'lsa, standart eritma 3 dan 10 namuna olib, sulfat-ionlari 0,01 dan 0,04 mg/ml. Buning uchun 100 ml o'lchov kolbaga 30 ml dan 100 ml standart eritma 3 quyiladi va qolgan amallar p. 1 kabi bajariladi.

Gradirlovchi grafikni har uch oyda qaytadan tuzish lozim yoki tayyorlash uchun ishlataladigan reaktivlar o'zgargan bo'lgan vaqtida.

**Sinash.** Tayyorlangan qog'oz namunadan 5 g, 0,01 g aniqlik bilan tortib olinadi. Namuna 250 ml kolbaga solinadi, ustiga 100 ml distillangan suv quyiladi, og'zi havo sovitkichi orqali shlisli probka bilan yopiladi va 15 minut elektroplitkada yoki qum van-nachada qaymatiladi. So'ngra sovitiladi va ikki marta issiq suv va bir marta ekstrakt bilan yuvilgan qog'oz filtr orqali filtranadi. Agar shimalishi yuqori bo'lsa, namuna ko'proq olinadi, bunda gidromodul 1:20 saqlanishi lozim. 20 ml filtrlangan ekstraktdan olib konus shaklidagi 50 ml li kolbaga quyiladi va fotometrlanadi 1 p. ko'rsatilgandek bajarilib, optik zichligi aniqlanadi.

Sinash eritmasi sisatida 20 ml o'sha ekstrakt, 10 tomchi konsentrangan sirka kislota va 5 ml distillangan suv aralashmasi qo'llaniladi. Topilgan optik zichligi orqali kalibrlovchi grafik yordamida 1 ml sulfat-ionning namunadagi miqdori aniqlanadi.

**Hisoblash.** 1 kg absolut quruq qog'ozdagi sulfat-ionlarning massa ulushi, X, %, quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$X = \frac{a \cdot 10 \cdot V}{m \cdot (10 - W)}$$

bunda,  $a$  — grafikdan aniqlangan sulfat-ionlar konsentratsiyasi, mg/ml;

*V* – ekstrakt hajmi, ml; *m* – qog'oz namuna massasi, g; *W* – qog'ozning namligi, %.

Ikkita parallel aniqlangan natijalarning o'rtacha qiymati olinadi.

### **Qog'oz tarkibidagi kanifol va melamin-formaldegid smolasining miqdorini aniqlash**

Qog'oz ishlab chiqarishda, asosan, yelimlovchi modda sifatida kanifol va melamin-formaldegid smolalarini qo'llaydi.

Qog'oz tarkibidagi kanifol va melamin-formaldegid miqdorini aniqlash, ularni erituvchisida ekstraksiya etib, so'ngra erituvchilarni parlatib, qoldig'ini tortib olishga asoslangan.

#### **Apparatlar, materiallar va reaktivlar:**

*analitik torozi;*

*shisha idish (sklanka), 3 l;*

*quritish shkafi;*

*laboratoriya aralashtirgich apparati;*

*pH – metr;*

*elektr plita;*

*sokslet apparati;*

*byuks;*

*tigel;*

*filtr material (kapron mato);*

*xlorid kislota, 1,4 %;*

*ammiak, 25 % eritma;*

*etil spirti, texnik.*

**Kanifol miqdorini aniqlash.** Namuna qog'ozni, qog'oz qilish mashinasining, qog'oz yuzasini yelimlash jarayonidan oldin, 30 g atrosida olinadi. Uning bir qismini olib, namligi aniqlanadi, bir qismini 0,0002 g aniqlikda tortib olib, trubka shaklida o'rab, Sokslet apparatiga joylashtiriladi. Etil spirti bilan bir sutka davomida ekstraksiya etiladi. So'ngra, eritmaga o'tgan kanifolni aniqlash uchun, spirtning asosiy qismi parlatiladi, qolgan qismi

buksga solinib, quritish shkafida quritiladi. Eksikatorda sovitil-gach, analitik torozida tortiladi.

**Hisoblash.** Qog'oz tarkibidagi kanifolning miqdorini, C, % quyidagicha hisoblaydi:

$$C = \frac{\alpha \cdot 100}{\sigma(100 - W)}$$


bunda,  $\alpha$  — kanifol massasi, g;  $\sigma$  — qog'oz namunasining massasi, g;

W — qog'oz namunasining namligi, %.

**Melamin - formaldegid smolasining miqdorini aniqlash.**  
Qog'oz namunasidan 100 g olib (namunaning namligi alohida aniqlanadi) o'lchami 4x4 mm atriosida qirqiladi va torozida 0,0002 g aniqlikda tortib olinad; va 1 l kolbaga solinadi, ustiga 1 l xlorid kislotaning 1,4 %li eritmasidan quyuladi. So'ngra 6 soat davomida, laboratoriya aralashtirgich apparatida, aralashtiriladi. Aralashma filtrlanadi, filtrat ammiak eritmasi bilan neytral holga keltiriladi, ortiqcha suyuqlik elektr plitkada parlatiladi, qolgan qismini buksga solib, quritkich shkafida, og'irligi o'zgarmaguncha quritiladi.

**Hisoblash.** Melamin - formaldegid miqdori:

a) ammoniy xlorid miqdori:



36,5 xlorid kislotani ammiak bilan neytrallaganda 53,5 g ammoniy xlorid hosil bo'ladi, «a» g neytrallanganda «x», g  $\text{NH}_4\text{Cl}$ :

$$x = \frac{a \cdot 53,5}{36,5},$$

b) melamin - formaldegid smolasining neytrallangandan keyingi miqdori, m:

$$m = \sigma - x - \kappa$$

bunda,  $\sigma$  – tigeldagi qoldiq, g;  $\kappa$  – kulning massa ulushi, g.

d) qog'oz tarkibidagi melamin – formaldegid smolasining (MFS) miqdori, %:

$$MFC = \frac{m \cdot 100}{n},$$

bunda,  $n$  – qog'oz namunasining massasi, g.

## 13.6. XIMIKATLAR SIFATINI ANALITIK NAZORAT QILISH

### 13.6.1. Polivinil spiriti

#### Eruvchanligini aniqlash

##### Reaktivlar va idishlar:

kolba, K – 1 – 250;

sovitgich, XSh;

kolba KGU – 2-1-250;

eksikator 2–100;

voronka VF 0-20, porlari 100XS;

silindr 1 -100.

**Sinash.** Kolbaga 95 ml distillangan suv va 5 g polivinil spiriti (PVS) (quruq holiga nisbatan), 0,01 g aniqlikda tortib olinadi. Kolba sovitkichga ulanadi, u orqali shisha aralashtirgich o'tkazilib PVS 4 soat davomida aralashtirib qaynab turgan suv hamnomida ushlab turiladi. Kolba devorida pylonka hosil bo'lmasligi uchun, kolba suv hammomidagi suyuqlik balandligida botirilgan bo'lishi kerak.

PVS eritilgach sovitiladi va tigel filtr voronka orqali filtrlanadi, kolbadagi PVS yuqlarini 4–5 marta distillangan suv bilan chayib filtrlanadi, so'ngra 2 soat davomida, 105–110°C da quritiladi va eksikatorda sovitilgach, 0,0002 g aniqlikkacha analitik torozida tortib olinadi.

**Hisoblash.** Polivinil spiritning eruvchanligini, X<sub>1</sub>, %, quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$X_1 = \frac{100 - (m_1 - m_2) \cdot 100}{m}$$

bunda, m — PVS massasi (quruq holdagi hisobida), g; m<sub>1</sub> — erimagan qoldiq bilan tigelning og'irligi, g; m<sub>2</sub> — bo'sh filtr tigelning og'irligi, g.

### PVSni 4 % eritmasining dinamik qovushoqligini aniqlash

Poivinil spiritning 4 % eritmasini dinamik qovushoqligini BПЖ — 2 turidagi viskozimetrda aniqlanadi. Viskozimetring 20°C temperaturadagi doimiyligi — 0,3 ss/s.

Qovushoqlikni aniqlash uchun PVS eritmasi quyidagicha tayyorlanadi: tortilgan kolbaga 96 g distillangan suv quyladi va 4 g PVS (quruq PVS hisobida) solinadi. Aralashma tortilgan moddalarni 0,01 g. aniqlikda tortib olinadi. Aralashtirgich o'rnatilgan kolbaga sovitkich ulanadi, 4 soat davomida suv hamomida aralashtiriladi. Kolba devorlarida plyonka hosil bo'l shini oldini olish uchun, kolbadagi suyuqlikni balandligi suv hamomidagi suvni sathiga teng qilib botirib qo'yilishi kerak. Tayyor bo'lgan eritma xona haroratigacha sovitilib, ustiga umumiy massa, kolba og'irligi plus 100 g bo'lguncha distillangan suv quyladi. Eritma kapron mato orqali filtrlanadi va qovushoqligi h, aniqlanadi:

$$h = t \cdot k \cdot p$$

bunda, t — eritmani viskozimetrdan oqib o'tish vaqt, sekund; k = 0,3; p — 4 % li PVS eritmasining zichligi, g/sm<sup>3</sup>.

## PVS 4 %li eritmasini qovushoqligini aniqlash

PVSning 4 % eritmasini pH ko'rsatkichini aniqlash, selluloza massasini pH ko'rsatkichini aniqlash kabi bajariladi.

### 4 % li PVS eritmaning tiniqligini aniqlash

#### Pribor, idishlar va material:

*fotoelektrokolorimetri, ФЭК – 56 yoki boshqa marka;*

*qaytaruvchi sovitkich;*

*termometr;*

*suv hammomi;*

*shisha aralashtirgich;*

*kolba K-1-250;*

*kapron polotno.*

**Sinashga tayyorlash.** 8 g. PVS, 0,01 g aniqlikda analitik tarozida tortib olingach, uni 250 ml kolba ichiga 192 ml distillangan suv ustiga solinadi. Kolbaga shishali aralashtirgich, qaytaruvchi sovitkich o'rnatilgan va suv hammomiga joylashtiriladi. Suv hammomini temperaturasi 98 – 100°C. PVS yaxshi erigandan keyin o'sha sharoitda 2 soat aralashtiriladi. So'ngra eritma xona temperaturasigacha sovitiladi va Byuxner voronkasida kapron matosi orqali filtrlanadi. Filtrlangan eritma uning tiniqligini aniqlashga tayyor hisoblanadi. Eritmaning tiniqligi 24 soat ichida aniqlanishi mumkin. Lekin aniqlashdan oldin uni 98 – 100°C da 2 soat suv hammomida ushlab turish lozim.

**Sinash.** Tayyorlangan eritmani quruq, qalinligi 50 mm kuvetaga  $\frac{3}{4}$  hajmgacha to'ldirildai. Boshqa kuvetaga shu hajmda distillangan suv quyiladi. Kuvetalar yupqa qopqoqlar bilan yopilib, FEK priboriga o'rnatiladi. Nur o'tkazish ko'k nurfiltri (540 nm) orqali eritmanning tiniqligi aniqlanadi. Eritmaning tiniqligi distillangan suvgaga nisbatan % hisobida 2 marta o'lchangandan keyin o'ttacha arifmetik qiymati olinadi.

### **13.6.2. Melamin-formaldegid smolasining eruvchanligini aniqlash**

Melamin-formaldegid smolasining (MFS) eruvchanligi sal kislotali iliq suvda erishini kuzatish orqali aniqlanadi. Sifatlari MFS bu sharoitda yaxshi erib, rangi och havorang bo'ladi. Bu eritma ishlatalishga tayyor hisoblanadi. 10 % MFS fizik-kimyoviy xossasi quyidagicha bo'lishi lozim:

1. Qovushoqligi, Brukfild usulida, Pa	- 10
2. pH ko'rsatkichi, 20°C da	- 2
3. Zichligi, g/sm <sup>3</sup>	- 0,6 - 0,7
4. Ionogenligi	- kation - aktiv

MFS 10 % eritmasining pH ko'rsatkichini aniqlash. Bu ko'rsatkich pH-metrda aniqlanadi.

MFS 10 % eritmasining zichligini aniqlash. Eritmaning zichligi ariometrik usulida aniqlanadi. Buning uchun MFSning 1; 5; 10; 15 %li eritmalarini tayyorланади va 20°C temperaturada zichligi aniqlanadi. Bu eritmalarning zichligi quyidagicha:

1 %	- 1,001 g/sm <sup>3</sup>
5 %	- 1,016 g/sm <sup>3</sup>
10 %	- 1,031 g/sm <sup>3</sup>
15 %	- 1,045 g/sm <sup>3</sup>

MFS 10 % eritmasining konsentratsiyasini aniqlash. Buning uchun avval 20°C temperaturada, yuqorida keltirilgan MFS konsentratsiyalarini kalibrlovchi grafik tuziladi, so'ngra u orqali konsentratsiyasi aniqlanadi.

### **13.6.3. Kanifol yelimi**

#### **Asosiy moddanining massa ulushini aniqlash**

Metod, kanifol yelimi eritmasidagi (suti) fraksiyasining kislotali muhitda koagulatsiyalanish xossasiga asoslangan.

**Aniqlash.** Avval eritmani zichligi 20°C da ariometr bilan aniqlanadi.

So'ngra u 60–70°C gacha isitiladi. Kolbaga 100 – 150 ml eritmadan quyib olinadi va sulfat kislotaning 5 % eritmasidan 25–50 ml quyiladi. Natijada, cho'kma hosil bo'ladi. Cho'kma qog'oz filtr orqali filtrlanib olinadi va neytral holgacha distillangan suv bilan yuviladi. So'ngra quritish shkafida cho'kma quritiladi va eksikatorda sovitilgach, 0,02 g aniqlikda tortib olinadi.

**Hisoblash.** Asosiy moddani massa ulushi S % quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$C = \frac{m \cdot 100}{V \cdot g}$$

bunda,  $m$  – cho'kma massasi, g;  $V$  – kanifol eritma (sutni) hajmi, ml;  $g$  – eritma zichligi, g/sm<sup>3</sup>.

### Kanifol kulini massa ulushini aniqlash

**Idish va qurilma:**

*tigel, farforli № 3;*

*eksikator;*

*mufel pechi;*

*analitiik tarozi.*

**Aniqlash.** 2 g atrofida kanifol, massasi aniq bo'lgan tigelga solinib tortib olinada. So'ngra sekinlik bilan uchuvchi moddalar ajralguncha qizdiriladi. Tigeldagi qoldiq mufel pechida 700–800°C temperaturada, massasi o'zgarmay qolguncha saqlab turiladi. Tigeldagi kulni sovitish eksikatorda olib boriladi.

**Hisoblash.** Kulning massa ulushi, K, %, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$K = \frac{m_1 \cdot 100}{m}$$

bunda,  $m$  — namuna uchun olingen kanifol miqdori, g;  $m_1$  — kulning miqdori, g.

Natija sifatida ikki marta o'tkazilgan aniqlanuvning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

### Kanifol tarkibidagi bo'sh formaldegid massa ulushini aniqlash

**Apparatlar va reaktivlar:**

*pH – metr;*

*magnitli aralashtirgich;*

*analitik tarozi;*

*chasovoë steklo;*

*pipetkalar: 2-5, 2-20;*

*filtr qog'oz;*

*silindr, 100 ml;*

*stakan, 150 ml;*

*standart titr;*

*xlorid kislota, 0,5 n;*

*natriy gidroksid, 0,1 n;*

*natriy sulfati;*

*magniy perxlorid.*

**Sinashga tayyorlash.** Natriy sulfat eritmasi tayyorlanadi: 20 g suvsizlantirilgan natriy sulfati yoki 40 g kristall holidagi natriy sulfat tuzidan olib, stakanga solinib ustiga 100 ml distillangan suv quyilib aralashtiriladi. Tuz yaxshi erigach, stakanga 25 ml xlorid kislotaning 0,5 n dan qo'shib yaxshilab aralashtiriladi va 1-1,5 soat tindiriladi. Tayyorlangan eritma shisha idishda qorong'i joyda saqlanadi. Bu eritma 15 kungacha yaroqli hisoblanadi.

Magniy xloridning 6 molekulali suvligidan 60 %li yoki suvsizligidan 40 % suvli eritmasi tayyorlanadi.

**Sinash.** 1) Avtomat titrlash blokini qo'llaganidan, titrlash pri-borning yo'riqnomasi asosida bajariladi. 10 g kanifol yelimini tortib olib, stakanga solinadi va ustı chasovoy steklo bilan yopib qo'yiladi. So'ngra analitik tarozida tortiladi. Tortilgach magnit aralashtirgichi ustiga qo'yilib aralashtiriladi, unga 5 ml natriy perxlorat eritmasidan va 50 ml distillangan suv qo'shiladi. Namuna eri-gach, 20 ml natriy sulsat eritmasidan qo'shiladi. Stakanga elektrod-lar tushirilib, 0,1 n natriy gidroksidi bilan titrlanadi. pH 9,4 bo'lganda priborning klapani avtomat ravishda yopiladi. Reaktivlar titrlash oldidan solinadi. Bir vaqtning o'zida kanifolsiz tekshiruv eritmasi tayyorlanib shu usulda amallar bajariladi.

2) Avtomat titrlovchi blokini qo'llanmaganida.

Tajriba uchun eritmalar avvalgi usuldagiday tayyorlanadi. Eritmaga pH metrning elektrodlari solingach, darrov buretka bi-lan natriy gidoksidning 0,1 n eritmasi bilan, pH metrning ko'rsatkichi 9,4 ga teng bo'lguncha titrlanadi.

**Hisoblash.** Kanifoldagi bo'sh formaldegid,  $X$ , %, ulushi quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{(V_1 - V_2) \cdot 0,003 \cdot 100 \cdot K}{m},$$

bunda,  $V_1$  – sinash eritmasini titrlashga sarflangan 0,1 n natriy gidroksid eritmasi hajmi, ml;  $V_2$  – kanifolli eritmasini titrlashga sarflangan 0,1 n natriy gidroksid eritmasi hajmi, ml; 0,003 – ozod formaldegidning 1 ml 0,1 n natriy gidroksid eritmasiga to'g'ri kelgan miqdori;  $m$  – olingan namuna massasi, g;  $K$  – tuzatish koefitsiyenti.

Aniqlash natijasi ikki marta o'tkazilgan tajribalarning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi. Ularning farqi 0,03 %dan oshmasligi kerak.

#### 13.6.4. Aluminiy sulfati

Aluminiy sulfati qog'oz ishlab chiqarishda hosil bo'lgan oqova suvlarni tozalashda ishlatiladi. Aluminiy sulfati korxonaga

eritma yoki qattiq hollarda keltirilishi mumkin. Uni ishlatishdan oldin, tarkibidagi aluminiy sulfat miqdori, kislotaligi aniqlanadi.

**Aluniniy sulfat eritmasidan namuna olish.** Namuna olishdan oldin idishdagi eritma aralashtiriladi, namuna, namuna olish pri-bori bilan, eritma saqlangan idishning 2/3 chuqurligidan olinadi.

**Aluniniy sulfat qattiq tuzidan namuna olish.** Korxonaga keltirilgan kristall holidagi alumin sulfatini har joydan qo'l bilan olinadi. Ular yaxshilab aralashtiriladi va quruq stakanga solib, og'zi yopib qo'yiladi.

### **Aluminiy sulfat xomashyosidagi aluminiy sulfatning asosiy miqdorini aniqlash**

a) *fotometrik usul.* 10 ml eritmadan namuna olib, distillangan suv bilan 1000 ml gacha suytiriladi. So'ngra undan 1 ml olib 100 ml o'chov silindrida 1000 ml gacha distillangan suv bilan suytiriladi. Tayyorlangan eritmadan olib, Al – test programmasi bo'yicha SQ-200 fotometrida aniqlanadi.

**Hisoblash.** 1. Xomashyo tarkibidagi  $\text{Al}^{3+}$  konsentratsiyasi, g/l, quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\text{Al}^{3+} = \frac{A \times n}{1000}$$

$A$  – fotometr ko'rsatgan natija, g/l;  $n$  – suytirish darajasi; 1000 – «mg» ni «g» ga o'tkazish koefitsiyenti.

2. Xomashyodagi  $\text{Al}_2\text{O}_3$  konsentratsiyasi.  $C$ , %, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$C = \frac{\text{Al}^{3+} \cdot 102}{54} = \text{Al}^{3+} \cdot 1,89$$

102 –  $\text{Al}_2\text{O}_3$  ning molekular massasi; 54 – aluminiyning  $\text{Al}_2\text{O}_3$  dagi «i» miqdori.

3.  $\text{Al}_2\text{O}_3$  ning xomashyodagi konsentratsiyasi,  $C_1$ , %, quyidagicha hisoblanadi:

$$C_1 = \frac{C}{g \cdot 10}$$

$g$  — suyuq xomashyo aluminiy sulfatining zichligi,  $\text{g/sm}^3$ .

b) *ariometrik usul.* Avval 1 dan 28 % standart aluminiy sulfatining 20°C dagi eritmasi tayyorlanib, ularning zichligi aniqlanadi va jadval tuziladi. So'ngra jadval yordamida sulfat eritmasidan olingan namunaning zichligi ariometr bilan aniqlanib, jadvaldan uning konsentratsiyasi topiladi. Quyidagi jadvalda aluminiy sulfat eritmalarining zichligini konsentratsiyaga bog'liqlik jadvali keltirilgan.

### Aluminiy sulfat eritmasi zichligini konsentratsiyaga bog'liqligi *66-jadval*

Konsentratsiya, %	Zichlik, $\text{g/sm}^3$
1	1,009
2	1,018
3	1,029
4	1,040
5	1,050
6	1,061
7	1,072
8	1,083
9	1,094
10	1,105
12	1,129
14	1,152
16	1,176
18	1,201
20	1,226
22	1,252

*jadvalning davomi*

24	1,278
26	1,306
28	1,333

### **Aluminiy sulfat eritmasining umumiyl kislotaligini aniqlash**

Konsentratsiyasi 5 – 10 % bo‘lgan aluminiy sulfat eritmasidan 10 ml olib, 1000 ml gacha distillangan suv bilan suyiltirilib aralashtiriladi so‘ngra tindiriladi. Undan pipetka bilan 10 ml olib konus shaklidagi kolbaga quyiladi, 5–6 tomchi fenolftalein eritmasi indikatoridan qo’shib, 0,1 n NaOH bilan titrlanadi.

Aluminiy sulfat konsentratsiyasi, X, g/l, umumiyl kislotalik hisobida ( $\text{Al}_2\text{O}_3$ ), mg-ekv/l, quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Al}_2\text{O}_3 = \frac{X}{3,35 \cdot 10 \cdot d}$$

bunda, 3,35 – koeffitsiyent; 10 – namuna hajmi, ml; d – eritmani zichligi, g/sm<sup>3</sup>.

### **13.6.5. Karbamid formaldegid smola**

#### **Quruq qoldiq miqdorini aniqlash**

**Idishlar, reaktivlar:**

*analitik tarozi;*

*quritish shkaf;*

*shisha stakanlar: SN 60/14; SN 45/13; yoki SN 34/12;*

*eksikator;*

*xlorid kalsiy, kristall holida.*

**Sinash.** Quritilgan stakan qopqog‘i bilan tortiladi. SN 60/14 stakanda 2 g smola; SN 45/13 – 1,5 g smola; SN 34/12 – 1 g smola qopqog‘i bilan tortib olinadi. Stakanlarning qopqog‘ini

olgan holda ularni quritish shkasiga qo'yiladi. Smola 2 soat davomida quritiladi. So'ngra stakanchalarning qopqog'larini yopib, quritilgan kalsiy xlor solingan eksikatorga solib, 45 minut ushlab turiladi. So'ngra tarozida tortiladi.

**Hisoblash.** Quruq qoldiq miqdori, X, %, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X = \frac{(m - m_1) \cdot 100}{m_2 - m_1}$$

bunda, m — stakan, qopqog'i bilan hamda namuna bilan massasi, g;  $m_1$  — stakani qopqog'i bilan massasi, g;  $m_2$  — stakan, qopqog'i bilan va namuna bilan quritilgandan keyingi massasi, g. oxirgi natija sifatida ikkita aniqlashning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

### 13.6.6. Vodorod peroksidi

#### Vodorod peroksidining massa ulushini aniqlash

Asosan ikki usul bilan aniqlanadi: titrlash va ariometrik.

1. Titrlash usuli bilan vodorod peroksidining massa ulushini aniqlash.

**Apparat, materiallar va reaktivlar:**

1. *Analitik tarozi.*
2. *Sekundomer.*
3. *Kolba 250 ml.*
4. *Silindr, 50 ml.*
5. *Stakancha SV 14/8.*
6. *Permanganat kaliya, x.ch., 0,1 n eritma.*
7. *Sulfat kislota, 1:4 nisbatan, hajm bo'yicha suyiltirilgan.*
8. *Distillangan suv.*

**Analizga tayyorlash.** 0,1 n kaliy permanganatning titri GOST 25794.2 bo'yicha aniqlanadi.

Aniqlash. 0,15 – 0,20 g vodorod peroksidini 250 ml kolbaga quyib, 25 ml suv, 20 ml sulfat kislota eritmasi solinib aralashtiriladi va kaliy permanganatning 0,1 n eritmasi bilan rangi o'chgancha titrlanadi. Xuddi shu usul bilan vodorod peroksid solmasdan ham titrlanadi.

Hisoblash. Vodorod peroksidining massa ulushi, X, %, quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{(V - V_1) \cdot 0,0017 \cdot K \cdot 100}{m}$$

bunda, V – namunani titrlashga ketgan 0,1 n kaliy permanganatning miqdori, ml;  $V_1$  – namuna solinmagan eritmani titrlashga ketgan 0,1 n kaliy permanganatning sarfi, ml; 0,0017 – 0,1 n kaliy permanganatning 1 ml vodorod peroksidiga to'g'ri keladigan massasi, K – koefitsiyent; m – namuna massasi, g.

2. Arikmetrik usul. Vodorod peroksidining zichligi oshishi bilan konsentratsiyasini, hajmini va aktiv kislorod miqdorining oshishi jadvalda keltirilgan:

67-jadval

Zichlik, g/sm <sup>3</sup>	Vodorod peroksid eritmasining konsentratsiyasini, %	Aktiv kislorod konsentratsiyasi, ml/l
0,9986	0	0
1,0018	1,1	3,3
1,0151	5,0	17,0
1,0336	10,0	34,0
1,0526	15,0	52,0
1,0717	20,0	70,0
1,0911	25,0	90,0
1,1111	30,0	110,0
1,1331	35,0	132,0

*jadvalning davomi*

1,1561	40,0	46,25	153,0
1,1796	45,0	53,1	175,0
1,2031	50,0	63,15	208,0
1,2505	60,0	75,05	248,0
1,4649	100,0	144,4	475,0

**Vodorod peroksidining fizik konstantalari:***68-jadval*

Konstanta nomlari	Vodorod peroksidining konsentratsiyasi, %		
	100	90	35
Erish temperaturasi, °C	- 0,89	- 11,1	- 32,6
Qaynash temperaturasi, °C	151,1	140	107
Qovushoqligi, 18°C da	1,27(19,6°C)	1,3	1,13
Issiqlik hosil bo'lishi kal/g	45320	-	-
Parlanish issiqligi, kal/g	326	327,5	-
Suyuq vodorod peroksidining erish issiqligi, kal/g	460	-	-
pH	5,0	-	4,5

### 13.6.7. Natriy ishqori

**Namuna olish.** Korxonaga suyuq holdagi natriy ishqori keltirilganda, bak balandligining uch nuqtasidan: tepa, o'rta va past nuqtalaridan olib aralashtiriladi. Olingen namuna miqdori 0,5 l dan kam bo'lmasligi kerak. Aralashtirilgan namuna idishi sirtiga etiketka yopishtirilib, unga mahsulot nomi, olingen joy nomi, keltirilgan vaqt va ishlab chiqargan korxona nomi hamda namuna olgan ishchining familiyasi va ismi yozib qo'yiladi.

## Natriy ishqorining massa ulushini aniqlash

### Apparatlar va reaktivlar:

kolbalar, shifli 250 ml;

pipetkalar, 2, 3, 25 ml;

buretka, 50 ml;

silindrlar, 25 va 100 ml;

xlorid kislota, x.ch., 1 mol/l eritma;

bariy xloridi, x.ch., 10% eritma;

etil spiriti, rektifikat, texnik;

distillangan suv.

**Aniqlash.** Aniqlashni namuna olgan zohatiyoq o'tkaziladi. Aniqlashdan avval namunani ustki qismidan biroz to'kib tashladi. 25 ml o'lchab olib, 250 ml o'lchov kolbaga quyib, belgisiga distillangan suv quyib, yaxshilab aralashtiriladi. Buni A eritma deb nomlanadi.

Natriy ishqorining massa ulushini aniqlash uchun, 10 ml pipetka bilan olib 250 ml kolbaga quyiladi, 25 ml distillangan suv va 10 ml bariy xlorid eritmasidan quyiladi. 15 minutdan keyin xlorid kislota bilan, 3–4 tomchi fenolftalein tomizgach, indikatorning rangi uchguncha titrlanadi.

**Hisoblash.** Natriy ishqorining massa ulushi, X, %, quyida gicha hisoblanadi:

$$X = \frac{V_1 \cdot 0,04 \cdot 250 \cdot 100}{25 \cdot m}$$

bunda,  $V_1$  – «A» eritmasini titrlash uchun sarf bo'lgan xlorid kislotaning hajmi, ml; m – aniqlash uchun olingan natriy ishqori miqdori.

Aniqlash ikki marta o'tkazilib, o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

## Ishqor tarkibidagi temir ulushini aniqlash

### 1. Fotometrik usul.

## Apparat, eritmalar va reagentlar:

*nitrat kislotasi, x.ch.;*

*ammiak eritmasi, x.ch.*

tarkibida temir ionlari bo'lgan namuna eritmalar (tayyorlash: 10 mkg temir 1 ml da); distillangan suv; 10 %li sulfosalitsil kislotasi; FEK turidagi fotoelektrokolorimetri; o'lchov kolbalari 50 va 100 ml.

**Gradirlovchi grafik tuzish.** Buning uchun 50 ml o'lchov kolbalariga 30 ml dan suv, ustiga 0,5; 1,0; 2,0; 4,0; 6,0 ml suyultirilgan namuna eritmasidan quyiladi, bu 5; 10; 20; 40; 60 mkg ga to'g'ri keladi, ularga 2 ml dan sulfosalitsil kislotadan quyib aralashtiriladi. 5 ml dan ammiak eritmasidan qo'shiladi, so'ngra hajmini djstillangan suv bilan belgisigacha yetkazib, aralashtiriladi. Parallel holda nazorat eritmasi — temir eritma solinmagan, (контроль раствор) tayyorlanadi. Buning uchun 50 ml li o'lchov kolbaga 30 ml suv, 2 ml sulfosalitsil kislotasi eritmasi va yuqoridagi kabi aniqlanadi. Eritmalarning optik zichligi FEK da aniqlanadi (to'lqin uzunligi 430 nm) nur yutish qalinligi 50 mm (namuna eritmaga nisbatan).

Olingen natijalardan foydalanib grafik chiziladi: abssissada temir massasi, mkg, ordinatada — tegishli optik zichlik.

**Aniqlash.** «B» eritmasini tayyorlash: 250 ml li stakanga 50 g namuna tortib olinadi, ml. U quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$m_1 = \frac{50 \cdot 100}{100}$$

So'ngra 50 ml suv quyib, sekinlik bilan nitrat kislotasi bilan, pH 6–7 gacha neytrallaydi, keyin 5 ml kislotasi qo'shiladi va 250 ml kolbaga quyib olinadi, belgisigacha suv quyib suyultiriladi — bu eritma «B» hisoblanadi. 5 ml eritma 1 g natriy ishqoriga to'g'ri keladi.

25 ml «B» eritmadan olib 100 ml kolbaga 0,5 ml nitrat kislotasi qo'shib 5 minut qaynatiladi. Sovitilgach 50 ml li o'lchov kolbasiga quyiladi, 2 ml sulfosalitsil kislotasi eritmasidan solinadi va yuqoridagi usulda aniqlanadi. Temirning massa ulushini,  $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ,  $X_5$ , %, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X_5 = \frac{m \cdot 100 \cdot 1,43}{10000 \cdot 5}$$

*m* — gradirlangan grafik orqali topilgan temir massasi, mkg; 1,43 — koefitsiyent; 5 — 25 ml «B» eritmadagi natriy ishqorining massasi, g.

Aniqlash ikki marta o'tkazilib, o'rtacha arifmetik miqdori olinadi.

## 2. SQ – 200 fotometrida aniqlash.

Qattiq holdagi natriy ishqor tarkibidagi temirni aniqlash uchun, uning 1:1 nisbatdagi to'yingan eritmasini tayyorlaydi. So'ngra bu eritniadan 2–3 ml olib distillangan suv bilan 100 ml gacha suyultiriladi. Undan 50 ml olib 0,1 n xlorid kislota bilan, fenolftaleyn ishtirokida, titrlab g/l da konsentratsiyasi aniqlanadi. Qolgan 50 ml eritmani suyultirilgan (1:1) nitrat kislotasi bilan pH 6–7 gacha neytrallanadi va yana 5 ml kislota qo'shib 5 minut, ikki valentli kolloid holidagi temirni uch valentlikka o'tkazish uchun, qaynatiladi. So'ngra sovitilib, hajmini 50 ml ga yetkazib, fotometrda temir test programmasi orqali uning miqdori aniqlanadi. Ishqorning massa ulushi *X*, g/l, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X = \frac{V_1 \cdot 0,1 \cdot 40}{50},$$

bunda, *V*<sub>1</sub> — titrlashga sarflangan xlorid kislota hajmi, ml; 0,1 — xlorid kislota konsentratsiyasi, n; 40 — natriy ishqorining molekular massasi; 50 namuna uchun olingan natriy ishqorining hajmi, ml.

Ishqor tarkibidagi temir miqdorini, Fe, %, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Fe = \frac{B \cdot 100}{X \cdot 1000},$$

bunda, *B* — Fotometr ko'rsatkichi; *X* — ishchi natriy ishqorining konsentratsiyasi, g/l; 1000 — mg ni g o'tkazish koefitsiyenti.

### 13.6.8. Poliakril amid – gel (iviq)

#### Asosiy modda miqdorini aniqlash

Poliakrilamid (PAA) tarkididagi asosiy miqdori  $X_1$ , %, quruq qodiqdan,  $X_2$ , sulfat ammoniy miqdorini,  $X_3$ , olib tashlaganiga teng.

#### Quruq qoldiqni aniqlash

Priborlar, qurumlalar va idishlar:

*analitik torozi;*  
*quritish shkafı; bukslar, 40–50 ml;*  
*shisha tayoqcha.*

**Aniqlash.** Quritilgan va tortilgan buksiga 0,8–1,2 g atrofida PAA –geldan tortib olib, quritqich shkafida 105–110°C temperaturada, massasi barqarorlanguncha quritiladi. So‘ngra buksni qopqog‘ini yopib, temperaturasi xona temperaturasiga kelguncha sovitib, torozida tortiladi.

**Hisoblash.** Quruq qoldiq  $X_2$ , % quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X_2 = m/m_1 \cdot 100$$

bunda,  $m$  – tortib olingan quruq PAA – gel massasi, g;  $m_1$  – quritishdan oldingi PAA – gel massasi, g.

### 13.6.9. Natriy xlорид

#### Namligini aniqlash

Apparatlar, priborlar va idishlar

*quritish shkafı;*

*shisha bukslar, diametri 45 – 50 mm;*

*analitik torozi;*

*termometr;*  
*eksikator.*

**Aniqlash.** Quritkich shkafini temperaturasini 160–170°C ga yetkazilgach, 10 g namunani buks qopqog'i bilan tortib olib, quritqich shkafining ustki tokchasiga namuna solingan byuksni, pastki tokchasiga buksni qopqog'ini joylashtirib, bir soat quritiladi, so'ngra har 0,5 soatda tortib, og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi. So'ngra buksni qopqog'ini yopib, eksikatorda sovitiladi va tortiladi.

**Hisoblash.** Natriy xlorid namligi, X, %, quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{(m_1 - m_2) \cdot 100}{m}$$

bunda,  $m_1$  – quritishdan oldingi tuzni buks bilan massasi, g;  $m_2$  – quritilgan tuz bilan buks massasi, g;  $m$  – tuz massasi, g.

### **Natriy xlor tuzi tarkibidagi suvda erimiay qolgan qismini aniqlash**

**Apparat, materiallar va reaktivlar:**

*analitik torozi;*

*suv hammomi;*

*o'chov kolba, 500 ml;*

*stakan, 300 ml;*

*qog'oz filtr;*

*nitrat kislota, zichligi 1,4 g/sm<sup>3</sup>;*

*quritish shkaf;*

*termometr;*

*buks, diametri 45 – 50 mm, balandligi 40 – 50 mm;*

*kumush nitrati, ch.d.a., 0,5 % eritma;*

*distillangan suv.*

**Aniqlash.** Avval 0,5 % kumush nitrat eritmasi tayyorlanadi. Buning uchun 0,5 g kumush nitratini 20 ml distillangan suvda eritiladi, unga 10 ml nitrat kislota qo'shilib aralashtiriladi va eritmaga 70

ml distillangan suv qo'shiladi. So'ngra, quritib tortilgan buksiga 10 g natriy xlор tortib olinadi va 300 ml li stakanga solinadi va ustiga 150 – 200 ml issiq distillangan suv quyiladi. Tayyorlangan eritmani usti yopilib, suv hammornida 30 minut ushlab turiladi. So'ngra eritma 29 – 25°C gacha sovitilib, o'lchov kolbasiga qog'oz filtr orqali filtrlanadi. O'lchov kolbasi quritilib tortilgan bo'lishi kerak. Filtrda qolgan cho'kma issiq suv bilan yuviladi. Kolbadagi filtrat hajmini kolba belgisiga yetguncha suv bilan to'ldiriladi va yaxshilab aralashtiriladi – bu eritma «A» eritma hisoblanadi. Eritmani keyinchalik ishlatguncha saqlab qo'yiladi.

Filtr qog'ozdag'i cho'kmani buksiga solib 105 – 110°C da quritiladi. Bir soatdan keyin tortib ko'rildi, so'ngra har 0,5 soatda tortilib, massasi o'zgarmay qolguncha quritiladi.

**Hisoblashi.** Natriy xlорning suvda erimay qolgan qoldig'i  $X_2$ , %, quyidagicha hisoblanadi:

$$X_2 = \frac{(m_1 - m_2) \cdot 100 \cdot 100}{m(100 - X_1)}$$

bunda,  $m_1$  – buksni filtr va erimay qolgan cho'kma bilan massasi, g;  $m_2$  – buks va filtrning cho'kmasiz massasi, g;  $m$  – nuna tuz massasi, g;  $X_1$  – tuzning namligi, %.

Ikkimarta aniqlash o'tkazilib, o'ttacha arifmetik qiymat olinadi.

### Natriy xlор tuzi tarkibidagi xloridlarni merkurimetrik usulda aniqlash

Bu usul, tuz tarkibidagi suvda erimay qolgan qismi ajratilgandan keyingi qismidagi xloridlarni simob nitrat eritmasi bilan disinikkarbozon indikatori ishtirokida titrlashga asoslangan.

**Apparatlar, materiallar va reaktivlar:**

*analitik torozi;*

*mufel pechi;*

*o'lchov kolbasi, 500 ml;*

*konus shaklidagi kolba, 250 ml;*  
*tomizgich, 19, 25 ml;*

*pipetkalar: 1; 10; 20 va 50 ml;*

*farfor stupka;*

*qog'oz filtr;*

*distillangan suv.*

Difinikarbozol yoki difinikarbozit, 1 % spirtli eritma;

Nitrat kislota, konsentrangan, x.ch.d.;

Simob nitrating 0,5 mol/l eritmasi. (tayyorlash: 8,57 g simob tuzi 8,57 g simob (II) ga 2–3 ml konsentrangan nitrat kislota qo'shib, distillangan suvdan 1 l gacha quyiladi so'ngra filtrlanadi.

Simob (II) tuzi eritmasi molar konsentratsiyasini koefitsiyentini, K, natriy xlor eritmasi bilan aniqlanadi. Buning uchun natriy xlorini 0,05 mol/l eritmasidan 10 ml olib distillangan suv bilan 100 ml gacha suyultiriladi. Unga nitrat kislota bilan pH 2,5 – 3,0 bo'lguncha nitrat kislota eritmasidan qo'shiladi. 2 ml difinikarbozol eritmasi qo'shiladi va simob eritmasi bilan havoranga o'tguncha titrlanadi. Molar konsentratsiyasini koefitsiyenti K, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$K = 10/V$$

bunda, V – simob nitrat eritmasini titrlagandagi sarfi, ml.

Natriy xloridning 0,05 mol/l eritmasini x.ch. markaligidan tayyoranadi. Buning uchun 2,922 g quritilgan natriy xloriddan tortib olib hajmini distillangan suv bidan 1000 ml yetkaziladi.

Aniqlash. Quritilgan tuzdan 1,5 g tortib olinib 500 ml kolbaga solinadi va suv bilan kolbani belgisigacha to'ldiriladi. Undan 10 ml olib 250 ml li kolbaga quyiladi, unga tomchilab nitrat kislotasidan pH 2,5 – 3 ga kelguncha qo'shiladi va 2 ml difinikarbozon indikatoridan qo'shiladi, so'ngra simob nitrat tuzining eritmasi bilan, rangi havoranga o'tguncha titrlanadi.

Aniqlashdan oldin nazorat tajriba o'tkaziladi. Buning uchun 500 ml konus shaklidagi kolbaga 50 ml suv va bir ikki tomchi

nitrat kislota eritmasidan solib kislotali muhitga keltiriladi, 2 ml disinikarbozol qo'shiladi va simob nitrat eritmasi bilan titrlanadi.

**Hisoblash.** Xlor ionlar miqdori,  $X_3$ , %, quyidagicha hisoblanadi:

$$X_3 = \frac{(V - V_1) \cdot 0,001772 \cdot K \cdot 100 \cdot 100}{m \cdot V_2}$$

bunda,  $V$  — namunani titplashga sarflangan simob nitrat eritmasi, ml;  $V_1$  — nazorat eritmani titplashga sarflangan simob nitrat eritmasi, ml; 0,001772 — 1 ml 0,05 mol/l simob nitrat eritmasiga to'g'ri keladigan xlor ion massa ulushi;  $K$  — simob nitrat eritmasi konsentratsiyasi koefitsiyenti;  $m$  — quritilgan namuna uchun olingan tuz massasi, g;

$$m = \frac{m_1(100 - X_1)}{100}$$

bunda,  $m_1$  — olingan tuz namuna massasi, g;  $X_1$  — tuzning namligi, %.

$V_2$  — analiz qilinayotgan eritma hajmi, ml.

Ikki parallel aniqlashning o'rtacha miqdori 0,01 % aniqlik bilan, olinadi

### Kalsiy ion massa ulushini aniqlash

Bu usul, natriy xlor eritmasi tarkibidagi kalsiy ionini miqdorini trilon Б eritmasi bilan, mureksid indikatori ishtirokida titplashga asoslangan.

**Apparat, materiallar va reaktivlar**

*analitik torozi;*

*o'chov kolbasi, 500 ml;*

*konus shaklidagi kolba, 250 va 300 ml;*

*tomizgich, 19, 25 ml;*

*pipetkalar: 5; 10; 50 ml;*  
*byuretka, 5 ml;*  
*stakan, 300 ml;*  
*distillangan suv;*  
*mureksid, spirtli eritma;*  
*magniy sulfati, 0,01 mol/l;*  
*ammoniy xloridi, 20 % eritma;*  
*aminiak, 20 % eritma;*  
*aminiakli bufer eritma GOST 4919.2 -77 bo'yicha tayyorlangan;*  
*trilon B, 0,08 M eritma.*

**Aniqlash.** Aniqlash uchun filtratdan pipetka bilan 50 ml olib 250 ml kolbaga quyiladi, 5 ml natriy ishqori eritmasidan qo'shiladi va 2 – 3 tomchi indikatordan qo'shilganda qizil rangda kiradi. Olingan eritmani trilon B eritmasi bilan qizil rangdan siyohranga o'tguncha titrlanadi.

**Hisoblash.** Kalsiy ion massa ulushini  $X_3$ , %, quyidagicha hisoblaydi:

$$X_3 = \frac{V_3 \cdot 0,001002 \cdot 500 \cdot 100}{m \cdot V}$$

bunda,  $V$  – analiz uchun olingan eritma hajmi, ml;  $V_3$  – titrlashga ketgan trilon B, hajmi, ml;  $m$  – quruq tuz miqdori, g; 0,001002 – trilon B titri.

Ikkita parallel aniqlash natijalarining o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

### Magniy ion massa ulushini aniqlash

Usul kalsiy va magniy ionlari yig'indilarining trilon B eritmasi bilan titrlashga asoslangan.

**Reaktivlar va eritmalar:**

*trilon B, 0,05 mol/l eritma;*  
*aminiak, 20 % suvli eritma;*  
*ammoniy xloridi, 20 % suvli eritma;*

*indikator, xrom temno-sinii kislotnyi;  
ammiakli bufer eritma.*

**Sinash.** Filtratning ammiakli qismidan 50 ml olib 250 ml kolbaga quyiladi, unga 5 ml bufer eritma, 5 – 7 tomchi indikator qo'shib trilon B bilan titrlanadi.

**Hisoblash.** Magniy ionlarining massa ulushi  $X_3$ , %, quyida-gicha hisoblanadi:

$$X_3 = \frac{(V_6 - V_5)0,000608 \cdot 500 \cdot 100}{mV}$$

bunda,  $V_6$  – 0,05 M trilon B ni magniy va kalsiy ionlarini birgalikda titrlagandagi sarfi, ml;  $V_5$  – 0,05 M trilon B ni kalsiy ionini titrlaguncha sarfi, ml; 0,000608 – titr; m – namuna quruq tuz massasi, g; V – analizga olingan eritma hajmi, ml.

#### **Kalsiy va magniy ionlar massa ulushini bitta indikator bilan aniqlash**

Bu usul kalsiy va magniy ionlarini oldin-keyin, xrom temno-sinii indikatori ishtirokida trilon B bilan titrlashga asoslangan.

#### **Reaktivlar:**

*natriy gidroksidi, eritma;*

*trilon B, 0,05 mol/l;*

*ammiakli bufer eritma, pH 10 – 10,5;*

*xrom temno-sinii, indikator.*

**Sinash.** Filtratdan 50 ml olib 250 ml kolbaga quyiladi, unga 50 ml suv, 5 ml natriy gidroksidi, 0,2 ml indikator qo'shib, aralashtiriladi. Eritma mikroburetka orqali trilon B bilan qizg'ish rangni havoranga o'tguncha titrlanadi. Boshqa 250 ml kolbaga pipetka bilan 50 ml suv, 50 ml o'sha filtratdan, 5 ml ammiakli bufer eritma, 0,2 ml indikator qo'shib, yuqorida ko'rsatilgan usulday, titrlanadi.

**Hisoblash.** Kalsiy ionini massa ulushi,  $X_7$ , %, quyidagicha hisoblanadi:

$$X_7 = \frac{V_7 \cdot 0,001 \cdot 500 \cdot 100}{m \cdot 50} = \frac{V_7}{m}$$

$V_7$  — kalsiy ionini aniqlashga sarflangan trilon Б hajmi, ml; 0,001 — ekvivalent;  $m$  — namuna uchun olingan tuz massasi, g.

Magniy ion massa ulushini,  $X_8$ , %, quyidagicha hisoblanadi:

$$X_8 = \frac{(V_8 - V_7)0,0006 \cdot 500 \cdot 100}{m \cdot 50} = \frac{V_8 - V_7}{m \cdot 0,6}$$

bunda,  $V_7$  — trilon Б eritmasining kalsiy ionini titrlashga sarflangan hajmi, ml;  $V_8$  — kalsiy va magniy ionlarini qo'shib aniqlashga sarflangan trilon Б hajmi, ml;  $m$  — namuna uchun olingan tuz massasi, g; 0,0006 — titr.

Ikkta parallel aniqlash natijalarining o'rtacha arifmetik qiy-mati olinadi.

### Sulfat ionni massa ulushini aniqlash

Bu usul sulfat ionlarini bariy xlорид bilan cho'kitirishga asoslangan.

**Apparat, materiallar va reaktivlar:**

*analitik torozi;*

*quritish shkafsi;*

*termometr;*

*mufel pechi;*

*el. plita;*

*voronka;*

*farfor tigellar;*

*pipetka, 100 ml;*

*stakanlar, 350 ml;*

*kulsiz qog'oz filtr;*

*bariy xlор, 10 % eritma;*

xlorid kislota, 10 % eritma;

distillangan suv.

**Sinash.** filtratdan pipetka bilan eritmaning adekvat qismidan 100 ml olib 350 ml li stakanga quyiladi, xlorid kislota bilan uni kislotali muhitga o'tkaziladi. So'ngra qaynaguncha qizdiriladi va tomchilatib bariy xlor issiq eritmasidan 5 ml qo'shiladi. Cho'ktirilgach, stakanni usti yopilib, 4 soat iliq joyda saqlanadi. So'ngra cho'kma filtrlanadi, 2 marta distillangan issiq suvdan 10 ml dan quyib yuviladi. Cho'kma yaxshilab yuviladi. Nam filtr cho'kma bilan tigelga solinib, avval quritiladi, keyin mufel pechida 600–800°C da kuydiriladi, qolganini eksikatorda sovitib tortiladi.

**Hisoblash.** Sulfat ionlar massa ulushini  $X_9$ , %, quyidagicha hisoblaydi:

$$X_9 = \frac{0,4114(m_1 - m) \cdot 500 \cdot 100}{m_2 \cdot V},$$

bunda, 0,4114 – titr;  $m_1$  – tigelni cho'kma bilan massasi, g;  $m$  – tigel massasi, g;  $m_2$  – namuna uchun olingan quruq tuz massasi, g;  $V$  – eritmani alekvat qismi hajmi, ml.

Ikkita parallel aniqlash natijalarining o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

### Natriy xlorid va natriy sulfatlarni massa ulushlarini hisoblash tartibi

Natriy xlorid va natriy sulfatlarni massa ulushlarini hisoblash uchun berilgan ionlar miqdoridan foydalilaniladi, ular ja'dvalda keltirilgan:

69-jadval

Anion	Kationlar			
	Ca <sup>2+</sup>	Mg <sup>2+</sup>	K <sup>+</sup>	Na <sup>+</sup>
SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	1 – CaSO <sub>4</sub>	2 – MgSO <sub>4</sub>	–	– Na <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>
Cl <sup>-</sup>	4 – CaCl <sub>2</sub>	5 – MgCl <sub>2</sub>	6 – KCl	7 – NaCl

Osh tuzi tarkibini hisoblash uchun misollar:

### 1-Misol.

70-jadval

Quyidagi komponentlar ionlarini massa ulushi, %	Ekvivalentlarni molar massasi, g/mol
$\text{SO}_4^{2-}$	0,987
$\text{Cl}^-$	59,738
$\text{Ca}^{2+}$	0,287
$\text{Mg}^{2+}$	0,238
$\text{K}^+$	—
$\text{Na}^+$	—
H.O.	0,107

Molar massani ekvivalentlarga hisoblaganda, g/mol.

$$\text{Kalsiy ioni } M(1/2 \text{ Sa}^{2+}) = 0,287 \cdot 100/20,04 = 1,435.$$

$$\text{Magniy ioni } M(1/2 \text{ Mg}^{2+}) = 0,238 \cdot 100/12,16 = 1,958.$$

$$\text{Sulfat ioni } M(1/2 \text{ SO}_4^{2-}) = 0,987 \cdot 100/48,03 = 2,055.$$

$$\text{Xlor ioni } M(\text{Cl}^-) = 59,738 \cdot 100/35,453 = 168,499.$$

$$\text{Kationnlar summasi, g/mol: } Ex (\text{Ca}^{2+} + \text{Mg}^{2+}) = 1,435 + 1,958 = 3,394.$$

$$\text{Anionlar summasi: g/mol } E(\text{SO}_4^{2-} + \text{Cl}^-) = 2,055 + 168,499 = 170,554.$$

Natriy ionlarini hisoblaymiz:

Ionlarning ekvivalent molar massa, Na:

$$M(\text{Na}^+) = E - Ex = 170,554 - 3,391 = 167,161 \text{ g/mol yoki} \\ \text{Na, \%} = 167,161 \cdot 23,03/100 = 38,447 \text{ \%}.$$

Tuz tarkibini hisoblaymiz

Ekvivalentlarni molar massasi, g/mol

$$\text{CaSO}_4 = 68,072$$

$$\text{MgSO}_4 = 60,188$$

$$\text{MCl}_2 = 47,609$$

$$\text{NaCl} = 58,457$$

1. Massa ulushi:

$$\text{CaSO}_4, \% = M(1/2\text{SO}_4^{2-}) - M(1/2 \text{Ca}^{2+}) = 2,055 - 1,435 = 0,62$$
$$\text{CaSO}_4 = 1,435 \cdot 68,072 / 100 = 0,977 \%$$

1. Massa ulushi:

$$\text{MgSO}_4, \% = M(1/2\text{Mg}^{2+}) - V(1/2 \text{SO}_4^{2-}) = 1,958 - 0,62 = 1,338$$

$$\text{MgSO}_4, \% = 0,62 \cdot 60,188 / 100 = 0,373 \%$$

$$3. \text{NaCl, \% massa ulushi} = 167,161 \cdot 58,457 / 100 = 97,71 \%$$

Ionlar summasi tuzlar summasiga teng:

$$\text{Eion} = \text{Etuz} = 99,70\%$$

$$\text{Analizler summasi yean} = 99,607 \%$$

## 2-Misol.

71-jadval

Quyidagi komponentlar ionlarini massa ulushi, %	Ekvivalentlarni molar massasi, g/mol
SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	1,029
Cl <sup>-</sup>	59,3009
Ca <sup>2+</sup>	0,397
Mg <sup>2+</sup>	0,0135
K <sup>+</sup>	—
Na <sup>+</sup>	—
H.O.	0,19

Molar massani ekvivalentlarga hisoblaganda, g/mol

$$\text{Kalsiy ioni } M(1/2 \text{Ca}^{2+}) = 0,307 \cdot 100 / 20,04 = 1,987$$

$$\text{Magniy ioni } M(1/2 \text{Mg}^{2+}) = 0,0135 \cdot 100 / 12,16 = 0,111$$

$$\text{Sulfat ioni } M(1/2 \text{SO}_4^{2-}) = 1,02 \cdot 100 / 48,01 = 2,123$$

$$\text{Xlor ioni } M(\text{Cl}^-) = 59,3009 \cdot 100 / 35,453 = 167,265$$

$$\text{Kationnlar summasi, g/mol: } E_x (\text{Ca}^{2+} + \text{Mg}^{2+}) = 1,982 \\ + 0,111 = 2,0936$$

$$\text{Anionlar summasi: g/mol } E(\text{SO}_4^{2-} + \text{Cl}^-) = 167,265 + \\ 2,123 = 169,387$$

Natriy ionlarini hisoblaymiz:

Ionlarning ekvivalent molar massa, Na  
 $M(Na^+) = E - E_x = 169,387 - 2,0936 = 167,295 \text{ g/mol}$   
yoki  $Na\% = 167,295 \cdot 23,03/100 = 38,473 \%$

Tuz tarkibini hisoblaymiz

Ekvivalentlarni molar massasi, g/mol

$CaSO_4 = 68,072$

$MgSO_4 = 60,188$

$MgCl_2 = 47,609$

$Na_2SO_4 = 71,032$

$NaCl = 58,457$

1. Massa ulushi:

$$CaSO_4, \% = M(1/2SO_4^{1-}) - M(1/2 Ca^{2+}) = 2,123 - 1,982 = 0,141;$$

$$CaSO_4 = 1,982 \cdot 68,072/100 = 1,349\%.$$

2. Massa ulushi:

$$MgSO_4, \% = M(1/2Mg^{2+}) - V(1/2 SO_4^{2-}) = 0,141 - 0,111 = 0,03;$$

$$MgSO_4, \% = 0,111 \cdot 60,188/100 = 0,057\%.$$

3. Massa ulushi:

$$Na_2SO_4, \% = M(Na^+) - M(1/2SO_4^{2-}) = 167,295 - 0,03 = 167,265;$$

$$M(1/2 Na_2SO_4) = 0,03 \cdot 71,032/100 = 0,0213 \%.$$

4. NaCl, %,  $M(NaCl) = 167,265$ ;

$$NaCl, \% \text{ massa ulushi} = 167,265 \cdot 58,457/100 = 97,714 \%.$$

Ionlar summasi tuzlar summasiga teng:

$$Eion = Etuz = 99,21 \%$$

$$\text{Analizlar summasi yean} = 99,31 \%.$$

### 13.6.10. Kanifol

Kanifol yelmini pishirishga sarflanadigan ishqor miqdorini aniqlash

Kanifolni pishirishga sarflanadigan natriy ishqorini quyidagi formula bilan hisoblash mumkin:

$$NaOH = \frac{OM_2}{M_1 \cdot P \cdot (100 - C)}$$

bunda,  $O$  – kanifolni neytrallash soni (sovunlash), %;  $M_2$  – pishirishga ishlatalidigan ishqorning ekvivalent massasi;  $M_1$  – kanifolni neytrallashga sarflangan ishqorning ekvivalent massasi; R – texnik ishqordagi natriy ishqorining tarkibi, %; C – yelim tarkibida bo‘ladigan bo‘sh smola (свободная смола), %. Quyidagi jadvalda kanifolni pishirish uchun sarflanadigan ishqor va suvlarning, yelim tarkibidagi bo‘sh smolaga nisbatan miqdori keltirilgan:

72-jadval

Ozod smola tarkibi %	Quyidagi kanifolni neytrallash soniga qarab 100 kg ga sarfi						Pishi- rishga suv sarfi, l
	13	12,5	12				
	NaOH	Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>	NaOH	Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>	NaOH	Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>	
Qo‘ng‘ir (бурый) yelim							
0	13,68	17,6	13,15	16,9	12,63	16,22	100 – 150
Oq yelim							
10	1,31	15,84	11,83	15,21	11,37	14,6	75 – 80
15	11,63	14,96	11,17	14,37	10,74	13,79	70 – 75
20	10,94	14,08	10,52	13,52	10,1	12,98	70
25	10,26	13,2	9,86	12,68	9,47	12,17	65
30	9,58	12,32	9,2	11,83	8,84	11,35	55 – 60
35	8,9	11,44	8,54	10,97	8,21	10,54	50
40	8,22	10,16	7,89	10,14	7,58	9,73	40 – 45
45	7,52	9,68	7,23	9,3	6,95	8,92	30 – 35

Eslatma: 1. texnik ishqor tarkibida asosiy modda – NaOH – 95 %.

2. Texnik soda tarkibida asosiy modda - Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> – 98 %.

### Kanifol suti tarkibidagi kanifol miqdorini aniqlash

Kanifol sutidan 50 dan 100 ml (konsentratsiyasiga qarab) olib ajratish voronkasiga (делительная воронка) quyiladi ustiga

sulfat kislota (1:4) eritmasidan bir necha ml va biroz etil esfiridan qo'shib, yaxshilab aralashtiriladi. So'ngra suv qismi ajratib olinadi, 2–3 marta esir qismi suv bilan yuviladi, hajmiga teng miqdorda etil spiritidan qo'shib 0,1 n natriy ishqori bilan, fenftolein indikatori ishtirokida titrlanadi.

So'ngra kanifolni sovunlanish sonini, kanifol suti tarkibidagi kanifol konsentratsiyasi aniqlanadi:

Mi 0,1 n. NaOH. 0,4/sovunlanish soni = kanifol, g.

### 13.6.11. Kraxmal

#### Kraxmal namligini aniqlash

5–10 g kraxmalni analitik torozida tortib olib, bir soat 45–50°C da quritish shkafida ushlab turiladi. Keyin temperaturani 120°C gacha ko'tarib, 4 soat quritiladi. Eksikatorda sovitilgach namligi hisoblanadi, uning miqdori 20 %dan oshmasligi kerak.

#### Kraxmal kislotaligini aniqlash

25 g kraxmalni 30 ml suvda eritib, 0,1 n natriy ishqoridan tomchilanadi. Eritma pH ni indikator qog'ozni bilan tekshiriladi. Agar neytrallash uchun 1–1,5 ml ishqor sarflansa – kraxmal past kislotali; 1,5 – 2 ml – kislotali va 2 ml dan ko'p sarflansa – kuchli kislotali hisoblanadi.

Kraxmal kislotaligini, sulfat kislota hisobida quyidagicha hisoblanadi:

$$1 \text{ ml } 0,1 \text{ n NaOH} = 0,0049 \text{ H}_2\text{SO}_4$$

#### Kraxmalni yelimlanishini aniqlash

4 g kraxmalni tortib olib farfor chashkachasida 50 ml suv bilan aralashtiriladi. So'ngra, uzluksiz aralashtirgan holda sekin qizdiriladi. Qizdirish eritma tiniq holga o'tguncha davom ettiri-

ladi. Qizdirish oxirida eritmada ko'pik paydo bo'ladi. Qizdirish 1 minutdan oshmasligi kerak. Hosil bo'lgan kleyster qota boshlaydi. Qotgan kleyster chashkani ag'darganda ham to'kilmaydi.

### 13.7. TEKNOLOGIK SUVLARNI NAZORAT QILISH

Texnologik suvlardan dastlabki suv va yumshatilgan suvni nazorat qilish usullari ko'rib chiqiladi. Oqova suv va oraliq suvlarni analiz qilish usullarida ko'p qismlari o'xshash.

#### 13.7.1. Dastlabki suv

##### Suvni umumiy qattiqligini aniqlash

Umumiy qattiqlikka kalsiy va magniy tuzlarining yig'indisi kiradi. Kalsiy va magniy tuzlarini aniqlash — analiz uchun olingan suvni trilon Б bilan, xromogen черный indikatori ishtirokida titrlashga asoslangan. Temir va aluminiy ta'sirini trietanolamin qo'shib aniqlanadi.; nikel, mis va sinklarni — natriy sulfati orqali; ammoniy tuzlarini — ishqoriy eritmada qaynatish yo'li bilan aniqlanadi. Bu usul bilan kalsiy va magniy larning umumiy qattiqligi 0,02—0,2 mmol/l va undan yuqori bo'lganlarini aniqlash mumkin.

##### Apparat, reaktivlar va eritmalar:

*texnik torozi;*

*analitik torozi;*

*el. plita;*

*kolba, konus shaklida, 250 ml;*

*o'lcov kolbalar: 100; 1000 va 2000 ml;*

*pipetkalar, 10 va 25 ml; byuretka, 25 ml;*

*trilon Б, 0,1 n eritma;*

*ammiak, suvlak;*

*ammoniy xloridi;*

*bufer eritmasi (tayyorlash: 20 g ammoniy xloridni distillangan suyda eritib, 100 ml ammiak qo'shiladi va hajmini distillangan*

suv bilan 1000 ml ga yetkaziladi), 10g/l;

natriy xlorid, 25g/l;

indikator (xromogen черный, yeT-00. Tayyorlashi: 0,2 g xromogen черный tortib olib 50 g natriy xlorid va suvda eritiladi);  
xlorid kislota, 0,1 mol/l.

Aniqlash: 1. Agar analiz qilinmoqchi bo'lgan suv tarkibida temir, aluminiy, nikel, mis, marganets, karbonatlar va gidrokarbonatlar bo'lganiga.

Aniqlanmoqchi bo'lgan suv tarkibida kalsiy va magniy miqdorlari 0,05 dan 1,0 mmol/l gacha bo'lsa, namuna suvdan kolbag'a quyib, ustiga 90–100 ml distillangan suv, 5 ml bufer eritmasi, 0,1g indikatordan qo'shib, aralashtirgan holda trilon Б eritmasi bilan, rangi gilos rangidan havo ranga o'tguncha, titrlanadi.

Agar analiz qilinmoqchi bo'lgan suv tarkibida temir, aluminiy, nikel, mis, marganets bo'lganda.

Analiz uchun olingan suvdan 1 p. Ko'ratilgan hajmda olib, 10 ml trietanolamin eritmasidan, 1 ml natriy sulfat, 3 – 5 tomchi xlorid gidroksilamin qo'shilib, 1p. dagidek titrlanadi.

Agar analiz qilinmoqchi bo'lgan suv tarkibida karbonatlar va gidrokarbonatlar bo'lganda.

Namuna suv miqdorini 1 p ko'rsatgan miqdorda olib, 1 – min qaynatiladi, so'ngra sovitilib va 1 p ko'rsatilgandek davom ettiriladi.

**Hisoblash.** Suvni umumiy qattiqligi  $X$ , mmol/l, quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{V_1 \cdot 0,05 \cdot 1000}{V}$$

bunda,  $V_1$  – titrashga sarflangan trilon Б, ml; 0,05 – trilon Б ekvivalenti, mol/l;  $V$  – analizga olingan suv hajmi, ml.

### 13.7.1.2. Suvni umumiy ishqorligini aniqlash

Suvdag'i umumiy ishqorlar bu – kuchsiz kislotalarning

tuzlari va gidrooksillari hisoblanadi. Umumiy ishqorlar miqdorini kuchli kislotalar bilan, indikator metiloranj ishtirokida titrlash yo'li bilan aniqlanadi.

Bu usul bilan suv tarkibida umumiy ishqor konsentratsiyasi 0,5 mmol/l va undan yuqori bo'lganda aniqlanadi. Aniqlashning pastki chegarasi — 0,09 mmol/l.

#### Apparatlar, reaktivlar va critnilar:

*o'chov kolbasi, 1000 ml;*

*kolbalar, konus shaklida, 250 ml;*

*pipetkalar, 50 va 100ml;*

*byuretka, 25 ml;*

*xlorid kislota, standart titr;*

*xlorid kislota, 0,1n (standart titrdan tayyorlangan);*

*metil oranji, 0,5 g/l, GOST 4919.1 bo'yicha tayyorlangan.*

**Aniqlash.** Umumiy ishqor tarkibida kuchsiz kislota tuzlari va gidroksillar konsentratsiyasi 0,1 dan 2,0 mmol/l bo'lgan namuna suvgaga 2 tomchi indikatordan tomiziladi va xlorid kislota eritmasi bilan rangi sariq rangdan qizil ranga o'tguncha titrlanadi.

**Hisoblash.** Umumiy ishqor  $X$ , mol/l, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X = \frac{V_1 \cdot 0,1 \cdot 1000}{V}$$

bunda,  $V_1$  — xlorid kislotaning titrlashga sarflangan hajmi, ml; 0,1 molar konsentratsiya, mol/l;  $V$  — analizga olingan suv miqdori, ml.

#### 13.7.1.3. Suv tarkibidagi osma moddalarini aniqlash

Bu usulda osma moddalar miqdorini aniqlash namuna suvni filtrlab, quritib, tortib olishga asoslangan. Bu usul bilan suvdagi osma moddalar konsentratsiyasi 5 mg/l va undan yuqori bo'lganda qo'llaniladi. Aniqlashning pastki chegarasi — 0,5 mg/l.

### **Apparat, reaktivlar va eritmalar:**

*analitik torozi;*

*quritish shkaf;*

*filtrlash tigeli, teshikchalar o'chami 1 – 16 mkm;*

*suv nasosi;*

*filtrlash uchun kolba;*

*eksikator;*

*o'chov kolbalari, 500 va 1000 ml.*

**Aniqlash.** Tarkibida 5 – 500 mg erimagan moddalar bo'lgan suvdan olib, filtr tigelida filtrlanadi, cho'kma distillangan suv bilan yuviladi. So'ngra cho'kma 1,5 – 2,0 soat davomida 105–110°C da quritiladi va torozida tortib olinadi.

**Hisoblash.** Suvda erimagan osma moddalar miqdori  $X$ , mg/l, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X = \frac{(m_1 - m_2) \cdot 1000}{V}$$

bunda,  $m_1$  – tigel va cho'kma massasi, mg;  $m_2$  – tigel massasi, mg;  $V$  – analizga olingan namuna suv hajmi, ml.

Suv tarkibidagi quruq qoldiqni aniqlash

Bu usul bilan suv tarkibidagi quruq modda miqdorini aniqlash, namunani 178 – 182°C da suvni parlatib, qoldiqni tortib olishga asoslangan. Bu usul bilan suv tarkibidagi quruq cho'kma konsentratsiyasi 5 mg/l va undan yuqori bo'lganda aniqlash mumkin. Aniqlashning eng past chegarasi 3 mg/l.

### **Apparat, reaktivlar va eritmalar:**

*analitik torozi;*

*quritish shkaf;*

*filtrlash tigeli, teshikchalar o'chami 1 – 16 mkm;*

*suv nasosi;*

*filtrlash uchun kolba;*

*suv hammomi;*

*eksikator;*

*farfor chashka;*

*o'lchov kolbalari, 500 va 1000 ml.*

**Aniqlash.** Tarkibida 1 g quruq cho'kmadan kam bo'limgan namuna svnvi chashkaga quyib, suv hammomida suvi parlantiriladi. Cho'kma chashka bilan birga quritish shkafida 178 – 182°C da 2 soat davomida quritiladi. Quritish, massasi o'zgarmay qolguncha davom ettiriladi. So'ngra eksikatorda sovitilib, analistik torozida tortib olinadi.

**Hisoblash.** Namuna suv tarkibidagi quruq cho'kma massasi X quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$X = \frac{(m_1 - m_2) \cdot 1000}{V}$$

bunda,  $m_1$  – chashka va quruq cho'kma massasi, g;  $m_2$  – chashka massasi, g;  $V$  – analizga olingan namuna suv hajmi, ml.

### 13.7.1.5. Suvning tiniqligini aniqlash

Tiniqlik (loyqalik) bu suv tarkibidagi osma noorganik va organik kolloid zarrachalar bo'lib, suvning tiniqligini pasaytiradi. Tiniqliknini aniqlashga suvda erigan moddalarning rangi xalaqit beradi. Ranglarni intensivligi undagi osma modda zarrachalari ning o'lchami va rangiga bog'liq.

**Apparat.** Tiniqliknini aniqlaydigan qurilma: Geyger pribori, balandligi 30 – 150 sm, ichki diametri 25 – 30 mm silindr, tagi tiniq, tagi yonida svnvi to'kishga mo'ljallangan shisha naycha, jo'mragi bilan, silindr tagidan 1 sm pastroqda 3x3 mm o'lchamli shrift, silindrni pasti elektr lampa bilan yoritib turiladi.

**Aniqlash.** Vertikal o'rnatilgan Geyger apparatiga namuna suv quyiladi. Keyin silindr pastidagi naychani jo'mragi, silindr tagidagi shrift ko'ringuncha, ochiladi. Silindr tagiga o'rnatilgan elektr lampa undagi svnvi yoritib turishi lozim. Silindr tepasidan qaraganda shrift ko'ringan masosa santimetrdan aniqlanadi. 2-marta aniqlangach, o'rtacha balandligi, namuna uchun olingan suvning tiniqligi hisoblanadi.

### 13. 7. 1. 6. Suvning permanganatli oksidlanishini aniqlash

Bu usul, suv tarkibidagi moddalarning 0,01 n kaliy permanganat eritmasi, kislota muhitida qaynatganda oksidlanishiga asoslangan. Suyultirmagan holda oksidlanish darajasi  $10 \text{ mgO}_2/\text{l}$  gacha aniqlash mumkin. Oksidlanish darajasi yuqori bo'lganda ( $100 \text{ mgO}_2/\text{l}$ ) 10 marta suyultirish lozim.

Aniqlashiga xalaqit heruvchi. Suv tarkibidagi organik moddalarning oksidlanishiga ta'sir etuvchi noorganik moddalarni aniqlash zarur, chunki ular ham oksidlanadi. Bunday birikmalar: xloridlar, sulfidlar, nitritlar, temir (2), vodorod oltingugurti. Sulfid va nitritlar alohida aniqlanadi, natijasi quyidagi muddalarning oksidlanishidan olib tashlanadi:

1 mg vodorod oltingugurti  $0,47 \text{ mgO}_2$  ga to'g'ri keladi;

1 mg azot dioksidi  $0,35 \text{ mgO}_2$  ga to'g'ri keladi;

1 mg temir (2) di  $0,14 \text{ mgO}_2$  ga to'g'ri keladi;

**Apparat, reaktivlar va eritmalar:**

*el. plita;*

*kolba, konus shaklida, 350, 500 ml;*

*o'chov kolba 1000 ml;*

*pipetkalar, 10, 50 va 100 ml;*

*byuretka, 25 ml;*

*shisha sharlar;*

*sulfat kislotani suvli eritmasi, ch.d.a. markalisini 1:2. unga  $40^\circ\text{C}$  da 0,01 n kaliy permanganati qo'shilgan;*

*shavel kislotasi, 0,1 n asosiy eritma. Tayyorlash: 6,3030 g shavel kislotasini (1:15) sulfat kislotada eritib, hajmini  $20^\circ\text{C}$  da 1000 ml yetkaziladi. Eritmani qorong'i joyda 1 yilgacha saqlash mumkin.*

Shavel kislota 0,1 n eritma. 100 ml 0,1 n asosiy shavel eritmasidan olib 1000 ml gacha,  $20^\circ\text{C}$  da, sulfat kislota eritmasidan (1:15) quyiladi.

Kaliy permanganat, 0,1 va 0,01 n eritmalar;

Kaliy permanganatni asosiy eritmasi. Tayyorlash: 3,2 g ni 1000 ml suvda eritiladi. Bu eritmani qorong'i joyda qora

idishda saqlash lozim. 2 – 3 hastadan keyin ishlatish kerak.

**Ishchi eritma.** Tayyorlash: 1 l o'Ichov kolbaga 110 ml kaliy permanganatning asosiy eritmasidan quyib, distillangan suv bilan belgisiga yetkaziladi. Bir necha kundan keyin titrlab tuzatish koefitsiyenti 1 ga teng bo'lguncha keltiriladi. Buning uchun kolbaga 100 ml, tarkibida organik modda bo'l'magan, distillangan suvdan quyiladi va qaynaguncha qizdiriladi. So'ngra permanganat kaliy eritmasi bilan rangi och qizil ranga o'tguncha titrlanadi.

**Aniqlash.** Kolbaga bir nechta shisha sharlardan solib, ustiga 100 ml namunadan quyiladi, hajmini 1000 ml gacha distillangan suv bilan suyultiriladi, 5 ml suyultirilgan sulfat kislotadan va 20 ml 0,01 n kaliy permanganat eritmasidan qo'shiladi. Aralashma 5 minut turgach, 10 min qaynatiladi. Qaynoq eritmaga 20 ml 0,01 n shavel kislotasidan qo'shiladi. Rangsizlangan aralashmani qaynoq 0,01 n kaliy permanganat eritmasi bilan qizg'ish ranga o'tguncha titrlanadi. Titrlashda aralashma temperaturasi 80°C dan kam bo'lmasligi kerak.

Bir vaqtning o'zida nazorat tajriba, suyultirish uchun ishlatilgan suv bilan, o'tkaziladi. Aniqlash, kaliy permanganatning qo'shilganidan 60 %ga oshgan holda ham qaytariladi (titrlashga sarflangan kaliy permanganat eritmasi 12 ml dan oshganda ham). Suyultirilgan namunalarni titrlaganda kaliy permanganat eritmasining sarfi, qo'shilgan kaliy permanganat eritmasidan 20 %dan kam bo'lmasligi kerak (4 ml).

Nazorat tajribasini o'tkazish uchun suyultirishga ishlatadigan suvdan 100 ml olinadi va namuna uchun olingan suvni ishlaganga o'xshab ishlanadi. Bunda kaliy permanganat 0,01 n eritmasini sarfi 0,2 ml oshmasligi kerak.

**Hisoblash.** Namuna suvni permanganat oksidlanishi  $X$ , mg/l, quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{(a - b) \cdot K \cdot 0,01 \cdot 8 \cdot 1000}{V}$$

bunda,  $a$  — namunani titrashga sarflangan kaliy permanganatni 0,01 n eritmasi, ml;  $b$  — nazorat tajribani titrashga sarflangan kaliy permanganatni 0,01 n eritmasi, ml;  $K$  — to'g'rilash koefitsiyenti;  $8$  — kislorod ekvivalenti;  $V$  — analizga olingan namuna miqdori, ml.

### 13.7.1.6. Suvning, xlorid ionlari 25 mg/l dan oshiq bo'lgandagi, XPK ko'rsatkichini aniqlash

XPK — химическая потребность кислорода (кислородга кимиовиyl talab).

**Reaktivlar:**

dumaloq tagli kolba, 500 ml;  
stakan, 400, 450 ml;  
simob sulfati, ch.d.a.;  
kaliy bixromati, 0,25 n standart eritma (tayyorlash: 2 soat davomida  $105^{\circ}\text{C}$  da quritilgan 12,258 g kaliy bixromat 1000 ml suvda eritiladi);  
kumush sulfati, ch.d.a. qattiq;  
natriy ishqor, 45 % eritma. (ikki marta haydalgan distillangan suvda tayyorlanadi);  
sulfat kislota, 2 n eritma;  
magniy oksidi, x.ch. 1 soat musel pechida kuydirilgan kukun;  
indikator qog'oz'i;  
ammoniy xlorid, ch.d.a.;  
ammiak, 25 % eritma;  
ЭДТА, 10 % eritma;  
sirka kislota, 2 n eritma;  
fenolftalein, 1 % spirtli eritma;  
distillangan suv (sulfat kislota va kaliy permanganatlari qo'shilib, shisha qurilmada ikki marta haydalgan).

**Xromli kvasslar.** Asosiy standart eritma. Tayyorlash: 4,8024 g xrom kvassini ch.d.a. kristalidan tortib olib distillangan suvda eritiladi, 500 ml gacha suytiriladi, uning 1 ml da 1 mg xrom bo'ladi.

**Ishchi standart eritma.** Tayyorlash: 11 o'lchov kolbasiga, byuretka bilan 216,7 ml xrom kvasini asosiy eritmasidan olib, distillangan suv bilan 11 o'lchov kolbasini belgisigacha suyultiriladi; buning 1 ml da 0,2167 mg bo'lib, 0,1 mg XPK hisobida kislorod bor.

**Aniqlash.** Sovitgich ulagan dumaloq tageli kolbaga 25 ml analiz qilinadigan suvdan quyib, simob sulfati (2) qo'shiladi. So'ngra 5 ml konsentrangan sulfat kislota qo'shib eriguncha aralashtiriladi, 30 ml konsentrangan sulfat kislota va 0,1 n kumush sulfati qo'shiladi. Kolbadagi bu aralashma 2 soat qaynatiladi. Sovitilgach, 200 ml o'lchov kolbasiga quyib olinadi va hajmini belgisigacha, distillangan suv bilan keltiriladi.

Olingan eritmadañ 100 ml olib, 400 – 450 ml li stakanga quyilib, 300 ml gacha suyultiriladi va sekin neytralizatsiyalanadi. Avval 39 ml atrosida natiriy ishqori eritmasidan tomchilatib, pH 5–7 gacha qo'shiladi. Eritma pH i lakkus qog'oziga, shisha tayoq-chani eritmaga tekkizib olingan yuqi bilan, aniqlanadi. Neytralangan eritma qaynatiladi, 0,1 g magniy oksidi qo'shiladi va 20 min qaynatiladi. Bunda cho'kma stakan tubiga cho'kadi, so'ngra eritma zinch filtr voronka orqali filtrlanadi, iliq distillangan suv bilan sekin yuviladi. Voronka cho'kma bilan konus shaklidagi kolbaga solinadi. Cho'kma kolbaga butunlay o'tguncha yuviladi. So'ngra filtr 3 ml 2n sulfat kislota bilan chayiladi, filtr devorlariga yopishib qolgan cho'kmalar qolmasligi kerak. Filtr va stakanlar iliq suv bilan chayilib, chayindi o'sha kolbaga quyiladi. So'ngra kolbadagi suyuqlik cho'kma eriguncha qaynatiladi.

Olingan eritma 100 ml o'lchov kolbasiga quyib olinadi, cho'kmadan qolgan bo'lsa zinch filtrda filtrlanib olinadi va 3 g ammoniy xlorid, 2 ml segnet tuzi eritmasidan (agar tarkibida temir bo'lsa, uni bog'lab olish uchun), 2 ml ЭДТА eritmasi, 2–3 tomchi fenolstaleyin, eritma qizarguncha ammiak eritmasi va 5 ml sirkva kislotosi (olingan eritma pH 4 bo'lguncha). Kolbadagi eritma yana 5 min qaynatiladi, sovitilgach distillangan suv bilan belgisiga yetguncha quyiladi.

Eritmani optik zinchligini ФЭК orqali 536 nm to'lqin

uzunligida, suvni kuvetadagi qaliligi 50 mm, nazorat eritmasiga solishtirib aniqlanadi.

### Oqova suv tarkibidagi kanifolni aniqlash

Usul, oqova suvdagi kanifolni ekstraksiyalash, parlatish va cho'kmasini tortib olishga asoslangan.

**Apparat, idish va reaktivlar**

*analitik torozi;*

*sklanka, hajmi 2 l;*

*sokslet pribori;*

*kolba 500 ml;*

*quritish shkafi;*

*elektr plita;*

*etil spiriti;*

*kolba, 250 ml.*

**Aniqlash.** To'plangan oqova suvni 10 ta joyidan 500 ml olib aralashtiriladi va 3 l olib filtrlanadi. Oqova suv tarkibida selluloza tolalari bo'lgani uchun kanifol unga shimilgan bo'ladi, shuning uchun oqova suvning filtrda qolgan qattiq qismi ajratib olinadi. Cho'kma filtri bilan olinib, kapron matoga o'raladi, Sokslet ichiga joylashtiriladi, 250 ml kolba ichiga 200 ml texnik etil spiriti quyiladi va bir sutka davomida ekstraksiyalanadi. So'ngra ekstrakt elektr plitada qaynatilib, sovitgich orqali etil spiriti haydaladi. Kolbadagi qoldiq buksga solinadi va quritish shkafida quritilib, analitik torozida tortib olinadi.


**Hisoblash.** Oqova suv tarkibidagi kanifol massasi, C,%, quydagi che hisoblanadi:

$$C = \frac{a \cdot 100}{\sigma \cdot 3000}$$

bunda,  $a$  — kanifo massasi, g;  $\sigma$  — quruq selluloza tolalarini 3000 ml oqova suvdagi massasi, g; 3000 — oqova suv hajmi, ml.

## Oqova suv tarkibidagi ionlarni fotometrik usul bilan aniqlash

Oqova suv tarkibidagi ionlarni spetsifik reagentlar bilan reaksiyaga kiritib, uning bo'yalish intinsivligini aniqlashga asoslangan, chunki ionlar rangining o'zgarishi ularning konsentratsiyasiga bog'liq. Aniqlash SQ 118 va 200 turidagi foto-kolorimetrlarda bajariladi. Aniqlash sxemasi:



**O'lchash prinsipi.** Stabillangan nur diafragma va linza orqali o'tib, analiz uchun olingan suyuqlikka tushadi. Nurning bir qismi eritmada yutiladi, o'tgan nur interferens filtrga tushadi, u o'z navbatida suv tarkibidagi qo'shimchalarni fotometrik o'lchashga yaroqli nurni o'tkazadi. Kremniyli fotodioddan o'tgan nurni elektr tokiga aylantiradi, u keyin kuchaytirilib va analog — sifrali va mikropressor yordamida o'lchashga o'zgartirilib displayga beriladi.

**Fotometrlash asosi.** Fotometrik usul optik analizga kiradi. Bunda rangli eritmalardan nur o'tganda uning pasayishi, eritmadi qo'shimchalarning konsentratsiyasiga bog'liq. Normal holdagi nur — quyosh nuri oq rang. U har xil to'lqin uzunligidagi nurlar aralashmasi hisoblanadi. Ko'rindigan qismda kamalak rang hosil bo'ladi. Ultrabinafsha nurlar 380 nm dan pastda joylashgan. 780 nm qismi — infraqizil hisoblanadi (jadvalga qarang):

73-jadval

Rang	To'lqin uzunligi, nm
Siyohrang (siolet)	380 – 446

*jadvalning davomi*

Indigo	446 – 464
Havorang	464 – 500
Ko'k	500 – 578
Sariq	578 – 592
Qizg'ish (oranj)	592 – 620
Qizil	620 – 780

Ikkala nur ham ko'zga ko'rinxmaydi. Fotometrlashda nur chiqaruvchi sisatida volframli galogen lampa qo'llaniladi, u baracha uzunlikdagi nurlarini chiqaradi. 10 nm to'lqin uzunlikdagi nurni chiqarish uchun interferens filtrlar qo'llaniladi. Masalan, ko'k filtr faqat kuk nurlarni o'tkazadi, boshqa to'lqin uzunlikdagi nurlarni ushlab qoladi. Bular SQ 118, 200 priborlari programmasiga kiritilgan. Quyida selluloza va qog'oz ishlab chiqarishda texnologik suvlarida tez-tez uchrab turiladigan kationlar, anionlar va ozod (свободный) moddalarni fotometr pribori bilan aniqlash chegaralari keltirilgan:

74-jadval

t/r	Aniqlash usuli	Birligi	O'lchash diapozoni
1	Aluminiy	mg/l	0,05 – 0,35
2	Aluminiy	mg/l	0,2 – 1,5
3	Ammoniy	mg/l	0,01 – 0,80
4	Ammoniy	mg/l	0,1 – 3,5
5	Kalsiy	mg/l	5 – 160
6	Kalsiy oksidi	mg/l	7 – 224
7	Xlor	mg/l	0,05 – 1,50
8	Xlor	mg/l	0,1 – 10,0
9	Xlorid	mg/l	1 – 20
10	Temir	mg/l	0,05 – 1,00
11	Temir	mg/l	0,2 – 2,5
12	Mis	mg/l	0,02 – 8,0

*jadvalning davomi*

13	Mis	MMol/l	0,8 – 31,5
14	Marganets	mg/l	0,1 – 2,5
15	Marganets	mg/l	0,5 – 10,0
16	Nikel	mg/l	0,05 – 2,00
17	Nikel	mg/l	1 – 34
18	Nitrat	mg/l	1, - 25
19	Nitrat	mg/l	5 – 98
20	Nitrit	mg/l	0,02 – 0,60
21	Nitrit	mg/l	0,05 – 3,0
22	Silikatlar	mg/l	0,02 – 1,70
23	Silikatlar	mg/l	0,2 – 10,7
24	Sulfatlar	mg/l	20 – 240
25	Sulfatlar	mg/l	0,21 – 2,50
26	Sink	mg/l	0,05 – 2,50

**Namuna olish.** Namunani shisha yoki plastmassa, hajmi 500 yoki 1000 ml idishda olinadi. Idishlar toza bo'lishi lozim. Namunalamni har xil nuqtalardan olib, aralashtiriladi va tezda o'lchanadi.

**Taxminiy sinash.** Bu amalni bajarishdan maqsad, aniqlamoqchi bo'lgan ion konsentratsiyasi intervalda ko'rsatilganiga to'g'ri kelish kelmasligini aniqlash. Agarda konsentratsiyasi katta bo'lsa, suyultiriladi. Suyultirish fotometr yo'riqnomasida ko'r-satilgan usulda bajariladi. pH ko'rsatkichi to'g'ri kelmasa, sulfat kislota eritmasidan tomizish bilan to'g'irlanadi. Har bir ionlar konsentratsiyasiga qarab tegishli o'lchanli kuveta tanlab olinadi.

**Aniqlash.** Har bir kation konsentratsiyasini aniqlash uchun tegishli reagentlar tegishli indekslar bilan kodlangan va tegishli muhit pH ko'rsatkichlari keltirilgan. Barcha amallar fotometrni yo'riqnomasida keltirilgan va bu amallar juda tez va kam reagent sarfi bilan tegishli talablarga javob beradigan aniqlikda, suv tarkibidagi asosiy qo'shimchalarni aniqlash mumkin.

## XIV bob. QOG'oz TURLARI VA NOMLARI

Asosan 11 tur qog'ozlar ishlab chiqariladi. Ularning nomlanishi va aniqlanishi quyida keltirilgan

### 14.1. QOG'oz VA KARTON ISHLAB CHIQARISHDA QO'LLANILADIGAN NOMLAR (TERMINLAR) VA ULARGA KIRITILGAN ANIQLIKLAR

75-jadval

Nomlar (terminlar)	Aniqlanishi
1. Qog'oz	1 m <sup>2</sup> massasi 250 g gacha, tarkibida o'simlik tolalardan, bir-biri bilan o'zaro yoki bog'lovchilar yordamida yelimlangan, mineral to'ldiruvchilar, natural va kimyoviy tolalar, pigment va bo'yoqlar bo'lgan material
2. Tekis qog'oz	Uzunasi va ko'ndalang yo'nalishi bo'y lab mexanik pishiqligi yaqin bo'lgan qog'oz.
3. Armirlangan qog'oz	Mato yoki iplar bilan, qog'oz quyush jarayonida birlashtirib olingan qog'oz
4. Ko'p qavatli qog'oz	Bir necha qavatli bir xil yoki har xil kompozitsiya, bir-biri bilan, olish jarayonida, yelimsiz yopishtirib olingan qog'oz
5. Zich qog'oz	Strukturasi zichlangan qog'oz
6. Verje qog'oz	Suv tamg'ali qog'oz
7. Namga pishiq qog'oz	Nam holatida pishiqligini oshirish uchun maxsus ishlov berilgan qog'oz
8. Suv o'tkazmay-digan qog'oz	Suvni o'tkazishga qarshilik ko'rsatadigan qog'oz.
9. Yog' o'tkazmay-digan qog'oz	Yog'ni o'tkazishga qarshilik ko'rsatuvchi qog'oz.
10. Atsetillangan qog'oz	Gidrosob va issiqqa chidamlilagini oshirish uchun qisman atsetillangan qog'oz.

*jadvalning davomi*

11. Hinoyalovchi qog'oz	Issiqlik, ovoz, nur va elektr energiyalarni himolashga xizmat qiladigan qog'oz
12. Ishqoriy qog'oz	Ishqor ta'siriga qarshilik qiluvchi qog'oz.
13. Ko'pga chidaydi gan qog'oz	Ko'p yillar saqlanganda ham xossalari sezilarli o'zgarmaydigan qog'oz
14. Biotsidli qog'oz	Tarkibida biotsid modda bo'lgan qog'oz
15. Bakteritsid qog'oz	Tarkibida bakteritsid modda bo'lgan, yara va oziq-ovqat mahsulotlarni qadoqlashda ishlatiladigan qog'oz.
16. Yelimlanmaydi-gan qog'oz	Shtrix metodi bilan aniqlanganda, yelimlanish darajasi 0,25 mm bo'lgan qog'oz
17. Sal yelimlanadi-gan qog'oz	Shtrix metodi bilan aniqlanganda, yelimlanish darajasi 0,25 dan 0,75 mm bo'lgan qog'oz
18. Yelimlanadigan qog'oz	Shtrix metodi bilan aniqlanganda, yelimlanish darajasi 0,75 dan 1,75 mm bo'lgan qog'oz
19. Yuqoriyelimla-nadigan qog'oz	Shtrix metodi bilan aniqlanganda, yelimlanish darajasi 1,75 mm dan yuqori bo'lgan qog'oz
20. Kamkulli qog'oz	Kul miqdori 6 %gacha bo'lgan qog'oz
21. O'rtakulli qog'oz	Kul miqdori 6 dan 18 %gacha bo'lgan qog'oz
22. Ko'pkulli qog'oz	Kul miqdori 18 dan 23 %gacha bo'lgan qog'oz
23. Yuqori kulli qog'oz	Kul miqdori 23 dan % yuqori bo'lgan qog'oz
24. Oxorlanmagan qog'oz	Kalandrlanmagan qog'oz
25. Mashina silliqli qog'oz	Har ikki tomoni qog'oz qilish mashinasining kalandrlari yordamida silliqlangan qog'oz
26. Bir tomoni silliqlangan qog'oz	Bir tomoniga yuqori silliqlik berish uchun maxsus ishlov berilgan qog'oz
27. Лошебная бу-мара	
28. Kalandrlangan qog'oz	Yuqori silliqlik berish uchun superkalandrlardan yoki losklangan qog'oz
29. Sinqilgan qog'oz	Qabariqli yoki chuqurcha rasmli qog'oz

jadvalning davomi

30. Kreplangan qog'oz	Yuzasi mayda qavatchali, cho'ziluvchan qog'oz
31. Qoplama qavatli qog'oz	Maqsadga muvosifqlashtirilgan qog'oz yuzasiga surtilgan qavatli qog'oz
32. Gummirli qog'oz	Bir tomoni yelimlangan, suv bilan yoki qizdirilganda boshqa predmetga yopishadigan qog'oz
33. Metallangan qog'oz	Metall kukun yoki folga bilan yelimlangan qog'oz
34. Bo'rlangan qog'oz	Bir yoki ikkala tomoni pigment va yelim bilan qoplangan qog'oz
35. Qisman ishilov berilgan qog'oz	Yuzasi bo'yash uchun qoplangan qog'oz
36. Gidrofil qog'oz	Gidrofil modda bilan qoplangan qog'oz
37. Yuzayelimlangan qog'oz	Yuzasiga yelim moddasi surtilgan qog'oz
38. Mashina yo'nalishi bo'yicha kesilgan qog'oz	Varoqni uzun tomoni mashina yo'nalishiga to'g'ri kelgan varoqli qog'oz
39. Ko'ndalang kesilgan qog'oz	Varoqni qisqa tomoni mashina yo'nalishiga to'g'ri kelgan varoqli qog'oz
40. Uzun tolali qog'oz	Kimyoviy yoki tabiiy tolalarini yelimlab quruq shakllash usuli bilan olingan qog'oz

2. BOSMA UCHUN QOG'ÖZ

Nomlar (terminlar)	Aniqlanishi
41. Bosma uchun qog'oz	Nashriy va tasviriy mahsulotlarni bosish uchun, qog'oz
42. Gazeta qog'oz	Gazeta bosish uchun, asosan, tarkibi yog'och selluloza massasi bo'lgan, yelimlangan kamkulli qog'oz
43. Ofset usulida bosish uchun gazeta qog'oz	Gazeta bosish uchun, asosan, tarkibi yog'och selluloza massasi bo'lgan, yelimlangan kam kulli qog'oz
44. Tasvirlash uchun qog'oz	Tasviriy va matn mahsulotlarini yuqori va ofset usuli bilan bosish uchun o'rta kulli qog'oz
45. Bosmaxona qog'oz	Yuqori bosish usuli bilan nashr etiladigan, salelimlangan o'rta kulli qog'oz
46. Yupqa bosma-	Yuqori bosish usulida kitob va spravochniklar

*jadvalning davomi*

xona qog'ozি	nashir etish uchun yuqori kulli qog'oz
47. Ofset qog'ozи	O'rta kulli yelimlangan, namlanganda kam deformatsiyalanadigan, ofset usulida nashr qiladigan qog'oz
48. Chuqur bosish qog'ozи	Kamyelimlangan yuqorikulli chuqur usul bilan nashr etishga mo'ljallangan qog'oz.
49. Kartografiya qog'ozи	Namga chidamli, yuqoriyelimlangan, nam holatda kam deformatsiyalanuvchi kartografiya mahsulotlarni bosishga mo'ljallagan qog'oz
50. Hujjat qog'ozи	Yuqoriyelimlangan har xil hujjatlarni tayyorlashga mo'ljallangan qog'oz
51. Muqova qog'ozи	Nurga chidamli yelimlangan, broshura va jurnallar muqovalarini tayyorlash uchun ishlataladigan qog'oz
52. Daftар muqova qog'ozи	Rangli yelimlangan o'rta kulli mакtab daftарlarini jildlash uchun qo'llaniladigan qog'oz
53. Afisha qog'ozи	Salyelimlangan o'rtakulli mashina silliqli yoki bir tomoni silliqlangan afisha va reklamalarni bosishga mo'ljallangan qog'oz
54. Kinobiletlar uchun qog'oz	Rangli, o'rta ulli, kinobiletlarni bosishga mo'ljallagan qog'oz
55. Etiketka qog'ozи	Yelimlangan, ba'zan bo'rangan etiketkalar bosish uchun qog'oz.
56. O'yin karta uchun qog'oz	Nur o'tkazmaydigan yuqoriyelimlangan, chetlari yuqori pishiqlikka ega bo'lgan qog'oz
57. Farzas qog'ozи	Yelimlangan o'rtakulli, bukilishga chidamli qog'oz
58. Titul qog'ozи	Yuqori sisatli, kitoblarni titul varog'iga ishlataladigan qog'oz
59. Fototip qog'ozи	Kamkulli yuqoriyelimlangan, mashina silliqli, yuqori oqlikka ega, fotolarni bosishga ishlataladigan qog'oz

3. DEKARATIV QOG'ÖZ

Nomlar (terminlar)	Aniqlanishi
60. Dekarativ qog'oz	Silliq bo'yalgan, yuzasida baxmal, mramor, charm, polotno ko'rinishli qog'oz
61. Muqovalarni ye-	Bir tomoni zichlab ranglangan, ba'zan

*jadvalning davomi*

limlaydigan qog'oz	yuzasi loklangan, kitob muqovasiga va boshqa qog'oz mahsulotlariga yelimlab yopishtirish uchun qo'llaniladigan dekorativ qog'oz
62. Aerografiya qog'oz	Aerografiya usulida bir tomoni ko'prangli rasmlar solingan, kitob va karton mahsulotlarga jilo berish uchun ishlataladigan dekorativ qog'oz
63. Baxmal qog'oz	Qog'oz asosiga elektrostatik yo'li bilan har xil uzunlikdagi tolalar yopishtirilgan dekorativ qog'oz
64. Tovlanadigan qog'oz (перламутровая)	Qog'oz yuzasini kumush yoki qo'rg'oshin eritmasi bilan ishlov berib va vodorod oltингugurtini ta'sir etirib olingan dekorativ qog'oz
65. Rangli glyanslangan qog'oz	Karton taralarini ustiga yopishtiriladigan glans qoplamlari dekorativ qog'oz
66. Shagren qog'oz	Kitob-jurnallarni rasmiylashtirish (oformit) asos qog'ozini bir tomoniga bo'yalgan siqilgan qog'oz qoplama, shager charm ko'rinishini beradigan dekorativ qog'oz
67. Mramor qog'oz	Ko'p rangli bir tononiga mramor shakli tushirilgan glans kitob muqovalarini qoplaydigan va dekorativ maqsadlar uchun qo'llaniladigan qog'oz

**4. XAT, MASHINA YOZUV, CHIZMACHILIK VA RASM QOG'OLZLARI**

Nomlar (terminlar)	Aniqlanishi
68. Yozuv qog'oz	Yelimlangan, o'rtakulli, kalandrlangan xatlar uchun qog'oz
69. Daftar qog'oz	Qisman silliqlangan, tiniq, daftarlari tayyorlash uchun yozuv qog'oz
70. Kartatekalar uchun qog'oz	O'rta silliqli, yelimlangan, o'rtakulli katalog va kartotekalar uchun mo'ljalangan qog'oz
71. Aloqa hujjatlari uchun qog'oz	Yelimlangan, o'rtakulli, har xil ranglarga bo'yalgan aloqa ishlarida qo'llaniladigan qog'oz

*jadvalning davomi*

72. Mashinayozuv qog'izi	Salyelimlangan, mashina usulida yoki bir tomoni silliqlangan yozuv mashinkaga mo'ljallangan qog'oz
73. Rotator qog'izi	Yelimlanmagan kamkulli, mashina usulida silliqlangan, mashina apparatlarida hujjalarni ko'paytirishda ishlatiladigan qog'oz
74. Rotorli parda	Emulsiya singdirilgan uzun tolali qog'oz, rotorda matritsa sifatida qo'llaniladigan qog'oz
75. Nusxa ko-chiradigan qog'oz	Bir tomoniga yupqa qurimaydigan bo'yoq surtilgan nusxa olish uchun ishlatiladigan qog'oz
76. Chizma qog'izi	Yuqoriyelimlangan yuzasi mustahkam mashina usulida silliqlangan barcha chizmachilik va mo'yqalam suratkashlikda qo'llaniladigan qog'oz
77. Vatman qog'izi	Yuqoriyelimlangan o'chirishga chidamli, g'adir-budir yuzali chizmachilik va rasm chizishga mo'ljallangan qog'oz
78. Tiniq chizmachilik qog'izi	Yupqa yelimlangan tiniq qog'oz, qalam va tush bilan chizishga, so'ngra nusxa olishga mo'ljallangan qog'oz
79. Qog'oz kalka	Tiniq yupqa yelimlangan kalandrlangan qog'oz. Chizmalarni tush va elektrografiya usulari bilan ko'chirishga mo'ljallangan, qog'oz
80. Masshtab-koordinat qog'oz	Har xil chiziqli va masshtablarda, koordinat setkali, chizmachilik va rasomchilikda qo'llaniladigan, qog'oz
81. Rasm qog'izi	Tiniq yuqoriyelimlangan, silliq va g'adir-budir yuzali, qalam, tush va akvarel bo'yoqlarda rasm chizishga mo'ljallangan, qog'oz

5. ELEKTROTEXNIK QOG'ÖZ

Nomlar (terminlar)	Aniqlanishi
82. Elektrhimoya (elektroizolatsiya) qog'izi	Yelimlanmagan, sulfat sellulozadan olin-gan, issiqlikka chidamli, yuqori o'tkazuvchi (пробивное) kuchlanishli va

*jadvalning davomi*

	solishtirma elektr qarshilikli, kam miqdorda dielektrik yo'qotishli va tok o'tkazuvchi, qog'oz
83. Shimdirilgan elektrhimoya (elektrolatsiya) qog'oz	Uzilishga yuqori qarshilik ko'rsatuvchi, yuqori shimuvchi va katta elektrmustah-kamli, elektr va radiotexnikada getginkslar tayyorlashda qo'llaniladigan, qog'oz
84. O'raladigan elektrhimoya qog'oz	Yuqori mexanik va elektr pishiqlikka ega, kam shimuvchi elektr o'rash ishlab chiqarishida qo'llaniladigan qog'oz
85. Astbestli elektrhimoya qog'oz	Elektr mashina va apparatlarida qo'llaniladigan elekthimoya qog'oz
86. Poliefir tolalaridan elektrhimoya qog'oz	Elektr mashinalarida qo'llanadigan yupqa uzun, lavsan tolali elektrhimoya qog'oz
87. Oksidli elektrhimo ya qog'oz	Aktiv to'ldiruvchili, kondensatorlarda di-elektrik sisatida qo'llaniladigan, tarkibida xlorlangan suyuqliki elektrhimoya qog'oz
88. Bakalitizlangan qog'oz	Bakalit lak shmdirilgan yoki to'ldiruvchi sisatida bakalit kukuni qo'shilgan, qog'oz kondensatorlarining karkasini tayyorlash uchun qo'llaniladigan elektrhimoya qog'oz
89. Telefon qog'oz	Yuqori mexanik pishiqlikli va uzilishga qarshilikli, telefon jild kabelini himoyalashda ishlataladigan yupqa elektrhimoya qog'oz
90. Kondensator qog'oz	Dielektrik sisatida elektr kondensatorlarda qo'llaniladigan elektrhimoya qog'oz
91. Kabel qog'oz	Kuchli elektr kabellarni himoyalashda qo'llaniladigan elektrhimoya qog'oz
92. Krepirlangan qog'oz	Ikkiqavatli qog'ozni bitum bilan yopishtirilgan so'ngra krepirlangan, kuchli kabellarni va armaturalarni himoyalash uchun qo'llaniladigan kabel qog'oz
93. Yarimo'tkazgich kabel qog'oz	Kuchli kabel va armaturalarni himoyalashda qo'llaniladigan kabel qog'oz
94. Elektrolitik kondensatorlar qog'oz	Yuqori shimuvchan, kislotali va ishqor-liligi cheklangan, quruq elektrolitik kondensatorlarda qo'llaniladigan elektrohimoya qog'oz

*jadvalning davomi*

95. Umumiy ishlataladigan elektrohimoya qog'oz	Yupqa, pishiq sulfat sellulozadan olin-gan, elektrhimoya materiallar uchun qo'llaniladigan qog'oz
96. Elektrhimoya quvurlar uchun qog'oz	Elektrhimoya quvurlarni ichini himoya qatlami uchun qo'llaniladigan qog'oz.
97. Elektrotexnik po'latga yopishtirish qog'oz	Yupqa, bir tomoni silliqlangan, kislotaligi chegaralgan, elektrotexnik po'lat listlarga yopishtirishda qo'llaniladigan, qog'oz.
98. Ikki qavatlari elek-trotkazuvchi qog'oz	Har bir qatlami har xil miqdorda elektr o'tkazuvchi, elektr o'tkazuvchi qog'oz .
99. Mikalent qog'oz	Yupqa, uzun tolali, paxta sellulozasidan tayyorlangan qog'oz

6. TAXLASH VA O'ROVCHI QOG'ÖZ

Nomlar (terminlar)	Aniqlanishi
100. Zanglashga qarshi taxlov (упаковочная) qog'ozı	Suvga chidamli, tarkibida zanglashga qarshi ingibitorli modda bilan qoplamlali, atmosfera sharoitida zanglashdan saqlash uchun qo'llaniladigan, qog'oz
101. Avtomat usulida oziq-ovqat mahsulotlарини qadoqlab taxlaydigan qog'oz	Avtomat usulida qadoqlanuvchi mahsulotlarni taxlashda va ichimlik suvlari uchun stakanlar tayyorlashda ishlataladi-gan, qog'oz
102. Qand qadoqlash uchun taxlash qog'ozı	Yelimlangan har xil rangli, qand-rafinat qadoqlashda qo'llaniladigan, taxlovchi qog'oz
103. Choy qadoqlash uchun taxlash qog'ozı	Bir tomoni silliqlangan yoki kalandrlangan, ba'zan, bir tomoniga aluminiy folgasi yelimlangan choy taxlash uchun ishlataladigan, yelimlangan qog'oz
104. Ho'l meva taxlash qog'ozı	Bir tomoni silliqlangan yoki kalandrlan-gan, ba'zan, ho'l mevalarni buzilishdan saqlash uchun, maxsus modda bilan ish-lov berilgan, yupqa salyelimlangan qog'oz
105. Shisha idishlarni taxlash qog'ozı	Arzon yarimmahsulot yoki makulatura-lardan tayyorlangan yupqa salyelimlan-gan qog'oz
106. To'qimachilik mahsulotlarni taxlash qog'ozı	Mashina yoki kalandrlab silliqlangan, pishiq yelimlangan qog'oz

*jadvalning davomi*

107. Qop qog'oz	Oqartirilmagan sulfat sellulozadan tayyorlangan pishiq yuqoriyelmlangan, qoplar tayyorlashda ishlatalidigan qog'oz
108. Krepirlangan taxlov qog'oz	Prokladka va har xil mahsulotlarni taxlashda ishlatalidigan yupqa krepirlangan qog'oz
109. Parafinlangan qog'oz	Asos-qog'ozga parafin shimdirilgan, har xil mahsulotlarni taxlashda ishlatalidigan, qog'oz
110. Papiros taxlash qog'oz	Bir tomoni yoki mashina usulida siliqlangan o'takulli yelimlangan qog'oz
111. Linolium tag qog'oz	Bir tomoni yoki mashina usulida siliqlangan, yupqa yelimlanmagan, kamkulli qog'oz
112. Gugurt qutisi uchun qog'oz	Birtomoni siliqlangan, etiketkalarni bosishga, gugurt qutisiga yopishtirishga mo'ljallangan, qog'oz
113. Rezinali poyabzallarga patak qog'oz	Kamkulli yupqa, salyelimlangan qog'oz
114. Kino-fotomateriallar uchun nuro'tkazmaydigan qog'oz	Yelimlangan, kalandrlangan, grafit bilan to'ldirilgan, kimyoiy mustahkam qog'oz, kinofotorengent materiallarini taxlash uchun qo'llaniladigan qog'oz
115. Yog' o'tkazmaydigan taxlov qog'oz	Hayvon yelimi bilan ishllov berilgan, nam va yog' o'tkazmaydigan, pishiq qog'oz
116. Bitumlangan taxlov qog'oz	Pishiq, suv o'tkazmaydigan, bitum shimdirlgan qog'oz, har xil yasamalarni namdan saqlashga mo'ljallangan, pishiq, suv o'tkazmaydigan, bitum shimdirlgan, taxlashda ishlatalidigan qog'oz
117. Ikki qavatli suv o'tkazmaydigan taxlov qog'oz	Ikki qavt asos — qog'oz bitum bilan yelimlangan, har xil yasamalarni namlikdan saqlashga mo'ljallangan qog'oz
118. O'rov qog'oz	Har xil tolali yarimmahsulotlardan tayyorlangan, oziq-ovqat va tayyor yasamalarni taxlashga mo'ljallangan qog'oz
119. O'simlik pergament	Yog' o'tkazmaydigan, tiniq qog'oz yuqori pishiq va nam o'tkazmaydigan, asos-qog'ozga sulfat kislotasi bilan ishllov beryil-

*jadvalning davomi*

	gan, texnik maqsadlar va oziq-ovqatlamni taxlashga mo'ljallangan, yog' va nam o't-kazmavdigan, tiniq yuqori pishiq qog'oz
120. Pergament	Yuqori mustahkamli, yarimtiniq, to'ldiruvchisiz, kalka tayyorlash va oziq-ovqat taxlashga mo'ljallangan qog'oz
121. Pergametagi (подпергамент)	Yuqori mustahkamli, yupqa yog' o'tkazmaydigan oziq-ovqat taxlashga mo'ljallangan qog'oz
122. Polietilen qoplangan taxlov qog'oz	Sanoat va oziq-ovqatni avtomatik ravishda germetik qadoqlab taxlashda ishlataladigan qog'oz
123. Sut mahsulotlarini qadoqlash qog'oz	Asos-qog'ozning bir tomoni polietilen bilan qoplangan, ikkinchi tomoni parafinlangan, avtomatik ravishda qadoqlab taxlashda ishlataladigan qog'oz
124. Texnik taxlovchi qog'oz	Yupqa, pishiq, to'ldiruvchisiz, mashina usulida silliqlangan, transformator moyini qisman shimadigan texnik qismilarni taxlashga ishlataladigan, qog'oz
125. Antiadgeziya qog'oz	Kremniyorganik birikmalar bilan ishlov berilgan, yopishqoq mahsulotlarni taxlash uchun ishlataladigan, qog'oz
126. Issiqliksharlangan qog'oz	Choklari issiqliksharlangan, yuzasi bir qavat issiqliksharlangan, har xil tovarlarni avtomatik usulda taxlashga mo'ljallangan pishiq, bug'ni qisman o'tkazuvchan, qog'oz
127. O'tapishiqlik taxlov qog'oz	Oqartirilmagan sulfat sellulozasidan tayyorlangan; sanoat mollarini va pochta korrespenmlarini taxlashga mo'ljallangan, yelimlangan qog'oz
128. Tropik iqlimga mo'ljallangan taxlov qog'oz	Yuqori namlik joylarda mahsulot va predmetlarni namlikdan saqlashga mo'ljallangan o'rov qog'oz
129. Ikki qavatli suv va bug' o'tkazmaydigan taxlov qog'oz	Taxlangan mahsulotni atmosfera sharoitidan saqlashga mo'ljallangan, ikki qavatli asos-qog'oz, har xil moddalar bilan yelimlangan qog'oz.

*jadvalning davomi*

130. Mebel taxlov qog'ozি	Quruq va nam hollarda yuqori pishiqli-giga ega bo'lgan qog'oz.
---------------------------	--

7. YORUG'LIK SEZGIR QOG'ÖZ

Nomlar (terminlar)	Aniqlanishi
131. Yorug'lik sezgir qog'oz	Asos - qog'oz yuzasiga yorug'lik sezgir moddadan tekis surilgan, qog'oz
132. Diazotip yorug'lik sezgir qog'oz	Yorug'lik o'tkazuvchi shtrixli va matn originalidan, pozitiv yorug'nusxa oluvchi, yorug'lik sezgir qog'oz
133. Diazotip yorug'lik sezgir kalka	Yorug'nusxa olishga yarog'lik, so'ngra yorug'nusxa oladigan, tiniq yoki xira yorug'lik sezgir qog'oz
134. Fotografik qog'oz	Asos - qog'ozdan yuzasiga himoya va yorug'lik sezgir qatlam surtilgan, negativdan fotonusxa olishga mo'ljallangan, yorug'lik sezgir qog'oz

8. POPIROS VA SIGARET TAYYORLASH UCHUN QOG'ÖZ

Nomlar (terminlar)	Aniqlanishi
135. Chekish qog'ozি	Mashina usulida silliqlangan, chegarali havo o'tkazuvchan, qo'l bilan o'rab tayyorlanadigan papirosh uchun kamkulli, yupqa qog'oz
136. Munshtuk qog'ozি	Mashina yo'nalishi bo'yicha yuqori uzilish qarshilikka ega, papirosh gilzasiga munshtuk tayyorlash uchun, yelimlangan kamkulli, qog'oz
137. Papirosh qog'ozি	Yupqa, yelimlanmagan, kamkulli, chegarali havo o'tkazuvchan, papiroshni mashina usulida tayyorlashga no'ljallangan qog'oz
138. Sigaret qog'ozি	O'rtakulli yelimlanmagan yupqa, mashina usulida silliqlangan sigaret tayyorlashda ishlataidigan qog'oz

9. SHIMIYDIGAN QOG'ÖZ

Nomlar (terminlar)	Aniqlanishi
139. Shimiydigani qog'oz	Yuqori darajada har xil suyuqliklarni shimib oladigan, yelimlanmagan qog'oz
140. Xromatografiya uchun qog'oz	Yuqori darajada oqlikka ega bo'lgan, tarkibida kam miqdorda temir, mis va ko'p miqdorda alfa sellulozasi bo'lgan

*jadvalning davomi*

	selluloza, yuqori sisatli xromatografik analiz uchun, shimiydigan qog'oz
141. Namlanadigan qog'oz (помокательная)	Yozuvda siyohni quritish uchun, yuzasi bilan yuqori darajada shimiydigan qog'oz
142. Krepirlangan meditsina qog'oz	Yupqa yuzasi bilan yuqori darajada shimiydigan, ko'p qavatli bog'lovchi va taxlash uchun ishlatalidigan qog'oz
143. Sanitar-gigiena maqsadlari uchun mo'ljallangan, bakteritsid qog'oz	Shimiydigan yupqa, oqartirilgan sisatli bakteritsid modda qo'shilgan sellulozadan olinadigan, har xil kundalik talablar uchun va sanitar-gigiena materiallarini tayyorlaydigan qog'oz
144. Filtrlaydigan qog'oz	Ma'lum darajada o'tkazadigan va ajrata-digan xossasi bilan ajralib turadigan, filtrlovchi qog'oz
145. Laboratoriya filtr qog'oz	Kamkulli laboratoriya ishlari uchun kerakli filtrlovchi qog'oz
146. Tezfiltrlovchi qog'oz	Disperslarni filtrlaganda yirik zarrachali cho'kmalarни ushlab qoluvchi filtr qog'oz
147. O'rtafiltrlovchi qog'oz	Disperslarni filtrlaganda, o'ita zarrachali cho'kmalarни ushlab qoladigan filtr qog'oz
148. Sekinfiltrlaydi-gan qog'oz	Kichik donli cho'kmalarни filtrlaydigan, filtr qog'oz
149. Atsetilselluloza eritmasini filtrlaydi-gan qog'oz	Sisatli sellulozadan olingan yupqa krepirlangan filtr qog'oz
150. Moylovchi-so-vituvchi suyuqliklarni filtrlaydigan qog'oz.	Namga chidamli, uzun tolali, suyuqliklarni nozik va dag'al filtrlovchi, yupqa qog'oz
151. Havoni fil-trlovchi qog'oz	Havoni filtrlovchi elementlarni tayyorash uchun, qalin filtr qog'oz
152. Chang so'ruvchilarning almashuv qog'oz	Uy-xo'jaligida ishlatalidigan chang yut-gichlarning almashuv filtrini tayyorlaydigan pishiq qog'oz

10. HAR XIL MAQSADLAR UCHUN MO'LJALLANGAN  
SANOAT – TEXNIK QOG'oz

Nomlar (terminlar)	Aniqlanishi
153. Simob-rux elementlar uchun	Ishqorda oz bo'kadigan, temir va mis miqdorlari kam bo'lgan, elementlarga

*jadvalning davomi*

<b>qog'oz</b>	simob-rux diafragmalar tayyorlash uchun qalin ishqoriy qog'oz
154. Kimyoviy manbali tok uchun qog'oz	Temir va mis miqdori kam bo'lgan, kimyoviy manba tok separatori uchun yupqa ishqorga chidamli, uzun tolali qog'oz
155. Krepirlangan elekrotexnika qog'oz	Yupqa, me'yorda shimagidan, tarkibida bo'yovchi va optik oqartiruvchilar bo'lmagan kimyoviy manba tok separatori uchun, qog'oz
156. Kalandirlangan qog'oz	Superkalandrlar vallarini germetiklash, tarkibida har xil tabiiy tolalarli va bog'lovchi bo'lgan, qog'oz
157. Patronlashtirish uchun qog'oz	Yupqa yelimlanmagan pishiq qog'oz, mashina usulida silliqlangan, me'yorda parafinshimilgan, sanoatda qo'llaniladigan portlovochi moddalarni patronlashtirishda qo'llaniladigan, qog'oz
158. Potron qog'oz	Mashina usulida silliqlangan, pishiq, me'yorda uzilish uzunlikka ega bo'lgan, patron tayyorlash uchun qo'llaniladigan qog'oz
159. To'qimachilik patron va konus qog'oz	Qalin, pishiq, yelimlangan qog'oz, ba'zan yorug' ranga bo'yalgan, shimagidan chegaralangan, bir tomoni silliqlangan, to'qimachilik sanoatiga patron va konus tayyorlash uchun ishlatiladigan qog'oz
160. Shpagat qog'oz	Mashina yo'nalishida cho'zilishga qarshi yuqori pishiqlikka ega bo'lgan, shpagat tayyorlash uchun qog'oz
161. Gofrlangan qog'oz	O'rta qattiqlikka ega bo'lgan, gofrlangan karton tayyorlash uchun ishlatiladigan qog'oz
162. Organik oy-nalarni yelimlaydigan qog'oz	Oqartirilmagan sulfat sellulozadan olin-gan, yupqa pishiq qog'oz
163. Verdol qog'oz	To'ldiruvchisiz yelimlangan, mashina usulida silliqlangan, rasm bosilgan matolalar uchun, qog'oz
164. Rasmlarni ma-	Yupqa, bir tomoni bo'yalgan, rasmlar ot-

*jadvalning davomi*

toga qog'oz	ko'chiruvchi qog'oz	tiski matoni yuvganda oson yuvilib ketadigan, qog'oz
165.	Fotoalbom uchun qog'oz	Qalin, sal yelimlangan, o'ttakulli rangli qog'oz
166.	Belgi qog'oz	Pishiq, namga pishiq, kimyo usulida ki- yimlarni tozalashda belgi qo'yishda qo'llaniladigan qog'oz
167.	Suvdaeriydigan qog'oz	Qisman almashgan metilsellulozadan tayyorlangan sanitari-gigiena maqsadlar uchun qog'oz
168.	Diagramma qog'oz'i	Yelimlangan, kalandrlangan qog'oz, EVM qurilmalari va boshqa priborlarda ishlatiladigan, diagramma qog'oz
169.	Perforlangan qog'oz	yelimlangan kamkulli, perfokarta tayyor- lash uchun qog'oz
170.	Termoreaktiv qog'oz	Termoaktiv va himoya qatlamlı qog'oz, tiniq asos-qog'oz yuzasiga surtilgan, termo- nusxa ko'chiruvchi priborlarda pozitiv nusxa olish uchun ishlatiladigan qog'oz
171.	Issiqlik sezgir qog'oz	Issiqlikka sezgir modda surtilgan, is- siqlikka asoslangan registirlovchi pribor- larda qo'llaniladigan, qog'oz

11. ASOS - QOG'ÖZ

Nomlar (terminlar)	Aniqlanishi
172. Asos - qog'oz	Har xil xossa va kompozitsiyali, qog'ozga tegishli ishlov berib, undan har xil yasamalar va fibralar bir qancha qog'ozlar uchun asos sifatida qo'llaniladigan qog'oz
173. Bo'rlangan qo- g'ozga asos	Yelimlangan o'ttakulli, mashina usulida silliqlangan oq qog'oz
174. Termoreaktiv qog'oz asosi	Mexanik pishiq yupqa tiniq qog'oz
175. Issiqlik sezgir qog'oz asosi	Yupqa yelimlangan yuqori darajada silliq qog'oz
176. Rotor pardasi asosi	Yupqa uzun tolali qog'oz
177. Glyans qog'oz asosi	Yelimlangan o'ttakulli qog'oz

*jadvalning davomi*

178. Nusxa ko'-chirish qog'oz asosi	Yupqa, mashina usulida silliqlangan, o'ta pishiq qog'oz
179. Elektr o'tka-ziuvchi asosi	Grafit yoki saja to'ldiruvchili, tekis elektr qarshilikli, elektrtermik qog'oz tayyorlashga mo'ljallangan qog'oz
180. Zanglashga qarshi ingibitorli qog'oz asosi	Oqartirilmagan sulfat sellulozadan tayyorlangan, bir tomoni me'yorda namlanuvchi, tarkibida chegaralangan sulfova xlорid ionli qog'oz
181. Parafinlangan qog'oz asosi	Yupqa yelimlangan, me'yorli mexanik pishiqlikli qog'oz
182. Ikki qavatli suv o'tkazmaydigan qog'oz	Yelimlangan, to'ldiruvchisiz, bir tomoni yoki mashina usulida silliqlangan, suv o'tkazmaydigan taxlov qog'oz
183. Pergament asosi	Yelimlangan to'ldiruvchisiz, o'ta suv yutuvchi qog'oz
184. Diazotin qog'oz asosi	Yorug'likka sezgir qog'oz tayyorlash uchun qo'llaniladigan kamkulli yelimlangan qog'oz
185. Fotoqog'oz asosi	Namga chidamli, yuqori darajada oq, kam shimuvchi, tarkibida metall qo'shimchalari chegaralangan, qog'oz
186. Diazotip kalka asosi	Yuqori yelimlangan, silliqligi va namni shimishi me'yorlangan qog'oz
187. Fotokalka asosi	Yelimlangan tiniq, yuqori darajada maydalangan sellulozadan olingan, o'ta pishiq qog'oz
188. Abroziv qog'oz asosi	Yuqori darajada yelimlangan, pishiq, ba'zan namga pishiq va armirlangan qog'oz
189. Muqova materiallari uchun asos	Pishiq, me'yorlangan shimishli, qog'oz
190. Yuza qoplama materiallar asosi	Shimuvchi, ba'zan yorug'likka chidamli bo'yoqlar bilan bo'yalgan, qatlam-qog'oz ishlab chiqarish va plita, saneralarni goplash uchun qo'llaniladigan qog'oz
191. Sut mahsulotlarni qadoqlab taxlash qog'oz asosi.	Yuqori yelimlangan, o'ta pishiq, mashina usulida silliqlangan, bir marta ishlatiladigan idish (tara) qog'oz

jadvalning davomi

192. Linkrust uchun asos	Qalin pishiq yelimlangan to'ldiruvchisiz, mashina usulida silliqlangan qog'oz
193. Fibralvr uchun asos	Shimuvchi pergamentlovchi reagentlarga me'yorida ta'sir etuvchi qog'oz
194. Pigmentlovchi qoplamlalar uchun asos	Yelimlangan me'yorli pishiq kleyonkalarga moslangan qog'oz
195. Stol usti qog'oz uchun asos	Qalin yelimlangan to'ldiruvchisiz, mashina usulida silliqlangan qog'oz
196. Bakalit pardalar uchun asos	Yupqa pishiq shimuvchi qog'oz
197. Qog'ozli ofset uchun asos	Zichli yuqori yelimlangan namga chidamli, oz cho'ziluvchan, bosma shakllar tayyorlash uchun qog'oz
198. Bitumlangan qog'oz asosi	Qalin yelimlanmagan makulaturadan, kerasin va ksilol shimishiga me'yorlangan, qog'oz
199. Issiqlik bilan kavsharlangan qog'oz asosi	Yupqa pishiq me'yorlangan havo o'tkazuvchan qog'oz
200. Gigiena salfet-kalari uchun asos	Shimadigan, namga chidamli krepirlangan qog'oz, bir marta ishlatiladigan gigiena salfetka tayyorlashga mo'ljallangan qog'oz
201. Bug' par o'tkazmaydigan qog'oz asosi	Pishiq yuqori yelimlangan, namga chidamli qog'oz
202. Elektrkimyo qog'oz asosi	Suv yutishi me'yorlangan, temir va kalsiy tuzlarining miqdori chegaralangan qog'oz
203. Yelimlangan tasmalar (lenta) uchun asos	Me'yorlangan pishqlikdagi yelimlangan qog'oz
204. Bir qavatli filtr material uchun asos	Yupqa shimishi me'yorlangan, sigaret fil-triga mo'ljallangan qog'oz
205. Yelimlangan karton uchun qog'oz	Yelimlangan o'rtakulli, kalandrlangan qog'oz

#### 14.2. Qog'ozlarni kul miqdoriga qarab turlarga bo'linishi

1. Kam kulli qog'oz — qog'ozdagi kul miqdori 6 %gacha.

2. O'rta kulli qog'oz — qog'ozdagi kul miqdori 6 dan 18 %gacha.

3. Ko'proq kulli qog'oz — qog'ozdagi kul miqdori 18 dan 23 %gacha.

4. Yuqori kulli qog'oz — qog'ozdagi kul miqdori 23 %dan yuqori.

#### 14.3. A, B, D qatordagi iste'mol qog'ozlarning formatlari

*76-jadval*

A qator		B qator		D qator	
belgi	o'lchami	belgi	o'lchami	belgi	o'lchami
A0	841x1189	B0	1000x1414	C0	917x1297
A1	594x841	B1	707x1000	C1	648x917
A2	420x594	B2	500x707	C2	458x648
A3	297x420	B3	353x500	C3	324x458
A4	210x297	B4	250x353	C4	229x324
A5	148x210	B5	176x250	C5	162x229
A6	105x148	B6	125x176	C6	114x162
A7	74x105	B7	88x125	C7	81x114
A8	52x74	B8	62x88	C8	57x81
A9	37x52	B9	44x62		
A10	26x37	B10	31x44		
A11	18x26	B11	22x31		
A12	13x18	B12	15x22		
A13	9x13				

#### 14.4. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan asosiy tur qog'ozlarning standarti

*77-jadval*

t/r	Nomlari	GOST, TU, TSH,
1	Poligrafiya bosma qog'oz	GOST 1342
2	Keng iste'mol formatli yozuv qog'izi	GOST 6656

*jadvalning davomi*

3	Forzas qog'ozzi	GOST 6742
4	Бумага для глубокой печати	GOST 9168
5	Daftar qog'ozzi	GOST 12050
6	Yozuv qog'ozzi	GOST 18510
7	Bo'rlangan qog'ozz	GOST 21444

**14.5. O'zbekistonda ishlab chiqrilayotgan asosiy tur qog'ozlarning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash metodikasi Standartlari**

78-jadval

t/r	Ko'rsatkichlar	Standart
1	1 m <sup>2</sup> qog'ozning massasi *	GOST 13199; DIN ISO 536
2	Zichligi	GOST 13199
3	Uzilish uzunligi	GOST 13525.2; DIN 53112
4	Ikki tomonga bukilishga qarshiligi	GOST 13525.2; DIN 53112
5	Yelimlanish darajasi	GOST 8049
6	Kuli	GOST 7629
7	Iflosligi	GOST 13525.4
8	Qog'oz yuzasini yulinishga turg'unligi	GOST 24366
9	Oqligi	GOST 7690; DIN 53147
10	Xiraligi	GOST 7690; DIN 53147
11	Silliqligi	GOST 12795; DIN 53108
12	G'ovakligi	GOST 13525.14; DIN 53120
13	Suv yutishi	GOST 12605; ISO 535

*jadvalning davomi*

14	Havo bosimiga qarshilik	DIN 53113; DIN 53141
15	Namligi	GOST 13525.19; ISO 287
16	Qalinligi	GOST 13199; DIN 53105
17	Mustahkamligi	GOST 13525.1; DIN 53112
18	Yirtilishga qarshilik	GOST 13525.3; DIN 53115
19	Muhiti, pH	GOST 12523
20	Suvni kapillyar yutilishi	GOST 12602
21	Suv yutishi	GOST 12605
22	Temir va misni umumiy miqdori (metall va tuzlari holida)	GOST 18462 ba 13525.10
23	Anionlar miqdori:  xlorid ionlar  sulfat ionlar	GOST 20422

\* Sinov sharoiti: havo temperaturasi  $20 \pm 1^{\circ}\text{C}$ , nisbiy namligi –  $65 + 2\%$

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Атлас древесины и волокон для бумаги / Е. С. Чавчавадзе, З. Е. Брянцева, Е. В. Гончарёва и др. — М.: Ключ. 1992.
2. Бывшев А. В., Савицкий Е. Е. Механическое диспергирование целлюлозных материалов. — Красноярского ун-та, 1991. 210с.
3. Кларк Дж. Технология целлюлозы. — М.: Лесная пром-сть, 1970.
4. Иванов С.Н. Технология бумаги. — М.: Лесная пром-сть, 1970. 695 с.
5. Богамол Г. М., Лучинкина А. Ф. Влияние удельной поверхности волокон на их бумагообразующие свойства // Бумажная пром-сть. — 1975. — № 1. 10–11 с.
6. Hietanen S., Ebeling K. Fundamental aspects of beating process // Paperi ja Puu. — 1990 / — 72 — № 2 — p. 156–169.
7. Савицкий Е. Е. Изыскание оптимальных направлений развития подготовительных отделов бумажного производства: Отчет по теме 27–76, разд. XXII. — Л.: ВНИИБ, 1976. — 229 с.
8. Проспект фирмы «Sunds», Швеция, 1993.
9. Летоцкий С.С., Лаптев Л.Н. Размол бумаги. — М.: Лесная пром-сть, 1981, — 93 с.
10. Флятов Д.М. Свойства бумаги. Изд. 4-е. — СПб.: НПО «Мир и семья», ООО «Интерлайн», 1999. — 384 с.
11. Смолин А.С., Аксельрод Г.З. Технология формования бумаги и картона. — М.: Лесная пром-сть, 1984 — 20 с.
12. Филяте Д.М. Технология бумаги. — М.: Лесная пром-сть, 1986 — 440 с.
13. Кугушев И.Д., Слуцкий А. Е. Расчет обезвоживания в мокрой части бумагоделательных машин. — Л.: ЛГУ, 1982. — 102 с.
14. Сеточные части бумаго- и картоноделательных машин / И . Д. Кугушев, О. А. Терентьев, Н. Н. Кокушин,

Ю. Н. Швецов. — СПб.: СПбТРП. 2000. — 98 с.

15. Комаров В.И. Деформация и разрушение волокнистых целлюлозно-бумажных материалов. — Архангельск: Изд-во АГТУ, 2002. — 440 с.
16. Крылатов Ю.А. Коверинский И.Н. Проклейка бумаги. — М.: Лесная пром-сть, 1987 — 228 с.
17. Кадыров Б.Г., Ташиулатов Ю.Т., Примкулов М.Т. Технология хлопкового линта, целлюлозы и бумаги., «Фан», Т. — 2005. - 290 с.
18. Аким Э.Л. Обработка бумаги. — М.: Лесная пром-ость, 1979. — 232 с.
19. Пузырев С.А. и др. Техническая обработка и переработки бумаги и картона. — М.: Лесная пром-ость, 1985. — 312 с.
20. Бондарев А.И. Производство бумаги и картона с покрытием. М.: Лесная пром-ость, 1985. — 192 с.
21. Grant R. Getting set for a quantum leap in soft calendar-  
ing technology // Palp & Paper internationale. — 1995. — V. 38. — № 11. — P. 25 — 27.
22. Аким Л.Э. Синтетические полимеры в бумажной про-  
мышленности. — М. : Лесная пром-ость, 1986. — 248 с.
23. Энциклопедия полимеров / ред. Коллегия: В.А. Каргин  
и др. — т. 1-3. — М. : энциклопедия, 1972. — т. 1 — 3.
24. Pigment Coating and Surface Sizing of Papier / ed. By Esa  
Letinen. — V. 11 // Papermaking Science and Technology Series.  
Finish Paper Engineers Association and TAPPI, 2000. — p 810.
25. Еркова Л.Н. Чечик О.С. Латексы. — Л.: Химия, 1983.  
— 224 с.
26. Корсунский Л.Ф. и др. Неорганические пигменты. —  
Л.: Химия. 1989. — 334 с.
27. Беленький Е.Ф. Рискин И.В. Химия и технология  
пигментов. — Л.: Химия. 1974. — 657 с.
28. Gill R.A., Hagemeyer R.W. Fillers for paper // Pulp and  
paper Manufacture. — 1992. — V.6. — p. 19 — 38.

29. Zhenlei. CaO Chine: World leader in talk and calcium carbonate // TAPPI journal. – 1997. – V. 7. – p. 77–80.
30. Лауфман М. Производство бумаги без содержания древесной массы в щелочной среде с применением измельченного природного карбоната кальция // Целлюлоза. Бумага. Картон. – 1999. – ноябрь-декабрь. – 22 с.
31. Caleium Carbonate: From the cretaceous period into the 21 centry / F. Wolfgang Tegethoff. – Dasel; Boston; Berlin: Birkhastr, 2001. – v. 1,2.
32. Трухтенкова Н.Е. Бумага для производства декоративных облицовочных материалов. – М.: Лесная пром-ость, 1990. – 256 с.
33. Примаков С.Ф. И др. Технология бумаги и картона: учеб. Пособие, 1996, – 304 с.
34. Рябченко С.В. Расчёт материальных балансов производства бумаги и картона на ЭВМ ЕС. 1020: методич. Указания. – Л.: ЛТИ ЦБП. 1988. – 20 с.
35. Никитин Я.В., Поляков С. И. Использование воды на целлюлозно – бумажных производствах. – М.: Лесная пром-сть, 1985. – 208 с.
36. Технология целлюлозно-бумажного производства том 2 (Часть 1). – СПб.: Политехника. 2005. – 423 с.
37. Заморуев В.М. Использование воды в целлюлозно-бумажном производстве. – М.: Лесная пром-сть, 1969. – 216 с.
38. Завод с минимальным сбросом стоков // Сб. докл. Семинара TAPPI. – Нью-Йорк, 1996 г.
39. Аналитический контроль производства искусственных волокон: Справочное пособие/ Под ред. А. К. Диброва и В. С. Матвеев – М.: Химия, 1986.
40. Primkulov M.T., Yo'doshev K.I., Xoltoyeva X.SH. Paxta sellulozasi solishtirma qovushqoqligining polimerlanish darajasiga bog'liqligi jadvali. O'zbekiston kimyo jurnali. 2002/4., 42–44 bet.
41. ГОСТ 4363.
42. Примкулов М. Т., Юлдашев К. И., Макарова И. В.

Узбекский химический журнал, 2003/3, 35 – 37 с.

43. Кадыров Б.Г., Ташиулатов Ю. Т., Примкулов М. Т. Технология хлопкового линта, целлюлозы и бумаги. – Т.: «Фан» 2005. – 252 – 266 с.
44. Сидоренкова В. В., Казакова К. М. Контроль качества сырья, полуфабрикатов и готовой продукции целлюлозно – бумажной промышленности. Учебник для профтехучилиш – 2 –е издание. М. Лесная промышленность. Химия. 1986, 336 с.
45. Унифицированные методы анализа вод., Под ред. Ю. Ю. Лурье – М.: Химия, 1971.
46. Лурье Ю. Ю. Аналитическая химия промышленных сточных вод. – М. Химия. 1984.
47. Гурева Т. А. Технический контроль производства пластмасс и изделий из них. – М.: Высшая школа. 1991. 225 с.
- Wasserstoffperoxid.** Merkblatt M, 009. 7/84 22s.

## MUNDARIJA

<b>SO'Z BOSHI.....</b>	3
<b>Kirish.....</b>	8
<b>I bob. QOG'OZ VA KARTON ISHLAB CHIQA-RISHDA YARIMMAHSULOTLAR</b>	
1.1. Texnik sellulozaning asosiy xossalari.....	13
1.2. Tolali yarimmahsulotlarning qog'oz hosil qiluvchi asosiy xossalari.....	18
1.3. Tolali materiallarni kitalashtirish.....	21
<b>II bob. MAYDALASH TIZIMLARI VA ASBOB-USKUNALAR</b>	
2.1. Yarimmahsulotlarni tifuvchi qurilmalar.....	28
2.2. Diskali tegirmونlar.....	31
2.3. Diskali tegirmонlar uchun maydalovchi garnituralar.....	34
2.4. Konus shaklidagi tegirmonlar.....	36
2.5. Yuqori konsentratsiyalarni maydalovchi asboblar.....	38
2.6. Maydalovchi pichoqsiz tegirmонlar.....	39
2.7. Inersion tebratuvchi tegirmонlar.....	42
<b>III bob. QOG'OZ VA KARTONLARNI MASSADA YELIMLASH.</b>	
3.1. Massada yelimlash haqida hozirgi zamon dunyo-qarashlar.....	43
3.2. Yelimlash sifatiga ta'si etuvchi asosiy faktorlar.....	47
3.3. Yelimni, modifikatsyalangan kanifoi mahsuloti asosida konsentrash.....	50
3.4. Yordamchi materiallar.....	51
3.5. Koagulyant ishlatalishi optimallash va qog'ozni yelimlash sifati.....	54
3.6. Yelimi sifatini texnologik kuzatish metodlari.....	55
3.7. Tayyor mahsulotni yemlanish darajasini aniqlash....	62
3.8. Qog'ozlarni neytral vishiqoriy sharoitlarda yelim-lash.....	67
3.9. Qog'ozni neytral mulfida yelimlaganda unga ta'sir etuvchi faktorlar.....	72
<b>IV bob. QOG'OZ MASSA ARINI TO'LDIRISH</b>	
4.1. To'ldiruvchilar turi va larning xarakteristikalari.....	75
4.2. Qog'ozda to'ldiruvchining ushlanib qolishi.....	80
4.2.1. Qog'ozda to'ldiruvchining ushlanish darajasi.....	80
4.2.2. To'ldiruvchilarni fiksitsiyalash sistemasi.....	82

4.3. Texnologik jarayonlarning to'ldiruvchilarni ushlab qolishga ta'siri.....	84
4.4. To'ldiruvchilarning texnologik jarayonga va qog'oz xossasiga ta'siri.....	85
<i>V bob. QOG'oz MASSASINI QUYUSHDA MAS-SANI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI</i>	
5.1 Texnologik sxema.....	88
5.2. Massalarni mashina hovuzlarida saqlash (akkumuli-rovanie) .....	90
5.3. Qog'oz massasini suyultirish.....	91
5.4. Massani tozalash.....	93
5.5. Massani navlarga ajratish (saralash) .....	95
5.6. Qog'oz massasini deaeratsiyalash.....	97
<i>VI bob. QOG'oz VA KARTON POLOTNOLARINI SHAKLLASH</i>	
6.1. Napusk qurilmasi.....	100
6.2. Qog'oz va karton qiluvchi mashinalarning setkali qismida suvsizlantirish.....	113
6.3. Shakllantirish qurilmalari. ....	126
6.4. Qog'oz polotnoni presslash.....	133
6.4.1. Qog'oz va karton qilish mashinalari presslash qismlarining vazifasi va ularga qo'yilgan talablar.....	133
6.4.2. Qog'oz va karton qiluvchi mashinalar presslarining klassifikatsiyasi.....	134
6.4.3. Qog'oz polotnoni presslashda zamonaviy qarashlar	135
6.4.4. Presslashni effektivligini aniqlovchi faktorlar.....	138
<i>VII bob. PRESS TURLARI</i>	
7.1. Valli presslar.....	140
7.2. Qog'oz polotnoni setka qismidan press qismiga uzatish.....	144
7.3. Presslash vallarining qoplamlalari.....	147
7.4. Presslovchi sukno.....	148
7.5. Presslovchi suknoni konditsionirlash.....	150
7.6. Zamonaviy qog'oz va karton qiluvchi mashinalarning presslovchi qismlari.....	153
<i>VIII bob. QOG'ozLARNI QURITISH</i>	
8.1. Umumiy ma'lumotlar.....	155
8.2. Ko'p silindrli quritish qurilmalarida qog'ozni qurutgandagi issiqqliq - massaalmashuv va kinetika.....	159
8.2.1. Quritish kinetikasi.....	159
8.3. Ko'psilindrli quritish qurilmalar.....	160

8.3.1. Quritish qurilmasining ta'risi.....	160
8.3.2. Qurituvchi silindr.....	162
8.3.3. Quritish setka va sukno.....	164
8.3.4. Qog'oz polotnoni uzdirmasdan o'tkazish.....	166
8.4. Quritish qurilmalarining parkondensat sistemasi.....	167
8.5. Mashina quritish qismi ventilatsiyasi.....	168
8.6. Qog'oz va karton qiluvchi mashinalarda materialni pardozlash.....	171
<i>IX bob. PAXTA SELLYULOZA TEXNOLOGIYASI</i>	
9.1. Paxta sellulozasidan qog'oz ishlab chiqarish.....	184
<i>X bob. QOG'oz VA KARTONLARGA ISHLov BERISH TEXNOLOGIYASI</i>	
10.1. Qog'oz va kartonlarni mexanik qayta ishlash texnologiyasi.....	191
10.2. Superkalanderda ishllov berish.....	191
10.3. Yumshoq Kalandirlarda ishllov berish.....	192
10.4. Qog'oz va kartonlarni loqlash.....	193
10.5. Qog'ozlarni yuzasida har xil figuralar hosil qilish uchun siqish.....	195
10.5.1. Qog'oz va kartonlarni fizik-kimyoviy qayta ishlash texnologiyasi.....	195
10.5.2. Qog'oz va kartonlarga ishllov berish uchun qo'llaniladigan polimerlar.....	196
10.5.3. Qog'oz va karton yuzasini yelimlovchi polimerlar dispersiyasi.....	203
10.6. Qog'oz va kartonga ishllov berishda qo'llaniladigan qurilmalar va usullar.....	214
10.7. Yelimlovchi press.....	215
10.8. Parda shaklidagi yelimni yelimlovchi press.....	217
10.9. Valiklar yordamida qoplamani surtish.....	217
10.10. Shaberlar yordamida qoplamani surtish.....	218
10.11. Qoplamani purkash va «CURTAIN-COATING» metodlari bilan surtish.....	220
10.12. Qog'ozni ekstruzion usulida qoplash.....	220
10.13. Qoplama eritmani filera yordamida berish.....	222
10.14. Oldindan olingan parda bilan qoplash (Laminlash) .....	223
10.15. Qog'oz va kartonlarga shimdiruvchi qurilmalar.....	225

<b>XI bob. PAXTA SELLYULOZASI VA UNDAN QOG'oz ISHLAB CHIQARISHDA ISHLATI-LADIGAN SUVLARNI TAYYORLASH</b>	
11.1. Tabiiy suvlar haqida qisqacha ma'lumotlar.....	227
11.2. Tabiiy suvlarni tozalash metodlarining klassifikatsiyasi.....	229
11.3. Paxta sellulozasi va qog'ozni olishda ishlatalig'an suvlarni tayyorlash.....	234
11.3.1. Artezian qudug'idan olingan suvni tayyorlash (Farg'ona furan birikmalari kimyosi zavodi misolida).....	234
11.3.2. Daryo suvlarni tozalash.....	236
11.4. Paxta sellulozasi va undan qog'oz olishda hosil bo'lgan oqava suvlarni tozalash.....	238
11.4.1. Sellyuloza ishlab chiqarishda.....	238
11.5. Oqava suvlarni biologik usulda tozalash.....	239
11.5.1. Qog'oz ishlab chiqarishda.....	240
11.6. Qog'oz qilish mashinasida suv va tolalarning balansi.....	244
11.6.1. Suv va tolalar balansini tuzishning asosiy prinsiplari .....	244
11.7. Balansni hisoblashning asosiy metodikasi.....	246
11.8. Qog'oz qilish mashinasida suvdan foydalanish.....	250
<b>XII bob. PAXTA MOMIG'IDAN SELLYULOZA VA QOG'oz ISHLAB CHIQARISHDA KIMYOVIY NAZORAT</b>	
12.1. Standartlash va mahsulot sifati.....	260
12.1.2. Mahsulot sifati.....	260
12.1.3. Mahsulotlarni sertifikatsiyalash.....	262
12.2. Asosiy xomashyo.....	268
12.2.1. Paxta momig'i .....	268
12.2.2. Namuna olish.....	268
12.2.3. Iflos qo'shimchalar va butun chigitlar massa miqdorini aniqlash.....	269
12.2.4. Titan dioksidi.....	270
12.2.5. Kaolin.....	271
12.2.6. Talk.....	271
12.2.7. Vodorod peroksi.....	272
12.2.8. Vodorod peroksid xomashyoning konsentratsiyasini aniqlash .....	273
12.2.9. Natriy gipoklorid.....	274
12.2.10. Kanifol .....	278

12.2.11. Yelimlovchi moddalar.....	279
<b>XIII 606. PAXTA SELLYUDLZASINI OLISHDAGI KIMYOVİY NAZORAT.</b>	
13.1. Paxta sellulozasini namlagich eritmasining sirt tortish kuchini aniqlash.....	283
13.2. Smola va yog'larni aniqlash.....	285
13.3. Sellyulozaning mis-ammiakli eritmasidagi qovushoqligini aniqlash.....	286
13.4. Qog'oz massasi.....	295
13.4.1. Massadagi selluloza konsentratsiyasini aniqlash....	295
13.4.2. Massaning muhitini aniqlash.....	295
13.4.3. Massadagi sellulozaning maydalananish darajasini aniqlash.....	296
13.4.4. Tolalarning uzunligini Slik birligida aniqlash.....	299
13.4.5. Massa tarkibidagi to'ldiruvchi miqdorini aniqlash.	302
13.4.6. Titan dioksid massa ulushini fotokolorimetrik metod bilan aniqlash.....	304
13.4.7. Yelimlovchi emulsiya tarkibidagi kanifol konsentratsiyasini aniqlash.....	305
13.5. Qog'oz sifatini aniqlash.....	309
13.5.1. Sharoiti.....	309
13.5.2. Qog'ozlarning asosiy xossalari.....	310
13.6. Ximikatlar sifatini analitik nazorat qilish.....	333
13.6.1. Polivinil spirt.....	333
13.6.2. Melamin formoldegid smolasining eruvchanligini aniqlash.....	336
13.6.3. Kanifol yelimi.....	336
13.6.4. Aluminiy sulfati.....	339
13.6.5. Karbamid formaldegid smolasi.....	342
13.6.6. Vodorod peroksiidi.....	343
13.6.7. Natriy ishqori.....	345
13.6.8. Poliakril amid – gel (iviq) .....	349
13.6.9. Natriy xlorid.....	349
13.6.10. Kanifol.....	360
13.6.11 Kraxmal.....	362
13.7. Texnologik suvlarni nazorat qilish.....	363
<b>XIV 606. QOG'ÖZ TURLARI VA NOMLARI</b>	
14.1. Qog'oz va karton ishlab chiqarishda qo'llanildigan nomlar (terminlar) va ularga kiritilgan aniqliklar.	376
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	395

G'assor Rahmonberdiyevich RAHMONBERDIYEV,  
Mahmud Temirovich PRIMQULOV,

Yunus Tashpo'latovich TOSHPO'LATOV

## QOG'ÖZ TEXNOLOGIYASINING ASOSLARI


Toshkent – «Aloqachi» – 2009

Muharrir: M.Hayitova  
Tex.muharrir: A.Moydinov  
Musahhih: G.Karimova  
Sahifalovchi: Sh.Mirqosimova

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.09. Bichimi  $60 \times 84 \frac{1}{16}$ .

«TimesUz» garniturasi. Ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog'i 25,25. Nashr bosma tabog'i 25,0.  
Tiraji 500. Buyurtma №144.

«Aloqachi matbaa Markazi bosmaxonasi»da chop etildi.  
700000, Toshkent sh., A.Temur ko'chasi, 108-uy.



Bosishga

«Times»

Shartli bosma ta

Tiraj.

«Aloqachi matbaa Markazi bosi  
700000, Toshkent sh., A.Temu

246745

4